

**N.B.ADIZOVA, R.X.JUMAYEV,
R.A.QO‘LDOSHEV, S.R.ISMATOV**

ONA TILI O‘QITISH METODIKASI

BUXORO 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**N.B.ADIZOVA, R.X.JUMAYEV,
R.A.QO‘LDOSHEV, S.R.ISMATOV**

ONA TILI O‘QITISH METODIKASI

**Oliy o‘quv yurtlarining 5111700-boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma**

BUXORO- 2020

Ushbu o‘quv qo‘llanma 5111700–boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda ona tili o‘qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari, printsiplari, ta‘lim metodlarining tasnifi, ona tili va o‘qish fanlarini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

Mas‘ul muharrir:

A. R. Hamroyev - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Taqrizchilar:

B. R. Adizov - pedagogika fanlari doktori, professor

M.M. Axmetjanov - pedagogika fanlari nomzodi, professor

**O‘quv qo‘llanma Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 20__
yil _____ yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan**

Kirish

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari jumladan, oliy ta'limda ham zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularda yangi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni, o'z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini hozirgi kun talablari asosida tayyorlashda "Ona tili o'qitish metodikasi" fani ham ustuvor vazifalarni bajarishda salmoqli o'rinni egallaydi. Zamonaviy ta'limda ta'lim muassasalaridagi o'qitish sifatini ta'minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zaminida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalash, sohadagi zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim mazmuni va o'qitish sifatini takomillashtirish muhimligi sababli u davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Bo'lajak pedagog mutaxassislarni zamon talablari asosida aqliy, axloqiy, intellektual, estetik va jismoniy jihatdan komil inson sifatida tarbiyalash "Ona tili o'qitish metodikasi" fanining ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur fan orqali bo'lajak mutaxassis o'qituvchilar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, yosh avlodga yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga doir ilmiy-nazariy, amaliy-metodik bilimlar, zarur ko'nikma va malakalar hajmini, o'qituvchi shaxsida namoyon bo'lishi lozim bo'lgan umumkasbiy va shaxsiy fazilatlarni muvaffaqiyatli egallashlari kerak.

O'quv qo'llanmada ona tili o'qitish metodikasining umumiy asoslari, darslarda integratsion yondashuv, mashg'ulotlar jarayonida xorijiy ta'lim tizimida foydalanish, shuningdek boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida axbarot texnologiyalari hamda ta'lim jarayonida innovatsiyalar va interfaol usullardan foydalanishning yo'l va usullari ko'rsatib berilgan.

1-MODUL. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI

1-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

Tayanch so'zlar: *dunyoni bilish, psixolingvistika, pedagogika tarixi, til, nutq, tafakkur, didaktika, lingvistika, leksikologiya, pedagogik psixologiya, umumiy pedagogika, fonetika, morfologiya, orfoepiya, adabiyotshunoslik, til materiyasi, nutq organlari, til ma'nolari, tilga sezgirlik, nutqning ifodaliligi, og'zaki va yozma nutq, pedagogik fan, savod o'rgatish metodikasi, o'qish metodikasi, grammatik va imlo metodikasi, o'quvchilar nutqini o'stirish metodikasi.*

1.1. Ona tili o'qitish metodikasining predmeti va vazifalari

Metodika – muayyan voqea, hodisa va faoliyatga tegishli, qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgaridan o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish. Metodika biror vazifani maqsadga muvofiq ravishda bajarish, o'tkazish usullari, yo'llari majmuasidir.

“Metodika” tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liqlikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O'quv fanlarini o'qitish metodikasi ma'lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog'liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”¹. G.M.Kodjaspirova, A.Y.Kodjaspirovlarning fikricha, “O'qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir”².

O'qitish metodikasiga qo'yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:

1) aniqlik;

¹ Столяренко А.М. С81 Психология и педагогика: Учеб.пособие для вузов. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. - 423 с. ISBN 5-238-00259-9

² Коджаспирова Г. М., Коджаспиров А. Ю. Педагогический словарь. — Academia, 2005.

- 2) asoslanganlik;
- 3) rejalashtirilgan harakatning maqsad va vazifalarga mosligi;
- 4) qayta ishlab chiqishga yo‘nalganlik;
- 5) hayot bilan uyg‘unlik;
- 6) natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o‘qitish metodikasi o‘zida quyidagilarni aks ettiradi:

- ta’limning maqsad va vazifalarini – ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy;
- ta’limning qonuniyat va tamoyillarini;
- ta’lim mazmunini;
- ta’limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;
- ta’limning umumiy va xususiy metodlarini;
- o‘quv vositalari;
- o‘qitish natijasini.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, quyida o‘qitish metodikasi mohiyatini yoritib beruvchi asosiy tushunchalarga izoh berib o‘tamiz:

- 1) o‘rgatish – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;
- 2) o‘rganish – anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi;
- 3) o‘qitish – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o‘zaro harakati;
- 4) ta’lim – o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;
- 5) bilim – ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘oyalari yig‘indisi;
- 6) ko‘nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallash;

7) malaka – avtomatlashgan, biror bir **usul** bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi;

8) maqsad – o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi;

9) mazmun – o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;

10) tashkil etish - qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon;

11) shakl - o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq;

12) metod - o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li;

13) vosita - o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan ob'ekt;

14) natija - o'quv jarayonining so'ngi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

15) metodik (uslubiy) ko'rsatma – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari, loyihalar, laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko'rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishga mo'ljallangan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo'llanma.

Ona tili o'qitish metodikasi-pedagogik fan, amaliy fan. Chunki u nazariyaga asoslanib o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, o'stirishning amaliy vazifalarini bajaradi. Ona tili o'qitish metodikasining predmeti ta'lim berish sharoitida ona tilini egallash, ya'ni putkni, o'kish va yozishni, fonetika, grammatika kabilarni bilib olish jarayoni hisoblanadi .

Ona tilidan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, til haqidagi fanning ilmiy tushunchalar sistlmasini o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rganadi, til o'rganishning eng qulay metod va usullarini izlaydi .

Ona tili o'qitish metodikasi amaliy fan sifatida uch vazifani bajaradi:

1. **Nimani o'qitish kerak?** savoliga javob beradi, ya'ni boshlang'ich sinf uchun dasturlar ishlab chiqadi darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratib beradi. Ularning samaradorligi va muvofiqligini doimiy tekshirib boradi.

2. **Qanday o'qitish kerak?** savoliga ta'lim berishning metodlari, metodik usullar, mashqlar sistemasi, qo'llanmani tatbiq etish tavsiyanomalarini, yozma ish, amaliy ishlar sistemasini, dars, uning turlarini ishlab javob beradi.

3. **Nega xuddi mana shunday o'qitish kerak?** Bunda ilmiy nuqtai nazardan eng foydali metodlarni o'rganish, tanlash, asoslash, tavsiyalarni eksperimental tekshirish vazifalarini bajaradi.

Ona tili o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlaydi, o'qitishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi, uni bartaraf etish usullarini topadi.

Nutqiy va orfografik tipik xatolarni tekshiradi, uni oldini olish chora tadbirlarini belgilaydi. Ona tili ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'rgatiladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasida asosan bolalarning nutqini o'stirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar nutqini o'stirishdan tashqari, ona tilidan elementar nazariy tushunchalarni amaliy o'zlashtirishlari ham nazarda tutiladi.

Ona tili o'qitish metodikasi fani to'rt bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Savod o'rgatish metodikasi ya'ni elementar o'qish va yozishga o'rgatish. Bolalarga savod o'rgatish pedagogikadagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy qo'yilgan masalalardandir. Chunki xalqning savodxonligi ozodlik uchun siyosiy onglik uchun, madaniyat uchun kurash qurolidir.

2.O'qish metodikasi. Boshlang'ich sinflarda o'qish predmetining vazifasi birinchi navbatda bolalarni tez (me'yorida), to'g'ri, ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

3.Grammatika va imlo metodikasi. Bu bo'lim elementar to'g'i yozuvga va husnixatga o'rgatish ya'ni, grammatik tushunchalarni, boshlang'ich imlo malakasini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

4. O'quvchilar nutqini o'stirish metodikasi. Bu bo'lim boshlang'ich sinflarda alohida o'rin tutadi. Bolalar birinchi marta tilni, nutqni o'quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o'ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar. Ular o'zining grafik formasi bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik formasi bilan ham og'zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni egallaydilar.

Ona tili metodikasi ta'lim jarayonida quyidagi didaktik talablarga amal qiladi:

1. Darslarda o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etish va har tomonlama o'sishlarga e'tibor berish;

2. O'quv ishlarini o'quvchilar yoshiga muvofiqlashtirish va bilimlarni ilmiy asoslash;

3. Nazariy bilimlarni amaliy ishlar bilan bog'lash orqali o'quvchilar bilimini, ko'nikma va malakalarining mustahkam bo'lishini ta'minlash. Buning uchun o'quvchilar ongiga bilimlarni singdirishda ketma-ketlik va tartiblilikka amal qilish;

4. Darslarda ko'rgazmalilikka amal qilish;

5. Darslada o'quvchilar faoliyatini oshirib borishga e'tibor berish;

6. Darslarda o'quvchilar bilan tabaqalashtirib va yakka tartibda ishlash

Bular didaktikaning asosiy qonuniyatlari.

Ona tili metodikasining o‘ziga xos qoidalari. Bulardan tashqari faqat ona tilining o‘ziga xos qonuniyatlari ham mavjud:

Bu qonuniyatlar quyidagilardan iborat bo‘lib, ona tilini o‘rganish shartlari hisoblanadi.

1. Darslarda o‘rganiladigan manbalar o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishiga, nutq a’zolarini mashqlantirib turish va shu asosda nutq malakalarini o‘stirishga e’tibor berish kerak.

2. Tilga oid barcha (fonetika, grammatika, orfografika, leksika) bilimlarni bir-biriga bog‘liq holda o‘rganib borish. Buning natijasida so‘z, so‘z birikmasi va gap borliqdagi mavjud narsalar, voqea-hodisalar ifodasi ekanligini tushunish.

3. Ona tilining o‘zig hos xususiyatlarini, ayniqsa so‘z yasalişini va o‘zgarib borishini sezgirlik bilan o‘zlashtirib borish.

4. Nutq mazmuni ohangdorlik va ifodalilikka e’tibor berish.

5. Og‘zaki nutqni yozma nutq bilan bog‘liq holda o‘zlashtirish.

1.2. Ona tili o‘qitish tamoyillari, ona tili o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi

Dunyoni bilish nazariyasi ona tili o‘qitish metodikasining metodologik asosi hisoblanadi. Metodikaning amaliy ahamiyati o‘quvchilarning til boyligini har tomonlama to‘liq bilib olishlarini ta’minlashdir. Buning uchun biz quyidagilarni **yodda tutushimiz lozim**: til kishilar o‘rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir; tilsiz jamiyatning yashashi mumkin emas; tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi; maktabning vazifasi tilni aloqa-kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi. Til oqilona, mantiqiy bilish vositasidir; til birliklari va formalari yordamida bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog‘lash amalga oshiriladi; til va nutq tafakkur bilan uzviy bog‘lanadi; biz fikrni nutqda shakllantiramiz; tilni egallash va nutqni o‘stirish bilan o‘quvchining fikrlash qobiliyati ham o‘sadi.

Metodik fan sifatida ona tili o‘qitish metodikasi maktabda o‘qitishning o‘quvchilar nutqining yaxshi rivojlanishiga kafolat beradigan tilni har

tomonlama bilishning ijtimoiy rolini tushuntiradigan yo'llari bilan ta'minlashi kerak. Demak, nutq o'stirish maktabning muhim vazifasidir.

Amaliyot kishi bilimining manbai va harakatlantiruvchi kuchi, haqiqat mezoni va bilim tojidir. Analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida og'zaki va yozma tarzda jonli nutqiy aloqaga, to'g'ri talaffuzga o'tadilar. Ular kuzatish jarayonida bilib olgan, o'zlashtirgan qoidalarini amaliyotga tatbiq etadilar.

Metodika bilish nazariyasidan tashqari, yangi fanlar, xususan, psixologiya, pedagogika ma'lumotlariga tayanadi. Pedagogik psixologiya bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini, ko'nikma va malakalarning shakllanish jarayonini tekshiradi. Metodika psixolingvistika bilan ham bog'liq.

Metodikaga psixolingvistika nutq haqida, uni talab qiluvchi sabablar, nutq turlari, nutqni qabul qiluvchi signallar va boshqalar haqida ma'lumot beradi.

Shuningdek, metodika, didaktika, umumiy pedagogika bilan o'zaro bog'liq. Ona tili o'qitish metodikasi ona tilning ma'lum qismini amaliy, ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi. Shuning uchun ona tili - lingvistika metodikasining muhim asosi hisoblanadi.

Savod o'rgatish metodikasini ishlashda fonetika, fonologiya, grafika asos bo'ladi. Lug'at ishini tashkil etishda leksikologiya, so'z tarkibi, so'z yasallishini o'rganishda so'z yasallishi, etimologiya, grammatika asos bo'lsa, morfologiya va sintaksis til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishda, to'g'ri yozuvga o'rgatishga orfografiya nazariyasiga asoslanadi.

O'qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi. Chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladilar. Boshlang'ich sinflarda adabiyotshunoslikdan nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini va uning o'quvchilarga ta'sirini ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g'oyaviy mazmuni, uning mavzusi va mazmunini, qurilishi, janri, tasvirik vositalarini hisobga olish zarur.

O'quvchilarga ona tilni o'rgatish, ularni tarbiyalash, har tomonlama o'stirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan tashqari tamoyillar bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Ona tili o'qitish tamoyillari 5 ta:

1. Til materiyasiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarinikg to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshtuv va ko'ruv ko'rsatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashqlantirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni ichida, gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish printsipti. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, stilistika)ni o'zaro bog'langan holda o'rganish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasalishiga suyanadi va h.k. So'zni morfemik tomondan tahlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning hamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'stirish printsipti. Til - juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, sistemasini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib uni yodda saqlab bo'lmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini

o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi : tilni egallash mumkin emas.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madannyati vositalarining xabar berish funksiyasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodalilik (uslubga oid) funksiyasini tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriyl vositalarining hissiy ottenkalarini ham tushunishni ko'zda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchn navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning funktsional-stilistik xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi.

5. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.

Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofiq; faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariyl asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ona tili metodikasining tekshirish usullari. Amaliyl fanlar uchun amaliylot muhim rol o'ynaydi. Ona tili o'qitish metodikasi ham amaliyl fanlar sirasiga kiradi. Har qanday amaliyl xulosalar ishonarli bo'lishi, yuqori ilmiyl darajada ya'ni puxta, asosli bo'lishi lozim. Metodika tavsiyalarini ham yuqori saviyada, ilmiyl darajasi, nazariyl tasdiqlanishi tekshirish metodlarining puxta o'tkazilishiga bog'liq. **Tekshirish metodlari 2 xil:**

1. Nazariyl tekshirish metodlari.

U quyidagilarga tatbiq etiladi

1. Biror hodisaning metodik asosini, boshqa bog'liq, fanlarni o'rganish, qo'yilgan gipotezani aniqlash, izlanishning asosiy yo'nalishini belgilash uchun;

2. Masalan tarixini o'rganish, chet el maktab tajribalarini o'rganish, mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish, tajribani tahlil qilish, masalaning

isbotlangan va hal qilinmagan o‘rinlarini aniqlash, ilgari tajriba bilan hozirgi ahvolni taqqoslash, hozirgi kun talabi bilan bahs, olish uchun;

3. Bir-biriga yaqin fanlarning tekshirish metodlarini, olimlarning tekshirish ishlari tajribasini o‘rganish, qulay metodlarni tanlash, o‘zining yangi eksperimental metodikasini yaratish, materiallarni tayyorlash maqsadida;

4. Amaliy yo‘l bilan olingan materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, o‘qituvchilarning ish tajribasini o‘rganish eksperiment natijasini tahlil qilish, amaliy tavsiyanomalarni shakllantirish uchun.

2. Amaliy metod:

1. Bu metod o‘qituvchilarning ish tajribasini o‘rganish, yangiliklarini tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatining darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi;

2. O‘quvchilarni o‘qitish jarayonini maqsadga muvofiq kuzatish (dars, uning biror qismini, o‘quvchilarning javobi, hikoyasini, yozma ishini tekshirish), o‘qituvchi va o‘quvchilarni anketa orqali tekshirish kabilar qayd etiladi.

3. Eksperiment metodi hozirgi kunda keng tarqalgan. Unda deduktiv yo‘ldan boriladi. Eksperimentda 2 ta sinf tanlanadi. Biri eksperiment sinf, ikkinchisi kontrol sinf. Eksperiment sinfda yangi metod, yangi darslik, yangi ishlanmadan foydalanilsa, kontrol sinfda amaliy metod, darslik, ishlanmadan foydalaniladi. Ikkinchi marta sinflar almashtiriladi. Har ikki holda ham natija yuqori bo‘lsa, demak, ish usuli foydali sanaladi.

Eksperiment vazifasiga ko‘ra:

1. Yangi metod, yangi darslikning muvofiqligini tekshirish;

2. Metod yoki qo‘llanmaning qay darajada foydaliligini;

3. Metod yoki (qo‘llanmaning muvofiqligini va samaradorligini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Eksperiment natijasini chiqarishda baho normasiga bo‘ysuniladi.

O‘zbek xalqi juda qadim zamonlardayoq ilm-fanga katta e’tibor bilan qaragan va uni rivojlanishga harakat qilgan. Ibn Sino, Beruiy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulug‘bek va boshqa ko‘plab allomalar ilm—fanni dunyoga

tanitganlar. Ilm-ma'rifatga beqiyos hurmat bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to'siqlar bo'lmasin o'z farzandlarini savodli bo'lishini orzu qilganlar. Farzandlarini yoshligidanoq maktabga o'qishga berganlar. Maktabdor domlalar o'z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga saboq berganlar. Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib borgan. Bu jarayon silliq kechgani yo'q. Ba'zi xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Chunonchi, 20-yillarda maktabni rivojlantirishda juda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Kompleks dasturlarda ona tilini o'rganish tizimi buzildi: grammatik, orfografik ko'nikmalarga yetarli ahamiyat berilmadi. Savod o'rgatishda yaxlit so'z metodi tilning fonetik xususiyatlariga mos kelmadi, analitik-sintetik ishlarni ta'minlamadi, puxta, to'g'ri yozuv masalalari uchun zamin yaratilmadi. Keyinchalik 1931 yil 5 sentyabr «Boshlang'ich va o'rta maktab haqidaigi, 25 avgust 1932 yil «Boshlang'ich va o'rta maktab o'quv dasturlari **rejimi** haqida»gi qarorlar yuqoridagi kabi yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishda va o'quv mashg'ulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga va o'qituvchilarga yordam berdi. Tezlik bilan savod o'rgatishda analitik—sintetik tovush metodi qayta tiklandi. Grammatik, orfografik materiallarni izchil o'rgatishga, o'quvchilarning har tomonlama savodli bo'lib, madaniy nutqni egallashlariga katta ahamiyat berila boshlandi. O'quvchilar va o'qituvchining o'quv mehnatni tashkil etishning asosiy shakli bo'lgan dars metodikasi muvaffaqiyatli ishlana boshlandi.

50-90-yillar mobaynida boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi sohasida anchagina qo'llanmalar yaratildi. Bu yillar mobaynida ona tili o'qitish metodikasi fan sifatida rivojlana boshladi, umumiy pedagogik, didaktik va psixologik xarakterdagi ilmiy tekshirishlarning natijalari ona tili o'qitish metodikasini takomillashtirish va yangi metodika yaratishga imkon berdi. O'zbek tilshunosligi sohasidagi muvaffaqiyatlar ham tilni o'zlashtirish jarayoniga va metodikaning rivojlanishiga jiddiy yordam berdi. Xuddi shuningdek, bu fanning rivojlanishiga o'quvchilarning ommaviy ish tajribalarini

o'rganish, umumlashtirish katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'sha davrdagi jurnallarda o'nlab metodik maqolalar bosilib chiqdi.

1955 yildan boshlab pedagogika institutlari boshida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tayyorlaydigan fakultetlar ochila boshlandi. Bu ham ona tili o'qitish metodikasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining umumiy va maxsus tayyorgarlik darajasi o'sadi. Institut qoshidagi kafedralarda ishlovchi ilmiy xodimlar metodik masalalarni chuqur, ilmiy asosda hal qilishga yordam beradilar.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ona tili o'qitishga katta ahamiyat berila boshladi. Bunda 1989 yil 21 oktyabrda qabul qilingan «O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi» alohida ta'lim sohasidagi bu o'zgarishlar ona tili o'qitish metodikasida ham bir qator imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Bu yangiliklardan ko'plari ommaviy maktablarda amalga oshirilmoqda, ba'zilari hozircha sinovdan o'tkazilmoqda. Sinov davrida, birinchidan, o'quvchiga, uning darsdagi va darsdan tashqari vaqtdagi o'quv mehnatiga, u duch kelayotgan qiyinchiliklarga, uning ko'nikma, faoliyat, malakalarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish metodikasiga ko'proq ahamiyat berilmoqda o'qituvchi mehnati haqidagi fanga o'qituvchi va o'quvchi mehnati haqidagi fanga aylantirilmoqda. Ikkinchidan, ta'lim jarayonida bolaning fikrlash qobiliyatini o'stirish, mustaqilligini va o'quv ishlari jarayonidagi aqliy faolligini oshirish vazifalari hal qilinmoqda. Uchinchidan, mavjud ta'lim tizimidagi tekshirishlar bilan bir qatorda o'qitishning istiqboli haqidagi vazifalarni hal qilish maqsadida ham tekshirishlar olib borilmoqda. Shunday qilib, fan sifatida ona tili o'qitish metodikasining o'z predmeti, vazifasi, nazariy va ilmiy sohasi bo'lib, bir qator fanlar o'rtasida uning ma'lum o'rnini bor. Bu fan ham boshqa fanlar kabi rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his, kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalkk aniq, ta'sirchan ifodalanadi.

Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning mana shu asosiy vazifalaridan kelab chiqadi.

K.D.Ushinskiy boshlanig'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblaydi. «Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi. Bola ikki – uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilini ulug' pedagogligi ham ana shundadir», deydi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganishga katta ahamiyat beriladi.

Ona tili - nutq o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi . Bola o'qish ko'nikmalarini egallash bilan, birinchi navbatda o'z ona tilini o'rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning , aql -idroknining kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak , ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida rol o'ynaydi.

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang'ich sinfda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur.

Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til normalarini, ya'ni imloviy va punktuatsion savodli yozuvni, orfoepik to'g'ri talaffuzni o'rganish nutq va uslubiy elementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan tushunchalarini shakllantirish.

5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda tabiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda

topshiriqlar:

1. Ona tili o'qitish metodikasining predmeti nimadan iborat?
2. Metodika fani qanday masalalarni o'rganadi?
3. Ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifalarini ta'riflab bering.
4. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining asosiy bo'limlarini aytib bering.
5. Ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik asoslarini izohlang.
6. Ona tili o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligini tushuntiring.
7. Ona tili o'qitish metodikasining o'ziga xos tamoyillari qaysilar? Ularga tavsif bering.
8. Eksperiment vazifasiga ko'ra qanday hollarda o'tkaziladi?
9. Ona tilini o'qitish tarixiga tavsif bering. Kamchiliklarning sabablari nimada ekanligini ayting.
10. Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlarining turi va mazmunini sharhlang.

**2-MODUL. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI
O'QITISHNING XUSUSIY MASALALARI**

2-MAVZI: SAVOD O'RGATISH METODIKASI

Tayanch so'zlar: nutq faoliyati, yozish harakati, savod o'rgatish tarixi, o'qish va yozish malakasi, takroriy faoliyat, avtomatlashtirish, harf

elementlari, analitik-sintetik tovush metodi, savod o'rgatish, differentsial yondashish, o'qitishning istiqboli, nutqiy tayyorgarlik, o'qish ko'nikmasi, yozuv ko'nikmasi, tovush tahlili, tovush—harf tahlili

2.1.Savod o'rgatish metodikasining maqsad va vazifalari

O'qish va yozish nutq faoliyatining turi. Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. “Alifbe”ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatiladi, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmasini egallaydilar.

Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish **o'qish va yozish ko'nikmasi** deyiladi. Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, bola **v** harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. Yozish ko'nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi.

O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, **o'qish va yozish malakasi** harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O'qish va yozish kishi nutq faoliyatining turi bo'lib, u nutqqa oid malakadir. O'qish malakasi ham, yozish malakasi ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya'ni og'zaki hikoya qilish, o'zgalar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog'liq.

O'quvchini savod o'rgatish jarayonida elementar o'qish va yozishga o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab bo'lishi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim.

O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta'minlaydi. Shuning uchun ham o'qishga o'rgatish bilan yozuvga o'rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi va yozishi zarur. O'qish uchun ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matnni bir necha bor qayta o'qish bilan maqsadga erishish qiyin. Bu ko'pincha o'qilgan matnni yuzaki yodlab olishga olib keladi. Takroriy faoliyatda vaziyat va mazmunning almashinishi malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatni o'stiradi. O'quvchi oldida uzoq muddatda amalga oshadigan maqsad o'qish va yozishni o'rganish hamda hozirda bajarishi shart bo'lgan kundalik maqsad topishmoqni o'qish va javobini topish, so'z va gaplarni o'qish, rasm asosida so'zlab berish kabilar turadi.

O'zbek tili yozuvi tovush yozuvi, ya'ni fonematik yozuvdir. Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf) olingan. O'qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi. Bu o'qish va yozish faoliyatida o'quvchi uchun qiyinchilik tug'dirgandek tuyulsa-da, aslida o'qish va yozish jarayonini soddalashtiradi, chunki tilimizdagi tovushni ifodalovchi harflar soni uncha ko'p emas. O'qish va yozishni o'zlashtirish uchun tovush va harflarning o'zaro munosabatiga oid qoidalarni o'zlashtirish kifoya. Savod o'rgatish metodikasida o'zbek tili tovushlar va harflar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

O'zbek tilining tovush tizimi va yozuvi. O'zbek tili yozuvi fonematik yozuv hisoblanadi. 1993 yildan boshlab o'zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har bir tovushi uchun unga mos grafik shakl qabul qilindi.

O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni sintezlab o'qishga o'rgatishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So'z bo'g'inga bo'linadi, bo'g'indan kerakli o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o'qish jarayoni o'zlashtiriladi. Bunda o'zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi. Savod o'rgatishda o'zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega:

1. Savod o'rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi. Hozirgi o'zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, i, e, u, o'.

E harfi so'z va bo'g'in boshida qo'llanadi (*ekin, echki, aeroplan*), undoshdan keyin o'rta keng lablanmagan unli tarzida o'qiladi (*kel, tez*). Savod o'rgatishda oldin so'z boshida keladigan **e**, so'ngra undoshdan keyin keladigan **e** tovush-harfi bilan tanishtiriladi.

O harfi o'zbekcha, umumturkiy so'zlarda quyi keng, lablangan o tovushini ifodalaydi, ruscha-baynalmilal so'zlarda urg'usiz bo'g'inda **a** tarzida (*botanika*), **o'** tovushi kabi (*tonna*), qisqa **i** tarzida (*traktor*) talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unli qatnashgan ruscha-baynalmilal so'zlar savod o'rgatish davridan so'ng o'quv jarayoniga kiritiladi.

A tovushi *bahor, savol* kabi so'zlarda o kabi, *muomala, munosabat* kabi so'zlarda **i** tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, lekin **a** yoziladi.

U tovushi *qovun, sovun* kabi so'zlarda **i** tovushiga yaqin talaffuz etilsa ham **u** yoziladi.

I tovushi *bilan, sira* kabi so'zlarda talaffuz etilmasa ham yozuvda doimo saqlanadi.

2. O'zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Yozuvda ular 23 ta harf bilan ifodalanadi: shulardan 3 tasi harf birikmasi, 21 tasi yakka harf bilan belgilanadi. Ular quyidagilar: b, d, f, g, h, j (jurnal), j (jo'ja), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z,

g', sh, ch, ng. Undoshlarni o'rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslaniladi.

Alifbo davrida undosh tovushlar bilan tanishtirishni sonor, ya'ni ovozdor tovushlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki sonor tovushlarni bo'g'in va so'z tarkibidan ajratib olish oson. Lekin **ng** sonor undoshi n va g undosh tovushlari va harflari bilan tanishtirilgach, o'rgatiladi. Harf birikmalarini o'rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda, ularning alifbe davrining oxirgi bosqichida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

J harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Birinchi darsda portlovchi **j** tovushini o'rgatish, talaffuzini tushuntirish, analitik-sintetik mashqlar yordamida ko'nikmalar hosil qilish, keyingi darsda esa sirg'aluvchi **j** tovushi va uning talaffuzi o'rgatiladi. So'ng bu ikki tovushning talaffuzidagi farq taqqoslash usuli orqali tushuntiriladi. Berilgan bilim analitik-sintetik mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

Sh tovushini ifodalovchi **sh** harf birikmasi ham **s** va **h** harfi bilan, **ch** tovushini ifodalovchi **ch** harf birikmasi **h** harfi bilan tanishtirilgach, o'rgatiladi. O'quvchilar bu harf birikmalarini bir yaxlit tovush sifatida o'qish va yozishga ko'nikishlari lozim. Bu davrda s'h (is'hoq) tarzida o'qiladigan holatga to'xtab o'tilmaydi.

Jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar (*b-p, d-t, v-f, g-k, z-s* kabi) haqida dastlabki tushunchalar beriladi, ularning talaffuzi va yozuviga e'tibor qaratiladi.

X va **H** tovushlarining talaffuzi va imlosi haqida ham dastlabki tushunchalar beriladi, ularni farqlash bo'yicha maxsus mashqlar ham uyushtiriladi.

Tutuq belgisi (') unli tovushdan so'ng kelsa, uni cho'zib talaffuz qilishga, undosh tovushdan so'ng kelsa, undoshni unlidan ajratib talaffuz qilishga xizmat qilishi haqida ham tushunchalar berilib, asta-sekin uni qo'llashga doir ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Savod o'rgatish jarayonida harflarning 4 xil (bosma, yozma, bosh va kichik) shakli va ularning ishlatilish o'rni o'rgatiladi.

O'quvchilarni o'qishga o'rgatish bo'g'in asosida olib boriladi. Bo'g'inlab o'qishga o'rgatish uchun so'zni bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlashni o'rgatish muhim sanaladi. Savod o'rgatish davrida o'quvchilar so'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri bo'la bilsalar, o'qish ko'nikmasini ham yaxshi egallaydilar.

O'qishning dastlabki bosqichida orfografik o'qishdan foydalaniladi, asta-sekin orfoepik o'qish ko'nikmalari shakllantiriladi. Talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan tovushlar ishtirok etgan so'zlar oldin orfografik, so'ngra orfoepik o'qib beriladi va ularning o'qilishi bilan yozilishi taqqoslanadi. O'quvchilar muayyan darajada tushunchaga ega bo'lganlaridan so'ng orfoepik o'qish mashq qilinadi.

O'qish va yozish jarayonining psixofiziologik tavsifi. O'qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonlar kichik yoshdagi o'quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi.

Kichik yoshdagi o'quvchini **o'qishga** o'rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, uni bilish uchun rasmlarni ko'z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o'qituvchi aytishga yo'l qo'ymaydi, undan bo'g'inni aytishni talab qiladi. O'quvchi ikkinchi harfni eslab olguncha, birinchisi esdan chiqib qoladi yoki ularni qo'shib bo'g'in, bo'g'indan so'z hosil qilguncha, o'qish jarayoni sustlashadi.

2. Ko'pincha bola o'qiyotgan qatorni yo'qotib qo'yadi, harfni, bo'g'inni, so'zni qayta o'qishiga to'g'ri keladi. O'quvchining diqqati kengaygan sari bo'g'in va so'zni butunligicha idrok eta boshlaydi.

3. O'qishni endi o'rganayotgan bola o'qiyotgan matn mazmunini o'zlashtirmaydi, chunki u so'zni qanday o'qishga ko'p kuch beradi. Darslikdagi rasmlar, o'qituvchining savollari, ko'rgazmali qurollar ularning ongli o'qishlarini ta'minlaydi.

4. Tajribasiz kitobxon so'zni birinchi bo'g'iniga yoki rasimga qarab topadi. Bu xato o'qishga olib keladi. Bunday xatoning oldini olish uchun so'z

bo'g'inlab o'qitiladi, so'zni bo'g'in-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush-harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi.

O'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o'quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqini o'stirishga katta e'tibor berish kerak. Savod o'rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o'stirishga, ya'ni tovushni aniq talaffuz qilishga, boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatish, bo'g'in yoki so'zdan o'sha tovushni ajrata olish ko'nikmasini o'stirish muhim sanaladi.

Fonematik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim shartidir. Shu bois savod o'rgatish davrida eshitish idrokini o'stirish uchun ham maxsus xilma-xil mashqlar o'tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jarayonida o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlashni, daftarni to'g'ri qo'yishni, harfni yozishda yozuv chiziqlari, ular bo'ylab qo'lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga qanday ulash, qatorga sig'ish-sig'masligini mo'ljallashi lozim. Bu jarayon o'quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, ularning barmoq va elka muskullari charchaydi. Shuning uchun ham darsda ikki-uch marta daqiqali jismoniy mashqlar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jarayonida o'quvchi ruchkani qog'oz ustida sekin, ishonchsizlik bilan qimirlatadi, bir harfni yozib to'xtaydi va namuna bilan solishtiradi, ba'zan chiziqdan chiqib ketadi, noto'g'rilarini bo'yab, to'g'rilaydi. Bunda u o'qituvchiga har daqiqada murojaat qiladi, uning qo'li va boshi yozishda birgalikda harakat qiladi. Yozuv jarayoni o'quvchilarning ongli harakat qilishlarini ham talab etadi. Shu sababli bu jarayonga o'qituvchi sabr-qanoat bilan katta e'tibor qaratishi juda muhim. Yozuvning chiroyli va imloviy jihatdan to'g'ri bo'lishi savodxonlikning yuksak belgisidir.

Savod o'rgatish metodlarining qiyosiy-tanqidiy tahlili. Eski maktabda o'qish bilan yozish bir vaqtda o'rgatilmagan, avval faqat o'qish o'rgatilgan. O'qish hijo (bo'g'in) usuli bilan o'rgatilgan. O'qishga o'rgatishning "hijai qadimiy" deb atalgan usuli uzoq vaqtlar davomida hech qanday o'zgarishsiz davom etib kelgan.

Hijo usulida o'qishga o'rgatishni 3 bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich. Harflarning nomini yodlatish (“harfiy metod”). Bu metodning mohiyati quyidagilardan iborat bo'lgan: bir necha yildan beri o'qiyotgan bolalar maktabxonaga yangi kelgan bolaga bir necha kichik-kichik surani og'zaki yodlatgan. Bola aytayotgan suradagi so'zlarining ma'nosini tushunmay, suralarni birin-ketin yodlab olgan, bu orada taxminan bir yilga yaqin vaqt o'tgan. Shundan keyin arab alifbosi yodlatila boshlangan; bola uyidan har ikki tomoni randalanib silliqlangan maxsus taxta olib kelgan. Maktabdor taxtaning bir tomoniga qora siyoh bilan 28 ta arabcha harfning yolg'iz shaklini alifbo tartibida bandlarga bo'lib yozib bergan.

Maktabdor birinchi banddagi harflarning nomini **alif, be, te, se** deb aytgan. Bola domlaga ergashib takrorlagan, ayta olmasa, domla yana aytgan va shuni yaxshilab o'rganishni vazifa qilib topshirgan. Bola birinchi bandni yodlab olgach, ikkinchi bandni shu tariqa yodlagan va hok. Bolalar 28 harf nomini 5-6 oyda zo'rg'a bilib olganlar, ularning ko'pchiligi harflarning nomini yodlab olsalar ham, qaysisi **be** (ب), qaysisi **se** (ث) ekanini ko'rsatib bera olmaganlar. Ayrim domlalar, otinoyilar yosh bolalarning eslab qolishiga yordam berish maqsadida har bir harf uchun shartli iboralar o'ylab topganlar (l-uzunchoqqina alif, ب - bittagina **be**, ت - ikkitagina **te**, ث - uchtagina **se** kabi).

2-bosqich. Bo'g'in hosil qilish. Harflar nomi yodlab bo'lingach, bo'g'in hosil qilishga, ya'ni “**zeru-zabar**” ni o'rgatishga o'tilgan. Eski maktabda “**zeru-zabar**” (zabar, zer, pesh) har xil o'rgatilgan. Masalan, ba'zi domlalar ب□ (**be, zabar-ba**), **be-zer-bi, be-pesh-bu, te-zabar-ta** va hok. kabi o'rgatsalar, boshqalari **be zabar ba, te zabar ta** kabi, yana birovlar **be-zabar-a; zer-i, pesh-u; te-zabar-a, zer-i, pesh-u** va hok. deb o'rgatganlar.

Maktabxonada “**zeru zabar**” quruq yodlatilgan, nimaga xizmat qilishi aytilmagan. Aslida esa bu belgilarning ma'lum xizmati bor: **zabar (fatha)**-undosh harf ustidagi urg'u belgisiga o'xshash chiziqcha bo'lib, undoshga **a** unli tovushini qo'shib aytish zarurligini ko'rsatadi; **zer (kasra)** undosh harf ostidagi chiziqcha bo'lib, shu undoshga **i** unli tovushini qo'shib aytish kerakligini

bildiradi; **pesh (zamma)** esa undosh harf ustiga qo'yiladigan belgi bo'lib, shu undosh tovushga **u** unlisini qo'shib aytish zarurligini ko'rsatadi. Demak, arabcha matnlarni o'qish uchun "zeru zabar"ni bilish juda zarur bo'lgan, ammo o'qishga o'rgatish anglab o'qishga asoslanmagani uchun bolalar **mim zabar ma, mim zer mi, mim pesh mu** deb yodlaganlar, "zeru zabar"ning mohiyatini anglamaganlar.

3-bosqich. Bo'g'inlarni qo'shish. Eski maktabda bo'g'inlarni qo'shish "abjad" bilan boshlangan. Maktabdor taxtaning ikkinchi tomoniga arab tili alfavitidagi 28 ta harf jamlangan 8 so'zni "zeru zabar" bilan yozib bergan. Bolalar bu 8 ta so'zni birin-ketin hijo usulida o'qib yodlab olganlar. Masalan, **abjad** so'zi **alif**ga zabar qo'yib, **bega** urishtirilsa **ab**, **jimga** zabar qo'yib, **dolga** urishtirilsa **jad**, bularning ikkisidan abjad hosil bo'lgan.

Abjaddan keyin eski maktab o'quv kitobi bo'lgan "Haftiyak"ka o'tilgan. "Haftiyak"dagi suralar ham "Abjad"dagi kabi hijo usulida o'qitilgan. Bolalar "Haftiyak"ning bir betini hijo usulida o'qish uchun juda ko'p vaqt va kuch sarflaganlar.

So'zni hijo usulida o'qishda avval so'zdagi birinchi undosh harfning, keyin ikkinchi undosh harfning nomini aytib, unga zarur harakatni qo'yib hijo hosil qilingan. Shu usulda navbatdagi harflardan ham hijo hosil qilinib, hijolarni bir-biriga qo'shib, bu so'z bir butunicha aytilgan. So'zni hijo usulida o'qishda tovush emas, balki shu tovushni ifodalovchi harfning nomi asos qilib olingan. So'zni tovush jihatidan tahlil qilishga oid hech qanday ish qilinmagan, tovushlarning qo'shilishi bolalarga tushunarli bo'lmagan, bolalar so'zdagi har bir harf ma'lum bir tovushni bildirishini mutlaqo anglamaganlar. Hijo usulida o'qishga o'rgatish, birinchidan, mexanik ravishda bo'lib, ayni bir narsani qayta-qayta aytishga majbur qilingan, ikkinchidan, bola o'zi aytgan so'zining ma'nosini tushunmay, maktabdordan eshitganini takrorlayvergan.

"Haftiyak"ning keyingi ayrim suralari so'zni yaxlit "o'qish" usulida olib borilgan, aniqrog'i bola o'qimagan, eshitganini to'tiqush kabi yodlagan. Natijada bolalar maktabxonada o'qiganlarini o'zi o'qib yurgan kitobidan "o'qib bergan", ammo ularning qo'liga maktabda o'qilmagan boshqa bir kitob berilsa,

uni o'qiy olmagan; eski maktabda 6-10 yil muntazam o'qigan bolalarning juda ko'p deganda 4-5 foizigina o'qish va yozish ko'nikmasini hosil qilgan.

Turkistonda ochilgan rus-tuzem maktablari savod o'rgatishda ma'lum darajada ijobiy o'rin tutdi. Rus-tuzem maktablarinng o'zbekcha sinflarida o'zbekcha xat-savod o'rgatish metodi 1900 yildan boshlab asta-sekin isloh qilindi: hijo metodidan tovush metodiga o'tildi. 1900 yillardan rus-tuzem maktabi o'zbekcha sinflarining peshqadam muallimlari tovush metodi asosida tuzilgan tatarcha alifbedan foydalana boshladilar. Bu kitobning tili va mazmuni o'zbekcha sinflarga mos kelmas edi. 1902 yilda Saidrasul Saidazizovning tovush metodi talabiga muvofiq tuzilgan ona tili alifbesi "Ustodi avval" nashr etildi. "Ustodi avval" nashr qilingandan keyin o'zbekcha xat-savod o'rgatishda yangi davr boshlandi. Tovush metodi savod o'rgatishning eski usulidan tamomila farq qilib, o'qitishni osonlashtirdi, ta'limni bola tushunadigan, anglaydigan ta'limga, ya'ni faol ta'limga aylantirdi.

"Ustodi avval" 3 bo'limdan iborat edi: 1-bo'lim, hozirgi atama bilan ataganimizda, alifbe davridir. Muallif bu bo'limda arab alfavitidagi harflarni alfavit tartibida emas, balki harf orqali ifodalangan tovushning talaffuzi oson-qiyinligini harflarning yozilishi sodda yoki murakkabligini e'tiborga olgan holda tizib chiqqan. Muallif har bir harfning yozuvda bir necha xil shaklda kelishi xat-savod o'rgatishni qiyinlashtirishini hisobga olgan; alifbe davrining boshida deyarli har doim bir xil shaklda qo'llanadigan harflarni bergan. U shakli yozilish o'rniga qarab turlicha bo'ladigan harflarning so'z boshida, so'z o'rtasida, so'z oxirida va alohida yozilish shaklini berib, ularga mos misollar keltirgan. Masalan, **q** harfini tanitish uchun **qor, uyqu, oq** so'zlarini, **g** harfini tanitish uchun **g'or, uyg'oq, tog'** so'zlarini tanlagan. Muallif soddadan murakkabga tamoyiliga amal qilib, alifbe davrini asta-sekin murakkablashtira borgan. Kitobning alifbe qismiga, asosan, o'zbek tilining lug'at tarkibidagi so'zlar tanlab olingan.

“Ustodi avval”ning 2-bo‘limi alifbedan keyingi davrdir. Bu bo‘limda hikoya, masal va 50 maqola berilgan. Ularning ayrimlarida bilim olish targ‘ib qilinsa, boshqalari tarbiyaviy mazmunda bo‘lgan.

S. Saidazizov kitobining 3-bo‘limini “Alifboi qur’on” deb atagan va o‘z oldiga bolalarga “qur’on”ni tushunib olishga o‘rgatishni maqsad qilib qo‘ygan.

Umuman, tovush metodi Markaziy Osiyoga ikki manbadan yoyilgan:

1. Rus-tuzem maktablari ruscha sinflarida xat-savod tovush metodi bilan o‘rgatilar edi. O‘zbekcha sinf muallimlari tovush metodi oson va qulayligini amalda o‘z ko‘zlari bilan ko‘rganlar va asta-sekin tovush metodini o‘z sinflariga tatbiq eta boshlaganlar.

2. XIX asrning oxiridan boshlab Rossiyadan Markaziy Osiyoga kelgan tatar muallimlari, ya’ni jadidlar tovush metodida xat-savod o‘rgata boshlagan edilar, oradan ko‘p o‘tmay, bir qancha mahalliy muallimlar ular kabi yangi maktablar ochadilar va bolalarga xat savodni tovush metodi asosida o‘rgata boshlaydilar.

Shunday qilib, O‘rta Osiyoda tovush metodi asta-sekin hijo metodining o‘rnini egallay boshlagan.

Ma’lumki, tovush metodi bilan xat-savod o‘rgatishga Rossiyada K.D.Ushinskiy asos solib, u sintetik tovush metodini qat’iy himoya qilgan.

Tovush metodi bilan savod o‘rgatilganda, so‘zning eng kichik bo‘lagi, ya’ni nutq tovushlari asos qilib olinadi. So‘zning ma’nosini o‘zgartira oluvchi har bir tovush yozuvda harf orqali ifodalanishi: so‘zda tovushlar almashinishi, ortishi yoki kamayishi natijasida boshqa bir yangi so‘z hosil bo‘lishi mumkinligi bolalar ongiga etkaziladi. Keyingi yillarda ham xat-savod tovush metodida o‘rgatilmoqda. Atoqli metodistlar (S.P.Redazubov, A.I.Voskresenskaya, K. Qosimova, Y.Abdullaev, O. Sharafiddinov va boshq.) tovush metodida xat-savod o‘rgatishni takomillashtirdilar.

Arab alifbosida yozuvni o‘rgatish qiyin bo‘lgan. Bu alifbodagi harflar so‘zda qo‘llash o‘rniga qarab, har xil shaklda yozilgan, bu yozuvni o‘rganishni qiyinlashtirgan. Shuning uchun ko‘p maktablarda bolalarga o‘qish o‘rgatilib

yozuv o'rgatilmagan, chunki domla va otinoyilarning ko'pchiligi o'qishni bilib, yozishni bilmagan.

Eski maktabda yozish chiziqsiz tekis oq qog'ozga dastlab yo'g'onroq savag'ich qalamda o'rgatilgan; bolalar yozishni ozroq o'rganganlaridan keyin qamish qalamda ham yozishgan, ularga ruchkada yozishga ruxsat etilmagan.

Yozishni o'rgatish alifbo tartibida harflarning alohida-alohida shaklini yozdirishdan boshlangan. Avval **alif**ni yozish o'rgatilgan, keyin o'xshash shaklli harflar bandlarga bo'linib, o'xshash unsuri bo'lmaganlari esa ayrim-ayrim yozdirilgan. Ba'zi domlalar ayrim harflarning elementlarini yozishni ham alohida mashq qildirganlar.

Shundan keyin harflarni nusxaga qarab alifbo tartibida katta-katta qilib yozish (bu **mufradot** (sarhad) deyilgan: bunday yozish bir-ikki yilga cho'zilgan) o'rgatilgan.

Shundan keyin harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashqi boshlangan. Bu mashqni **murakkabbot** deyilgan. Harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashqi bir necha bosqichga bo'linib, harf birikmalarining ma'no anglatish-anglatmasligi umuman e'tiborga olinmagan, qanday qo'shilish mashq qilinavergan. Ko'pgina eski maktablarda bunday mashq **"abjad yozish"** bilan tugallangan.

Murakkabbotdan keyin bayt, qit'a va ruboiylarni ko'chirib yozish mashqi boshlangan. Bu mashqni **muqattaot** deyilgan. Bu mashqqa ham juda ko'p vaqt sarflangan; u ma'noli so'zlarni yozish bilan boshlanib, **duoyi salom** (insho) yozish bilan tugallangan. Bola **duoyi salom** yozishni bilsa, "xati chiqqan" hisoblangan.

Yozuvni o'rgatish va husnixat mashq qildirishda **"Mufradot"** kitobidan foydalanilgan. Bu kitobchada har uchala mashq turi, ba'zi nashrlarda esa insho namunalari berilgan.

Eski maktabda yozuvga o'rgatishning birdan-bir yo'li ko'chirib yozuv nusxa ko'chirish hisoblangan, natijada bolada yozma nutq ko'nikmasi hosil qilinmagan. Bu mashq bolani juda zeriktirgan, hech o'ylanmasdan yozishga odatlantirgan. Maktabxonada ijodiy ko'chirib yozuv mashqlarining, shuningdek,

boshqa usullarning qo'llanilmaganligi orqasida bola chiroyli ko'chirib yozish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lsa ham, o'z fikrini yozma ifoda qila olmagan, eng oddiy jumalarni ham zo'r-bazo'r xato bilan yozgan.

Eski maktablarda, madrasalarda o'zbek tili o'qitilmagan, natijada eski maktab bolalarigina emas, hatto madrasada bir necha yil umr o'tkazgan ba'zi bolalar ham o'z ismini to'g'ri yozishni bilmaganlar.

Arabchada to'g'ri, chiroyli yozuvga o'rgatish uchun xivalik shoir Shermuhammad Avazbiy o'g'li Munisning (1778-1829) "Savodi ta'lim" kitobidan foydalanilgan.

Rus-tuzem maktablarida o'qish va yozishni o'rgatish, odatda, bir vaqtda boshlanib, bir-biriga bog'lab olib borilgan, har kuni avval o'qish, keyin yozuv darsi bo'lgan; o'qish va yozish onglilik tamoyili asosida o'rgatilgan; bolalar qaysi tovush, bo'g'in, so'z yoki gapni o'qiyotgan yoki yozayotganini aniq tasavvur qilgan, ma'nosiga tushungan, arabcha harfning yolg'iz shaklini yoxud biror harfning elementini yozayotganligini ongli ravishda bilgan.

Rus-tuzem maktablarining o'zbekcha sinfida ko'chirib yozishga va diktantga ko'p vaqt sarf etilgan. Bulardan tashqari, insho (turli tilxat, duoi salom va savdo ishiga oid har xil xatlar) yozishga ham o'rgatilgan.

2.2.Savod o'rgatishda hozirgi zamon analiz-sintez tovush metodi

Analitik-sintetik tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois analitik-sintetik tovush metodi an'anaviy tamoyillarga va shakllanish, tashkil topish jarayonida bo'lgan tamoyillarga ega. Metodning an'anaviy tamoyillari quyidagilar:

1.Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra ta'limiy va o'stiruvchi xarakterda bo'ladi, nutqiy mashqlar orqali aqlning o'sishini ta'minlaydi, o'qishning ongli osishini talab etadi.

1.Bu metod tashkiliy tomondan ikki davrga:

A) Alifbegacha tayyorlov davri;

B) Alifbo davriga bo'linadi, Ikkinchidan, yozuvga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

Analitik-sintetik tovush metodi psixolingvistik nuqtai nazaridan: birinchidan savod o'rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi; ikkinchidan, savod o'rgatishga tovush asos qilib olinadi, unda tovushni ajratishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulyatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi, uchinchidan, o'qish birligi sifatida bo'g'in olinadi, bo'g'in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonida bo'lgan tamoyillari:

1. Ta'lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan: savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga differentsial va individual yondashish;

2. O'qitishning istiqboli nuqtai nazaridan: grammatika, so'z yasalishi, imlo, leksikologiyaga oid bilimlarni nazariyasiz amaliy asosda muntazam berib borish;

3. Psixolingvistik nuqtai nazaridan: tovush va harfni o'qitishning qulay usulni izlash, tovush va harflarning moslarini, osonligini, ikkinchidan, ta'limning tarbiyaviy va o'stiruvchi xarakteri hisobga olinadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga tarbiya ham berib boriladi. Tarbiyalash didaktikaning muhim prinsiplaridandir.

Maktabda axloqiy tarbiya beriladi, ilmiy dunyoqarash elementlari shakllantiriladi.

Bolalar darsda ommaviy siyosiy tushunchalarni egallaydilar.

Alifbe sahifalarida do'stlik, baynalminal munosabat, bolalar mehnati, tabiat, kattalar mehnati, bolalar o'yinlari, oila, maktab hayoti kabi rasmlar berilgan. Turli mavzularda matn berilgan. Bular bolalarda o'zaro do'stlik, mehnatsevarlik, mehnatni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, tabiatni sevishtirish va asrash, hayvonot dunyosiga qiziqish, ularni muhofaza qilish, maktab va o'qishni sevishtirish - umuman, estetik tarbiyani shakllantiradi. Bular bolalarni xalqning qaynoq hayotiga, uning baxtiga, orzulariga, muvaffaqiyatlariga ruhlantiradi. Demak, bolalarga axloqiy, g'oyaviy, mehnat va estetik tarbiya berish ham savod o'rgatish vazifasiga kiradi.

Savod o'rgatishni turli tashkil etish uchun bolalarning unga nutqiy tayyorgarligi maxsus o'rganish talab etiladi. Maxsus o'rganish avgustda, hatto undan oldin - bahordan boshlanadi. 1-sinfga keladigan o'quvchining oilasiga yoki bolalar bog'chasiga boriladi, suhbat o'tkaziladi, bolalarning umumiy bilim saviyasi aniqlanadi.

1.O'qish ko'nikmasini aniqlash.

- a) so'zni sidirg'a o'qiydi,
- b) bo'g'inlab o'qiydi,
- v) harflab o'qiydi (noto'g'ri o'qish)
- g) anchagina harflarni biladi, lekin o'qishni bilmaydi,
- d) ayrim harflarni biladi,

2.Yozuv ko'nikmasi.

- a) hamma harfni yozishni biladi, so'z yozadi, (bosma yoki yozma)
- b) ayrim harflarnigina yozishni biladi (bosma yoki yozma)
- v) yozishni umuman bilmaydi

3.Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi:

- a) so'zni bo'g'inlarga bo'ladi;
- b) so'z yoki bo'g'indagi tovushni ajratadi;
- v) hamma tovushni to'g'ri talaffuz qiladi;
- g) ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladi (qaysi tovushlar ekani hisobga olinadi)

d) nutqning baland yoki pastligi;

4. Og'zaki bog'lanishli nutq. She'rni yoddan o'qish.

- a) 3 ta she'rni biladi, uni zavqlanib aytadi,
- b) 1-2ta she'rni biladi, aytishga uyaladi,
- v) birorta she'rni yoddan o'qishni bilmaydi,

5.Og'zaki bog'lanishli nutq. Ertak aytish.

- a) bir yoki bir nechta ertakni aytishni biladi,
- b) ertak aytishga harakat qiladi, lekin ayta olmaydi,
- v) ertak aytishni bilmaydi, o'rganishga ham harakat qilmaydi,

g)Og‘zaki bog‘lanishli nutq. Fikr bayon qilish (Rasmda nimalar ko‘rayotganingni aytib ber?)

a) 20 so‘zdan ortiq bog‘lanishli hikoya, bir necha gap

b) 10 tadan 20 tagacha so‘z, bir necha gap

v) 10 tagacha so‘zli bog‘lanishli javob

g) 3-4 so‘zli qisqa javob,

Shuningdek, bola nutqining sintaktik qurilishi ham, foydalanadigan so‘zlar doirasida ham o‘rganiladi, to‘plangan materiallar 2 variantda yoziladi.

a) Har bir o‘quvchi haqida alohida ma’lumot, bu bolaga yakka yoki differentsial yondashish uchun kerak bo‘ladi.

b) Sinf o‘quvchilari uchun umumiy ma’lumot, bu ma’lumotdan darsda sinf o‘quvchilari uchun umumiy ishlar metodikasini tanlashda foydalaniladi.

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1 Analitik-sintetik tovush metodiga kim asos solgan?

2.Analitik-sintetik tovush metodining an’anaviy tamoyillarini ayting.

3.Analitik-sintetik tovush metodining shakllanish jarayonida bo‘lgan tamoyillari qaysilar?

4.Bolalarning savod o‘rgatishga tayyorgarligi qay yo‘nalishlarda o‘rganiladi?

a.Bolalarning tayyorgarligini o‘rganishning ahamiyatini gapirib bering.

b.O‘zingiz bir-ikkita bolaning savod o‘rgatishga tayyorgarligini o‘rganing va taqqoslang, farqini aniqlang.

7.Og‘zaki nutqini o‘rganish qanday yo‘nalishlarda olib boriladi?

8.Savod o‘rgatish jarayonida bola tarbiyasi ustida qanday ishlanadi?

9.Alifbe darsligi materiallari mavzusini o‘rganib chiqing, o‘quvchi shaxsini tarbiyalash ustida qilinishi mumkin bo‘lgan ish turlarini belgilang.

2.3. Savod o'rgatish jarayoni bosqichlari.

Analitik-sintetik (tahlil-tarkib) tovush metodida savod o'rgatish jarayoni 4 oy davom etadi. Bu jarayon quyidagi 2 davrga bo'linadi³:

a) alifbogacha tayyorgarlik davri (2 hafta);

b) alifbo davri (31 dekabrgacha davom etadi).

Alifbogacha tayyorgarlik davri. Bu davrning asosiy vazifasi o'quvchilarni maktab, sinf, tartib-intizom qoidalari va o'quv qurollari bilan tanishtirish, nutq o'stirishga oid mashqlar o'tkazib, fonematik eshitishni o'stirishdan iboratdir.

Alifbogacha tayyorgarlik davri, o'z navbatida, quyidagi 2 bosqichga bo'linadi:

1. Harf o'rganilmaydigan bosqich (1 hafta).

2. Unli tovush va harf o'rganiladigan bosqich (1 hafta).

1-bosqichda o'quvchilarga og'zaki va yozma nutq haqida, gap, so'z, bo'g'in va tovushlar haqida, nutqning gaplardan, gaplarning so'zlardan tuzilishi, so'zlarning bo'g'inlarga bo'linishi, bo'g'inlarning tovushlardan tashkil topishi haqida ma'lumot beriladi, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o'rgatiladi, ulardan amaliy foydalana bilish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda maxsus nusxalar asosida o'quvchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga "Alifbe"da berilgan rasmlar asosida hikoyalar tuzdirishdan tashqari, o'zlari bilgan she'r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, xalq ashulalari, alla, qo'shiqlar, latifalardan aytiriladi.

Tayanch so'zlar asosida gap tuzdirish, "Alifbe" sahifalaridagi so'zlarning talaffuzi, o'qilishi va ma'nolari ustida ishlash kabi ishlar uyushtiriladi (Bu tarzda ishlar har bir darsda mavzularga bog'liq ravishda izchil davom ettirib boriladi).

³ Ba'zi adabiyotlarda bu jarayon 3 davrga bo'lingan. Qarang: O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari/ R. Safarova, U. Musaev, P. Musaev, F. Yusupova, R. Nurjanova. – T.: Fan, 2005. – 217-218-betlar.

Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilar yozuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtirilib, harf elementlarini yozishga o'rgatiladi, ularda namunaga qarab grafik xatolarini aniqlash o'z-o'zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish, chamalab yozish kabi ko'nikmalar hosil qilinadi.

2-bosqichda unli tovush-harflar o'rgatiladi. Bunda ularning quyidagi uch xususiyatini o'quvchilar amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim:

- a) talaffuzda (og'izda) to'siqqa uchramasligi;
- b) cho'zib aytilishi;
- v) faqat ovozdin tashkil topishi.

Shuningdek, bu bosqichda tovush bilan harfni farqlashga o'rgatish ko'zda tutiladi. Ushbu bosqichdanoq tovush va harf o'rtasidagi chegaraga qat'iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush haqidagi ma'lumotlar kitob ochtirilmay beriladi. Tovushni ifodalovchi harf ko'rsatilgach, harf ustida ishlanadi. Tovush va harfga oid o'ziga xos xususiyatlar (tovushlarni talaffuz qilamiz, eshitamiz; harflarni yozamiz, ko'ramiz, o'qiyamiz) ham izchil ravishda o'quvchilarning o'zlashtirishlarini hisobga olgan holda sekin-asta tushuntirila boriladi.

Alifbo davri. Bu davr 31 dekabrgacha davom etib, unda o'quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh tovush-harflar bilan tanishtiriladi. Undoshlar osondan qiyinga tamoyili asosida joylashtiriladi. Oldin sonor tovushlar (***n, m, l*** kabi), keyin esa sirg'aluvchi va boshqa undoshlar: ikki tovushni ifodalaydigan ***j***, harf birikmalari (***ng, sh, ch***), tovush bildirmaydigan ***tutuq belgisi*** (***'***) bilan tanishtiriladi.

O'quvchilarning tovush va harfni yaxshi tanishlari, elementar o'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlash, bo'g'indan tovushni ajratish, tovush va harf munosabatini aniqlash, kesma harflardan bo'g'in tuzish va o'qish, bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili kabi mashqlardan foydalaniladi.

Bu davrda bo'g'inlab o'qish asosi shakllantiriladi: ikki harfli ochiq (***na, ni, mu*** kabi), ikki harfli yopiq (***in, ol*** kabi), uch harfli yopiq bo'g'inlarni (***mon, lim, til*** kabi) o'qishga o'rgatiladi.

Alifbo davrini o'rganiladigan tovush-harfning va o'quv materialining murakkablik darajasiga ko'ra **3 bosqichga** ajratish mumkin:

1) unli tovush-harflar, ovozdor, sirg'aluvchi undoshlar, ***o-na, a-na, il, in, bi-lan*** tuzilishidagi so'zlar o'rganiladigan bosqich;

2) artikulyastiyasi qiyin bo'lgan ***r, k, v, f*** kabi undoshlar va ***yo'l-bars, do'st, rasm*** kabi tuzilishdagi so'zlar o'rganiladigan bosqich;

3) o'rganilganlar takrorlanib, harf birikmalari ***ng, sh, ch***, 2 tovushni ifodalaydigan ***j***, tutuq belgisi (***'***) va ***jo'ja, jurnal, jirafa, tong, so'ng, bodring, choynak, shudring*** va shu kabi so'zlarni o'qishga o'rgatiladigan bosqich.

Fonetik ishlar sohasida jarangli va jarangsiz undoshlarni taqqoslashga, ularning so'z ma'nosini farqlashdagi faoliyatini aniqlashga oid mashqlar o'tkaziladi (***ziyrak-siyrak, dil-til*** kabi). Artikulyastiyasi qiyin bo'lgan undoshlar ***ng*** (tong, rang, keng), lab-tish undoshi ***v***, qorishiq undosh ***ch***, jarangli portlovchi ***j*** (jo'ja) va jarangli sirg'aluvchi - ***j*** (jurnal) kabilarni o'rganishda tovush artikulyastiyasiga oid ishlar qiyinlashadi.

Asosiy davrning oxirlarida jarangsiz jufti talaffuz qilinadigan undoshli so'zlar: ***ko'rib (ko'rip), qaytdik (qayttik), aytib (aytip), ketayotib (ketayotip), tortib (tortip), terib (terip), olib (olip), obod (obot), borishdi (borishti)***; qisqa talaffuz qilinadigan ***i*** unlisi bor so'zlar: ***bilan (blan), sira (sra)***; talaffuzda tushib qoladigan undoshli so'zlar: ***baland (balan), do'st (do's), Toshkent (Toshken), farzand (farzan), daraxt (darax)*** kabilarni yozilgandek o'qish imloni o'rganishga tayyorlaydi. Bular avval orfografik, so'ng orfoepik o'qitiladi.

Yuqoridagi kabi so'zlarni o'qish bilan bo'g'inlab o'qish malakasi takomillashadi: o'quvchilar talaffuzi va yozilishida farqlanadigan so'zlarni ham to'g'ri o'qishga o'rganadilar.

Alifbo davrining oxirida o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur:

a) hamma tovushlarni tanishi va har qanday holatda to'g'ri talaffuz qilishi;

b) soʻzning boʻgʻin-tovush, tovush-harf tahlilini bilishi, soʻzdagi tovushlarning izchil tartibini aniqlay olishi, kerakli tovushni soʻz va boʻgʻinga ajrata olishi;

v) kesma harf va boʻgʻinlardan soʻz tuza olishi va oʻqishi;

g) 2-3-4 boʻgʻinli soʻzlarni yaxlit, adabiy-orfoepik talaffuz bilan oʻqishi;

d) gaplarni ohangiga rioya qilib oʻqishi;

e) oʻzi oʻqigan matnning mazmunini tushunib, ongli oʻqishi;

yo) oʻqigan matn mazmunini savollar asosida soddagina qilib qayta hikoyalab berishi;

j) oʻqigan matnga sarlavha topa olishi;

z) toʻgʻri, tez, ongli va ifodali oʻqish malakalariga ega boʻlishi.

Alifbo davri yozuv darslarining vazifasi kichik va bosh yozma harflarni toʻgʻri shakllantirish, harflarni toʻgʻri ulash, alifbeda oʻqigan boʻgʻin, soʻz va gaplarni namunaga qarab yozish, harf, boʻgʻin, soʻz, gap diktantlarini yozish koʻnikmasini shakllantirish, izohli, saylanma, koʻruv, taʼlimiy diktant yoza olishlariga erishish, umuman, grafik malakani shakllantirishdir. Savod oʻrgatish jarayonining oxirida bir darsda, agar darsning 2-3 qismi yozuvga ajratilsa, 20 tagacha soʻz yoza olishlari talab qilinadi.

Savod oʻrgatishning asosiy davrida oʻquvchilarni oʻqishga oʻrgatish.

Maʼlumki, savod oʻrgatish jarayonidagi oʻqish darslarining asosiy vazifasi oʻquvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning toʻgʻri talaffuzini oʻrgatish orqali bolalarda toʻgʻri, ongli, ifodali oʻqish koʻnikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, oʻquvchilar lugʻatini boyitish, bogʻlanishli nutqini oʻstirish, bilimini boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini oʻstirishda ham bu davr masʼuliyatliligi bilan alohida oʻrin tutadi.

Tayyorgarlik davri oʻqishga oʻrgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda oʻzgalar nutqini eshitish, diqqatni toʻplash, til birliklarini (tovush, boʻgʻin, soʻz, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bular oʻquvchilarning oʻqishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

O'qishga o'rgatish uchun, avvalo, o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

2. So'z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: **oy**. O'qituvchi **oy** rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini - so'zni aytadi. O'qituvchi o tovushini cho'zib (o-o-o-y) aytadi va qaysi tovushni cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar **o** tovushini aytgach, uning xususiyalari haqida savol-javob o'tkaziladi. **O** tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng o harfi kesma harfdan yoki rasmlı alifbodan ko'rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

3. O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf aralashtirib qo'yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadi. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmlı alifbodan ko'rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi.

Bunda "Alifbe" sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'g'inga bo'lish, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan so'ng birgalikda ovoz chiqarib o'qish, yakka-yakka o'qish, shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so'zlarni xattaxtada bo'g'inlarga bo'lib yozish, o'rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo'shimcha so'z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi.

Ma'lumki, "Alifbe" sahifalarida bo'g'in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir bo'g'in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarni belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to'rt tovushdan tuzilgan bo'g'inlarni o'qishga o'rgatish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda *o-lov*, *Man-non* tipidagi bo'g'inlarda ***o-lo:v***, ***Ma:n-no:n*** tarzidagi qo'shimcha chiziqdan, *bodring*, *do'st* tipidagi bo'g'inlarda ***bo:d-ri:ng***, ***to':r:t*** tarzidagi qo'shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So'zlarni o'qishga o'rgatishda bilib o'qitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi:

i			
	a		
			ar

Umuman olganda, har bir o'qish darsida, albatta, bo'g'in tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasining takomillashuviga yordam beradi.

O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo'naltiradi. O'quvchi tushirib qoldirilgan harf va so'zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e'tibor beradi, o'rtoqlariga nisbatan tez topib, o'qituvchining rahmatiga sazovor bo'lishga intiladi.

"Alifbe" darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. O'quvchilar shularga mos ohang tanlashni, to'xtam (pauza) qilish o'rinlarini belgilab olishi zarur. Bunda ham o'qituvchining tushuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini izohlashi) va ifodali o'qish namunasini ko'rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qilgan matngina tushunarli tuziladi.

Har bir predmetda bo'lgani kabi o'qish darslarida ham ta'lim-tarbiya birligiga e'tibor beriladi. O'qish darslarida tarbiya o'qilgan matnning ongli o'zlashtirilishiga bog'liq. Birinchidan, o'quvchi matnda fikr nima haqida

borayotganini anglasagina, o'zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, yaxshi inson bo'lish uchun o'qishning zarurligini anglaydi. Shuning uchun ongli o'qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan mazmunli rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqatni qaratish lozim. Bunda quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. *Rasmni kuzating, matnda nima haqida gap boradi?*
2. *Rasmda nima tasvirlangan? Ular orasida bog'lanish bormi?*
3. *Matn mazmunini rasmga qarab so'zlab bering.*
4. *Bolalar qaerga bordilar? Qizning ismi nima? Bolaning ismi-chi?*
5. *Ali, Lola nima qildi? Ular qanday lolalar terdilar?*

Demak, o'qish o'qilganlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g'oya o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi, so'z va matnlar yod olingan taqdirda ham o'quvchiniki bo'lib qoladi.

Savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushungani aniqlanadi, tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suhbat ham, o'qilgan matn yuzasidan o'tkazilgan suhbat ham shu maqsadga ongli o'qishga xizmat qiladi. Sharoitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan muammoli holatni yaratish ham zarur. Bunday holat "Alifbe"dan yoki harf terish matosidan o'qiladigan topishmoqdan foydalanib yoki muammoli savolni keltirib chiqaradigan taxminiy suhbat yordamida hosil qilinishi mumkin. Masalan, *"Qishda qushlar qaerga uchib ketadilar?"* (harf terish matosida: *"Issiq o'lkalarga uchib ketadilar"*). Mana shu kabi tayyorlov mashg'ulotlari o'qishning yuqori darajada ongli bo'lishini ta'minlaydi.

Ongli o'qishni ifodali o'qishdan ajratib bo'lmaydi. Ammo analitik o'qishning birinchi bosqichida ifodali o'qish mumkin emas, chunki bolalar so'zda urg'uli bo'g'inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonastiyani, so'roq ohangini, hatto, orfoepik to'g'ri o'qishni ham bilmaydilar. Shuning uchun

analitik o'qish bosqichida so'zni yaxlit, orfoepik qayta o'qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o'qish to'g'ri intonastiyaga, ifodalilikka rioya qilib o'qishga o'rgatibgina qolmay, o'qishning ongli bo'lishiga ham yordam beradi.

Savod o'rgatishning birinchi darslaridayoq o'quvchilarga tabaqalashtirib (differenstial) yondashish (bunda o'quvchilarning o'qishga tayyorgarliklaridagi fikrlar hisobga olinadi) amalga oshiriladi.

O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishga, o'rganishga qiziqish ortadi.

Ongli o'zlashtirishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlarning ma'nosi ustida to'xtalish, birinchidan, fikrni oydinlashtirsa, ikkinchi tomondan matnni tushunishga ham yordam beradi.

She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining uchdan ikki qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

Yangi material o'rganiladigan **o'qish darsida** asosiy ish turlari quyidagilardir:

1. O'rganiladigan yangi tovushli so'zni (shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan so'zni) bo'g'in-tovush tomonidan tahlil qilish bilan ajratish. Bunda yangi tovush ajratiladigan so'zni o'quvchilar rasm asosida o'zlari tuzgan gaplar ichidan oladilar. Tovushni ajratishda shu so'zning chizmasi-modeliga asoslanadilar. Tovushlarni eshitish, talaffuz qilish, ularning artikulyastiyasi (nutq organlarining tovush chiqarishdagi ishi) ustida mashq qilinadi.

2. Kichik va bosh harflar bilan tanishtiriladi. Bo'g'inlar o'qitiladi.

3. So'zlarni avval xattaxtadan, keyin "Alifbe"dan o'qish. Harf bo'g'inlaridan harf terish kartonida so'z, so'z birikmasi, gap tuzish va ularni o'qish, so'z ma'nosi ustida ishlash.

4. Matnni o'qish va tahlil qilish, uni qayta o'qish, rasmning matnga bog'liqligini belgilash.

5. Nutq o‘stirish: lug‘atni boyitish, so‘z birikmasi, gap, bog‘lanishli hikoya tuzish.

6. Umumlashtirish: yangi harfni jadvalga qo‘yish, yangi o‘rganilgan tovushning unli yoki undosh ekanligini aniqlash, yangi harfni ilgari o‘rganilganlar bilan qiyoslash, tovush va harfning ahamiyatini takrorlash va hokazo.

7. O‘rganilganlarni mustahkamlash darsida yangi tovush ajratiladi, yangi harf bilan tanishtirish mashqidan tashqari barcha ish turlaridan foydalaniladi, shuningdek, qo‘shimcha so‘zlar va matnlar bilan ishlanadi; matnni o‘qish va tahlil qilishga, ko‘rgazma vositalar bilan ishlashga (harfni terish kartoni, magnit doskasi, sirli mato, rasmlar va boshq.) nutq o‘stirishga, o‘yinlar va qiziqarli materiallarga, ilgari o‘rganilgan tovushlar va harflarni takrorlab mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi, tarqatma materiallardan ham foydalaniladi.

8. Birinchi uchragan so‘zlar bilan ishlash: ochiq bo‘g‘inda dastlab undosh, keyin esa unli o‘qiladi, yopiq bo‘g‘inda esa unli bilan tugagan ochiq bo‘g‘inni o‘qib, keyingi undosh o‘qiladi va so‘zni yaxlit o‘qishga o‘rgatiladi. Yangi so‘z urg‘usi qo‘yilgan holda beriladi, bu uni o‘qishga, bo‘g‘inlab o‘qishdek sintetik o‘qishga (so‘zni butunligicha o‘qishga) yordam beradi. Bunda yangi so‘zni xattaxtada katta bosma harflar bilan yozish, o‘quvchilarga o‘qitish tavsiya qilinadi. So‘z shivirlash bilan o‘qiladi, kesma harf bo‘g‘in bilan yoziladi.

9. Syujetli (rasmning asosiy mazmunini aks ettiradigan) rasmga qarab o‘qituvchi yordamida, uning yo‘llovchi savollari asosida hikoya tuzish, undan gapni ajratish va analiz qilish.

Yangi bo‘g‘in, so‘z tuzishda harf terish matosi, magnit doskasi, sirli mato kabilarning va yangi so‘zni xattaxtada va daftarda “yasash”ning ahamiyati juda katta. O‘qish uchun xilma-xil bosma materiallardan qanchalik ko‘p bo‘lsa, ulardan turli xil mashqlar tuzishda foydalanilsa, o‘qish shunchalik ongli, qiziqarli bo‘ladi, malaka puxta shakllantiriladi.

Bola endigina o'qiy boshlagan bosqichda ularni qatorni yo'qotmaslikka, shuningdek, so'zdagi keyingi harfni, keyingi so'zni yo'qotmaslikka o'rgatish juda muhimdir. Bu vazifani savod o'rgatishning boshlang'ich bosqichida xatcho'p (*o'qiyotgan betni belgilab qo'yish uchun kitob ichiga solib qo'yiladigan qog'oz yoki lentacha*) va tayoqcha bajaradi. O'qilayotgan qatorni kuzatib borish ko'nikmasiga sinf o'quvchilaridan o'rtog'ining xatosini to'g'rilashni talab qilish yo'li bilan ham erishiladi. O'quvchilar bu talabni qizg'anib bajaradilar, shu yo'l bilan ularning darsga, o'qishga e'tibori jalb etiladi.

Demak, o'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o'qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi.

2.4. Savod o'rgatishning mashq turlari

1. Tovush savod o'rgatishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Savod o'rgatish davrida so'z va bo'g'inlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish, tovush va ularning artikulyatsiyasini analiz qilish mashqlari o'tkaziladi, diksiya (ravshan, burro gapirish) ustida ishlanadi, logopedik ishlar olib boriladi. Tovush ustida ishlash bilan ayniqsa, kesma harflardan so'z tuzish kabi sintez qilish usullarida birlashib ketadi; tovush va harf o'rtasidagi munosabatni doimo aniqlab borish o'qish malakalarini shakllantirish uchun ham, imlo tomonidan savodli yozish asosini yaratish uchun ham foydalidir.

S.P.Redozubov tovushni analiz va sintez qilish usullarini to'liq ishlab chiqqan. Shulardan o'zbek tilida savod o'rgatishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

A. Analiz;

1. Nutq (gap)dan so'zni ajratish; so'zni aniq talaffuz qilish; bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlarni aniq talaffuz qilish urg'uli bo'g'inni ajratish va uni boshqa bo'g'inlardan farqlab, kuchli talaffuz qilib o'qish, maxsus tovushni ajratgan holda so'zni bo'ginlab o'qish (aaaa-na, nooon, iiil. Sssa-na, yyyo'l, ki-yyyik, iiish)

2. Shu darsda o'rganiladigan yangi tovushni ajratish. Yangi tovushni birinchi marta ajratishning bir necha usuli bor:

a) so'zdan tovushni uzun talaffuz qilib ajratish: aaa-na, looo-la, iiin, booo-la;

b) undosh tovushni yopiq bo'g'indan ajratish: Usss-mon, O- limmm, O-minnn.

v) sirg'aluvchi undoshni ochiq bo'g'indan ajratish: sssa-na, to-yyyi, zzzi-rak;

g) bo'g'in hosil qilgan bir unlini ajratish: o-na, u-num, o'- tin, yo-rur, o-ta, yu-tuq, u-zuk;

d) o'rganilgan tovushni so'z boshida kelgan so'zlardan ajratish (so'zni oq'ituvchi aytadi, birinchi tovushni esa o'quvchi aytadi): nok, tok, lola,...;

e) rasm nomini ifodalovchi so'zni aytish: o'qituvchi nokning rasmini ko'rsatib, nok deydi, o'quvchilar k tovushini o'zlari o'qiydilar nok.

Asosan, darsda yangi tovush birinchi marta ajratib, talaffuz qilingandan so'ng, shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan va ana shu talaffuz qilinadigan so'zlar tanlanib, o'quvchilarga talaffuz qildiriladi: k tovushi uchun: kuz, tik, tok.

O tovushi: olma, osh, O-mon;

D tovushi: dor. Odil (so'z oxirida jarangsizlashadigan ozod, hisob kabi so'zlarni tanlash tavsiya qilinmaydi).

3. So'zdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, bo'g'inlarni sanash: Olma – ol-ma - o-l-m-a; to'rtta tovush, to'rtta harf, ikki unli tovush, ikki undosh tovush, ikki bo'g'in Bu usuldan oq'uv yilining ikkinchi yarmida va keyingi sinflarda ham fonetik tahlil sifatida foydalaniladi.

4. Jarangli va jarangsiz undoshli so'zlarni taqqoslash: dil-til, oldin-oltin, tortosh, moy-choy-loy-boy-soy-toy kabi.

Savod o'rgatishda analiz sintez bir-biridan ajratilmaydi, chunki analiz o'qish jarayonini egallash uchun zamin yaratadi, sintez esa ko'proq o'qish malakasini shakllantiradi.

B. Sintez:

1. Tovush tomonidan analiz qilingan soʻzni yoki boʻgʻinni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu soʻz yoki boʻgʻinni oʻqish.

2. Oʻrganilgan undosh bilan (na, no, la, lo, ni, li, bi, si, ma, mo, mi, ta, to, ti, dl, do, so, sa, ...) boʻgʻin jadvalini tuzish; boʻgʻin jadvalini kitobdan yoki matndan oʻqish; kesma harflardan boʻgʻin jadvalini tuzish.

3. Bola-lola-tola, boy-toy-soy-loy, baxt-taxt, ona-ota, mosh-bosh kabi bir undosh harf bilan farqlanadigan yoki ona-ota, ukki-ikki, osh-ish kabi bir undosh harf bilan farqlanadigan soʻzlarni oʻqish (bunday soʻzlarni oʻquvchilarning oʻzlari topib oʻqishlari mumkin).

4. Soʻzning boshiga yoki oxiriga bir harf tushib, yangi soʻz hosil qilib oʻqish; ola-lola, osh-bosh, oy-toy, boy, soy, loy; oʻrok-soʻroq; ol—xol, sol; sava-savat, yelka-yelkan; son-oston; ayiq -qayiq, - oʻlka-yoʻlka; olti-oltin; oldi-oldin.

5. Soʻz oʻrtasiga harf qoʻshib, yangi soʻz hosil qilib oʻqing; koʻmak-koʻlmak, zirak-ziyrak, tana-tashna, osha-oshna.

b. Boʻgʻinlarni almashtirib yangi soʻz hosil qiling va oʻqing Gulnor—Norgul.

7. Tovushlarning oʻrnini almashtirib yangi soʻzni hosil qilish va oʻqish: somon-osmon, tilak-kalit, quy-yuq

8. Tovushni yoki boʻgʻinni tushirib qoldirib yangi soʻz hosil qilish va oʻqish: anor-nor, gulnor—gul, yelkan-yelka, bogʻla-bogʻ.

Boʻgʻin qilib yangi soʻz hosil qilish va oʻqish: bogʻ-bogʻcha, bogʻbon, gul-gulzor, dor-dorboz.

Sintetik ishlarning bu usullari tovush ustida ishlashni harf ustida ishlash bilan birga qoʻshib olib borishni talab qiladi. Bu ish usullari qiziqarli boʻlib, darsda yarim oʻyin holatini vujudga keltirishga imkon beradi.

Xulosa qilganda faqat analiz yoki faqatgina sintez bilan kifoyalanib boʻlmaydi, ammo tafakkur faoliyatining u yoki bu turi yetakchi rol oʻynaydi. Soʻzni analiz qilish bilan oʻquvchi soʻzni leksik maʼnoga ega boʻlgan bir butun

sifatida anglaydi, bu - sintezdir; soʻz sintez qilinganda uning tovush tarkibiga diqqat jalb etiladi, bu esa analizdir.

Umuman, savod oʻrgatish jarayonida analitik-sintetik ishlar sistemasi bolaning aktiv fikrlashini taʼminlaydi. Analitik-sintetik ishlar usuligina oʻquvchilarning bilish mustaqilligini taʼminlaydi, muammoli vaziyat yaratadi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni oʻstiradi.

Tovush-harf tomonidan analiz va sintezni yengillashtiradigan foydali vositalar sifatida kesma harflar, kesma boʻgʻinlar va harf terish polotnosi, shuningdek, harf yoki boʻgʻin abak, kadoskopdan foydalaniladi; tovushlarning talaffuzi ustida ishlash uchun, shuningdek, yozib olingan ifodali nutqni (asosan, badiiy asarni) takroriy eshittirish uchun magnitafon (yoki lingofon) kabinetda xizmat qiladi.

v) tovushlar artikulyatsiyasi, diksiya ustida ishlash.

Analiz-sintez ishlari sistemasida tovushning oʻzini analiz va sintez qilish, tovushni talaffuz qilish vaqtidagi nutq apparati organlarining holati va harakatini kuzatish (analiz) va harf bilan ifodalangan tovush va tovushlar birikmasini talaffuz qilish maqsadida nutq organlarini zarur holatga keltirish (sintez) muhim oʻrin tutadi. Masalan: u tovushning analizini olsak: til tanglayga tomon baland koʻtariladi, tanglay bilan til orasida torgina boʻshliq qoladi, lablar bir—biriga yaqinlashib yumaloqlashadi, ovoz hosil boʻladi; R tovushining sintezi ogʻiz ozroq ochiq tishlar orasida boʻshliq boʻladi, lablar ozgina kengroq tortilgan, til ozroq orqaga itarilgan va tanglay (tepa)ga tomon baland koʻtarilgan holatda; ovoz eshitiladi, oʻtayotgan havo kuchi bilan tilning uchi titraydi.

Sinfda barcha tovushlarning artikulyatsiyasi (hosil boʻlishi) ni koʻrsatib boʻlmaydi. Masalan: qorishiq (ch, j), chuqur til orqa (k, r, x), boʻgʻiz tovushi (x,) artikulyatsiyasini koʻrsatish qiyin. Ammo bunday tovushlarning hosil boʻlishini tushuntirish uchun oʻqituvchi, oʻquvchilar diqqatini jalb qilgan holda, tovushni talaffuz qilib koʻrsatadi, soʻngra oʻquvchilar talaffuz qiladilar. Bunday usulni bir necha bor takrorlagan maʼqul.

Diksiya ustida ishlash o'quvchilar nutqini tushunarli, sof, tiniq, jarangdor bo'lishiga erishishdir. Bu savod o'rgatish uchun tez, ifodali o'qish, orfoepik va orfografik malakani, xushovozlik ko'nikmasini o'stirish uchun ham juda muhimdir. Yaxshi diksiya tovush hosil qiluvchi apparatning egiluvchanligiga bog'liq shuning uchun diksiyani o'stirish mashqlari tovush hosil qiluvchi apparatning elastikligini o'stirishga qaratiladi.

Diksiya ustida ishlash mashqlariga misollar:

1. Baland talaffuzni mashq qilish: Masalan. Sara-shira sara-shira so'zlarini ovozni to qichqiriqqacha balandlata borib, so'ngra ovozni to shivirlashgacha paslatib talaffuz qilish.

2. Talaffuz tempini mashq qilish. Shu sira-shira so'zlarini sekin talaffuz qilib, tempni asta tezlashtira borish.

3. Ayrim undosh tovushlarni, ayniqsa, o'quvchilar nuqson bilan talaffuz qiladigan so'zlarni qayta talaffuz qilish mashqi.

4. Murakkab tovush birikmalarini talaffuz qilishni mashq qilish. Buning uchun tez aytishlardan foydalaniladi. Masalan, G'ani g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi.

Bolalarni so'zlayotganda to'g'ri nafas olishga, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va o'rgatish zarur. Ba'zi tortinchoq bolalar tovushni talaffuz qilishga uyaladilar. Bunday vaqtda tovushni, so'zni xor bilan talaffuz qildirish, xor bilan o'qitish, tez aytishlarni xor bilan aytirish foydalidir.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutqini o'stirish.

Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan savod o'rgatish ham, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, predmet darslar, rasm yuzasidan suhbat va boshqalar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari:

1) bolalar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash;

2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog‘liq holda lug‘atini boyitish;

3) o‘quvchilar nutqidagi ayrim so‘zlarning ma‘nosiga aniqlik kiritish;

4) gap va uch—to‘rt gapli kichik hikoyacha (bog‘lanishli nutq)ni og‘zaki turli tuzish ko‘nikmasini o‘stirishdan iborat. Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so‘zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli tipdagi sodda yig‘iq gap (Bolalar yuguryaptilar), sodda yoyiq gap (Lola magazinga bordi), uyushiq bo‘lakli gap (Anvar oyisiga yordamlashadi, ukasiga qaraydi), qo‘shma gap (o‘g‘il bolalar qushlarga in yasashyapti, qizlar don berishyapti) tuzadilar. Ular bu ko‘nikmalarni amaliy—mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiati, kuzatishlari nutq o‘stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Predmetlar, uy—ro‘zg‘or asboblari, o‘simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu bo‘lib xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

Birinchi sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirishda bolalarning o‘yin va ertaklari, rasm ko‘rish va Bu nima? Bu kim? Bu qanday predmet? Kim nima qilyapti? kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalaniladi.

Savod o‘rgatish davrida nutq o‘stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlarni ma‘lum belgilari asosida gruppalash kabi mashqlar kiradi.

Masalan, o‘qituvchining topshirig‘iga muvofiq, ma‘lum bir temada (kuz, mevali bor, sila, sinf, maktab haqida) ikki so‘zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yirik gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. Urgangan harflaridan so‘zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar. O‘qish darslarida rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o‘qituvchi savoliga to‘liq javob berishga o‘rganadilar. Alifbedagi rangli chiroyli rasmlar tevarak-

atrofdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

1. Savod o'rgatish davrida grammatik-orfografik propedevtika.

Savod o'rgatish davridayoq bolalar grammatika va imlodan ayrim materiallarni amaliy asosda o'zlashtira boradilar, ya'ni ularga mavzu tushuntirilmaydi, nazariy ma'lumot berilmaydi.

Bolalar og'zaki va yozma nutqni o'zlashtirish va yozma ishlarni bajarish bilan o'quv yilining ikkinchi yarmida yoki keyingi sinflarda o'rganiladigan mavzularni o'zlashtirishga tayyorlanadilar.

Savod o'rgatishning birinchi oylaridayoq bolalar Ali, Omon, Olyam, Nayma kabi juda ko'p ismlarni o'qiydilar va kishilarning ismlari bosh harf bilan yozilishini amaliy o'zlashtira boradilar.

Bu bilan ular o'quv yilining ikkinchi yarmida o'rganiladigan kishilarning ismi bosh harflar bilan yozilishiga doir imlo qoidasini o'zlashtirishga tayyorlanadilar. Til-dil, olti-oldi kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish jarangli va jarangsiz undoshlarni o'zlashtirishga, son-sana, gul—gulchi-guldon—gulzor, bor-bogbon-borcha kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish esa bolalarni o'zakdosh so'zlar mavzusini o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Mashqlar tizimi boshlang'ich sinflar grammatika va imlo programmasining bosqichli izchillik printsipi asosida tuzilishiga mos keladi. Amaliy ishlar natijasida bolalarda ma'lum nutq tajribasi, til qoidalarini, so'zni, uning tarkibi va yasalishini, boshqa so'zlar bilan bog o'langanda o'zgarishini kuzatish tajribasi to'plana boradi. Mana shu tajribalar asosida o'quvchilar nazariy umumlashmalarni o'zlashtiradilar, bular asosida esa grammatik tushuncha va orfografik qoidalar shakllanadi.

2.5. Savod o'rgatish davrida boshlang'ich yozuvga o'rgatish

Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar o'qishga o'rganish bilan parallel ravishda yozuvdan ham elementar malaka hosil qiladilar. Dasturga muvofiq o'quvchilar yozuvdan quyidagi malakalarni egallashlari lozim:

1. Partada to‘g‘ri o‘tirish, daftarni to‘g‘ri qo‘yish, chiziqlarni chamalash, yozayotganda ruchkadan to‘g‘ri foydalanish, hoshiyaga rioya qilish (1-rasm).

2. Ish daftari yoki alifbe asosida o‘zbek alifbosidagi barcha katta va kichik harflarni yozish, shuningdek, harflarni so‘zda bir-biriga bog‘lab yoza olish: bosma matnni yozma matnga aylantirib yozish.

3. Tahlil qilingan so‘z va ikki-uch so‘zli gaplarni o‘qituvchi yordamida yozish.

4. Talaffuzi bilan yozilishida farq qilmaydigan so‘zlarni ko‘chirib yozish va eshitib yozish: yozganlarini matnga qarab, shuningdek, izohlab o‘qish bilan tekshirish.

5. Og‘zaki tuzilgan hikoyadan olingan gapni yozish.

Analitik-sintetik tovush metodi (tovush-tarkib metodi) tamoyiliga muvofiq, o‘qish va yozuv birligi saqlanadi. Harflarni yozishda o‘qishga o‘rgatishdagi tarkib asos qilib olinadi, ya‘ni o‘qish darsida o‘quvchilar harfni o‘zlashtiradilar, matnni o‘qiydilar, yozuv darsida esa shu harfli so‘zni yozadilar.

Yozuvga o‘rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta‘lim berish, ko‘nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi.

Grafik malaka, birinchidan, qo‘l-harakat malakasidir, bu harakat birinchi qarashda muskul kuchiga asoslanadi. Ikkinchidan, yozuv jarayonida nutqning o‘zlashtirilgan birligi bo‘lgan tovush grafik belgilarga, ya‘ni harfga tarjima qilinadi. Bu yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Yozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning to‘g‘ri nisbatini, ikkinchidan, bir qancha grafik va imloviy qoidalarga rioya qilishni, uchinchidan, o‘z fikrini, taassurotini, istaklarini ifodalashda yozuv malakasidan foydalanishni talab qiladi.

Yozishdan birdan-bir maqsad fikrni ifodalashda yozuv malakalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu maqsadni bolalar tez anglab yetsalar, ularda yozma nutq malakasi shunchalik muvaffaqiyatli va to‘g‘ri shakllanadi. Savod o‘rgatish jarayonida bolalar juda sekin yozadilar.

Yozuv malakasi o‘qish malakasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bola yomon o‘qisa, yozuvni egallashi ham qiyin bo‘ladi, chunki bo‘g‘inlab o‘qish malakasidan so‘ng, bo‘g‘inlab yozish malakasi shakllanadi.

Yozish va o‘qish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Keyinroq, bolalarda o‘z fikrini yozma ifodalash malakasi bir oz barqarorlashganda, bu malaka nutqqa, fikrni ifodalash jarayoniga ham ijobiy ta’sir qiladi.

Grafik malakani shakllantirishda quyidagi bosqichlar mavjud:

1. Turli shakllar andozasi ustidan chizish. Erkin rasmlar chizish. Yozuv qurollarini to‘g‘ri tutish, turli qiya elementlar chizish, uzunlikni, oraliq masofani chamalash va hokazo.

2. Harf elementlarini yozish, baravar masofada qisqa va uzun elementlar, osti va usti ilmoqli elementlar chizish.

3. Bosh va kichik harflarni alohida yozish.

4. Harf birikmalarini, bo‘g‘inni yozish, harflarni to‘g‘ri qo‘shib yozish malakasini hosil qilish uchun so‘z yozish.

Grafik malakani hosil qilishdan asosiy maqsad, harflarni bosmasdan bir tekisda, elementlarga ajratmay bog‘lab tez, bir maromda yozish, so‘zlarni qatorga to‘g‘ri joylashtirishdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, savod o‘rgatish davrida bola harflarni yozishdan oldin uni qanday shakllantirishni ko‘z oldiga keltirib, fikrlab oladi, ba’zan harf shaklini havoda “chizadi”, harf namunasini ko‘chiradi, tarkibini tahlil qiladi, uni qanday yozishni o‘zicha sekin gapiradi; o‘qituvchi o‘quvchi yoniga o‘tirib, ruchkani to‘g‘ri ushlatadi va uning qo‘li bilan harfni yozishni ko‘rsatadi yoki o‘zi yozib tushuntiradi. Bundan tashqari, bola yozuvning texnik tomoniga katta jismoniy kuch sarflaydi. Savod o‘rgatish oxirida bola bir darsda 20 tacha so‘zni yozishi mumkin.


O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga binoan 1993 yil 2 sentyabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 1995 yil 6 mayda bu qonunga o‘zgartirishlar

iritildi. Bu alifbo, birinchidan, og‘zaki talaffuz bilan yozma nutq mosligini ta’minlaydi, ikkinchidan, jahon xalqlarining 30 foizdan ortig‘i mana shu yozuvdan foydalanadi. Bu esa xalqaro aloqa-aralashuvni birmuncha yengillashtiradi.


Lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosidagi harflar ham bosmasdan, ortiqcha jimjimasiz, qo‘l uzmasdan bog‘lab yoziladi. Shuning uchun yozuvga o‘rgatish metodikasida harflarni qo‘shishga alohida ahamiyat beriladi. O‘quvchilar barcha harflarni bir-biriga qo‘shish yo‘lini bilishlari lozim.

Yozuvga o‘rgatishning tashkiliy va gigienik shartlari. Maktabda asosiy yozuv quroli sharikli ruchka bo‘lib, xattaxtaga yozishda bo‘rdan foydalaniladi.

Savod o‘rgatish davrida bolalarni yozuvga o‘rgatish uchun turli vaqtlarda turli xil chiziqli daftarlardan foydalanilgan: dastlab chiziqsiz silliq qog‘oz ishlatilgan bo‘lsa, keyin quyuq yotiq chiziqlar bilan kesilgan uch chiziqli daftardan foydalanilgan:



Bunday daftarda yozuvga o‘rgatilgan boladan boshlang‘ich sinflarni bitirguncha besh xil daftarga yozishni o‘rganish talab etilar edi:



Hozirgi vaqtda yozuvga o‘rgatish uchun ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Xattaxta ham shunga mos bo‘lishi talab qilinadi; 2-sinf dan, ba‘zan birinchi sinfda o‘quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab bir chiziqli daftarga yozishga o‘tiladi.

Daftar tutishda bolalarni hoshiya qoldirishga, daftar chiziqlariga rioya qilishga, harflarni bir xil hajmda yozishga, sarlavhani aniq va to'g'ri ajratishga, xat boshidan yozishda joy qoldirishni unutmaslikka o'rgatib borish ularda saranjom-sarishtalikni tarbiyalaydi. Yozuv darsida o'quvchilar "Yozuv daftari" bilan ishlaydilar. Sinfda o'rganilgan harfni uyda mashq qilish uchun alohida daftar bo'lishi kerak.

O'qituvchi yozish vaqtida 65° qiyalikda yozishni, buning uchun daftar parta ustiga 25° qiyalikda qo'yilishini ta'kidlab turadi.

Yozuv daftari bilan ishlash. Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar o'qishga o'rganish bilan parallel ravishda yozuvdan ham elementar malaka hosil qiladilar. Dasturga muvofiq o'quvchilar yozuvdan quyidagi malakalarni egallashlari lozim:

1. Partada to'g'ri o'tirish, daftarni to'g'ri qo'yish, chiziqlarni chamalash, yozayotganda ruchkadan to'g'ri foydalanish, hoshiyaga rioya qilish (1-rasm).

2. Ish daftari yoki alifbe asosida o'zbek alifbosidagi barcha katta va kichik harflarni yozish, shuningdek, harflarni so'zda bir-biriga bog'lab yoza olish: bosma matnni yozma matnga aylantirib yozish.

3. Tahlil qilingan so'z va ikki-uch so'zli gaplarni o'qituvchi yordamida yozish.

4. Talaffuzi bilan yozilishida farq qilmaydigan so'zlarni ko'chirib yozish va eshitib yozish: yozganlarini matnga qarab, shuningdek, izohlab o'qish bilan tekshirish.

5. Og'zaki tuzilgan hikoyadan olingan gapni yozish.

Analitik-sintetik tovush metodi (tovush-tarkib metodi) tamoyiliga muvofiq, o'qish va yozuv birligi saqlanadi. Harflarni yozishda o'qishga o'rgatishdagi tarkib asos qilib olinadi, ya'ni o'qish darsida o'quvchilar harfni o'zlashtiradilar, matnni o'qiydilar, yozuv darsida esa shu harfli so'zni yozadilar.

Yozuvga o'rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta'lim berish, ko'nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi.

Grafik malaka, birinchidan, qo‘l-harakat malakasidir, bu harakat birinchi qarashda muskul kuchiga asoslanadi. Ikkinchidan, yozuv jarayonida nutqning o‘zlashtirilgan birligi bo‘lgan tovush grafik belgilarga, ya’ni harfga tarjima qilinadi. Bu yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Yozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning to‘g‘ri nisbatini, ikkinchidan, bir qancha grafik va imloviy qoidalarga rioya qilishni, uchinchidan, o‘z fikrini, taassurotini, istaklarini ifodalashda yozuv malakasidan foydalanishni talab qiladi.

Yozishdan birdan-bir maqsad fikrni ifodalashda yozuv malakalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu maqsadni bolalar tez anglab yetsalar, ularda yozma nutq malakasi shunchalik muvaffaqiyatli va to‘g‘ri shakllanadi. Savod o‘rgatish jarayonida bolalar juda sekin yozadilar.

Yozuv malakasi o‘qish malakasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bola yomon o‘qisa, yozuvni egallashi ham qiyin bo‘ladi, chunki bo‘g‘inlab o‘qish malakasidan so‘ng, bo‘g‘inlab yozish malakasi shakllanadi.

Yozish va o‘qish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Keyinroq, bolalarda o‘z fikrini yozma ifodalash malakasi bir oz barqarorlashganda, bu malaka nutqqa, fikrni ifodalash jarayoniga ham ijobiy ta’sir qiladi.

Yozuv daftarida o‘quvchilar “Alifbe”da o‘rganilgan harfni yozma shakllantiradilar. Suhbat uchun daftarning yuqori qismida predmet rasmi yoki biror mazmunli rasm keltirilishi, ayrim predmet nomlarini ifodalovchi so‘z chizmasi katakchalarga ajratib berilishi, gap nusxalarining keltirilishi maqsadga muvofiqdir. Ba’zi o‘rinlarda o‘quvchilar berilgan gap yoki so‘z chizmasini o‘zlari mustaqil tasvirlaydilar.

Predmet rasmi berilgan o‘rinlarda shu predmet nomi so‘z bo‘g‘in-tovush jihatdan tahlil qilinadi, so‘zdagi tovushlar soni suhbat yo‘li bilan aniqlanadi va katakchalarda ranglar bilan belgilanadi.

Mazmunli rasm asosida gap chizmasiga mos gap tuziladi, keyin o‘sha gapning tahlili ustida ish olib boriladi.

Harflarning yozma shakli ularning bosma shakli bilan taqqoslash orqali tanishtiriladi.

Yozuv daftarida turli belgilar qoʻllangan. Ular shu belgi uchragan oʻrinlarda tanishtirib boriladi.

Yozuvga oʻrgatishda oʻquvchilarning koʻruv, eshituv, qoʻl harakati sezgilarini ishga solish lozim. Shunda yozuv quruq yozuv boʻlmay, ongli yozuvga aylanadi.

Yozuvga oʻrgatishda orfografik elementlar. Orfografiya yunoncha soʻz boʻlib, “toʻgʻri yozuv” degan maʼnoni bildiradi. Orfografiya (imlo) adabiy tilning yozma shakli bilan bogʻliq boʻlib, toʻgʻri yozish haqidagi qoidalar yigʻindisidir. Orfografiyani bilmay turib, fikrni adabiy til meʼyorlari asosida yozma ifodalab boʻlmaydi. Oʻquvchilarning imloviy savodxonligi haqida gʻamxoʻrlik qilish tilning aniqligi, fikrni toʻgʻri ifodalash, kishilar bilan oʻzaro xatosiz muomala qilish uchun gʻamxoʻrlik demakdir. Savod oʻrgatish davrida bolalarda grafik malakani shakllantirish bilan birga imloga oid malaka ham shakllantiriladi.

Savod oʻrgatish davrida oʻquvchilar quyidagilarni amaliy tarzda oʻrganadilar:

a) talaffuzi va yozilishida farq qilmaydigan soʻzlarda tovush bilan harfning mosligini;

b) soʻzlarni alohida yozishni, yaʼni yozuv vositasida soʻzni maʼno birligi sifatida ajratishni;

v) soʻzning satrga sigʻmay qolgan qismini keyingi qatorga boʻgʻinlab koʻchirib yozishni (bunda boʻgʻin hosil qilgan bir unli harfni qatorga koʻchirib yozib boʻlmasligini);

g) gap boshida, shuningdek, kishilar ismida, hayvonlarga qoʻyilgan nomlarda bosh harfning ishlatilishini.

Savod oʻrgatish davrida oʻquvchilarda oʻz-oʻzini tekshirishga oid malaka shakllantiriladi: ular yozganlarini namuna bilan solishtiradilar, yoʻl qoʻygan

xatolarini topadilar, ularni izohlashga o'rganadilar. Shu davrdanoq ko'chirib yozish, diktant va ijodiy yozuv (insho)lardan foydalaniladi.

Gap va so'zlarni yozishdan oldingi tayyorgarlik ishlari, muntazam o'tkazib boriladigan o'z-o'zini tekshirish mashqlari, o'qilgan matnning imlosini kuzatish o'quvchilarda yuqori savodxonlik garovi bo'lgan orfografik ziyraklikni asta-sekin shakllantira boradi, ularni yuqori sinflarda o'rganiladigan imlo qoidalarini puxta o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Yozuv darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish. Yozuv darslarida ham o'quvchilar nutqini o'stirish, fikrlashga o'rgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Yozuvga o'rgatishning dastlabki kunlaridanoq bolalarning o'z fikrini yozma ifodalashi muhim ekanligini, u insonlarning aloqaga kirishuvida muhim vositaligini tushunishlariga erishish lozim. Buning uchun o'quvchilar yozadigan birinchi so'z ularning jonli nutqidan yoki o'zlari tuzgan gapdan olinishi kerak. Bu jarayonda ko'chirib yozish va diktant ijodiy yozuvdan so'ng o'tkaziladi. Bu yozma mashq turlarining ongli bajarilishini, o'quvchilarning bilish faolligini ta'minlaydi. Masalan, bolalar o'qish darsida "Alifbe" da berilgan rasmga qarab gap yoki hikoya tuzadilar, yozuv darsida esa o'sha gap yoki hikoyadagi ma'lum bir so'zni yozadilar. Bu ular uchun ijodiy yozuv - inshodir. Keyinchalik o'quvchilar alohida so'z yozishdan kichik-kichik gaplarni yozishga o'tadilar.

O'quvchilar gap yoki hikoyani og'zaki ravishda erkin tuza oladilar, lekin ammo yozish uchun o'rganilmagan harf bo'lmagan so'zni tanlashda qiynaladilar. Bu jarayonda o'qituvchi yordam berishi va yozuvni kuzatib borishi lozim.

Ijodiy yozuv mashqini doimo izchil ravishda o'tkazib, asta-sekin murakkablashtirib borish kerak. Bunday mashqlar o'quvchilarni insho va bayon yozishga tayyorlaydi, o'z fikrlarini mustaqil ravishda yozma bayon qilishga o'rgatadi.

Yozuv darslarida yuqoridagi kabi mashqlar o'quvchilarning yozma nutqini og'zaki nutqi bilan bog'liq holda o'stirishni ta'minlaydi.

Savod o'rgatish davrida o'qish va yozuv darslari. O'qish va yozuv darslariga qo'yiladigan talablar. Dars ta'limning asosiy shakli hisoblanadi. Analitik-sintetik tovush metodi asosida olib boriladigan savod o'rgatish darslari xilma-xil bo'lishi, o'quvchilarni zeriktirmasligi va charchatib qo'ymasligi kerak.

Savod o'rgatish davridagi o'qish yoki yozuv darslari va ularning ayrim turlari uchun umumiy bo'lgan asosiy talablar mavjud:

1. Umumdidaktik talablar:

a) har bir darsning tarbiyaviy maqsadi bo'lib, unda bironta axloqiy sifat o'stirilishi lozim;

b) darsning ta'limiy maqsadi, ya'ni o'quvchilar darsda qanday yangilikni bilishi, nimani o'rganishi, qanday ko'nikma va malakalar o'stirilishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va faolligining qanday bo'lishi aniq belgilab olinishi kerak;

v) darsning izchilligi va istiqboli, uning oldingi va keyingi darslar bilan bog'liqligi aniq belgilab olinishi zarur;

g) o'tiladigan materialning xarakteri va ta'lim maqsadidan kelib chiqib dars uchun xilma-xil va qiziqarli metodik usullar va vositalar tanlanishi lozim;

d) dars davomida o'quvchilarga differentsial va individual yondashish, ishni barcha o'quvchilarning imkoniyati, bilimi, ko'nikma va malakasi hamda fikrlash faoliyatini hisobga olgan holda uyushtirish kerak;

e) o'quvchilarni aqliy mehnat (o'qish) usullariga o'rgatish, ularda maktabda o'qish uchun kerakli ko'nikmalarni hosil qilish zarur;

yo) beriladigan material ilmiy, o'quvchilar yoshiga mos va muvofiq bo'lsin va hok.

2. Maxsus metodik talablar:

a) o'quvchilar nutqi uchun qayg'urish, darsda adabiy til nuqtai nazaridan to'g'ri, ifodali, obrazli, aniq nutqqa erishish lozim;

b) o'qish darsida ham, yozuv darsida ham o'quvchilar nutqini o'stirishga, lug'atini boyitishga, gap tuzish va uni tahlil qilishga, og'zaki hikoyalash va shu kabi ish turlariga alohida ahamiyat qaratish kerak;

v) maktab va sinf devorlariga osilgan, xattaxtaga yozilgan har qanday yozuv mazmunan va imlo jihatdan savodli bo'lishi zarur;

g) darsda nutq madaniyati hukmron bo'lishi, o'qituvchi va o'quvchilar adabiy tilda so'zlashishlari kerak;

d) o'qish va yozuv ko'nikma-malakalarini shakllantirish mashqlari darsda yetakchi o'rinni egallab, taxminan, darsning uchdan ikki qismiga to'g'ri kelishi lozim;

e) har bir o'qish va yozuv darsida "Alifbe"dagi matnlar bilan bir qatorda Q. Muhammadiy, P. Mo'min, Z. Diyor, A. Obidjon kabi sevimli bolalar shoiri va yozuvchilari asarlaridan namunalar tanlab olinishi va sinfda o'qish sinfdan tashqari o'qish hamda o'qib berilgan matnni eshitish bilan bog'lanishi zarur.

yo) o'qish va yozuv darslari bir-biri bilan uzviy bog'lanishi, ya'ni o'qish darsi o'quvchilarni yozuv darsiga tayyorlashi, yozuv darsi oldingi o'qish darsining davomi sifatida xizmat qilishi kerak va hok.

O'qish va yozuv darslarining turlari. Savod o'rgatish jarayonidagi darslar quyidagi belgilariga ko'ra farqlanadi:

1. Ta'limning predmetiga ko'ra:

a) "Alifbe" darsligi asosidagi o'qish darslari;

b) "Yozuv daftari" asosidagi yozuv darslari.

2. Ta'limning davri va bosqichlariga ko'ra:

a) alifbogacha bo'lgan davrdagi darslar;

b) alifboni o'rganish jarayonidagi darslar.

3. Darsda yangi mavzu o'tilishi va o'tilmasligiga ko'ra:

a) yangi tovush-harf o'rganiladigan o'qish darslari;

b) yangi harfni yozish darslari;

v) yangi tovush-harf o'rganilmaydigan darslar.

Bulardan tashqari, umumlashtiruvchi va takrorlash darslari hamda savod o'rgatish davrining oxirida "Alifbe" bayrami o'tkaziladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar bilimi dars jarayonida barcha ishlarga bog'lab aniqlanadi, bog'lanishli nutqni o'stirish ham o'qish va yozuv darslariga

uzviy bog‘lanib ketadi. O‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishlariga rahbarlik qilishlariga xaftada bir marta 20 daqiqa ajratiladi.

Savod o‘rgatish darslarida ish turlarini almashtirib turish, vaqti-vaqti bilan dam olish daqiqalari o‘tkazish zarur. Bu o‘quvchilar toliqishining oldini oladi.

Darslar tizimi deyilganda o‘quv vaqtini mavzularga nazariy va amaliy jihatdan rejali taqsimlangan, darslarning mantiqiyliigi va istiqboli bir-biri bog‘langan, dars turlari va unda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar foydalanadigan asosiy metodik vositalar xilma-xil bo‘lgan izchillik nazarda tutiladi.

Savod o‘rgatish davri uchun darslar tizimi o‘quv jarayoni bosqichlari asosida o‘qish va yozuv darslari muayyan guruhini ajratishni ko‘zda tutadi. Amaldagi “Alifbe” darsligi va ularga yozilgan qo‘llanmalarga asosan, savod o‘rgatishga jami 4 oy (shundan tayyorgarlik davriga 8 dars (ikki hafta), asosiy davrga qolgan vaqt) ajratiladi. Ta’limning har bir bosqichidagi darsning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Darslar qurilishida ichki mantiqiylik bo‘lib, har bir darsda yangi tovush va harf o‘rganiladigan dars bilan yangi mavzu o‘rganilmaydigan darsni navbatlashtirish, imlo va so‘zning bo‘g‘in tuzilishi haqida ma’lumot berish, o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stirish kabi talablarga rioya qilinadi. Darslar umumlashtirish-takrorlash darsi bilan yakunlanadi.

Savod o‘rgatish davridagi darslarda ham interfaol usullar qo‘llaniladigan darslardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

“Alifbe” darsligi qurilishining ilmiy-pedagogik tamoyillari. “Alifbe” birinchi o‘quv kitobi bo‘lib, uni ishlab chiqishda didaktikaning umumiy mezonlariga hamda “Alifbe” darsligi tuzilishining xususiy mezonlariga asoslaniladi:

- g‘oyaviylik;
- bayonning ilmiyligi, tushunarliiligi;
- ko‘rsatmalilik;
- onglilik;
- o‘quv materialining hayot bilan bevosita aloqadorligi;

- bolalar yoshi va dunyoqarashi, o'ziga xos ruhiy xususiyatlarining hisobga olinishi⁴.

“Alifbe” darsligi, asosan, quyidagi ilmiy-pedagogik tamoyillar asosida tuziladi:

1. “Alifbe” materiali bolalarda ongli, to'g'ri, ravon o'qish va to'g'ri yozish malakalarini hosil qilishga yordam berishi kerak.

2. O'qish uchun berilgan matnlar, rasmlar bolalar saviyasiga mos bo'lishi, shu bilan birga, ularning tafakkuri va nutqini o'stirishi lozim.

3. “Alifbe” tuzilishida tovush-harflarning tez va ko'p ishlatilishi tamoyilidan foydalanish kerak.

4. “Alifbe”dagi harflarni joylashtirishga va ular qatnashgan so'zlarni tanlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

5. “Alifbe”dagi materiallarning hajmi savod o'rgatishga ajratilgan vaqtga mos bo'lishi zarur.

6. “Alifbe”ning harfi, terilishi, qog'ozi, rasmlarining bo'yoqlari gigienik talablarga javob berishi lozim.

7. “Alifbe”ning tashqi ko'rinishi chiroyli, bolalar diqqatini o'ziga tortadigan bo'lishi kerak va hokazo.

“Alifbe”ga qo'yilgan barcha talab va tamoyillarni faqat “Alifbe” darsligini tuzuvchilar emas, balki u bilan ishlaydigan o'qituvchilar ham bilishi zarur. O'qituvchi, avvalo, “Alifbe”ning mazmunini, tuzilishini yaxshi bilib olib, undagi materialdan pedagogik jarayonni tashkil etish (alohida bir dars rejasini tuzish, darslar tizimini belgilash, alifbe materialiga qo'shimcha material tanlash, ba'zi materiallarni qayta ko'rib chiqish)da foydalanadi. Shundagina o'qituvchi kitobga ijodiy yondashib, undan metodika talablari va o'zining pedagogik tajribasidan kelib chiqib foydalangan bo'ladi.

⁴ Р. Сафарова ва бошқ. Савод ўргатиш дарслари (Алифбени ўқитиш бўйича методик қўлланма). - Т.: Маънавият, 2003. 3-бет.

1-KEYS: Savod o‘rgatish davrida o‘qishga o‘rgatishdagi muammolar

Kirish. Birinchi sinflarda tovushlarni o‘rgatish. Tovushni harfga, harfni tovushga aylantirish deb aqliy faoliyat amalga oshiriladi yoki tovushni harfga, harfni tovushga «tarjima qilish» deb tushunmoq lozim. O‘qitishning bu usuli tahlil-tarkib tovush metodi asosida amalga oshiriladi.

Tahlil- tarkib tovush metodi deganda nutqdan gapni, gapdan so‘zni, so‘zdan bo‘g‘inni, bo‘g‘indan so‘z, so‘zdan gap, gapdan nutq anglashiladi. Bu metod S.P. Redazubov tomonidan mukammal ishlangan. Bu usul o‘zbek olimlaridan K. Abdullayeva, K.Qosimova, Y.Abdullayevlar tomonidan yoritilgan.

Aynan ana shu masalalarni chuqur o‘rganish “Keys stadi”ga asoslangan o‘qitish texnologiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu texnologiya amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o‘rganilgan o‘quv mavzusi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartibda yoki guruhlarda qabul qilish ko‘nikmalarini egallashga, ijodiy va o‘rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o‘z-o‘zini nazorat qilishga yordam beradi.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavzu bo‘yicha haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarur.

Tavsiya etilgan keysni echish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhviy tahlilida bilim va ko‘nikmalarni qayta topshirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash;
- o‘quv axborotlarini o‘zlashtirish darajasini tekshirib ko‘rish.

Diksiya turlari.

1- vaziyat.

Ularning ohangdorligini ta'minlashda «solfedjio»ga bog'lash mumkin: do, re, mi, fa, sol, lya, si - a, o, o', u, e, i, a, i, u, u, a. S, sh, ishtirok etgan so'zlarni takror talaffuz qilish sira, shira,.

Sekindan tezlatish.

Tez aytishdan foydalanish: Olimdan olma oldingmi? G'ani g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi.

Xor bilan o'qitish, sanash ohangi bilan o'qish: Bir-ga, ikki-ni, bir-na, ikki-zi, uch-ra.

Nutq o'stirish usullari.

2- vaziyat.

1. Bolalar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash.
2. Lug'atini boyitish.
3. So'z ma'nolarini izohlash.
4. Yig'iq gapni yoyiq gapga, sodda gapni qo'shma gapga aylantirish.
5. Yaqin ma'noli so'z tanlash (sinonim topish).
6. Rasmga qarab kichik hikoya tuzish.
7. Logoped yordamida tashkil.

Amaliy vaziyatni bosqichma – bosqich tahlil qilish va hal etish

bo'yicha talabalarga uslubiy ko'rsatmalar

Talabalarga yo'riqnoma

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar
1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishing. Mavzu haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqish lozim. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
2. Berilgan	Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing.

vaziyat bilan tanishish	Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'ying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalb qiling.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: Asosiy davrning yakunlovchi qismi, uning vazifalari. Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling. 1. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganish usullari bilan shug'ullangan olimlardan kimlarni bilasiz? 2. Bo'g'inlab o'qishda qanday bo'g'in turlaridan foydalaniladi? 3. Ochiq va yopiq bo'g'inlar jadvali qanday tuziladi? 4. Jadvaldan qanday usullar orqali foydalaniladi? 5. Savod o'rgatish davrida matn ustida mustaqil ish qanday tashkil qilinadi? 6. Diktsiya turlarini ayting. 7. Nutq o'stirish usullarini ayting. Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – obyektning holatini aniqlang, asosiy qirralariga e'tibor qarating, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling.
4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan “Muammoli vaziyat T-jadval ”ini to'ldirishga kirishing. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni

tanlash hamda asoslash	yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova eting
------------------------	--

“Muammoli vaziyat” jadvali

Yangi tovushni talaffuz qilish	Harf kassasida ishlash	Undoshlarni almashtirish orqali yangi soʻz yasash	Boʻgʻinlar jadvali tuzish
--------------------------------	------------------------	---	---------------------------

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda

topshiriqlar:

- 1 *Analitik-sintetik tovush metodiga kim asos solgan?*
2. *Savod oʻrgatish jarayonida bola tarbiyasi ustida qanday ishlanadi?*
3. *Alifbet darsligi materiallari mavzusini oʻrganib chiqing, oʻquvchi shaxsini tarbiyalash ustida qilinishi mumkin boʻlgan ish turlarini belgilang.*
4. *Savod oʻrgatish jarayonida qaysi mashqlardan foydalaniladi?*
5. *Analiz mashqlarining turlarini ayting. Ulardan qaysi oʻrinlarda foydalaniladi?*
6. *Savod oʻrgatish jarayonida tovushlarning toʻgʻri va ravon talaffuzi ustida qanday ishlanadi?*
7. *Diksiya ustida ishlash mashqlariga nimalar kiradi?*
8. *Savod oʻrgatish jarayonida oʻquvchilar nutqini oʻstirishda qanday manbalardan foydalaniladi?*
9. *Savod oʻrgatish jarayonida oʻquvchilar nutqini oʻstiruvchi vazifalariga nimalar kiradi?*
10. *Savod oʻrgatish davrida nutq oʻstirishga oid ish turlari nimalardan iborat?*
11. *Yozuvning inson hayotidagi ahamiyatini ayting.*
12. *Yozuv darslarida oʻquvchilarga qanday imloviy bilimlar beriladi?*

3-MODUL. HUSNIXATGA O'RGATISH METODIKASI

3-MAVZU: HUSNIXATGA O'RGATISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI, AHAMIYATI

Tayanch so'zlar: *Yozuv tarixi, analiz mashqlari, sintez mashqlari, fikr almashish, yozma nutq, idrok qilish, yordamchi chiziqlar, ko'chirib yozuv, diktovka bilan yozuv, ijodiy yozuv, o'zini-o'zi tekshirish, xattotlik san'ati, yozuv qurollari, ruchkadan foydalanish, qo'lda ko'chirish.*

Husnixatga o'rgatishning maqsad va vazifalari, ahamiyati. Inson o'z fikrini boshqa kishilarga og'zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu shaklining o'xshash va farqlash tomonlari mavjud bo'lib ular o'z o'rnida afzalliklarga ega. Og'zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitilish uchun mo'ljallanadi. U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog'och, teri, metall, qog'oz kabilarga ko'rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo'yiladi. Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog'laydi, uzoq saqlanadi. Yozuv tufayli kishi fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixatga o'rgatish extiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini o'qitish usullarini yozuviga o'rgatishning gigiyenik shartlarini, o'quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur.

Demak yozuv kishi hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega. Yuqoridagi talab asosida yozishga o'rganishi boshlang'ich sinflardan boshlanadi. 1-4-sinf o'quvchilarini chiroyli yozishga o'rgatish uchun

o'qtuvchining o'zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgata olishi kerak.

Husnixat va uni o'rgatish fani amaliy fan bo'lib u chiroyli yozishga o'rgatish bilan bir qatorda o'qitish tarbiyalash, vazifalarini bajaradi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan Husnixat va uni o'tilish metodikasi fanining maqsadi:

1. Talabalarga husnixat metodikasidan nazariy ma'lumot berish.
2. Talabalarni-bo'lg'usi o'qtuvchilarni husnixat talablari asosida yozishga o'rgatish.
3. Boshlang'ich ta'limida o'quvchilarni husnixatga o'rgatishning metod va usullari bilan qurollantirish.

Boshqa fanlar kabi husnixat va uni o'qitish metodikasining o'z predmeti bor. Bu fanning predmeti ta'lim berish jarayonida chiroyli yozuvni egallash, grafik jihatdan to'g'ri chiroyli yozishga o'rgatish hisoblanadi.

Husnixat va uni o'rgatish metodikasi fani o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- talabalarga chiroyli yozuv haqida nazariy bilim berish;
- o'z dastxatlari ustida ishlash yuzasidan malakalar hosil qilish;
- boshlang'ich sinflarda husnixat darslarini rejalashtirish, va tashkil etishga o'rgatish;
- boshlang'ich sinflar uchun husnixat materiallarini tanlay olish tamoyillari bilan tanishtirish.

Birinchidan husnixat bilan yozish o'quvchilardan mehnat madaniyatini tarbiyalaydi. Topshiriqlarni toza, aniq va madaniyat bilan bajarish ko'nikmasini hosil qiladi.

Ikkinchidan dastxatga pala-partish va be'etibor munosabatda bo'lish o'quvchilarning imloviy savodsizligini keltirib chiqaradi. Natijada o'quvchilar qiladigan ishlariga o'ylab o'tirmay bajaraveradilar, o'z xato kamchiliklarini ham o'ylab ko'rmaydigan bo'lib qoladilar.

Uchinchidan husnixat bilan to'g'ri yozish ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib turli rasmiy hujjatlarni yuritishda kishilar unga ehtiyoj sezadi. Husnixat bilan yozilmagan, to'ldirilmagan hujjatlarni o'qishga kitobxonning ko'p vaqt sarflashiga to'g'ri keladi. Vaholanki, maktabda har kuni o'qituvchi 30 nafar o'quvchilar daftarini tekshiradi. Agar o'qib bo'lmaydigan qilib yozgan bo'lsa o'qituvchining ham unga ko'p vaqti sarf bo'ladi. Aniq va ravon qilib yozgan dastxati o'qituvchining ishini yengillashtiradi, keyingi ta'limiy maqsadlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Yozuv haqida ma'lumot. Yozuv – biror tilda qabul qilingan maxsus belgilar yig'indisi. Yozuv tushunchasi tilning tovush elementlari (so'z, bo'g'in, tovush)ni ifodalovchi belgilarnigina emas, balki piktografiya, ideografiya shakllarini ham o'z ichiga oladi. Bular aloqa qilish belgilari yig'indisi sifatida yozuvdan ilgarigi belgilar (xotira yozuvi, hisoblash yozuvi va boshqalar)ga qarama-qarshi qo'yilgan.

Urug'chilik tuzimi davrida dastlab surat yozuvi paydo bo'ldi. Kishilik jamiyati kichik va tarqoq oila - urug'lardan tashkil topgan darvda kishilar birlari bilan faqat og'zaki nutq yordamida fikr almashgan. Yirik urug' va qabila jamoalarining tarkib topishi bilan og'zaki nutqni uzoqqa yetkazish va uni zamon bilan mustahkamlash ehtiyoji tug'iladi.

Insoniyatning shu ehtiyoji zaminida yozuv paydo bolgan. Boshida yozuv bilan bir qatorda grafik shaklga ega bolmagan usullar ham qo'llanilgan (mis, iplarni tugib qo'yish). Bunday belgilar ibtidoiy odamlar hayotida qo'llanilgan. Bu yozuvning qoldiqlari hozir ham urug'-qabilalarining tamg'alari, shimoliy indeyeslarning chig'anoq marjonlari, biror ijtimoiy tabaqaning xususiy mulkini ifodalovchi belgilar va boshqa shakllarda mavjud.

Yozuv zamon va masofa jihatidan og'zaki nutqqa nisbatan ustunlikka ega. Texnikaning rivoji (telefon, telegraf, radio, televizor,internet) natijasida undagi ustunlik masofa jihatidan zaiflashdi, lekin zamon e'tibori bilan yozuv hali ham og'zaki nutqdan ustun XIX-XX asr boshlarida topilgan va deshifrovka qilingan juda ko'p yodgorliklar yozuvning paydo bo'lishi va tarixiy taraqqiyotini yoritish

imkonini berdi. Fanning bu yutug‘i yozuv tarixini tilshunoslik fanining mustaqil bir bo‘limi sifatida ajratishga olib keldi.

1. Turli tipdagi Misr iyerogliflari. Bu tur yozuvi XIX-asrning 20-yillarida franso‘z olimi Shampalon tomonidan o‘qilgan, XIX-asrning 70-90 yillarida Evans o‘qigan qadimgi Kput surat yozuvlari va Semq o‘qigan Kipr surat yozuvlari ham Misr surat yozuvlari tipiga kiradi.

2. Mixxat yozuvlarining turli tiplari. Bu tip yozuvlar Osiyoda qadimda yashagan qator xalqlarning tillarida ishlatilgan (shumer assiro - ovavilon, elom, xala, xet-kappodokiya, fars tillariga moslangan). Bu tur yozuvlar XIX-asr boshlarida deshifrovka qilina boshlanib, XX-asrning 10-yillarida tugallandi.

3. Somiy xalqlarda qayd qilingan va tillariga moslangan harf yozuvining eng qadimgi shakllari. Bular finikiy va xalaan yozuvlari (asosiy yodgorliklari XIX-asrning 60-70-yillarida va XX-asrning 20-yillarida topilgan). Janubiy arab, oramey yozuvlari (qadimgi namunalari XIX-asrning 60-70 yillarida topilgan). Ko‘pchilik mutaxassislarning fikricha, qadimgi uyg‘ur va urxun-enesey yozuvlari ham aslida oramey yozuvlari zaminida yuzaga kelgan. Uni XIX asrning 90-yillarida tilshunos olimlari V.Tomsen va V.Radlov deshifrovka qilganlar.

4. Yunon alfavitining qadimgi shakli va lotin alifbosining alohida varianti va boshqa turli variantdagi bu yozuv turlari bizgacha yetib kelgan. Bu yozuvlar XVIII asrdayoq ilm axliga ma’lum bo‘ladi va ularning grammatik jihatdan o‘rganilishi XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fanining rivojiga katta yordam ko‘rsatdi.

Yozuvning eng qadimgi shakli piktografiyadir. Bu yozuv asosan Amerika indeeslarida aloqa quroli sifatida qo‘llanilgan. Chunki ularning til xususiyatlari shunga mos edi. Bu yozuv qadimiy bo‘lgani uchun unda ideografik yozuv bilan bir qatorda piktografiyaning ham ayrim elementlari bor. Masalan, toshbaqaning rasmi quruqlik tushunchasini ifodalagan, ya’ni shartli belgi vazifasini o‘tagan. Chunki quruqlik tushunchasini yozuvda ideografiya bilan berish qiyin edi.

Hayotiy ehtiyoj bora-bora yozuvni soddalashtirdi va tasvirlangan predmet bilan yozuv shakli o'rtasidagi o'xshashlik yo'qoldi, belgi so'zning simvoli bo'lib qoldi. Bu xitoy, misr, shumer, vavilon va xett yozuvlariga xos xususiyatdir.

Papirus yozish uchun maxsus tayoqcha va bo'yoqning kashf etilishi yozuvni takomillashtirdi, uning soddalashuviga imkon tug'dirdi. Hozir yer yuzida quyidagi besh yozuv asosida tuzilgan yozuv sistemalari tarqalgan.

1) Lotin yozuvi (dunyo axolisining 30% ga yaqini foydalanadi); 2) fonetik arab yozuvi (10% ga); 3) Slavyan-kirill yozuvi (10% ga yaqini); 4) grafik-xitoy yozuvi (25% ga yaqin); 5) bo'g'inli xind yozuvi (20% ga yaqini) qolgan boshqa yozuv sistemalari (yunon, yaxudiy, efiopiya, gruzin, arman yozuvlari va bulardan dunyo axolisining 5% ga yaqini foydalanadi).

Hozirgi yozuv va uni ifoda etuvchi vositalar. 1996-yildan boshlab lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi joriy etildi. Bu alifboda 29 ta shakl bo'lib, ular 30 ta tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek yozuvidagi undosh harflar bir tovushni ifoda etadi. (**Jj** harfi bundan mustasno). Ikkita tovushni ifodalash uchun **Jj** ishlatiladi: 1) qorishiq, portlovchi **j (d+j)** tovushini (*jo'ja, jayron, avj* kabi) va 2) sirg'aluvchi **j** tovushini (*jurnal, jirafa*) bildiradi.

Mazkur yozuvda uchta harf birikmasi mavjud: *ng, sh, ch*. Ular so'z tarkibida ajratilmaydi va bo'linmas bir tovushni ifoda etadi: **ng** sayoz til orqa, portlovchi-sirg'aluvchi, sonor undosh tovushini (*tong, ohang, chang. manglay*), **ch** til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovushni (*charos, tinch, sinch, choynak*), **sh** til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undoshni (*shabada, shar, shahar, toshqin, bosh*) ifodalaydi.

Tovushlar ikki turga bo'linadi: 1) unli tovushlar, 2) undosh tovushlar. Ular unli va undosh harflar bilan belgilanadi. Hozirgi o'zbek alifbosida 6 unli tovush va 6 ta unli harf bor (*a, o, u, i, o', e*). 24 ta undosh tovush 23 ta undosh harf bilan belgilab ko'rsatiladi (*b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, r, s, t, v, x, y, z, sh, ch, ng*). Har bir harfning bosh va kichik, bosma va yozma shakllari bor.


Harflarning alfavit taritibini bilish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki turli lug‘atlar, davlat idora organlarida, arxivlarda saqlanadigan hujjatlar, ro‘yxatlar alfavit tartibida tuziladi.

Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilar: (.) (,) (?) (!) (:) (;) (...) («») (-) (') ham qo‘llanadi. Urg‘u (') belgisi so‘z bo‘g‘inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilish uchun unli harf ustiga qo‘yiladi. Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilarning ham roli katta. Tinish belgilari yordamida fikr yozuvda aniq, ravshan va tushunarli qilib beriladi. Og‘zaki nutqning fikrini to‘liq ifodalash uchun xizmat qiladigan ohang va pauzalari yozuvda tinish belgilari orqali ifoda etiladi.

Tutuq belgisi (') ham grafik vositalardan biri sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) so‘zda unli tovushdan keyin kelib, uning cho‘ziq aytilishini (*a’lo, e’tibor, iste’mol*); 2) so‘zda undoshdan keyin kelib, oldingi bo‘g‘in bilan keyingi bo‘g‘inning ajratib aytilishini bildiradi; 3) so‘z ma’nolarini farqlab beradi (*ta’na – malomat, tana – organizm*



3.1. Husnixatga o‘rgatish tarixidan

Yozuvning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari. Bugun biz hayotimizni kitobsiz tasavvur qilolmaymiz. Inson o‘zining uzoq yillik tarixi davomida kitobdan yaxshiroq do‘st va mehribon ustozni uchratmadi. U insonga kamolot yo‘lini ko‘rsatdi va hamma vaqt og‘irini yengil qilib keldi. Lekin shuni ham unutmaslik lozimki, agar yozuv bo‘lmaganda inson kitobday bebaho do‘stga sohib bo‘lmagan bo‘lur edi. Kitob yaratish tarixi ham ancha qadimga borib taqaladi. Biz bu borada mukammal ma’lumot bermaymiz, faqatgina o‘tmishda yaratilgan bazi bir kitoblar bilan yuzaki tanishib chiqamiz:



Sopol taxtachadagi kitob (Vavilon)

Qadimgi Misrda kitob



Yozuv qachon paydo bo‘lgan? U qanday davrlarni boshidan kechirib, hozirgi mavqega erishgan? Bu savollarga javob topish uchun insoniyat tarixiga nazar tashlash, uning aqliy yuksalish bosqichlarini birma-bir ko‘zdan kechirish lozim.

Albatta, inson, avval, gapirishni o‘rgandi, so‘ngra unga tajribalarini kelgusi avlodlarga yetkazish istagi shakllandi va u qo‘liga qalam (avval bu vazifani oddiy tosh bajargan) oldi.

Xo'sh, yozuv o'zi nima? Yozuv muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. U kishilarning o'zaro aloqa qilishida, fikr almashishida muhim vositadir. Yozuvning paydo bo'lishi, aloqaning maxsus vositasi sifatida xizmat qilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Yozuv tufayli kishilik tajribasi avloddan-avlodga etkazilmoqda. Shuning uchun ham yozuvni kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri, deb hech ikkilanmasdan aytish mumkin. Faqat yozuv borligi uchungina biz tilning tarixiy taraqqiyotini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lamiz, oldingi avlodlarimiz tilini o'rganib, uni tilimizning hozirgi bosqichi bilan qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Tabiiyki, yozuv tildan ancha keyinroq paydo bo'lgan. Olimlarimizning ta'kidlashlaricha tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan. Yozuvning paydo bo'lganiga esa 4-5 ming yillar bo'lgan. Inson ovozi (nutqi) **zamon (vaqt)** va **makon (masofa)** nuqtai nazaridan nihoyat cheklanganligi hammamizga ma'lum. Ana shu cheklanishni bartaraf etish istagi va zaruriyati yozuvni paydo bo'lishiga olib keldi. Inson o'z og'zaki tili (nutqi) bilan fikrini muayyan va cheklangan masofada etkazib biladi, xalos. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan inson bu ehtiyojni qondira oluvchi boshqa vositalarni qidira boshladi. Bu qidiruv va izlanishlar samarasi sifatida belgilar tizimidan iborat yozuv ixtiro qilindi.


Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlash zaruriyati bilan bevosita bog'liq.

Yozuv og'zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo'shimcha aloqa vositasi bo'lsa-da, unga qaraganda ko'p afzalliklarga ega. Ayniqsa, tilning insoniyat qo'lga kiritgan tajriba – bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi yozuv orqali bajariladi.

Ta'kidlaganimizdek, yozuv bugungi shaklini olgunga qadar uzoq va murakkab tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Inson bu yo'lda juda kop izlandi. Eng qadim davrlarda dunyo xalqlarining deyarli barchasida keng tarqalgan **“eslatuvchi”** belgilar ana shu uzoq va zahmatli izlanishlarning ilk ko'rinishlari edi. Masalan, muayyan miqdorni ifodalash uchun turli toshlar, chig'anoqlardan foydalanilgan, tayoqlar, daraxtlarga har xil iplar bog'lash, tugunlar tugib qo'yish va bu vositalar bilan muayyan axborotni esda saqlash yoki muayyan masofaga yuborishga harakat qilingan. Gohida bir xabarni uzoq masofaga yetkazish uchun tutun, gulxan, baraban ovozi va shu kabilar qo'llangan. Ma'lumot yoki xabarni uzoq vaqt saqlash uchun ramziy ma'no berilgan buyumlardan foydalanilgan: qo'rg'on – marhum ko'milgan joy belgisi; “shaharlarni ishg'ol etish” mafhumi yonayotgan xonaqoh tarzida; “sayohat” – qator izlar silsilasi bilan; “qurbonlik qoni” – gul tasviri bilan; slavyan qabilalarda non-tuz – do'stlik belgisi; trubka – tinchlik, sulh belgisi va boshqalar. Tasvir rangi ham u davrlarda katta ahamiyatga ega edi. Masalan, sariq rangda bo'yalgan odam rasmi ayol kishini, binafsharang esa yuqori mansabdagi hukmdorni bildirar edi. Rang ramzi (nishonasi) ham qo'lyozma madaniy yodgorliklarda katta rol o'ynar edi: ko'k rangi janubni, qora va qizil ranglar **“xiradmandlik”** va **“yozuv”** tushunchalarini bildirar edi. **“Buyumli yozuv”** nomi bilan yuritiladigan bunday axborot vositalarining qoldiqlarining ba'zilar hozir ham saqlangan. Masalan, biror fikrni esdan chiqarib qo'ymaslik uchun ro'molchaning uchini tugib qo'yish odatini yodga olish mumkin.

Bunday holatni o'zimizning afsonalarimizda ham uchratish mumkin. Masalan, ba'zi afsonalarda asosiy qahramon yovuz kuchlar ta'qibiga uchrab qochadi va ulardan omon qolish uchun turli xil buyumlardan foydalanadi. Masalan, **qayroqtosh, oyna va taroq**. Agar asar qahramoni orqasiga oynani tashlasa katta dengiz paydo bo'ladi, agar taroqni tashlasa kishi o'tmas o'rmon hosil bo'ladi, agar toshni tashlasa baland cho'qqili tog' paydo bo'ladi va yozuv kuchlar bu to'siqlardan o'tolmaydilar.


Neolit davriga kelib odamlar ba'zi hodisa va voqealarni uzoq masofaga yetkazish niyatini jonli va jonsiz narsalarning rasmini chizish orqali amalga oshirganlar. Bunday yozuv **frazeografiya** deb nom olgan. Frazeografiya -fraza, gap, grafiya - yozaman, ya'ni gap yozaman ma'nosini bildiradi. Frazeogramma yozuvi ikki turga bo'linadi: **a) aks (tasvir) yozuvi; b) qadimgi shartli alomatlar. Aks (tasvir) yozuvini** piktografiya (piktus- tasvir, grafiya-yozaman) deb ataganlar. **Piktografiya** (rasmi yozuv)da rasm bilan yozuv o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lgan, chunki har ikkalasi ham ko'rish orqali idrok qilinadi. Piktografik yozuvni ibtidoiy tasviriy san'at ichida yuzaga kelgan deyish mumkin. Ma'lumki, arxeolog olimlarimiz juda ko'p qadimiy rasmlarni kashf etganlar. G'or devorlari, turli xildagi toshlar, suyaklar va boshqa predmetlarga o'yib ishlangan xilma-xil hayvonlarning rasmlari, umumiy mazmunga birlashuvchi tasviriy lavhalar – bularning bari piktografik yozuvning asoslaridir.




Xulosa qilib aytish mumkin, ibtidoiy tasviriy san'at ikki yo'nalishda – umuman rasmlar va muayyan axborot vositasi, ya'ni yozuv sifatida shakllana borgan. Buni dunyo tillarining juda ko'pchiligidagi **“yozmoq”** ma'nosidagi so'zlarning etimologiyasiga e'tibor qilganda ham bilish mumkin. Bunday so'zlarning etimologiyasida asosiy mazmun rasm chizish jarayoni bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, qadimgi turkiy tillarda **“yozmoq”** tushunchasi **“bit(i)moq”** fe'li (**“bitik”** – **yozuv, kitob**) bilan ifodalangan. Bu fe'lning o'zagi xitoycha **“bi”** (**mo'yqalam**) so'zi bilan aloqador bo'lib, dastlabki ma'nosi **“o'ymoq, o'yib bezamoq”**, undan keyin **“yozmoq”** demakdir. Slavyan tillardagi **“pisati”** (rus. **“pisat”** – **“yozmoq”**) fe'lining ma'nosi ham dastlab mo'yqalamda rasm chizish bilan bog'liq bo'lgan (rus. **“jivopis”** – rangtasvir so'zi bilan qiyoslang). Bu fe'lning o'zagi lot. **“pingere”** (**rasm solmoq**) so'zi bilan aloqadordir, **“pisati”** fe'lining dastlabki ma'nosi, ko'rinadiki, **“rasm solmoq”**, **“bezamoq”**-dan iborat bo'lgan. Gotcha **“melian”** (**yozmoq**) fe'lining dastlabki ma'nosi ham mo'yqalamda **“rasm solmoq”** bo'lib, bu fe'l hozirgi nemis tilida **“malen”** shaklida va **“rasm solmoq”** ma'nosida qo'llanadi. Yunon tilidan ko'pgina tillarga o'tgan **“grafika”** so'zi ham etimologik jihatdan o'yish, tirnash tushunchalarini ifodalaydi. Yoqorida keltirganlarimiz barcha misollar yozuvning rasm bilan uzviy bog'liq ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Qadimgi shartli alomatlar sirasiga avlod va qabila nishonlari, avlod, qabila va shaxs mulki alomatlari (masalan, **tamg'a, dog'**), ustalar muhri va boshqalar kirardi. Bu nishon va alomatlar uy hayvonlari, qurol-aslaha, sapoldan yasalgan idishlar va hatto asirlar (qullar)ga qo'yiladi. Tilga olingan qadimgi shartli belgi va alomatlarni hozir ham ba'zi bir taraqqiyotdan orqaga qolgan xalqlar (masalan, Amerika hindulari, Uzoq Shimol, Afrika, Avstraliya xalqlari) ishlatishadi. Taraqqiyot bilan baravar qadam tashlayotgan xalqlar ham bu belgi va alomatlariga ayrim hollarda murojaat qilishadi. Masalan, pogonlar, oliy maktab, gerb va bayroqdagi nishonlar, xaritalardagi belgilar bunga misol bo'la oladi.

Keyinchalik rasmlarning soddalashuvi, ularning o‘zlari ifoda etgan buyumlarning nomiga, ramziga aylanishi va asta-sekin bu ramzlarning og‘zaki til bilan doimiy bog‘lanishi yozuvning takomillashib borishini belgilab berdi. Yozuv belgilari ideografik, ieroglifik belgilar sifatida muayyan so‘zlarning ifodachilariga aylandi, bu yozuv “so‘z yozuvi” yoki “**logografik yozuv**” nomi bilan umumlashtiriladi. Eng qadimgi logografik yozuv tizimlari (misr ieroglifikasi, Eron hududida Haxomanishlar hukmronligi davrida amal qilgan mixxatlar, xitoy ieroglifikasi va boshqalar. 1- va 2- rasmlar) miloddan avvalgi 4-ming yillikning oxiridan miloddan avvalgi 2-ming yilliklarning boshlarigacha bo‘lgan davrda shakllangan. Haqiqiy ma’nodagi yozuv tizimlari dastlab Qadimiy Sharqda vujudga kelgan.





1- rasm (Shumer mixsimon xati, eramizdan 4 ming yil avval)



2- rasm (Grek yozuvi, eramizdan 3 ming yil avval)

КЛИНОПИСЬ							
Клинописные знаки, изобретенные шумерами, состоят из трех основных элементов, которые могли располагаться под разными углами и иметь разную величину.							
Слово, составленное из этих клинописных знаков.		sal 'женщина'					
Из сочетания двух логограмм получалась составная логограмма, значение которой выводилось из значения двух ее составляющих. Будучи расположенными рядом, эти составляющие могли образовывать новое слово.		sal 'женщина'	+	 kur 'чужая страна'	=	 geme 'рабыня'	
Эти элементы могли также располагаться один внутри другого.		ninda 'хлеб'	+		ka 'pot'	=	 ku 'кушать'
Некоторые логограммы, употребленные самостоятельно, могли обозначать одно из нескольких схожих по значению, но по-разному произносимых слов. Перед такими знаками часто ставились «детерминативы», указывавшие на класс объектов, к которому принадлежат данная неоднозначная логограмма. По сочетанию детерминатива и логограммы можно было определить точное значение слова.		gis 'древесина' – детерминатив, обозначающий деревянные предметы	+		либо apin 'плуг', либо engar 'пахарь'	=	 apin 'плуг' (в древности плуги делались в основном из дерева)
		lu 'человек' – детерминатив, обозначающий профессии	+		либо apin 'плуг', либо engar 'пахарь'	=	 engar 'пахарь'
Когда шумерская клинопись была заимствована для записи абсолютно неродственного языка – аккадского языка вавилонян и ассирийцев, – за шумерской логограммой стал часто ставиться слоговой знак, указывавший на то, как эту логограмму следует произносить по-аккадски.		e 'дом' (по-шумерски)	+		e-it слоговой знак, обозначающий аккадское произношение	=	 bit 'дом' (по-аккадски)

3- rasm Shumer loylavhasi (eramizning 4-3 asrlari)

ЕГИПЕТСКИЕ ИЕРОГЛИФЫ							
Египетское иероглифическое письмо использовалось в храмах, гробницах и т.п. и носит откровенно рисуночный характер, в отличие от упрощенно-рисуночных написаний в клинописи, китайском письме и даже в обиходном иератическом письме.							
	Египетский иероглифический ḥmt 'женщина'	Египетский иератический ḥmt 'женщина'	Китайское nū 'женщина'	Клинописное sa 'женщина'			
В египетском письме было совсем немного слов, выражавшихся одними рисунками. Некоторым иероглифам очень рано стали приписываться фиксированные значения согласных звуков, так что многие из них стали служить и как пиктограммы, и как фонетические знаки.	 y	 b	 m	 h	 t		
	(стебель тростника)	(нога)	(сова)	(укрытие в поле)	(ломоть хлеба)		
Некоторые фонетические знаки выражали два или более согласных звуков. Поскольку большинство египетских гласных не отражалось на письме, сегодня при произнесении египетских групп согласных вставляется вспомогательный звук e. Приведенные здесь примеры читаются как per , mer , neb , rew , sew .	 pr	 mr	 nb	 rw	 sw		
	(дом)	(мотыга)	(корзина)	(лев)	(растение, похожее на осок)		
Египтяне записывали свой язык с помощью пиктограмм, фонетических знаков и детерминативов, которые указывали на значение фонетических знаков или даже помогали различить слова, имевшие разные значения, но одинаковые согласные.				←			
	heb 'плуг'			детерминатив, позволяющий различить эти два слова	heb 'ибис'		
Для написания простого слова в египетском письме от пишущего требовались немалые усилия. Например, написание слова ybu 'испытывать жажду' включает в себя два фонетических знака, фонетический индикатор, подчеркивающий данное произношение слова, и еще два детерминатива, указывающих на значение слова.	 y	 b					
	фонетический индикатор, рисунок детеныша – yb			детерминатив, обозначающий жидкости	детерминатив, обозначающий действия, осуществляемые с помощью рта (говорение, принятие пищи и пр.)		
	ybu 'детеныш'			ybu 'испытывать жажду'			

	Иероглифический					Иероглифический книжный	Иератический			Демотический
Три лисьи шкуры, связанные вместе										
Плетка										
Гарпун										
Тесло и обтесываемый им кусок древесины										
Кувшин										
Свиток папируса										
	2900–2800 до н.э.	2700–2600 до н.э.	2000–1800 до н.э.	ок. 1500 до н.э.	500–100 до н.э.	ок. 1500 до н.э.	ок. 1900 до н.э.	ок. 1300 до н.э.	ок. 200 до н.э.	400–100 до н.э.

Logografiya (logos - soʻz, grafiya - yozaman) yozuvdagi har bir alomat (logogrammalar) bir soʻzni bildirar edi. Bu yozuvda, alomatlar miqdor soʻzlar miqdoriga, aniqrogʻi mustaqil feʼl (xabar)ning semantik vohidlariga tengdir.

Logigrafik yozuvning piktografik yozuvdan afzalligi quyidagilardan iborat:

a) Logografik yozuv xabar qilinishi lozim boʻlgan mazmunni ancha mufassal aks ettira oladi.

b) Piktografik yozuvda soʻz tarkibi va soʻz shakllari noaniqroq, logografik yozuvda esa aniq boʻladi.

Logografik yozuvning birinchi mukammallashgan shakli ieroglifik yozuvdir. “Ieroglifik” soʻzi yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, “**muqaddas yozuv**” degan maʼnoni anglatadi. Bu yozuvdan dastavval Arabistonda keng foydalanilgan. Keyinchalik Xitoy davlati ham shu yozuvga oʻtadi va bu yozuvdan hozirgi kunda ham foydalanib kelinmoqda.

I-II asrlarda Stoy Shenm Xitoy ierogliflarining katalogini tuzib, bunda 10,5 ming ieroglifni kiritadi. Xitoy tilining to'liq lug'atlarida 40 ming iyerogliflar qayd qilingan.

Yozuvning ommaviylashuvi uchun uni, albatta, osonlashtirish, soddalashtirish, qulaylashtirish zarur edi. Masalan, **“ko‘z yoshi”** so‘zini yozib ko‘rsatish uchun “ko‘z” va “suv”ning kombinatsiyasi ko‘rsatilgan. Lekin bunday soddalashtirish unumsiz edi.

Yozuv tarixining uchinchi bosqichga orfografiya yozuvlari kiradi. Bora-bora logogrammalar so‘z asosi (morfemalar)ni bildiradigan bo‘ldi (masalan, kelishik qo‘shimchalari) va natijada morfemografiya yozuvlari keng tarqaldi.

To‘rtinchi tur yozuvlar, bu sillabografiya (bo‘g’in) yozuvlaridir. Bunda har bir alomat bir bo‘g’inni ifodalaydi. Bu yozuv turi milodgacha bo‘lgan 2-1-ming yilliklarda paydo bo‘lgan. Bu yozuvni uch guruhga bo‘ladilar: birinchi guruhga mayya, mexiy va koreya yozuvlari kiradi. Bularda alomatlar har xil bo‘g’inlar - alohida unlilar, undosh va unli ovozlarni ifodalaydi. Ikkinchi guruhga krit(?), kibr, habash va yapon yozuvlari mansubdir. Uchinchi guruhga hind yozuvlari kiradi.

Yozuv taraqqiyotining beshinchi bosqichiga ovoz-fonemani bildiruvchi yozuvlar kiradi. Bularni umumlashtirib **fonografiya (fonos-ovoz, grafiya-yozaman)** deb nomladilar. Bu yozuvlarning har bir alomati bir ovoz yoki fonemani bildiradi (finik, yunon, lotin, rus va arab yozuvlari shular jumlasidandir). Fonografiya yozuvlarini ikki qismga bo‘ladilar:

a) konsonant yozuvlari;

b) vokal yozuvlari.

Konsonant yozuvlariga finik, ugarit, ibron, orom, arab va boshqa yozuvlar mansub bo‘lib, ularga har bir asosiy alomat (harf) faqat undosh ovozlarni ifodalaydi. Vokal yozuvlarida har bir asosiy alomat (harf) ham unli va ham undosh ovozni bildiradi.

Ta’kidlash joizki, harf-tovush yozuvi yo‘nalishidagi ilk yozuv **finikiy yozuvidir**. Finikiy alifbosining paydo bo‘lishi insoniyat uchun yozuvni

takomillashtirish borasida olg'a qo'yilgan qadam bo'lgan. Shuning uchun ham finikiy yozuvi juda tezlik bilan boshqa xalqlar orasida ham tarqalgan. Bu jarayon miloddan avvalgi 9-asrdan boshlangan. Hozirgi kunda bizga ma'lum bo'lgan harf-tovush tizimidagi yozuvlarning beshdan to'rt qismidan ko'prog'i finikiy yozuvidan kelib chiqqan. Harf-tovush yozuvining muhim afzalligi uning kam miqdordagi, ya'ni 20-30 atrofidagi belgilar bilangina ish ko'ra olishidir. Harf-tovush yozuvi dunyo xalqlari orasida juda tez tarqalgan va bu jarayon, asosan, o'zlashtirish, u yoki bu tilning xususiyatini hisobga olgan holda moslashtirish yo'li bilan bo'lgan.

Hozirgi vaqtda jahon aholisining taxminan to'rtidan uch qismi harf-tovush yozuvidan foydalanadi. Lotin asosida aholining 30%, slavyan-krill yozuvidan 10%, arab yozuvidan 10%, hind yozuvidan 20% aholi foydalanadi.

O'rta Osiyodagi xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi turli yozuvlardan foydalanib kelgan. Bu yozuvlar avesto, pahlaviy, urxun-yenisey (runik), turkiy (uyg'ur), sug'd, arab, kirill, lotin yozuvlaridir.

Afsuski, yozuv og'zaki til(nutq)ni aynan aks ettira olmaydi. Agar yozuv shunday xususiyatga ega bo'lganda, imlo qoidalariga, talaffuz mezonlariga mutlaqo ehtiyoj qolmagan bo'lardi.

Alfavit (Aifbo). Yuqorida ta'kidlaganimizdek harf-tovush (fonografik) yozuvi alfavitni vujudga keltirdi. Alfavit yunon alifbosining alfa va beta (vita) harflari nomidan olingan bo'lib, alifbo (arab alifbosining boshlang'ich ikki harfi – **alif** va **bo** nomidan olingan) ham deyiladi.

Alifbo – biror tilning yozuviga qabul qilingan va ma'lum an'anaviy tartib berilgan yozuv belgilari (masalan, arab alifbosi, lotin alifbosi) yoki bo'g'in belgilar (masalan, hind alifbosi – devanagari) majmui. Alifbo miloddan avvalgi 2000-yillar oxirlarida qadimiy Ugarit va finikiy yozuvi tovush tizimidan kelib chiqqan. Undan ilgari Misr iyerogliflari sanoq tizimi mavjud bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Turkiy xalqlarning run va turkiy (uyg'ur) yozuvlari bo'lgan. Ammo, bu o'ziga xos turkiy yozuvlar alifbosi haqida ma'lumot uchramaydi. Ularga oid harflar jadvali tovush belgilari haqidagi boshqa manbalardagi


ma'lumotlar hamda shu yozuv yodgorliklari asosida tuzilgan. Hozirgi harfiy va ba'zan bo'g'in alifbolari finikiy alifbosidan, oromiy (arab, yahudiy), yunon (lotin va hokazolar) va boshqa alifbolardan kelib chiqqan. Arab alifbosi – barcha arab mamlakatlari, shuningdek Eron, Afg'oniston, Pokiston, Sharqiy Turkiston – Shinjon, shuningdek 13-20 asrlar boshlarida turkiy xalqlar yozuv tizimida; lotin alifbosiga Amerika, Avstraliya qit'asidagi barcha xalqlar, Evropaning ko'pchilik xalqlari, Osiyo va Afrikadagi ba'zi xalqlar (Indoneziya, Turkiya va boshqalar) yozuv tizimida; kirill alifbosiga – Evropa, Osiyodagi ba'zi xalqlar yozuv tizimida; hind bo'g'in alifbosiga – Hindistondagi ko'pgina elatlar yozuv tizimida amal qilingan.

Yuksak takomillashtirilgan alifbodagi bir harf muayyan bir tovushni ifodalashi, bir tovush muayyan bir harf bilan ifodalanishi lozim. Ammo dunyoda bunday alifbo yo'q. Ana shunday ma'nodagi alifboga fin alifbosi birmunsha yaqinlashadi, lekin baribir to'liq emas. Hozirgi ingliz, franso'z va boshqa tillar alifbolari bunday mukammallikdan yiroq. Mana shu holat dunyo tillarining barchasida xima-xil va juda ko'plab grafik va imlo qoidalarining ishlab chiqilishiga sabab bo'lgan.

Yozuv bilan til o'rtasida, alifbo va tilning tovush tizimi o'rtasida bunday farqli holatlarni yuzaga keltirgan sabablar xilma-xil. Avvalo, dunyodagi hozirda mavjud alifbolarning deyarli hammasi ham mustaqil va tegishli til xususiyatlarini to'liq hisobga olgan holda yaratilgan emas. Ko'pchilik xalqlar o'z yozuvlarini boshqa til yozuvini o'z tillariga imkoniyat darajasida moslashtirish yo'li bilan yaratganlar. Bu hol yozuv va til munosabatlarida o'z izini qoldirgan.

Ayni paytda yozuv va tilning taraqqiyoti bir xil, bir-biri bilan to'la mos keladigan jarayon emas. Tilning taraqqiyoti tarixiy va uzluksiz jarayon, odamlar tilga ataylab, ongli ravishda biron-bir o'zgartirish kirita olmaydilar. Tildagi u yoki bu o'zgarish tadrijiy ravishda, asta-sekin yuz beradi. Yozuv haqida esa bunday deb bo'lmaydi. Odamlar til xususiyatlariga yanada moslashtirish uchun yozuvga turli o'zgartishlar kiritadilar, islohotlar qiladilar, bir yozuv tizimini

boshqasi bilan almashtiradilar va hokazolar. Masalan, o‘zbek xalqi asrlar davomida arab alifbosidan foydalanib kelgan, 1923-26-yillarda bu yozuvni o‘zbek tili tovush qurilishini to‘laroq ifodalashga moslashtirish maqsadida bir qator harfiy o‘zgartirishlar kiritilgan. O‘zbekistonda 1929-yildan lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosiga o‘tilgan. 1940-yildan esa kirill yozuvi joriy etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildi. Bu qonunga va uni amalga kiritish tartibi haqidagi O‘R Oliy Kengashi qaroriga O‘R Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda o‘zgarishlar kiritadigan qonun qabul qildi. Bu hujjatga ko‘ra lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi 26 ta harf va 3 ta harflar qo‘shilmasidan iborat.



Dunyodagi alifbolarning hammasida ham harflar soni tegishli tildagi tovushlar (fonemalar) sonidan sezilarli darajada kam. tabiiyki, bu hol yozuvni o'zlashtirishni osonlashtiradi. shuning uchun ham alifbolardagi asosiy tamoyil undagi harflar sonini ko'paytirish emas.

Alifbo yozuvning asosini tashkil etadi. Tinish belgilari va boshqa yozma belgilar ham yozuvning unsurlari hisoblanadi.

Jahon xalqlari yozuvlari. Finikiy yozuv. Ushbu yozuvdan finikiylar, karfagentlar, qadimiy yahudiylar tomonidan Finikiya, Suriya, Falastin va qisman Misr, Kipr, Kiliniya (Kichin Osiyodagi viloyat), Karfagen kabi qadimiy davlatlar foydalanganlar. Finikiy yozuvga daxldor katibalar miloddan oldingi 2-4 m: yilliklarda taalluqlidir. Bu yozuvning paydo bo'lishi sarchashmasi haligacha aniq emas. Taxmin qilishlaricha finikiy yozuv qadimiy Qan'onining bo'g'in va yo undosh yozuvi asosida vujudga kelgan. Finikiy yozuvda 22 ta undosh harf mavjud edi. Keyinchalik qattiq unlilar uchun maxsus alomatlar ishlab chiqildi. Keyinchalik qariyb hamma harfli va ovozli xatlar sistemasi, jumladan yozuvlarning ikki katta bo'g'ini-yunon va oromiy yozuvlar, ham finikiy yozuvidan ibtido oldi.

Oromiy yozuv. Ushbu yozuv undosh tovushlardan iborat bo'lib, 22 ta harfi bor edi. Miloddan oldingi birinchi ming yillikning avvallarida finikiy yozuv zaminida vujudga keldi. Oromiy yozuvning qadimiy osori Var-Xadod (SHimoliy Siriya) va Zokir (Xamodan) kabilardir. Keyinchalik oromiy yozuvni boshqa somiy xalqlar-yahudiylar, oshuriylar, bobiliylar qabul qildilar. Miloddan oldingi 3-2 asrlarda ushbu yozuv bir necha soxada-yahudiy yozuvining murabba xili, palmir va nabatiy yozuvlariga bo'lindi.

Mazkur yozuv Vaynannahrda mixsimon bobil va akkad yozuvlari Haxomanishiylar davlati (imperiyasi) davrida ham oromiy yozuv mixsimon qadimiy fors yozuvi bilan baravar qo'llangan. Jamshid taxtidan 500taga yaqin oromiy kotibalar yozilgan joy taxtachalar topilgan. O'rta eroviy yozuvlarining aksariyati-pahlaviy, porsiy, sug'diy, monaviy, xorazmiy yozuvlari oromiy xatdan paydo bo'lgan.

Sug'd yozuvi. Bu yozuv oromiy yozuv asosida eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda qadimiy Sug'd zaminida yaratilgan. U 23 alomatni o'z ichiga olardi. Sug'd yozuviga mansub birinchi yozma yodgorlik eramizdan oldingi I asrga taalluqlidir.

Sug'd yozuvining alomatlarini birinchi bor frantso'z olimi R.Goto transliteratsiya qilgan edi.

Sug'd yozuvida avvallari bir-biriga ulardan harflar (ligatiralar) juda kam bo'lgan. Har bir harf o'zining alohida yozma shakliga ega bo'lib, ularni bimalol bir-biridan farq qilish mumkin edi.

VI asrning boshlariga "sutra yozuvi nomukammal finik sug'd yozuvi taraqqiy etdi va X asrda keng qo'llandi. Bu yozuv bilan budda dinining yozma yodgorliklari yozilgan. Mukammal finik sug'd yozuvi sakkizinchi asrning o'rtalarida vujudga keldi. Bu yozuv bilan Mug' tug'i, Afrosiyob va Panjakent kabalar yozilgan. Siniq sug'd yozuvida ulardan harflar ko'proq ishlatilgan va alomatlari bir-biridan farqlash ancha qiyin bo'lgan.

Mutaaxxir siniq sug'd yozuvi (bu yozuvni "uyg'uriy sug'd" yo "uyg'uriy" ham dedilar) IX-XI asrlarda taraqqiy etgan. Uyg'uriy yozuvida harflarni bir-biridan farq qilish uchun diakritik alomatlar (harflarning ustiyu ostida nuqta va alomatlar) qo'llangan. diakritik alomatlarni ishlatish kitoblar ixtiyorida edi.

Bu umumsug'd yozuvlaridan tashqari yana ikki xil sug'd yozuvi taraqqiy etgan edi. Bularning bittasida bixoriy va ikkinchisiga istaravshaniy nomini berish mumkin.

Miloddan avvalgi II-III asrlarda shakllangan sug'd yozuvi o'lkamiz madaniyati tarixida muhim rol o'ynaladigani isbotlovchi dalillar juda ko'p topilgan. Dalillarning guvohlik berishicha bu yozuv ijtimoiy va madaniy hayotning hamma sohalarida keng qo'llangan. Shu murakkab jarayonda sug'd yozuvining tashqi shakli takomillasha borgan hamda uning ichki mazmuni-til tovush sistemasi tobora aniq ifodalash tomon o'sa borgan, muayan orfografik normalar vujudga kela boshlagan.

Bu qadimiy sug'd yozuvi orqali eramizning boshlaridan to X-XI asrlarga qadar yozilgan ko'plab hayot yodgorliklari bizgacha etib kelgan. Bu yodgorliklar orasida ko'plab numizmatik materiallar (tanga yozuvlari) metall, sofol, yog'och, charm, qog'oz va boshqa buyumlarga bitilgan matnlar, shaxsiy maktublar, diniy, ahloqiy-falsafiy matnlarning parchalari, xo'jalik huquqiy va diplomatik hujjatlar mavjud.

Shunday noyob yodgorliklarning katta guruhi Panjakent yaqinidagi Mug' tog'i terasidagi qadimgi qasr xarobarilaridan topilgan sug'd hujjatlaridir.

Mazkur yodgorliklar majmuasi "Mug' tog'i sug'd arxivi" deb nomlangan va o'z ichiga VII asr oxiri VIII asr boshlariga oid 80 ga yaqin noyob hujjatni qamrab oladi. Bu hujjatlar sug'd podsholigiga tobe' Panj hokimlari va amaldor ayollarga tegishli hujjatlar yig'indisidan iborat. Agar istilosi kunlarida, xususan, 722-yilda Panj hokimi, bir muddat Sug'd podshosi taxtiga da'vogar sifatida ish ko'rgan Devashtich boshliq guruh Mug'd tog'ida joylashgan mudofaa davriga chekingan. Shu sababli saroy hujjatlari qasrga keltirilgan. Tarix kitobi sahifalaridan ayonki, 722 yili arablar qasrni bosib olib, vayron qildilar.

Mug'd qasri xarobalarida qolib ketgan sug'd arxivi oradan 1210 yil o'tgach, 1932-1933 yillarda topilgan. Bu hujjatlar shu vaqt davomida ancha o'rganildi, barcha matnlarning izohli nashrlari e'lon qilinmoqda va ularning til xususiyatlari o'rganilmoqda. Qadimgi sug'd yozuvi bo'yicha paleografik tadqiqotlar bajarilmoqda. Bir turkum sug'd hujjatlarining o'zbek tiliga tarjimasi va izohlari 1992-yil Mirsodiq Is'hoqov tomonidan etildi.

Yunon yozuvi. Bu yozuvdan qadimgi yunonliklari miloddan avvalgi X-VIII asrlarda foydalanganlar. Ayni damda u hozirgi yunon tiliga ham ba'zi bir *** bilan foydalaniladi. Finiqiy yozuvdan paydo bo'lgan. YUnonliklar finiqiy yozuvni o'z tillariga mohirlik bilan tatbiq etdilar. YOzuv tarixida birinchi bor unlilar uchun alohida harflar joriy qildilar va undoshlar uchun bir necha harf ilova qildilar. Finiqiylar rostdan chapga qarab yozardilar. Yunonliklar ham avval shu usulni qo'lladilar. Keyinchalik bir qatorni o'ngdan chapga, ikkinchi qatorni chapdan o'ngga qarab yoza boshladilar. Miloddan oldingi VII-VI asrlardan

boshlab chapdan o'ngga qarab yozilishi joriy qildilar. Yunon alifbosi 24 harfdan iborat bo'lib, Jahnnning ko'pgina tillari alifbosi, jumladan, lotin, slavyan, arman, gruzin, got tillarining alifbosi o'z asosini yunon alifbosidan oldi.

Avesto yozuvi. (Zand yozuvi ham deyiladi). III-IV asrlarda paylaviy yozuvi asosida ixtiro qilingan va Avesto kitobini yozish qo'llangan. Unda 48 ta harf va 3 ligatura (birlashgan harflar) mavjud edi. Ushbu yozuv Avestoni bexato va to'g'ri o'qish uchun ixtiro etilgan. Avesto yozuvi sosoniylar zamonida "din-dabira", ya'ni diniy matnlarni sabt etish uchun yaratilgan yozuv nomi bilan yuritilgan.

Pahlaviy yozuvi. III asrda oromiy yozuv asosida yaratilgan. Raylaviy tilining qadimiy kotibalari yozuvda bitilgan. Ushbu yozuv 22 alomatdan iborat edi. Keyinchalik tez yozish (kursiv) usuli qo'llanilgach alomatlar miqdori 14-15 ta bo'ldi. Pahlaviy yozuvda faqat uzun unlilar o'z alomatiga ega edi. Ushbu yozuv o'ndan chapga qarab yozilar edi.

Lotin yozuv. Eramizdan avvaldi 403- yildan boshlab Afinada klassik grek alfaviti qo'llana boshlandi. Ushbu alfavitda hammasi bo'lib 24 ta harf bo'lib, undan 7 tasi unli, qolganlari undosh tovushlarni ifoda etgan. qarbiy grek yozuvi asosida lotin yozuvi paydo bo'lgan bo'lsa, sharqiy grek yozuvi asosida kiritilsa, gruziya va arab alfavitlari yaratilgan.

Ko'p o'tmay lotin yozuvi qarbiy Evropada keng tarqala boshlandi. XVI asrda kelib qog'oz yaratildi va kitob nashri yo'lga qo'yildi. Bu omil ham lotin yozuvining keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

Hozirgi zamon yozuvlaridan 70 tasi (bundan 30 tasi Evropa, 20 tasi Osiyo, 20 tasi Afrikada yashovchi xalqlarga taalluqli) lotin yozuviga asoslangan.

Xattotlik – chiroyli va to'g'ri yozish san'ati. Xattotlik (kalligrafiya) - chiroyli va to'g'ri yozish san'ati, kitob ko'chirish kasbidir. Bu san'at O'rta Osiyoda qadimdan rivoj topgan. Xattotlik tarixi yozuv taraqqiyoti va kitobatning asosiy silohi qalam (nayqalam) bilan chambarchas bog'liqdir. Yozuv va qalam paydo bo'lgandan keyin maxsus kishilar xattotlik bilan

shug'ullana boshlaganlar. Ayniqsa, arab yozuvi tarqalgandan keyin xattotlik keng rivoj topgan.

Matbaachilik vujudga kelganga qadar kitob tayyorlash, ularning nusxasini ko'paytirish ishi bilan xattotlar shug'ullanganlar. Saroylarda, ayrim amaldorlar huzurida xattotlik jamoalari tashkil etilgan. Masalan, Mirzo Boysung'ur o'z saroyida 40 xattotdan iborat guruhni to'plagan edi. Shunday xattotlardan biri Sultonali Mashhadiy bo'lib, u 1432-yilda tug'ilib, 1520-yilda vafot etgan. U **“giblatul kuttob”** (kitoblar qiblasi) va **“sutonul-xattotayn”** (xattotlar sultoni) kabi faxriy laqablar bilan mashhur bo'lgan. Unda shoirlik zavqi ham begona bo'lmagan.

Nasta'liq xati o'zining go'zalligi va nafosati uchun **“xatlar kelinchagi”** deb nom olgan va XIV asrdan buyon Xuroson, Movarounnahr, Eron, Hidiston, Ozarbayjon va Turkiyada tarixiy, badiiy asarlar ko'chirishda, imoratlar kitobalarida istifoda etilgan.

Arab imlosidagi klassik etti yozuv turi yoki etti qalamning biri bo'lmish nasta'liq xati XIV asr ikkinchi yarmida Tabrizlik ustod xattot Xoja Mir Ali tomonidan ixtiro qilingan.

Nasta'liq xatining Movarounnahrda keng tarqalishida va o'ziga xos xattotlik uslubi va maktabining shakllanishida Sulton Ali Mashhadiy va Mir Ali Xeraviyning ustot xattot sifatidagi xizmatlari va sermahsul ijodlari juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Sulton Ali Mashhadiy xattotlikni o'rganishda asosan nazariy mashq – boshqalar xatini aynan ko'chirish va xayoliy mashq – erkin mashqqa katta e'tibor bergan edi.




Sultonali Mashhaqiy 1461- yil Nizomiyning **“Maxzanul-asror”** masnaviysi, 1464- yil Hofiz Sheroziyning devoni, 1465-1466- yillar esa Alisher Navoiyning g'azaliyot devonini kitobat qilib, shuhrat topdi. Keyinchalik Navoiyning taklifi bilan Mashaddan Hirotga kelib, Husayn Boyqaro kitobxonasida xattotlarga boshchilik qilgan. Hozirga qadar u oqqa ko'chirgan 50 ta asar bizgacha etib kelgan.

Sultonali Mashhadiyning faoliyati borasida Hazrat Navoiy “Majolisun-nafois”da, Qozi Ahmad va Som Mirzolar tazkiralarida ma’lumot berib o’tganlar.

Yaxshi va chiroyli yozishdan maqsad faqat oson o’qish emas, balki o’quvchiga estetik zavq bag’ishlash, yozuvni maleh va bade qilishdir. Ta’kidlaganimizdek, xattotlik san’ati yaqin Sharq xalqlari o’rtasida arab yozuvi asosida keng tarqaldi. Arab yozuvida oltita yozuv shakli juda mashhurdir. Bular quyidagilar:


1. Kufi – الكوفي – Kufa shahridan
2. Suls – الثلث – «uchdan bir»
3. Nasx – النسخ – «nusxa ko’chirish»
4. Ta’liq – التعليق – bu yozuv turini “forsiy” ham deyдилar
5. Devoniy – الديواني –
6. Riqo – الرقعة –

Xattotlik usuli yozuv turiga bog’liqdir. Xattotlik o’z nazariy va amaliy qonunlariga ega ediki, xushnavislar bunga qat’iy rioya etar edilar. Xattotlik nazariyasiga X-XI asr mashhur xattotlari Abu Ali Muhammad (Ibni Musla) va Ali Ibni Nihol (Ibni Vavvob) asos solganlar. Ular an’anasini Yoqut Musta’simiy nazariy jihatdan rivojlantirdi. Quyida arab xattotlik san’atidan namunalar keltiramiz:




Xushnavislikning o‘ziga xos talab va qonuniyatlari. Xattotlik san’ati ta’kidlaganimizdek muayyan qonun va talablarga asoslangan va bu talablar matematik aniqlikni talab qilar edi. Oltilik sistemaga asoslangan xattotlik san’ati

me'yor sifatida doira shaklini tanlar edi. Bu doira ichida tomonlari barobar uchburchak, kvadrat va beshburchak chizilib, undan harflar andozasi muayan qilingan.



Har bir harf uchun romb shaklidagi yuqoridan pastga qarab qo'yilgan nuqtalar ishlatilar edi. Yozuv turlariga qarab nuqtalar miqdori o'zgartirilgan. Masalan, muhaqqaq yozuvi uchun sakkiz nuqta, suls yozuvi uchun etti va tavqe yozuvi uchun olti nuqta muqarrar qilingan edi.





Arab harflarining yozilishini hisobga olib, doira ichidagi uchburchak, kvadrat va beshburchak shakllaridan foydalanganlar. Dol, qof, mim va vov harflarini yozishda uchburchakdan foydalansalar, jim harfining boshi va shunga o'xshash harflarni yozishda beshburchak andoza sifatida xizmat qilgan. Ba'zan bu murakkab sistema o'rniga oddiy usul-nuqtalar hisobi qo'llangan. Masalan, suls yozuvida **alif** harfi etti nuqtaga, muhaqqaq yozuvida sakkiz nuqtaga, tavqe yozuvida olti nuqtaga, **be** harfi esa suls yozuvida olti nuqtaga muhaqqaqda etti, tavqe'da besh nuqtaga, **jim** va **ayn** harflarining xatdan pastgi qismi suls yozuviga 10,5, muhaqqaq va tavqe yozuvlarida to'qqiz nuqta hajmida belgilangan va yozilgan.

Xattotlik san'atini rivojlantirishda Ibn Muqla, Ibni Tavvob va Yoqut Mustaqsimiy bilan bir qatorda XV asrning mashhur xushnavisi Sultonali Mashhadiyning xizmatlari kattadir. Uning "**Obod ul-mashq**" risolasiga birinchi bor chiroyli yozuvga o'rgatishning ikki usuli - nazariy va qalamiy usullari bayon etilgan. **Nazariy usul**- o'tgan ustozlar yozuvini o'rganish va mushohada etishni

taqozo etsa, **qalamiy usul** - chiroyli nusxada qarab payvasta mashq qilishni talab etadi.

Xushnavislikda aksariyat ikki tarzda - **jalliy** va **xafiy** tarzida yozardilar. Odatan xafiy mashqi **kunduzi**, jalliy mashqi **kechasi** amalga oshirilar edi. Chunki xafiy xati kichik yozilsa, jalliy yozuvi katta-katta yozilar edi. Ko'pgina kitoblarning hoshiyalariga xafiy xatiga kitobat qilingan yozuvlarni ko'ramiz. O'rta asrlarda har bir xushnavis hech bo'lmaganda uch xil yozuvda - suls, nasx, nasta'liq yozuvlarida mashq qilib bilar edi. Aksariyat oltilik va nasta'liq yozuvida juda yaxshi va chiroyli yoza olar edilar. Xushnavislarning qurollari **siyoh, rangli jo'shalar, oq va rangli qog'oz, nayqalam, qalamtarosh, mistar, qalamdon, siyohdon, mehrak va qalamqat** edi (1- rasm). **Sultonali Mashhadiyning "Risolai xat", Mirali Hiraviyning "Midod ul-xutut", Mirimodi Qazviynining "Obod ul-mashq", Majnun ibn Kamoliddin Mahmudi Rafiqiyning "Risolai xati manzum", Shafeoniyning "Risolai xat"** kabi risolalarida siyohning tayyorlash texnologiyasi, nayqalam, qog'ozning sifatini bilish usullari, umuman yozish qurollari borasida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Xushnavislikka ma'lum va joriy bo'lgan qoidalar **o'n ikkilik** qoidasi deb nomlanar va bular: **usul, tarkib, kursi, suud, nuzul, nisbat, davr, sath, quvvat, za'f, safo va nishon** edi.

VII asrda arab yozuvining keng tarqalgan uslublaridan biri **kufiy** xati ixtiro qilinguncha (ixtirochisi Ya'rab ibn Kahton) O'rta Osiyoda turli yozuv usullari mavjud bo'lgan. Masalan, makkiy, madaniy, basariy va boshqalar. Bu xatlardan oldinroq **ma'daliy (tik chiziqli)** yozuvi mavjud edi. Kufiy yozuvi ko'pincha madaniy yodgorliklarning naqshlarida saqlanib qolgan. Xalifa Muqtadir zamonida yashagan olim Ibn Muqla (864-934) ni xatti sitta (olti xil yozuv: suls, nasx, muhaqqaq, rayhoniyy, tavqe, riqo) ixtirochisi deb tan olganlar.

Vaqt o'tishi bilan kufiy yozuvining turli variantlari ixtiro qilingan. Qur'oni Karimning ilk namunalar shu yozuvda yozilgan. Zamonlar o'tishi bilan

xattotlar bu yozuvni ham binolarning bezaklarida ishlatganlar. Muhaqqaq yozuvi kufiyning bir oz o'zgartirilgan shaklidir. Rayhoniylar uslubi muhaqqaq yozuvida o'xshagan, lekin harf shakllari rayhon barglariga o'xshagani uchun shu nomga loyiq topilgan. Nasx yozuvi kufiy va muhaqqaq xatlaridan ko'ra Qur'on ko'chirishda ma'qulroq topilgan. Tavqea yozuvi esa asosan buyruq va farmonlar yozishda qo'llangan. Riqa yozuvi tavqega ancha yaqin, lekin undan nozikroq. Asosan munshaot (maktub yozish)da ishlatilgani va qog'ozlarga nafis qilib yozilgani uchun riqa deb atalgan. Mazkur yozuvlardan tashqari tumor, g'ubor, shajariy, tug'ro va boshqa xat turlari ham bo'lgan. Tug'ro imzo qo'yishda ishlatilgan.

XV asr boshlaridan kitob ko'chirishda (fors-tojik va eski o'zbek tillarida) nasta'liq xati rasm bo'ldi. Hazrat Alisher Navoiy ta'biricha, xattotlar sultoni bo'lgan Sultonali Mashhaqiy nasta'liq xatini ajoyib san'at darajasiga ko'targan ekan.

3.2. Yozuvning gigienik va metodik shartlari haqida umumiy ma'lumot

Sinfda o'quvchilar ish joyini to'g'ri tashkil etish. Partaga o'tirish gigiyenasi. Boshlang'ich ta'limni isloh qilish, uni ilmiy asoslangan tahkursilar bilan qaytadan ta'minlash borasidagi asosli fikrlar yurtboshimiz tomonidan o'rta tashlangan edi. Shundan keyin bir qator qonun, qaror va ko'rsatmalar e'lon qilindi va ularni amalga oshirish ishlari respublikamiz ta'lim muassasalarida keng quloch yozdi. Ayni damda bu borada muayyan chora-tadbirlar rejalashtirilib, muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, hali hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar talaygina.

Kuzatishlarimiz shundan dalolat beradiki, boshlang'ich sinf, xususan, birinchi sinf o'quvchilarining savodini chiqarishda ularning yoshi va jismoniy tayyorgarligi ham katta rol o'ynaydi. Masalan, yozish va o'qish malakalarining shakllantirishning birinchi zinalarida bola yozish va o'qish mashqlarini bajarish uchun o'zining bor kuchini – jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini sarflaydi: yozuv jarayonida o'quvchining hamma muskullari, ayniqsa qo'l va yelka muskullari,

bel va oyoq tomirlari hamda asab torlari ancha taranglashadi. Shuning uchun o'qituvchilar bu jarayonni sezgirlik bilan kuzatadilar, barmoq va qo'l muskullarining harakat tezligi, partada to'g'ri o'tirishi, umuman o'quvchilarning jismoniy va ruhiy holati hamda tayyorgarligini hisobga oladilar.

Tabiiyki, yozish va o'qish jarayonlari dastlabki bosqichlarda jismoniy va ruhiy siqilishlar ostida o'tadi. Bola birinchi mushkilot va muvaffaqiyatsizlikni qiyinchilik bilan hazm qiladi. Shuning uchun jismoniy va ruhiy zo'riqishlar ham kutilgan samarani bermaydi. O'quvchi o'z xatosini sezadi va tushunadi, lekin o'quvchisining yo'l – yo'riqlari bilan ham uni bartaraf etolmaydi. Bunday hollarda o'qituvchi o'quvchini ruhiyati – kayfiyatini ko'tarish uchun turli xil lahzalik sho'x o'yinlar tashkil etiladi. Bunday lahzalik jismoniy va ruhiy tanaffuslar bolaning ruhiy zo'riqishini mo'tadillashtiradi va bolaning mavzuni o'zlashtirish, qabul qilish darajasini oshiradi. Aytganlarimiz o'sha vaqt o'z samarasi – mevasini beradiki, boshlang'ich sinf o'quvchisi, xususan birinchi sinf o'quvchisining ta'lim olishi uchun hama tashkiliy va metodik ishlar a'lo darajada tayyorlangan bo'lishi lozim. Tashkiliy va metodik ishlarga nimalar kiradi? Keling, shu haqda bahslashaylik!

Maktab o'quvchisi o'zining ko'p vaqtini darsxonada quyidagi o'quv qurollari bilan bog'liq holda o'tkazadi: parta, sinf taxta (doska)si, daftar, ruchka va boshqalar. Shunday ekan o'quv qurollarining gigiyenik va pedagogik talablarga javob berishi katta ahamiyatga egadir. Ta'kidlaganimizdek maktab o'quvchilari o'zining juda ko'p vaqtini partada o'tirib o'tkazadi. Shuning uchun bu mas'uliyatli davrda o'quvchilarni qo'yilgan gigiyenik talablarga amal qilishga o'rgatish kerak.

Ish qobiliyati uzoq vaqtgacha pasaymay turishini hamda bolalar qaddi-qomatining to'g'ri rivojlanishi, o'qish davrida ko'zning salbiy ta'sirlanmasligini ta'minlash maqsadida sinflarni gigiyena talablariga javob beradigan partalar bilan jihozlash muhim ahamiyatga ega. Birinchi navbatda ustoz – muallim o'z shogirdining mo'tadil ishlashi uchun zarur shart-sharoit yaratib berishi lozim. Bu ishga tayyorgarlik avgust oyidan boshlanadi. O'qituvchi unga ajratilgan

sinfxonani va undagi partalarni bo'lajak shogirdlari ishlashi uchun mos kelish-kelmasligini tekshirib ko'rishi lozim. Shogirdlarini maktabga qabul qilib olgandan so'ng esa ularning bo'yiga, ko'rish va eshitish qobiliyatlariga qarab partalarga o'tqazishi kerak.

Sinf partalari birinchi navbatda pedagogik talablarga to'liq javob berishi lozim. Bu talablar quyidagilar:

1. O'quvchilarning yoshlari va bo'ylariga mos bo'lishi.
2. O'quvchilarning gavdasiga mos bo'lishi.
3. Yozish hamda rasm chizish uchun qulay bo'lishi.
4. O'quvchi turganda yoki o'tirganda qiyinchilik tug'dirmasligi.

Deraza tomondagi birinchi partada asosan ko'rish qobiliyati pastroq yoki eshitish imkoniyatlari pastroq bo'lgan talabani o'tirg'izish lozim. Partalar sinfda asosan uch qator bo'lishi kerak. Birinchi parta va sinf doskasi o'rtasidagi masofa 2 metrdan, oxirgi parta bilan doska orasidagi masofa esa 8 metrdan kam bo'lmasligi lozim. Bu masofa bolalarning yaxshi ko'rishlari va o'qituvchini yaxshi eshitishlari uchun zarur. Derazadan ichkaridagi oxirgi parta orasidagi masofa 6 metrdan oshmasligi kerak.

Qatorlar o'rtasidagi partalarning orasi 75 sm bo'lishi kerak. Bu masofa qatorlar orasida ikkita o'quvchini bimalol harakatlanishi uchun zarur.

Bizning kuzatish va tajribalarimiz shundan guvohlik beradiki, ko'pgina umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida bu talablarga umuman rioya etilmaydi va yo ular qo'pol tarzda buziladi. Birinchidan, o'quvchilar partasi ularning yosh, bo'y va gavdasiga mos emas. Aslida partalar bir o'rinli va ikki o'rinli bo'lishi mumkin. Xorijiy mamlakatlarda ko'pincha bir o'rinli partalardan foydalaniladi.




Respublikamiz maktablarida, ayni damda, ikki o‘rinli partalardan foydalanilmoqda. Ta’kidlash joizki, professor F.F.Erisman tomonidan yaratilgan ikki o‘rinli yog‘och partalar gigiyenik tomondan juda qulay edi.



Lekin ming afsuski, ayni damda bunday partalar batamom iste’moldan chiqdi. Mabodo qolgan bo‘lsa ham ular qishloq maktablarida mavjud.

Talabga muvofiq parta ustining qiyaligi 15° ga teng bo‘lishi lozim, chunki bunday qiyalikda yozish va o‘qish juda qulay bo‘lib, ko‘z tez charchamaydi (1-rasm).




1-rasm

Yana bir muhim talablardan biri partaning qopqog'i ochilib ham yopilib turadigan bo'lishi lozimligidir. Agar partada ochilib yopiladigan qopqoq bo'lmasa o'quvchining o'rnidan turishi va o'rniga o'tirishi noqulay boladi. Natijada bu o'ng'aysizlik bola ruhiyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Hozir iste'moldagi partalarda shunday qopqog'ining yo'qligi afsuslanarli holdir. Parta o'tirg'ichining mustahkam turishi to'g'ri o'tirishni ta'minlaydigan eng muhim omildir. Agar o'tirg'ichning taxtasi orqa tomonga bir oz moyil bo'lsa yana ham yaxshiroq bo'ladi. O'quvchilarning yanada qulayroq o'rnashib o'tirishlari uchun orqa suyanchiqning balandligi o'quvchining belidan yuqori bo'lishi kerar.

Parta distansiyasi degan tushuncha mavjud. Distansiya deb parta ustining pastki qirrasi bilan suyanchiq orasidagi masofaga aytiladi. Bu masofa, ya'ni ko'krak qafasi bilan uning qirrasi orasidagi masofa 4 sm bo'lishi lozim. Ayni damda ko'pgina maktablarning boshlang'ich sinflarida usti bir tekis, o'tirg'ichi alohida, balandligi va tuzilishi (temir va taxta partalar, ish stollari) har xil bo'lgan, oyoqni qo'yish joyi bo'lmagan partalardan foydalanilmoqda. Bunday gigiyenik va pedagogik talablarning qo'pol ravishda buzilishi ta'lim sifatiga isloh qilib bo'lmas salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tasavvur qiling, birinchi sinf o'quvchisi o'tirg'ichi past, parta o'rnida ishlatilayotgan idora ish stolida o'tirib yozayapti. O'tirg'ich pastligi bois u quloqlarini ko'tarib partaga qulay o'rnashib olishga harakat qiladi, lekin tezda har ikkala qo'li og'riy boshlaydi. Natijada uning diqqati susayib, bezovtalana boshlaydi. Yozish jarayonida xatolarga yo'l qo'ya boshlaydi va bundan tabiiyki, o'zi ham asabiylashadi. Shunday holatlar bo'lmasligi uchun partaning distansiyasi to'g'ri saqlanishi lozim.

Talabga muvofiq partaning distansiyasi uch xil bo'lishi mumkin: **musbat, nol, manfiy**. Musbat distansiyada parta ustining cheti bilan o'tirg'ich orasidagi masofa teng bo'ladi. Parta ustining chetidan tushirilgan chiziqli o'tirg'ichning ustiga emas, balki polga tushadi (2-rasm).




2- rasm

2- rasm


Yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan partalarda o'tirish o'quvchular uchun noqulay bo'ladi. O'quvchi bunday partalarda o'tirsa pastga egilib o'tirishga majbur bo'ladi.

Nol masofadagi distansiyada parta ustining cheti bilan o'tirg'ichning orasida hech qanday masofa bo'lmaydi. Parta ustining chetidan tushirilgan chiziq o'tirg'ich ustining chetiga mos bo'ladi (3-rasm). Bunday partalar ham o'quvchilar uchun qulay bo'lmaydi.



3-rasm

Uchinchi, ya'ni manfiy distansiyada parta ustining cheti o'tirg'ichning ichiga 4sm masofada kirib turadi. Parta ustining chetidan tushirilgan chiziq o'tirg'ichning ustiga tushadi (4-rasm).




4-rasm

Distansiyasi manfiy bo'lgan partalar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda qulay bo'lib, gigiyenik talablarga to'liq javob beradi.

Parta tanlashning yana bir muhim jihati shundaki, uning differentsiyasini to'g'ri saqlashdir. Parta qopqog'ining cheti bilan o'tirg'ichning orasidagi masofa **differentsiya** deyiladi. Agar parta o'tirg'ichi past bo'lsa, o'quvchi parta qopqog'iga osilib turadi, agar yuqori bo'lsa, bukchayib o'tirishga majbur bo'ladi. Shuning uchun o'tirg'ichning balandligi o'quvchilarning oyoqlari uzunligiga teng bo'lib, o'tirganda tovonlari polga yoki partaning zinasiga tegib turishi lozim.

Oyoqlarni qo'yish uchun maxsus joy bo'lmaganligi bois oyoq muskullari ham zirqirab og'rishni boshlaydi. keltirganimiz holat kichik bir misol. endi tasavvur qiling, butun sinf o'quvchilari (sinfda bironta ham talabga javob beradigan parta yo'q-da) shunday jismoniy va ruhiy zo'riqish ostida savod o'rganadilar. Shunday vaz'iyatda eng tajribali o'qituvchining zahmatlari ham barabas ketishi tabiiy hol.

Ayni zamonda rivojlangan mamlakatlarda quyidagi konstruktor partalardan ham keng foydalanilmoqda:



Erisman partalariga o'zgarishlar kiritilib, yuqoridagi davlat standarti bo'yicha temir oyoqli ikki va bir o'rinli partalar tavsiya etilmoqda.

Bunday partalarning gigiyenik afzalligi shundaki, balandligini bolalarning bo'yiga qarab o'zgartirib turish mumkin, bundan tashqari, suyanchig'i ikkita taxtadan iborat bo'lib, suyanganda yaxshi tayanch vazifasini o'taydi. Hozirgi vaqtda o'quvchilar uchun 15 sm oralab belgilangan bo'y balandligi qabul qilingan, o'quvchilar mebelning davlat standartlari shu ko'rsatkichga muvofiq ishlab chiqariladi.

1-3- sinf o'quv xonalari uchun A, B, V turdagi partalar ishlab chiqariladi. "A" turdagi partalar bo'yi 130 sm gacha bo'lgan bolalar uchun, "B" turdagi partalar bo'yi 130-145 sm, "V" turdagi partalar bo'yi 145-160 sm.li bolalar uchun mo'ljallangan. Parta o'rindig'ining chuqurligi son uzunligining $\frac{2}{3}$ - $\frac{3}{4}$ qismiga teng bo'lishi lozim.

O'rindiqning pol sathidan balandligi boldir suyagi va to'piqning uzunligiga hamda poyabzalning 1-2 sm poshnasi balandligining yug'indisiga teng bo'lishi kerak.

Partaning o'quvchiga qaragan qirrasining pol sathidan balandligi o'quvchi o'tirganda pol sathidan to'g'ri burchak hosil qilgan tirsakning balandligiga teng bo'lishi kerak.

Parta ustki qismining o'tirg'ichiga nisbatan 15° pastda og'ishi gigiyenik talablarga javob beradi.

Partalarning ustki sathi tabiiy taxta rangida yoki yashil, sariq va havo rangga bo'yalgani ma'qul, bunda yorug'likni qaytarish koeffitsenti 35-55% atrofida bo'ladi.


Bolalarni antropometrik belgilarni hisobga olib partalarga o'tqizish ularning to'g'ri rivojlanishiga ta'sir qilib qolmay, ish qobiliyatini ham oshiradi.

3.3. Yozuv qurollari va ulardan foydalanish

O'qituvchi sunfda o'quvchilarning ish joyini to'g'ri tashkil etgandan so'ng ularga yozuv qurollari va daftardan qanday foydalanishni o'rgatishi lozim. Birinchi navbatda o'qituvchi o'z shogirdlari uchun sifatli yozuv qurollari tanlaydi, chunki yozuvning chiroyli bo'lishi ko'p jihatdan yozuv qurollariga bog'liqdir. Hozirgi zamonda yozuv qurollarining turi nihoyatda ko'p va ularning hammasi talabga javob beradi. Ko'pgina yozuv qurollari ta'lim standartlari talablariga javob berolmaydi. Shuning uchun o'qituvchining o'zi talabalarni sifatli yozuv qurollari bilan ta'minlashi lozim.

Daftar. Daftar asosiy yozuv quroli sifatida katta ahamiyatga egadir. U birinchi navbatda sifatli oq qog'ozdan, silliq va chiziqlari aniq ko'rinib turadigan bo'lishi kerak.


Talabga muvofiq 1-sinf o'quvchilari uchun qiya chiziqlari orasidagi masofa 25 mm ga, kichik harflar yoziladigan satr chizig'i oralig'i 5 mm ga teng bolgan ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. daftarning qiya chiziqlari 65°ga teng bo'lishi lozim (1-rasm):



(1-rasm)

Qiya chiziqlari siyrak bo'lgan ikki chiziqli daftarga yozdirib mashq qildirish orqali 1-sinf o'quvchilarini mayda harflar bilan tez yozishga tayyorlab boriladi. Bunday daftarda mashq qilish o'quvchilarga harflarning eni va ular orasidagi masofani ko'z bilan chamalashga hamda harflarning qiyaligiga rioya qilishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tavsiya etilgan bir chiziqli daftarning parallel chiziqlari orasidagi masofa 8 mm ga teng bo'lib, undan kam oraliqdagi daftarga (bir chiziqli daftarlarda turli-tuman bo'lib, ular orasidagi masofalar ham har xildir) yozdirish mumkin emas. 2-sinfda bir chiziqli daftarga kichik harflarning bo'yi 3 mm, bosh harflarning bo'yi 6 mm ga teng bo'lishi lozim. Daftar hoshiyasi 30 mmga teng bo'lishi kerak (2-rasm).



(2-rasm)

O'quvchilar tomonidan noto'g'ri yozilgan harf va uning unsurlari faqat hoshiyada yozib ko'rsatiladi.

O'quvchilarda yozuv malakasini to'g'ri shakllantirish uchun daftarni to'g'ri tutishda alohida e'tibor berish lozim, chunki daftar butun o'qish davomida o'quvchining zarur yozuv qurollaridan biri hisoblanadi.

O'quvchilarning, xususan 1-sinf o'quvchilarining daftar tutishlariga yaxshi ahamiyat bermaslik, uning zarur qoidalarini tushuntirmaslik yozuv sifatining pasayishiga olib keladi.


O'quvchilarning daftarlariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri daftarning tashqi ko'rinishini bir xilda bo'lishiga erishishdir. daftarning muqovasiga husnixat qoidalariga moslab bir xilda yozish kerak.

1-sinf o'quvchilarining daftarlari ustiga o'qituvchining o'zi yozib berishi kerak. 2-sinfdan boshlab o'quvchilarning o'zlari daftarning muqovasiga o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan namunaga qarab mustaqil yoza olishlari mumkin.

Har bir o'quvchida yozuv uchun ikkita daftar bo'lishi lozim. Biriga sinfda yozadi va o'qituvchiga tekshirish uchun topshiradi, ikkinchisini esa o'qituvchidan qaytarib oladi. Nazorat ishlari uchun esa alohida daftar tuttiriladi.

O'qituvchilarning daftarlari o'qituvchi tomonidan muntazam ravishda tekshirib boriladi. Daftarni toza tutgan va chiroyli yozgan o'quvchilarni rag'batlantirib borish kerak. O'quvchilarni rag'batlantirishda faqat "4" va "5" baholar bilan chegaralanmay, ularning daftarlari ustiga alohida ajrab turishi uchun **"yulduzcha"**, **"bayroqcha"**, **"besburchak"**, **"to'rtburchak"** va **"uchburchak"**lar qo'yib berish mumkin. Qaysi o'quvchining daftarida yulduzcha, bayroqcha va beshburchak bo'lsa, o'sha o'quvchi yaxshi yozgan hisoblanadi. Rag'batlantirishning bu turidan 1-2-sinflarda keng foydalanish mumkin.


Ta'kidlaganimizdek, boshlang'ich sinflarda harflarning qiyaligini bir xilda, ya'ni 65° da saqlash katta ahamiyatga ega. O'quvchilarga harflarning qiyaligini to'g'ri saqlashga o'rgatishdan oldin daftarni parta ustiga qanday qo'yishni tushuntirish lozim. Daftarning parta ustida noto'g'ri turishi gigiyena qoidalarining buzilishiga ham sabab bo'ladi, chunki yozuvning qiyaligi ham daftarning holatiga qarab belgilanadi. Agar daftar ko'rsatilgan qiyalikda tursa, yozuv ham 65° qiyalikda yoziladi. Agar daftarning holati o'zgarsa, yozuvning ham qiyaligi o'zgaradi. Shuning uchun har bir darsda o'qituvchi o'quvchilar daftarini kuzatib borishi kerak. Daftarning pastki chap burchagi ko'krak o'rtasida to'g'ri bo'lishi yoki daftarning qiya chizig'i parta qopqog'ining chetiga tik bo'lishi kerak (3 - rasm)



(3-rasm)


Daftar beti yozuv bilan to'lib borgan sari daftar yuqoriga surib boriladi. Chap qo'l bilan esa daftarning yuqori tomoni bosib turiladi. Yozuv darslarida daftarning parta ustida to'g'ri turishini tashkil etish birinchi galdagi vazifadir. Bu muhim vazifani amalga oshirish o'qituvchidan ko'p mehnat talab etadi.

Buning uchun sinf partasining ustiga ikki o'quvchining har biri uchun ingichka qiya nazorat chiziq chiziladi. Bu chiziqning ostki uchi o'quvchilarning chap ko'kraklari o'rtasida to'g'ri bo'lib, parta qopqog'iga nisbatan 65° qiya bo'ladi. Natijada hamma o'quvchilarning oldida (partada) nazorat chiziqlar bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarni daftarning chetini yoki o'rtasini shu nazorat chiziqqa tekis qilib qo'yishlariga erisha olsa bas. Satrlar to'lib borgan sari daftarni shu chiziq bo'ylab yuqoriga ko'tarib borish lozim (4-rasm).



(4-rasm)

Agar daftarning chap beti to'lsa, daftarning buklanadigan yeri nazorat chiziqqa to'g'rilab olinadi va o'ng betiga yozishga o'tiladi (5-rasm).



(5-rasm)

Bu usuldan bir chiziqli daftarga yozishda keng foydalanish mumkin. Bunday nazorat chiziqlar daftarni buklashdan saqlaydi. Chunki ba'zi o'quvchilar o'ziga qulaylik tug'dirish maqsadida daftarni buklab yozadilar. Daftarning hoshiyasiga ham e'tibor berish lozim, chunki daftarning chetida qoldirilgan joy yozuvning tekis chiqishiga, so'zlarni bog'inlarga ajratishga, ayrim noto'g'ri yozilgan harf va uning elementlarini to'g'ri yozib ko'rsatishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari daftarni saqlashda bir oz qiyinchiliklarga uchraydilar. Shuning uchun ularga daftar o'lchamidan katta bo'lgan va qalin materialdan ishlangan maktab sumkasidan foydalanishni tavsiya etish lozim.

O'quvchilarni daftarga yozdirishga boshlashdan oldin ularga sana, sarlavha va yozuvlarni qayerdan boshlab yozishni tushuntirish lozim.

Daftardagi sarlavha va yozuvlarning to'g'ri joylanishi yozuvning sifatini oshiradi. Noto'g'ri qo'yilgan sarlavha xatning sifatiga salbiy ta'sir etadi

IKKI

DO'ST

Bir bor ekan, bir...

1 (To'g'ri)

IKKI DO'ST

Bir bor ekan, bir...

2 (Noto'g'ri)

1-sinf o'quvchilaridan kunlarni raqamlar bilan, oylarning nomini esa harflar bilan varaqning o'rtasiga yozish talab etiladi.

O'quvchilarning yozgan harf va matnlarini muntazam ravishda qizil siyoh bilan tekshirib, zarur ko'rsatmalar berib borish o'quvchilarning kelgusida benuqson yozishlari uchun zamin hozirlaydi.

O'quvchilarning ishlarini baholashga alohida e'tibor qilib, tegishli ko'rsatmalar berib borish lozim. O'quvchilarning bahosi bajarilgan ishning ostiga qo'yilishi kerak.

O'quvchilarning daftarlariga **“Ko'rildi”, “Xato”** tarzida emas, **“Chiziqdan yoz”, “Harflar orasidagi masofani to'g'ri saqla”, “Harflarni bog'lab yoz”, “Qiyaroq yoz”** kabi yozib ko'rsatish maqul.

O'quvchilarning husnixatga, daftar tutishga qiziqishlarini o'stirish maqsadida maktab bo'yicha eng yaxshi tutilgan daftarlarni yig'ib ko'rgazma tashkil etish kerak.

Avtoruchka. Yozuv qurollarining tarixi, xususan ruchka juda qadimga, miloddan oldingi davrlarga, qadimgi odamlar g'or devorlariga tosh bilan rasm chizgan davrlarga borib taqaladi.

Qadimdan hozirga qadar yozuv qurollarining mexanizmi turli o'zgarishlarga uchradi. Bu hol odamlarning turmush tarzining o'zgarishi bilan bog'liq holda rivojlandi. Odamlar devorlarda turli xildagi rasmlarni chizadigan bo'ldilar. Buning uchun qirrali toshlar, suyaklardan foydalanar edilar. Bundan 4000 yil oldin shunday edi. Bundan 3000 yil avval yegipetliklar tomonidan iyerogliflar ixtiro qilindi. Yerogliflarni yozish uchun mo'yqalamlar yaratildi. Ana shu mo'yqalamlar hozirgi ruchkalarning prototipiga aylandi. Xitoyliklar mo'yqalamni sichqon va tuya junidan tayyorlar edilar.



Shu davrda bo'yoq tayyorlash resepti ham paydo bo'ldi. Bo'yoq ixtiro qilingandan so'ng yozuv qurollari yanada mukammal bo'ldi.



Endi ruchka o‘rniga bambuk, nay, qamish poyalaridan foydalanar edilar. Bu o‘simliklarning poyalari bo‘yoqni o‘ziga juda yaxshi ushlar edi va yozishga qulay edi. Milodiy davrning 600-1800-yillari yozish uchun turli qushlar qanotining bir parchasi (pat)dan foydalanildi.

Pat o‘simlik poyalaridan ko‘proq va yaxshiroq xizmat qilar edi. Yozish uchun asosan yosh g‘ozlarning patidan foydalanilar edi. Patni bahor fasli g‘ozlarning chap qanotidan olar edilar. O‘ng qanotdan olingan patlar yozuv jarayonida xat ustini yopib qo‘yar edi. XVIII asrda kelib patlarga ehtiyoj yana ortdi. Rossiya har yili Angliyaga 27 million pat yuborar edi.

Massachuyetlik Djon D.Laud 1888-yilning oktabr oyida “uchi aylanadigan ruchka” ixtiro qilib patent oldi.



Uchida sharikchasi bor ruchka bo‘yoqqa botirilar edi. Shu ruchkaning nusxasi keyinchalik boshqa ruchkalarning yasashiga asos bo‘ldi. Keyinroq akademiklar Ladislo va Georg Birolar ruchkaning yaxshi nusxasini yaratdilar. Ular yasagan ruchka uchida ham sharikcha bor edi. Bu sharikcha aylanib o‘zidan iz qoldirar edi. Ruchka bo‘yog‘i muammosi ham ularni ko‘p qiynagan. Ular o‘z ixtirolarini franso‘z Marselo Bichga sotdilar. 1952- yildan boshlab bo‘yog‘i qurimaydigan va tommaydigan ruchka ixtiro qilindi.




1997- yil shunday ruchka ixtiro qilindiki, bosim bilan yozishga hojat yo‘q edi.

Qalam (karandash – turkcha karadas – “qora tosh“ so‘zidan olingan) 1775-yil franso‘z Nikolya Jak konte tomonidan ixtiro qilingan. Grafit (karbonning bir turi), ya’ni qalamning qora bo‘yog‘i avvallari temir naychaning ichida solinar edi. Boshida tillo naychadan foydalanganlar. Bu qalam turi yozish uchun emas, balki shon – shavkat uchun olib yurilar edi.

Markaziy Osiyoda xat siyohda qalam (qamish qalam, savag‘ich qalam) bilan yozilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan ruchka bilan yozish rasm bo‘la boshlagan. Shu davrda o‘zbek tilida “**Po‘lod qalam**” atamasi paydo bo‘lib, hozirgi qalam esa **qarindoshqalam (karandash-qalam)** deb yuritilgan. Bizning davrimizda yozuvda avtoruchka, sharikli ruchka, qalam, yozuv mashinkasi va kompyuterdan foydalanilmoqda. Yozuvning bu kabi vositalaridan harflar bosim bilan yozilmaydi. Shuning uchun ham har bir harfni aniq, toza, chiroyli, ayni vaqtda, tez yozish talab qilinadi.

Hozirgi kunda avtoruchkalar xilma-xil bo‘lib, ularning hammasi ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos kelmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etiladigan sharikli avtoruchkalarining yo‘g‘onligi bolalarning qo‘l barmoqlariga mos bo‘lishi kerak. Tavsiya etiladigan sharikli avtoruchkalarining uzunligi 130 mm ga, yo‘g‘onligi esa 8 mmdan oshmasligi lozim (6-rasm).



(6-rasm)

Avtoruchkalardan foydalanish qoidalari tayyorgarlik davri mashg‘ulotlari davomida o‘rgatilishi lozim. O‘quvchilarni sharikli avtoruchkada yozishga o‘rgatishdan avval, undan qanday foydalanish, siyohli naycha (sterjen)ni qanday

almashtirish, uni saqlash qoidalarini o'rgatish lozim. O'qituvchi shogirdlarini avtoruchka bilan tanishtirish jarayonini suhbat tarzida tashkil etishi mumkin:

- Bolalar, bugun biz birgalikda sharikli avtoruchkadan qanday foydalanishni o'rganamiz. Avtoruchka bilan yozishni o'rganishdan oldin sizlar ba'zi bir qoidalarini bilishlaringiz lozim. Hozir shu haqda suhbat qilamiz. Qani kim menga aytadi: qalam qanday bo'ladi?

O'quvchi: Qalam – bu yog'och tayyoqcha, o'rtasida esa qora bo'yog'i bor.

Shundan keyin o'qituvchi qalam va avtoruchkani ko'rsatib, ularning bir – biridan farqini so'raydi.

O'quvchi: Avtoruchka siyoh bilan yozadi, qalam esa siyohsiz yozadi.

O'qituvchi: To'g'ri, avtoruchka siyoh bilan yozadi. Endi men sizlarga sharikli avtoruchkaning qanday tuzilishini ko'rsataman. Mana, mening qo'limda sharikli avtoruchka. Uning qismlarini alohida-alohida ko'rib chiqamiz. Bu qopqoq siyohli naycha (sterjen)ni saqlaydi. Mana bu avtoruchkaning siyohli naychasi (o'qituvchi ruchkani qismlarga bo'ladi). Uning ichi siyoh bilan to'ldirilgan. Shuning uchun unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishimiz kerak (o'qituvchi uni qo'lga olib ko'rsatadi). Faqat naychaning siyohi tugagandan keyin uni almashtirish kerak.

Shunday qilib o'qituvchi sharikli avtoruchkaning old va orqa qopqog'i, siyohli naychasi hamda himoya qopqog'i bilan shogirdlarini mufassal tanishtiradi. O'quvchilarning o'zlari ham ustozlari yordamida ruchkani qismlarga bo'lib qayta yig'ishni mashq qiladilar.

Sharikli avtoruchkaning qismlari bilan tanishtirilgandan so'ng undan qanday foydalanish qoidalarini tushuntiriladi.

O'qituvchi: Yozayotganda avtoruchka uch barmoq: bosh, ko'rsatkich, o'rta barmoq bilan ushlanadi (O'qituvchi aytganlarini amalda ko'rsatib beradi, o'quvchilar esa u ko'rsatgan amallarni takrorlaydilar). Men ko'rsatgandek avtoruchkani qo'lingazga oling. Yozayotganingizda avtoruchkaning kichik qopqoq tomoni o'ng elkangizga to'g'ri tursin (O'qituvchi har bir o'quvchiga

yozish vaqtida ruchkani qanday ushlashni ko'rsatib chiqadi). Yozib bo'lgandan so'ng avtoruchkani partaning ustidagi chuqurchaga qo'ying. Dars tugagandan so'ng esa ruchkangizni o'z qutichangizga solib qo'yishni unutmang.

Sharikli avtoruchka bilan yozish yuzasidan ota-onalar bilan ham suhbat o'tkazish lozim. Buning uchun o'qish boshlanishidan uch-to'rt kun oldin ota-onalarni yig'ib, ularga bolalari qanday avtoruchkada yozishlari va, faqat, shu tavsiya etilgan avtoruchkalarni olib berish tushuntiriladi.

Avtoruchkaning yozuvga doim tayyor bo'lishi, husnixatga o'rgatishning asosiy shartlaridan biridir, shuning uchun unga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Husnixat darslarida turli xildagi jadvallardan foydalanish. Boshqa darslarda bo'lgani kabi, husnixat mashg'ulotlarida ham ko'rgazma qurollardan foydalaniladi. Bunda o'quvchilar harf va uning elementlarini to'liq va to'g'ri o'zlashtirib oladilar.

Husnixat mashg'ulotlarida quyidagi ko'rgazma usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.


1. Harf va uning unsurlarini sinf taxtasi (doska)da yozib ko'rsatish.
2. O'quvchilarning daftarlarida va harf va uning elementlarini yozib ko'rsatish.
3. Husnixat daftaridagi harflarga qarab yozdirish.
4. Turli xildagi jadvallardan foydalanish.

Bularning ichida harf va uning unsurlarini sinf taxtasida yozib ko'rsatish asosiy usul hisoblanadi. Agar o'qituvchi sinf taxtasida harf va uning unsurlarini chiroyli va aniq yozib ko'rsatsa, o'quvchilar ham shunday yozishga kirishadilar.


O'quvchilarda doskaga yozish malakasini hosil qilish uchun ularning barmoq va qo'l harakatlari o'stirilib, harflarning nisbatini to'g'ri olish, bo'zni to'g'ri ushlash hamda bir xil yo'g'onlikdagi chiziqlarni chizish o'rgatiladi.

Bunday ko'nikmalar hosil qilingandan so'ng doskada yozish uchun tayyorgarlik mashqlari o'tkaziladi. Bu mashqlarni bajarishdan oldin doskada

30x30 smli kvadratlar chizib olinadi. Shu kvadratlarning ichiga to'g'ri chiziqlar ko'z bilan chamalab chiziladi (rasmga qarang).



To'g'ri chiziqlarni chizish mashq qilingandan so'ng har xil qiyaliklardan va aylanalar shaklidan iborat bo'lgan mashqlarga o'tiladi (rasmga qarang).



Bunday mashqlarni bajarishda qo'lning harakatiga alohida e'tibor berish zarur. Mazkur rasmlarni o'quvchilarning o'zlari dars boshlanishidan oldin bajarishni mashq qilib ko'rishlari mumkin, chunki bu ularning qo'l harakatini o'stirishga yordam beradi. O'quvchilarga harflarning yozilish usullarini tushuntirishdan oldin harf unsurlarini «Husnixat» daftarida berilganidek sinf taxtasida yozib ko'rsatish lozim. O'qituvchi harf va uning unsurlarini o'quvchilarga o'rgatish uchun quyidagilarga ahamiyat berishi lozim.

1. O'qituvchi sinf taxtasiga yozayotgan vaqtida shunday turishi kerakki, sinf taxtasiga yozilayotgan harf yoki uning unsurlari o'quvchilarga aniq ko'rinib tursin.

2. Harflarni oldindan (tanaffus vaqtida) yozib qo'ymaslik kerak, chunki o'quvchilar o'qituvchining yozayotgandagi qo'l harakatlarini ko'rmasalar, harflarni ko'r-ko'rona ko'chirib oladilar.

Har bir harfning yozilishini o'quvchi to'g'ri o'zlashtirib olishi uchun dars jarayonida tushuntirib, ko'rsatib yozish maqsadga muvofiqdir.

3. Sinf taxtasida harflarning bir tekis joylanishiga ahamiyat berish, sinf taxtasining to'g'ri kelgan yeridan yoza bermay, hamma o'quvchilarga ko'rinarli bo'lgan yeridan boshlash va harflarning kata-kichikligini doim bir tekisda olib borish kerak.

Husnixat mashg'ulotlari uchun ishlangan ko'rgazma qurollarining harflari sinf taxtasiga yozilgan harflardan kichik bo'lmasligi kerak. Jadvallarni 30x50 sm o'lchamda bajarish mumkin.

Ko'rsatilayotgan narsaning tasviriga, xarakteriga, yozilishiga yoki biron mavzuni yoritib borishiga qarab jadvallarni quyidagi besh guruhga bo'lish mumkin: 1) tekstli; 2) raqamli; 3) grafik; 4) illyustratsiyali; 5) aralash.

Ayrim o'qituvchilar ko'rgazma qurollarning turlariga yetarli e'tibor bermaydilar hamda ularning bir-biridan yaxshi ajrata olmaydilar. Har bir jadval o'z spetsifikasiga qarab ishlanadi va alohida bir vazifani bajaradi, shuning uchun ularni bir-biri bilan aralashtirib yuborish yaramaydi. Quyida har bir jadvalning vazifasi bilan tanishib chiqamiz.

1. **Tekstli jadvallar.** Bu jadval bir yoki bir necha alohida harflar, so'zlar, gaplardan tuziladi. Boshlang'ich sinfda tayyorlanadigan tekstli jadvalga misol qilib grammatika va orfografiyadan ishlangan jadvallarni ko'rsatish mumkin.

2. **Raqamli jadvallar.** Bu jadval raqamlardan yoki raqamli materiallardan tuziladi. Raqamli jadvallarga misol qilib ko'paytirish, og'zaki hisoblash, sonlar qatori jadvallarini ko'rsatish mumkin.

3. **Grafik jadvallar.** Grafik jadval qator shartli belgilar: chizmalarning sxemalari, diagramma va rasmlardan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda bunday jadvallarga misol qilib maydonlarning o'lchamlari, jismlarning hajmlarini o'lchash va ayrim rasmlarni ko'rsatish mumkin.

4. Illyustratsiyali jadvallar. Bunday jadvallar alohida rasmlar, portetlar va fotorasmlardan iborat bo'ladi.

Bunga misol qilib anatomik rasmlar, o'lchov birligi jadvallari va boshqalarni olish mumkin.

5. Aralash jadvallar. O'quv jadvallarini asosiy yo'llanmalariga qarab, quyidagi to'rt guruhga bo'lish mumkin: **a) bilish; b) tushuntirish; v) mashq qilish; g) ma'lumot berish.**

Bilish jadvali. Bunday jadvallar o'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan vaqtda qo'llaniladi.

Tushuntirish jadvali. Bunday jadvallardan o'quvchilar tomonidan bajarilayotgan ba'zi bir amaliy mashg'ulot yoki ularda amaliy mashg'ulot xarakteridagi malakalarni hosil qilishda foydalaniladi. Bu jadval qisqa tushuntirishlar, ko'rsatmalar bilan berilgan rasm va chizmalardan iborat bo'ladi. Bunday jadvallarga «**Partada to'g'ri o'tir**», «**Chiroyli va toza yoz**», «**Ruchkani to'g'ri ushla**» kabi chizmalar misol bo'la oladi.

Mashq qildirish jadvali. Boshlang'ich sinflarda bolalarga kundalik hayot uchun zarur bo'lgan bilim va malakalar berib boriladi. Shunday zarur malakalardan biri ularni toza, chiroyli va to'g'ri yozishga o'rgatishdir. Bolalarda toza va chiroyli yozish malakasini hosil qilish uchun bir qancha amaliy mashqlarni o'tkazish lozim. «Yozuv qoidalariga rioya qiling» degan rasm o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarni bajarishda hamda mashq qilish vaqtlarida yordam beradi.

Ma'lumot beruvchi jadval. Bunday jadval o'quvchilarga o'tgan materialni qaytarishda hamda ba'zi bir esda tez saqlanib qolmaydigan so'zlarni, arifmetik raqamlarni yoki ayrim qiyin harflarning unsurlarini eslashlarida kata yordam beradi. Masalan: kata J harfining unsurlari yoki harfning o'zi o'quvchilarning esidan chiqib qolgan bo'lsa, shu harfning yozilishi tasvirlangan jadvaldan foydalanish mumkin

Bu jadvaldan foydalanilganda o'quvchilar J harfining to'g'ri yozish qoidalarini eslariga tushirib oladilar va o'z bilimlarini mustahkamlaydilar.

Ko'rgazma qurollar maktab gigiyenasi qoidalariga to'la javob bera olishi lozim, shuning uchun yozilish sifatiga alohida ahamiyat berish zarur.


Ko'rgazma qurollarning tashqi ko'rinishining ham katta ahamiyati bor. Ko'rgazma qurollar ortiqcha bezaklarsiz bo'lishi lozim. Agar jadval yoki tablitsalarning chetlari har xil gullar va bezaklar bilan ishlangan bo'lsa, o'quvchilar asosiy diqqatni o'qituvchi tushuntirayotgan darsga emas, balki bezaklarga beradilar. Har bir ko'rgazma qurol orqada o'tirgan o'quvchilarga ham aniq ko'rinib turishi va o'qishga oson bo'lishi lozim. Maktab o'quvchilari uchun atalgan o'quv ko'rgazmalari sifatli materiallardan ishlangan bo'lishi kerak. Qog'oz oq rangda va toza bo'lib yaltiramasligi, bo'yoqlar ham ochiq rangda bo'lib, bir xil fon bilan berilishi lozim.

Ko'rgazma qurollar o'qitish jarayonida bir usul sifatida xizmat qilishi zarur. Shuning uchun ko'rgazma qurollardan faqat zarur bo'lgan vaqtdagina foydalanish kerak. Ko'rgazma qurollarni tayyorlashda uning kompozitsion joylanishiga ham katta ahamiyat berish lozim.

O'qishning birinchi kunidan boshlab harflar va ularning ayrim unsurlarini mumkin qadar tegishli ko'rgazmalar bilan o'rgatish lozim. Ko'rgazma qurollarni mayda harflar bilan xira qilib yozish mavzuni tushunishga va o'zlashtirishga salbiy ta'sir qiladi: o'quvchilar harf va belgilarning yozilishini yaxshi ko'ra olmaydilar, natijada noto'g'ri ifodalaydilar.

Ko'rgazma qurollardagi harflar aniq yozilgan bo'lishi kerak. Ko'rgazma qurollarni bemalol ko'ra oladigan darajada yirik qilib yozish lozim. Bu masofa taxminan 6-7 metr bo'lib, ko'z bilan kitob o'rtasidagi masofadan 19-20 marta uzundir. Shuning uchun jadvallarni tayyorlash vaqtida uning harflarini shuncha hissa yirik yozish kerak.

Har bir ko'rgazma qurolni ehtiyotkorlik bilan saqlash zarur, ehtiyot qilinmagan taqdirda ular tez ishdan chiqib, yozuvlari xiralashib qoladi. O'quvchilarga ko'rgazma qurollarni istalgan balandlikda ko'rsatish uchun qo'llanmalar osiladigan moslamadan foydalanish mumkin (1- rasm).



1- rasm


Tablitsa va rasmlar shunday balandlikda osilishi kerakki, oldingi partada o'tirgan bolalar orqada o'tirgan bolalarning ko'rishiga xalaqit bermasin.

O'quvchilarning yozishlari uchun qiyinlik tug'dirayotgan ayrim harf va uning unsurlarini bir necha marta katta qilib ko'rsatish mumkin.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ko'rgazmalilik ichida eng muhimi sinf taxtasidir.

3.4.Xattaxtaga qo'yiladigan talablar

Sinf taxtasidan to'g'ri foydalanish metodikasi. Sinf taxtasi yozuvning aniq va chiroyli bo'lishiga asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun har bir maktab yuqori sifatli sinf taxtalari (dorskalar) bilan ta'minlangan bo'lishi shart.



Sinf taxtasida o'quvchilar uchun yozilgan har bir yozuv aniq va chiroyli bo'lishi lozim. O'quvchilar sinf taxtasiga yozishni yaxshi ko'radilar, shuning uchun ular vaqt-vaqti bilan doskaga chiqarib turiladi. Ular sinf taxtasiga

yoza yotganda harf va uning unsurlarini to'g'ri yozishga harakat qiladilar, chunki sinfdagi o'rtoqlari ularning yozuvini kuzatib turadilar. Lekin ayrim maktab o'quvchilari sinf taxtasining to'g'ri kelgan yeridan yoza beradilar,

yozuvlari ham bir tekis chiqmaydi. Bunday kamchiliklarning bo'lmashligi uchun har bir o'qituvchi yomon yozadigan o'quvchilarning qo'llaridan ushlab daftarga o'xshab sinf taxtasida ham yozish qoidalarini o'rgatib borishi lozim.

Sinf taxtasiga yozilgan har bir harf o'quvchilarga aniq ko'rinib turishi lozim.

Sinf taxtasining yuzi tekis bo'lib, juda silliq ham bo'lmashligi lozim, aks holda, bo'r sirg'anib ketaveradi. Sinf taxtasini ikki turga bo'lish mumkin: biri-doim devorga osig'lik turadigan, ikkinchisi vertikal o'q atrofida aylanadigan sinf taxtasi. Bunday sinf taxtasining qulay tomoni shundaki, uni tushayotgan yorug'ga qarab burish mumkin bo'ladi. Bulardan tashqari, maktabda bir necha ko'chma sinf taxtasi ham bo'lishi kerak (2- rasm).




2- rasm

Vertikal o'q atrofida aylanadigan doskaning uzunligi 1,65 m, balandligi esa 1,13 m ga tengdir. Bunday sinf taxtasidan ikki smenali maktablarda foydalanish mumkin. Katak'larga ajratilgan sinf taxtasi yuqori sinf o'quvchilari uchun qulay emas, shuning uchun sinf taxtasining orqasidan (tekis tomonidan) foydalaniladi. Boshlang'ich sinflarda vertikal o'q atrofida aylanadigan sinf taxtasidan foydaniladi (uning bir tomoniga daftarning kataklari chizilgan, ikkinchi tomoni esa rasm darslari uchun mo'ljallangan bo'ladi).

Devorga o'rnatilgan sinf taxtasining qulay tomoni shundaki, u kam joy oladi.

Sinf taxtasi linoliumdan yoki taxtadan yasalishi mumkin. Linoliumdan yasalgan sinf taxtasi sifatli hisoblanadi, chunki taxtadan yasalgan sinf taxtalari har yili bo'yab turiladi. Natijada bo'yoqlar qatlami hosil bo'lib, sinf taxtasiga yozish vaqtida bo'r sirg'anib ketaveradi.


Sinf taxtasi qoida bo'yicha eniga 1200 mm, uzunligi 3000 mm bo'lishi lozim (3- rasm).



3- rasm

Sinf taxtasi chetiga raqamlar tortilgan, pastki qismida esa bo'r va latta qo'yadigan joy bo'lishi lozim.

Sinf taxtasidagi yozuv o'quvchilarga yaxshi ko'rinib turishi uchun unda har xil egri-bugri yo'llar, tirlangan chiziqlar bo'lmasligi va u har bir sinf o'quvchilarining yoshiga moslab osib qo'yilgan bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun poldan 85 sm, 5- 10- sinf o'quvchilari uchun esa 95 sm yuqoriga o'rnatilgan bo'lishi lozim. O'quvchilarga yozuvlarni yanada yaqqolroq ko'rsatish uchun sinf taxtasini balandroq qo'yish ham mumkin. Ammo bunda sinf taxtasining uzunligi bilan teng bo'lgan taxta qo'yilishi lozim (4- rasm).




4- rasm

Sinf taxtasining ostiga bo‘r maydalarining to‘kilmasligi uchun pastki ramkaning ustiga eni 5-6 sm li taxtacha o‘rnatilishi, chap tomoniga esa bo‘r turishi uchun quticha mahkamlanishi maqsadga muvofiqdir.

Sinf taxtasi devorning o‘rtasiga o‘rnatilgan bo‘lib, yorug‘ chap tomondan tushib turishi kerak.


Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qiydigan darsxonalaridagi sinf taxtalari yozuv darslari uchun moslashtirilib, kataklarga ajratilgan bo‘lishi, yozayotganda qimirlamasligi lozim. Agar sinf doskasi qora rangda bo‘lsa, havo rang bo‘yoq bilan, agar doska jigar rang linoliumdan qilingan bo‘lsa, qora bo‘yoq bilan kataklar chiziladi. Sinf taxtasiga kataklar chizish vaqtida, albatta moyli bo‘yoqdan foydalanish kerak.

Sinf taxtasidagi chiziqlar o‘quvchilarning daftarlaridagi chiziqlardan o‘n marta kata bo‘lishi kerak. Sinf taxtasi kaiaklarga ajratilmagan bo‘lsa, o‘qituvchi husnixat mashqlarining boshlanishidan oldin doskani chizib tayyorlab qo‘yishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi chizg‘ich va uchburchakdan foydalanib, kataklarni quyidagi tartibda chizishi mumkin (5-rasm).



5- rasm

Doskadagi chiziqlar yo‘g‘on-ingchka bo‘lmay bir tekisda bo‘lishi zarur. Devorga o‘rnatilgan doskadan samarali foydalanish maqsadida uni uch qismga bo‘lib, bir qismiga o‘sha sinfning o‘ziga mos chiziqli daftarning kataklari chiziladi, o‘rtada esa rasm darsi uchun joy qoldiriladi, o‘rtadagi bo‘sh joyning yoniga matematika darsi uchun kataklar chiziladi (6- rasm).




6- rasm

Sinf taxtasidan bunday samarali foydalanish dars sifatini oshiradi. Husnixat mashg‘ulotlarini to‘g‘ri uyushtirishdan sinf taxtasi bilan bir qatorda bo‘r ham kata rol o‘ynaydi. Har xil shakldagi qattiq yoki ho‘l bo‘rlardan foydalanish dars sifatini pasaytiradi, harf va uning unsurlarini noaniq ifodalashga olib keladi: tegishli yo‘g‘onlikdagi yoki ingichkalikdagi chiziqlarni chizishni qiyinlashtiradi.

Bo‘r yumshoq bo‘lishi, ammo nam bo‘lmasligi kerak. Bo‘r 15x15 mm li kvadrat shaklida bo‘lib, uzunligi 50 mm dan oshmasligi yoki 30 mm dan

kam bo'lmashligi lozim. Bunday bo'rni ushlash qulay bo'lib, yozishga osonlik tug'diradi. Qo'lni toza tutish maqsadida bo'rning yarmigacha qog'oz o'raladi.

Bo'r uch barmoq - bosh, o'rta va ko'rsatkich barmoq bilan ushlanadi. Yozish vaqtida ko'rsatkich barmoq bilan bosib turiladi va tegishli chiziqli chiziladi (7- rasm).




7- rasm

Sinf taxtasida harf va uning unsurlarini ko'rsatishdan oldin bo'rning uchini qalamtarosh bilan tekislab yozishga moslab olish zarur.

Husnixat mashg'ulotlarida dumaloq bo'rlardan foydalanishga ruxsat etilmaydi, chunki u tegishli chiziqlarni bermaydi va har xil qalinlikda yozadi.


Bo'rni to'g'ri ushlash qoidalarini o'quvchilarga ko'rsatish va unga amal qilishga o'rgatib borish lozim. Ayrim o'quvchilar bo'rni besh barmoq bilan ushlab, bor kuchlari bilan bosib yozadilar. Bunday o'quvchilarning qo'lidan ushlab, mashq qildirish zarur.

Ba'zi vaqtlarda sinf taxtasi yaltirib ko'rinib o'quvchilarga undagi yozuvlar ko'rinmay qoladi. Buning uchun sinf taxtasining pastki ikki burchagiga uzunligi 20-25 sm bo'lgan ikkita yog'och oyoqchalar qoqiladi. Bu yog'och oyoqchalar mahkam qilib qoqilmasdan, o'rtasiga bir dona mix urilib, u aylanib turishi lozim. Chunki u kerak bo'lmagan vaqtda sinf taxtasining yon tomoniga burib qo'yiladi (8- rasm).



8- rasm

Sinf taxtasi yaltirab ko‘ringan vaqtda esa shu oyoqchalar devorga tirab qo‘yiladi (9- rasm).



9- rasm

Natijada sinf taxtasidagi yaltirash yo‘qolib, hamma o‘quvchilarga yozuv aniq ko‘rinadi.

Elektron vositalar – husnixat darslarining samaradorligini oshirish omili.

Informatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi keyingi yillar ichida insoniyat shaxsining shakllanishiga ma‘lum darajada iz qoldirdi. Yangi axborotlar, reklamalarning tezda kirib kelishi, televideniya kompyuter texnologiyalarining qo‘llanishi, elektron o‘yinchoqlar va kompyuterlarning keng tarqalishi bola tarbiyasiga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Natijada u yaxshi ko‘rgan o‘yinlar, sevimli qahramonlari va qiziqishlari ham o‘zgaradi.

Maktabda o‘qish boshlanganda u ma‘lum qulaylikni his etishi mumkin. Bugungi kunda hali barcha maktablarda texnologik sinflar bor deb bo‘lmaydi. Lekin Maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirishning yo‘nalishlaridan biri “Maktablarni zamonaviy o‘quv va

laboratoriya uskunalari, kopyuter texnikasi, darsliklar va o'quv-usubiy materiallar bilan ta'minlash.

Eskirgan o'quv dasturlari va metodik usullar o'quvchilar bilimining pasayishiga olib keladi. O'qituvchilardan esa o'qitishning yanada zamonaviy usul va vositalarini izlashga undaydi. Bunday vositalardan biri bu kompyuterdir.

Televizor, videomagnitafon, kitoblar imkoniyatlarni mujassamlashtirib, universal o'yinchoq hisoblanib, turli xil o'yinlarga qodir bo'lgan zamonaviy kompyuter shu bilan birga bola uchun uning savol va harakatlariga javob bera oladigan teng huquqli hisoblanadi. Maktabning o'quv va o'quv jarayonidan tashqari faoliyatida kompyuterlarning qo'llanilishi bolada o'qish motivatsiyasi o'sishining va ijodiy imkoniyatlari rivojlanishining samarali xususiyatlaridan biridir.

Bir qator pedagoglar boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompyuter savodxonligining erishishida ikkilanadilar. Ularning ba'zilar kompyuterlar faqat sinfda bolaning e'tiborini chalg'ituvchi yana bir vosita deb hisoblasalar, boshqalari esa hisoblash texnikasi sohasida jiddiy professional tayorgarliksiz o'qituvchilarning darslarda kompyuterlardan foydalanishi va kompyuter savodxonligiga bolalarni o'rgatish mumkin emas deb ta'kidlaydilar. Uchinchilari esa kompyuterlardan doimiy foydalanish maktabda shunday bir holatga olib keladiki, unda insoniyat kompyutersiz sonlarni na qo'shish, na hisoblay olishga qodir bo'lishi xavfini ifodalaydilar. Yana bir muhim qarshilik mavjud bo'lib, u bolalarning bir-biri bilan kam muloqotda bo'lishi muammosidir. Chunki kompyuter zamonida ular vaqtlarining ancha qismini kompyuterda o'tkazishadi.

Falsafa shundaki, maktabni informatsion asrga adaptatsiyalanishidan boshqa chorasi yo'qdir. Hisoblash texnikasi bilan tanishish bunday adaptatsiyaning faqat bir qismi sanaladi. Adaptatsiyaning asosiy maqsadi shundaki, bolalarni axborot-ma'lumotlarni qayta ishlashga o'rgatish, topshiriqlarni bajara olishga, insonlar bilan muloqot qilish va jamiyatdagi o'zgarishlar mohiyatini tushinishga o'rgatish zarurdir. Kompyuter maqsadlari

matematika, ijtimoiy fanlar, tabiyot va ona tili darslarida amalga oshirilishi lozim. Bunday integratsiya 1 yil davomida tugatilishi yoki bir qaysidir loyihani amalga oshirilish natijasi bo'la olmaydi. Aksincha, bu oxiri yo'q jarayondir. U o'quv jarayonini umumiy kompyuterlash maqsadlarining birligini o'z ichiga oladi. Uning amalga oshirilishi ma'muriyat o'qituvchi va pedagoglarning hamkorlik ishi natijasida erishish mumkindir. Kompyuterlashtirishning sotsial qirralari, asosiy usullar va vazifalar yechimidagi yondashuvlar, ma'lumotlarni qayta kompyuterda ishlash usullari sekin-asta murakkablashadi va matematika, tabiyot, ijtimoiy fanlar va ona tili darslarida turli usullar bilan muhokama etiladi. Bunday vaziyatda kompyuter o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida axborot-ma'lumot almashish vositasi bo'lib qoladi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonda kompyuterlarning qo'llanishi diapazoni juda katta: kompyuter ham ta'lim obyekti, ham ta'lim vositasi (usuli)dir. Ya'ni kompyuterlashtirish ta'limotining 2 yo'nalishi bo'lishi mumkin: informatika o'rganish va turli predmetlarni (fanlarni) o'rganishda undan foydalanish. Bunda kompyuter ta'lim, o'rganish samaradorligining oshirilish usuli hisoblanadi. Kompyuter o'quv ma'lumotlarini taqdim etish imkoniyatlarini ancha kengaytirdi. Rang, grafika, tovush, videotexnikaning zamonaviy vositalarini qo'llash turli holat va muhitni modellashtirishga imkon beradi.

Kompyuter o'quvchi motivatsiyasini kuchaytiradi. Kompyuterda ishlab turib, o'quvchi topshiriqning yechimini kerakli yordamga tayangan holda oxirgacha yetkazish imkoniga ega bo'ladi. O'quvchi bajarayotgan topshiriqlarning tiplari anchagina kengayadi: tuzish, dasturlash va hokazo.

Kompyuter o'quvchi faoliyati ustidan nazoratni sifatli o'zgartirishga imkon beradi, kompyuter barcha javoblarni tekshiradi, ko'pgina hollarda esa nafaqat xatoni hisobga olib ko'rsatadi, balki uning paydo bo'lish sababini o'z vaqtida aniqlab, bekor qilish uchun xarakterini aniq belgilaydi. Kompyuter o'quvchilarga "2" baho qo'ysa, ular tezda buni tuzatishga shoshiladilar. O'qituvchi o'quvchini tartib-intizom va e'tiborli bo'lishga chaqirishi shart emas. Chunki ekranda 2-3 daqiqadan so'ng keyingi topshiriq paydo bo'ladi.

Kompyuter o'quvchilarda o'z faoliyatlari refleksiyasining shakllanishiga yorda beradi. Kompyuter texnikasining qo'llanilishi darsni yanada qiziqarli, zamonaviy qiladi, individual o'rganish sodir etiladi, nazorat va yakuniylarni xulosalash, o'z vaqtida va obyektiv bo'ladi.

O'quvchi shaxsining ehtiyojlari, qiziqishlarining rivojlanishi va shakllanishi turli usullar bilan, shuningdek tasviriy san'at usullari bilan ham amalga oshiriladi.

O'quvchilar mustaqil tasviriy faoliyat bilan birga rasmlar, haykallar, arxitektura va dekorativ-amaliy san'at asarlarini qabul qilishga tayyor bo'lgandagina muvaffaqiyat bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich maktab o'qituvchisi bolalarni o'qishga o'rgatishi, ularning bilish ehtiyojlarini rivojlantirishi shart. Zaruriy ilmiy asoslarni o'zlashtirib olish uchun bilish vositalarni ta'minlashi lozim. Shuning uchun asosiy maqsadlardan biri o'quv-biluv jarayonlarini rivojlantirishdir. O'quv-biluv faoliyati biluv jarayonlarni, mantiqiy fikrlashni, e'tiborni, xotirani, nutqni, tasavvurni rivojlantiradi, o'qishga bo'lgan qiziqishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu barcha jarayonlar o'zaro bog'liqdir.

Elektron interfaol doska – bu sensorli kopyuterga ulangan ekran bo'lib, kompyuterga ishni boshlash uchun interfaol doska yuziga qo'l tegizsangiz bo'ldi u ishlab ketadi.

SMART Notebook nomli maxsus ta'minlash dasturi esa interfaol doskalarda ishlashni osonlashtiradi, matnlar va audio - videomateriallar ustida ishlashni ta'minlaydi.

SMART Technologies Inc. (www.smarttech.com) kompaniyasi 1991 yil birinchi interfaol doskani chiqardi. Shundan beri **SMART** mahsuloti butun dunyoda cheksiz muvaffaqiyat qozondi.

Doska (sinf taxtasi) taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisi bu elektron interfaol doskalar hisoblanadi. Bu doskalar ham xuddi oddiy doskalarga o'xshaydi. Lekin unga har nima yozilsa tezda shaxsiy kompyuter ekraniga

chiquadi. Yozilgan infqormatsiya fayl shaklida saqlanadi hamda printerdan chiqarilishi mumkin. Elektron doskalarning eng yaxshi tomoni shundaki unda animatsiyalar imkoniyati juda yuqori. Rasm chizish, qo'shish, ma'ruza matnlarini tayyorlash va boshqa shunga o'xshash ishlarni rangli va animatsiyalar yordamida tez va sifatli bajarish imkoniyati mavjud.

Rossiyaning umumta'lim maktablarida 1996 yildan beri bu doskalardan foydalanadilar. Mazkur doskalardan boshlang'ich sinflarda keng foydalanish yaxshi samara beradi. Elektron interfaol doskalar o'zining katta imkoniyatlari bilan kishini lol qoldiradi. O'quvchi unda oddiy bo'r bilan emas rangli "qalamchalar" bilan yozishi va chizishi mumkin. Bu ishda hech qanday chegara yo'q. O'quvchilar katta qiziqish bilan bu doskadan foydalanadilar. O'zlarining layoqatlarini bu doska orqali namoyon etishlari mumkin.



Ustozlarimiz uchun ham bu doska katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Masalan boshlang'ich sinflarda husnixat darslarini ushbu doska orqali qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin.

Birinchi sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab. Bu uchun birinchi navbatda tayyorgarlik mashqlarini yaxshi tashkil etish zarur. Oddiy doskada tayyorgarlik mashqlarini bajarish uchun o'quvchilarni qora va rangli bo'rlar bilan ta'minlash lozim. Agar elektron interfaol doskadan foydalanilsa bo'r va lattaga umuman hojat qolmaydi. Elektron doskalarda xohlagan narsani xohlagan rangda yozish mumkin. Bu ham ortiqcha mehnat va pulni tejaydi, tozalik gigienasini ta'minlaydi hamda o'quvchilar qiziqishini yuqori darajada ko'tarib, samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.



Tayyorgarlik davrida o'tkaziladigan mashqlar ma'lum darajada guruhlariga bo'lib, avval sodda, keyin murakkabroq mashqlarni bajarish lozim. Masalan, birinchi guruh mashqlarida o'quvchilar chiziq ustida muayyan

masofalarda nuqta qo'yib chiqish mashqini bajarishlari kerak. Bu hol o'quvchilarga zerikarli tuyuladi. SHu bois o'qituvchi rangli bo'rlardan foydalanib, ular qiziqishini oshirar edi. Elektron doskalarda esa bu ish oddiy tus oladi. O'quvchi nuqtalarni xohlagan rangida yozishi mumkin. Masalan, birinchi nuqtani ko'k rangda, ikkinchisini qizil rangda, uchinchisini yashil rangda va hokazo. Tayyorgarlik mashqlari sirasiga turli xildagi geometrik figuralar, bayroqchalar, daraxtlar maketi, turli shakl va hajmdagi tayyoqchalarni chizish ham kiradi. Bu ishlarni elektron doskalar yordamida tez va sifatli tarzda o'quvchilarga o'rgatish mumkin. Masalan doskaning bir burchagida chizilgan kichik ilmoqchani sinf oxirida o'tirgan o'quvchi yaxshi ko'rolmasligi mumkin. Elektron doska orqali har bir yozilgan va chizilgan narsa xohlagan kattalikda ko'rsatilishi mumkin. Bu imkoniyat husnixat darslari samaradorligini oshirishga katta yordam beradi. Mazkur doskalarni osonlik bilan bir necha qismga bo'lib, birdaniga bir necha o'quvchiga topshiriqni bajartirish mumkin. Bajirilgan topshiriqlar kompyuter xotirasiga kiritilib boriladi. U xohlagan vaqtda orqaga qaytarilib qayta – qayta ko'rilishi mumkin. Oddiy doskada esa yozilgan narsa o'chirilsa tamom. Uni qayta ko'rish imkoniyati yuqoladi. Elektron doskada esa uni xohlagan vaqtda qaytadan ko'rish va tahrir etish imkoniyati mavjud.

Alifbe davrida bolalarni yozishga o'rgatish juda muhimdir. Bu davrda o'quvchilarga harf va uning unsurlari amaldagi "Alifbe" kitobida ko'rsatilgan tartibda o'rgatiladi.

Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlar quyidagilardan iborat:

1. Kichik va bosh harflarni alifbe tartibida yozish.
2. Harflarni bo'g'in va so'zlarda qo'shib yozish.
3. Qo'l harakatini uzmay yozishga o'rgatish.
4. Harflarning qiyaligini va enini to'g'ri saqlashga o'rgatish.

Mazkur ishlarni oddiy doska yordamida o'quvchilarga o'rgatish o'qituvchidan katta zahmatni talab etadi. U bu uchun katta hajmda ko'rgazma qurollar tayyorlashi lozim. Agar ushbu ishlar elektron interfaol doskalar yordamida o'quvchilarga tushuntirilsa ham samarasi katta bo'ladi ham

o'qituvchining mehnati ancha yengil bo'ladi. Ijodkor o'qituvchi elektron doskalardan juda yaxshi foydalanishi mumkin.

Mazkur doska yordamida "Alifbe" darsligining xohlagan varaqi va yo sahifasini o'quvchilarga kattalashtirilgan holda ko'rsatish mumkin. Unda har bir o'tilishi lozim bo'lgan harfni unsurlarga bo'lib o'tish imkoniyati nihoyatda kattadir.

Ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi sinflarda ham o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgatishga elektron interfaol doskalardan foydalanish mumkin.

Husnixat darslarini **elektron slayd**lardan foydalangan holda ham samarali va qiziqarli tashkil etish hamda o'tkazish mumkin. Elektron slaydlar kompyuter orqali tayyorlanadi. Dars mashg'ulotini ham elektron slayd tarzida tayyorlash mumkin. Bunda turli xildagi animatsiyalardan foydalanish mumkin. (1- ilovaga qarang).

Har bir harfni o'rgatish uchun maxsus elektron slaydlar tayyorlash mumkin. Bu ham qiziqarli ham samarali bo'ladi. O'quvchi darsni o'qituvchi so'zidan emas, balki kompyuterda chiroyli animatsiyalar bilan jihozlangan o'yinlar orqali o'zlashtirib boradi. Umuman olganda husnixat darslarini elektron slaydlar orqali o'rgatib, yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Pastda elektron doskalardan namunalar berilgan:





Husnixat darslarida kompyuter o'yinlaridan foydalanish. O'quvchi e'tiborini faollashtirish, tasavvurni to'g'ri tuzishda qiziqтира olish o'qituvchiga tasviriy san'at bo'yicha EHMning maxsus dasturlarini qo'llashga yordam beradi.

Darsda ishni savodli tashkil etish o'quvchini darsga qiziqтира bilish uchun sharoitlar yaratish o'qituvchiga badiiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni qo'llashga yordam beradi. Darslarning bunday tashkil etishi qisqa muddat ichida bolalarga maktabgacha bo'lgan yoshlarida ma'lum bo'lgan tasviriy usullarni eslash va mustahkamlashga yordam beradi.

Oliy ta'lim tizimida amalga oshiriladigan eng dolzarb muammolardan biri yetuk, komil inson yetishtirib chiqarishdir. Bu maqsadni amalga oshirishda ona tili o'qitish usuliyoti fanining ham o'z o'rnini mavjud. Tilshunoslikdan olingan nazariy bilimlarni yosh avlodga yetkazish usullarini o'rgatuvchi fan ona tili o'qitish usuliyotidir. Shuning uchun ham ushbu fandan samaradorlikni oshirish maqsadida hozirgi zamon axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishi, zamon talablariga javob beradigan sifatli o'quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar, darsliklarning elektron versiyalarini ishlab chiqishdan iborat. Elektron darsliklar kompyuter texnologiyasiga asoslangan ko'p axborotli ko'rinishda: matnli, ovozli, video va multimediyali bo'lishi talabalar uchun ona tili o'qitish usuliyoti darslarini yanada chuqurroq o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Tovush tizimi

va uning hosil bo'lishida tovush apparatlarining ishtirok etish jarayonini talabalar multimediyali elektron darslik va axborot texnologiyalari yordamida hosil bo'layotgan tovushning boshqa tovushlardan o'xshash va farqli tomonlari xususida chuqur ma'lumotga ega bo'ladi. Shuningdek, tovush apparatlarining savod o'rgatish jarayonidagi ahamiyati rivojlanganlik darajasini ko'rsatishda ham qator afzalliklarga ega. Ushbu fan yuzasidan biz har bir bo'limni o'z ichiga qamrab oluvchi elektron darsliklar yaratishni maqsad qilib qo'yganmiz. Bu borada qator ishlarni amalga oshirga harakat qilayapmiz. Grammatik tushunchalarni o'zlashtirishdagi samarador usullar haqida yetarli darajada to'liq va aniq tasavvur etishda elektron darsliklarning o'rni ulkan ahamiyat kasb etadi. Grammatik tushunchalarni o'zlashtirishni qo'yidagi tartibda amalga oshirish mumkin:

1. Tovush, harf, so'z.
2. So'z turkumlari.
3. Uslubiyat va tinish belgilari.

Bu uchala tipdagi tushunchalar butun tilshunoslik bo'limlarini o'ziga birlashtirib olgan. Har birining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, uni multimediyali tasvirlardan foydalanib muhokama etilganda talabalarda ko'proq tushunchalar hosil bo'ladi.

Elektron darsliklarning an'anaviy, bosma shaklda tayyorlangan adabiyotlardan afzalligi shundaki, ulardan kompyuterlar orqali masofali o'qitish va o'qish jarayonlarida keng foydalanish mumkin. O'z navbatida talabalar mustaqil ravishda ulardan foydalanib darslarga avvaldan tayyorgarlik ko'rishlari va hatto bir bo'lim uchun tayyorlangan test majmualari asosida o'z bilim darajasini aniqlash imkoniga ega bo'ladi.

Buning uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi kompyuter, elektron darslik va internet haqida tushunchaga ega bo'lishi va ulardan foydalanishni bilishi lozim. SHunda o'qituvchi darsni zamon talablari asosida o'qita oladi, avlodni yangicha o'qitish tizimi sari yetaklaydi. O'zbekiston respublikasining 2001 yil 23 maydagi "2001–2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish "Internet"ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini

ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" gi 230- sonli qarori fikrimiz dalilidir.

Uzliksiz ta'limning ilk bosqichlaridan boshlab o'quvchilarga kompyuter, elektron darslik va internetdan foydalanish malakasini shakllantirish o'quvchini uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida bulardan mukammal foydalanishni o'rgansa ularning bilim va malakasini oshirishiga zamin yaratadi.

Dunyoni o'z qamroviga olgan, hayotning hamma sohasiga kirib kelayotgan kompyuter texnologiyasi xoh u telekamunikatsiya bo'lsin, xoh u tibbiyot sohasi bo'lsin, xoh u ishlab chiqarish korxonalari bo'lsin kompyuter texnologiyasidan foydalanib, ishning samaradorligini oshiryaptilar. Shunday ekan, boshlang'ich sinfda o'qiyotgan bola ertaga kim bo'lishi, qaerda ishlashi (telekamunikatsiya, tibbiyot, ishlab chiqarish va hokazolar)dan qat'iy nazar kompyuterlar bilan ishlashni bilish zarurati paydo bo'layapti. Agar u kompyuterni boshqarolmasa qancha nazariy bilimi bo'lishidan qat'iy nazar u bilimini amalga tadbiq etolmay ishdan bo'shaydi, yo kompyuter boshqarishni o'rganib, ishini davom ettiradi. Hadisi sharifda shunday: "Yoshlikda olingan ilm, toshga uyilgan naqshdir" deyiladi. Darhaqiqat, shunday ekan, boshlang'ich sinflarda kompyuter yordamida dars tashkil etilsa, o'quvchilar yoshligidan kompyuter haqida ma'lumotga ega bo'lib dars samaradorligi ham oshadi. Buning uchun o'qituvchilardan izlanuvchanlik bilan bir qatorda kompyuter haqida ma'lumotga ham ega bo'lishi va undan foydalana olishlari lozim. Darslarni kompyuterlashgan tizim asosida tashkil etish bugungi yoshlarimizning ertangi hayotidagi ayrim kamchiliklarning oldini olib (ishga borgach kompyuter bilan ishlashi), ularning o'zlari tanlagan sohaning ravnaqiga hissalarini qo'shishga zamin yaratadi. Bu ishni, avvalo, maktabgacha bo'lgan ta'lim muassasalarida ham joriy etish lozim.

Bola orziqib kutilgan kun kelib u maktabga qatnay boshlaydi. Unga maktabda va sinfda bo'layotgan har bir harakat qiziqarli tuyuladi. Shuning uchun u bu harakatlardan o'yin elementlarini axtaradi. Bu besabab emas,

albatta. U hali o'yinqaroq bola, o'quvchi bo'lib to'liq shakllanishiga ancha vakt bor.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'yin faoliyatini o'qish faoliyatiga o'tkazish birdan bo'ladigan didaktik jarayon emas. Bu ikki faoliyatni alohida-alohida olib borib ham bo'lmaydi, chunki bolaning o'yin faoliyatida o'quv elementlari, o'quv faoliyatida esa o'yin elementlari mavjud. SHuning uchun bolani zeriktirmasdan darsni zamonaviy pedagogik texnologiya, kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun amaliyot davridan boshlab talaba-bo'lg'usi o'qituvchi unimli foydalanishni o'rganishi lozim. SHu maqsadga bizlar boshlangich sinfning savod o'rgatish davridan boshlab kompyuter texnologiyalari asosida elektron darslik, prezentatsiya, animatsiya va didaktik o'uyinlar asosida darslarni o'tishni taklif etmoqchimiz.

Boshlang'ich sinf savod o'rgatish davridan boshlab o'quvchilarni yangicha ruhda, zamon bilan hamnafaslikda, sodda, qiziqarli darslarni joriy etish lozim. Buning uchun kompyuterlar yordamida darslarni juda katta natijalar bilan tugatish mumkin. Savod o'rgatish davriga nazar tashlasak bolalar asosan o'yin faoliyati bilan tanish, o'rtoq baladilar. Ularni zeriktirish katta xato bo'lib, bu hatto bolaning ruhiy faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Kompyuter texnologiyasining o'zi bola uchun qiziqarli narsa. Unda bajaradigan amallar, o'yinlar undan ham qiziqarli bo'ladi. Demak bola zerikmay kompyuterlashgan ta'limga qiziqishi tabiiy. Kompyuterdan dars jarayonida qanday foydalanish mumkin?, u orqali qanday elektron darslik, animatsiya, prezentatsiya va didaktik o'yinlarni tashkil etish mumkin? yoki lozimligi borasida fikr yuritmoqchimiz.

Bizlarga ma'lumki, savod o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu bolalarning beg'ubor, toza xotirasiga (biz uni ko'pincha oq qog'ozga o'xshatamiz) ilmlar kaliti bo'lgan harflarni muhrlashdir. Endi shu jarayonda batafsilroq to'xtasak. O'qituvchi dars jarayonida har bir harfni o'qitish uchun sinf taxtasiga usha harfni yozadi va talaffuz qiladi. Bu bilan o'sha harfni bola xotirasida poydevor etib joylashtiradi. Endi bir tasavvur qiling: O'zbekistonning

minglab sinflarida minglab o'qituvchi bolalarga savod o'rgatish bilan band. Xo'sh ularning husnixati (chiroyli yozuvi kolligrafiyasi) va talaffuzi (ovozlarning talaffuz qilishi qobiliyati) bir xil yoki davlat standarti talablariga to'la javob beradi, deb kim ayta oladi. Yoki o'qituvchi biron bir sabab bois harfni to'g'ri yozib yoki talaffuz qila olmaydi. Bu nazarga ilmaydigan, oddiydan tuyulgan kamchiliklar tilning ravnaqi, ravonligiga, albatta, salbiy ta'sir qiladi. Kompyuter esa bu kamchiliklardan xolidir.

Agar shu jarayonda elektron darslik yaratilsa, har bir harfning boshlang'ich yozish elementlaridan boshlab yozishni qayerdan boshlab qayerga tugatishni, ovozlari talaffuzini bola katta ekranda standart holda ko'rsa va eshitsa bu til va millat uchun katta muvaffaqiyat bo'ladi. Chunki endi butun respublikamiz maktablarida savod o'rgatish davrida bolalar bir xil standart harflarni yozish va talaffuz qilishni o'rganadilar. O'qituvchi esa ortiqcha harakat va vaqt sarflashdan ozod bo'lib bolalarni faol nazorat qilib har bir o'quvchi bilan yakkama-yakka ishlay oladi.

Hozirgi kunda respublikamizda ta'limni kompyuterlashtirishga qancha e'tibor berilsa, ta'limning samarasi muvaffaqiyatli bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda kompyuter texnologiyasi asosida tashkil etish mumkin bo'lgan dars namunalari pastda keltirilgan.

Kompyuter yordamida "Yashiringan harfni top" o'yini

O'yinning borishi: ma'lum bir so'z berilgan bo'lib ulardan ayrim harflari yashirib qo'yilgan. masalan, "kitob" so'zi olsak "k tob" yozilib "i" harfi yashirib qo'yilgan bo'lib, o'quvchilardan yashiringan harfni topib so'zni o'qish talab qilinadi. Bu o'yinni kompyuter yordamida tashkil etish ko'pgina afzallik va qulayliklar yaratadi. O'quvchilarning o'z ustiga mustaqil ishlashni o'rganishi, mustaqil fikrlashlari va ishining natijasi ya'ni xotosini tahlil etib kompyuter baholashi yangi avlodning zamonaviy tafakkurini boyitishga katta zamin bo'lib xizmat qiladi.

"O'z-o'zini top" o'yini

O'yinning borishi: O'qituvchi bolalarga xohlagan bir so'zni yo gapni aytadi, masalan, "Vatan" so'zi aytilib kompyuterlarga kiritiladi. O'quvchilar har bir harfni ekranga chiqarish uchun bir amalni bajarishlari lozim bo'ladi. Masalan, "V" harfini chiqarish uchun qanday amal bajarishdan qat'iy nazar natijasi 21 chiqishi lozim. Chunki "V" harfi alfavitda 21- o'rinda joylashgan. Shunday qilib, o'quvchi "Vatan" so'zini ekranga chiqarish uchun beshta amal bajaradilar. Qaysi o'quvchi tez va to'g'ri bajarsa, kompyuterda ma'lum bir kuy bilan o'quvchi taqdirlanadi va o'qituvchi qaysi o'quvchi topshiriqni birinchi bo'lib bajarganini aniqlaydi. O'yin davomida yo'l qo'yilgan xatoliklarni kompyuter tahlil etadi.

Bu o'yin husnixat va matematika darslarining o'zaro uyg'unligi, bog'liqligini ham yaqqol namoyon etadi. Bola bu o'yinni aynan kompyuterda bajarsa, yaxshi natija beradi. O'yin jarayonida nafaqat matematik ifodalarni tuzib yechish, balki lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga joylashgan harflarning nomi va o'rnini xotirasiga muhrlanadi. Ular alfavitda qaysi harf qayerda, nechanchi o'rinda joylashganini ham xotiralarida saqlab qoladilar. Bu bilan birga ko'paytirish, bo'lish, sonlarning yig'indi va ayirmasini topish jadvalini o'zlashtiradi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda

topshiriqlar:

- 1. Yozuvning insoniyat hayotidagi ahamiyatini so'zlab bering.*
- 2. Yozuvning paydo bo'lishi va yozuv turlari haqida fanda qanday fikrlar bildirilgan?*
- 3. O'zbek xalqining eng qadimiy yozuvlari qaysilar?*
- 4. Qaysi yozuvlar amalda joriy qilinmagan?*
- 5. Hozirgi o'zbek yozuvi haqida nimalar bilasiz?*
- 6. Hattotlik san'ati qanday ehtiyojlar tufayli yuzaga keldi?*
- 7. Hattotlik bilan nom chiqargan shaxslar kimlar va ularning faoliyati haqida nimalarni bilib oldingiz?*
- 9. Eski maktablarda yozuv o'rgatish qanday olib borilgan?*

10. *XX asrda yozuvga va husnixatga o'rgatish bo'yicha ishlarni amalga oshirildi?*

11. *Kitobatchilik bilan shug'ullangan tarixiy shahslardan kimlarni bilasiz?*

12. *Xattotlar va xattotlik maktablari faoliyat haqida so'zlang?*

4-MAVZU:HUSNIXATGA O'RGATISH TAMOYILLARI VA USULLARI

Tayanch so'zlar: *Onglilik tamoyili, husnixat bilan yozish, ko'rgazmalilik tamoyili, genetik tamoyili, takrorlash tamoyili, nusxaga qarab ko'chirish usuli, ritmik usuli, yozuv malakasi, chiziqli uslub, ritmik usul, ijodiy yozuv, o'zini-o'zi tekshirish, harf elementlari, yozuv matnlari.*

4.1.1-4-sinflarda husnixat darslari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari husnixat malakalarini o'qtuvchilarning o'zlari tayyorlaydilar. Matn tanlashda quyidagilarga rioya qilish lozim.

- *umumdidaktik talablar asosida tanlanadi*
- *materiallarning mavsumga mos bo'lishi*
- *bosqichli ketma-ketlik tamoyiliga amal qilinishi*
- *husnixat materialining o'rganiladigan mavzu bilan bog'lanishiga*
- *imlo bilan bog'lanishiga*
- *bolalar hayoti bilan bog'lanishiga*
- *ajratilgan vaqtga mosligiga*

Amaldagi dasturga muvofiq boshlang'ich sinflarda husnixat: 1) bir dars ajratiladi 2-dasrning ma'lum daqiqalari ajratiladi.

1-sinfda husnixat yuzasidan o'quvchilarda quyidagi malakalarni shakllantirish ko'zda tutiladi.

- *yo'zuv jarayonida partada to'g'ri o'tirish;*
- *daftarni 65 gradus qiyalikda qo'yish;*
- *ruchkani to'g'ri ushlash;*
- *yo'zuv chiziqlarini farqlash;*

- *so'zlar orasidagi bir xil tenglikda saqlanishi.*

Dastur talablarini to'liq amalga oshirish uchun ishni rejalashtirib olish lozim. Rejalashtirishda husnixarga o'rganish jarayonida ish turlarining qiziqarli va turli tuman bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Boshlang'ich sinfda o'quv dasturi;1-sinfning i kkinchi yarim yilida o'qituvchi husnixatga o'rgatishni ona tili darslariga qo'shib olib boradi. Bu davrga kelib yozuv sharti ham o'zgaradi. O'quvchilarning daftarida harf namunasi yo'qligi tufayli ular qo'shishga bir qancha shartlarni bajaradilar. Jumladan bosma harfni yozma harfga aylantiradilar. Bundan tashqari mashq shartlari ham bajarilishi lozim. O'qituvchi husnixat daqiqasini rejalashtirihda albatta yuqoridagi holatlarni hisobga olishi lozim.

Shuningdek, ikkinchi sinfda chiroyli yozuv malakasini shakllantirish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Partada to'g'ri o'tirish, ruchkani ushlash, daftarni to'g'ri tutish.
2. O'quvchilarda chiroyli yozishga qiziqish uyg'otish
3. Husnixat darslarini sanoq-ohang usullari va jismoniy mashqlar bilan bog'lab olib borish
4. O'quvchilarning chamalab yozish qobiliyatlarini o'stiruvchi mashqlar bajartirish
5. Qo'l va barmoq muskullari harakatini o'stiruvchi mashqlar bajartirish
6. Harflarni qo'l harakatini uzmasdan tutashtirib yozishga o'rgatish
7. Kichik va bosh harflarni ajratib yozishga o'rgatish
8. Xato yozilgan harflar yuzasidan mashqlar bajarirish
9. Darsda yozib mashq qilish

Yozuv jarayonida yozuv sifatini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Yozuvning aniq, toza, bir xil qiyalikda va balandlikda bo'lishi hamda bir tekis silliq yozilishi uning sifatini ta'minlaydi.

Yozuv sifatini shakllantirish uchun quyidagi ko'rsatmalarga amal qilish lozim:

1. Harf unsurlari va harflarni to'g'ri bog'lab yozish.

2. Yozuvni 65° qiyalikda yozishga o'rgatish.
3. Har bir qatordagi harflarning bir xil balandlikda bo'lishiga erishish.
4. Harf unsurlari, harflar va so'zlar orasidagi masofalarni bir xilda saqlash.
5. Sinfdagi barcha o'quvchilarni bir xil tezlikda ravon qilib yozishlariga erishish.

Husnixatga o'rgatish tamoyillari

Husnixatga o'rgatish tamoyillari quyidagilardir:

1. Onglilik tamoyili.
2. Genetik tamoyil.
3. Takrorlash tamoyili.
4. Ko'rgazmalilik tamoyili.
5. Bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili.
6. Yozuvga o'rgatishning o'qishga o'rgatish bilan bir paytda amalga oshirish tamoyili.
7. Chiroyli yozuvning imlo bilan bogliqligi tamoyili.
8. Savodli yozuvning grafik bilimlar bilan bog'liqlik tamoyili.

1. Onglilik tamoyili. Chiroyli yozuvga o'rgatishda, o'quvchilarning husnixat malakalarini takomillashtirib borishda bu tamoyilga qat'iy rioya qilish muhimdir. Bu tamoyilga ko'ra o'quvchi harf shaklini qanday va qay tartibda yozishni bilishi, harfning qiyaligi, bo'yi va enini to'g'ri mo'ljallay olish lozim. Harflarni harflarga ulashda qo'l uzmaslikka erishish nazarda tutiladi. Ruchka ushlashda ruchka uchi bilan barmoq oralig'idagi masofa 1,5-2 sm bo'lishi e'tiborda tutiladi. Shuningdek, partada o'tirish qoidalariga (ko'z va daftar oralig'ining 30 sm, daftarning parta ustida ma'lum qiyalikda bo'lishiga, partada engashmasdan, boshni to'g'ri tutib, tirsaklarni partaga yengil qo'yish, oyoqlarni parta ostiga to'g'ri qo'yish, ko'krak bilan parta oralig'i masofasining bir kaft sig'adigan masofada bolishi) amal qilishga ongli ravishda erishiladi.

2. Genetik tamoyil. Chiroyli yozuv malakalarining shakllanishida genetik tamoyil katta o'rin tutadi. O'quvchi bu tamoyilga asosan avval shakli oson,

sodda harflarni yozdirishga o'rgatiladi. Ma'lumki, ba'zi bir harflar sodda ko'rinishga ega bo'lib, ularni yozishda qiyinchilik tug'ilmaydi. Shuning uchun chiroyli yozuvga o'rgatishda, dastavval bosh va kichik harflar guruhlab olinadi, hamda shu guruhlash asosida shakli oson harflardan asta-sekin shakli murakkab, yozish birmuncha murakkabroq harflarga o'tiladi. Masalan, kichik harflarning 1-guruhiga i, n, m, r kabilar kiradi. Bu harflar ilmoq shakllaridan iborat bo'lganligi sababli yozishda qiyinchilik bo'lmaydi. Shuningdek, genetik tamoyil asosida harf, bo'gln, so'z, gap, matn tartibida osondan murakkabga qarab yozuv mashqlari o'tkaziladi.

3. Takrorlash tamoyili. Chiroyli yozuv mashqlarini esdan chiqmaslik uchun sistemali ravishda takrorlash juda muhimdir. Takrorlash tamoyili yozish jarayonini avtomatlashtirish asosidir. Chiroyli yozuvda gigiyenik qoidalarga amal qilish eslatib turilishi yaxshi natija beradi. Yozuv qiyaligiga amal qilish, harflarni qo'1 uzmay yozish, harflar, so'zlar orasidagi masofani to'g'ri chamalash va yozishga oid qoidalarga amal qilishni takrorlash, yozuvni tahlil qilish, ularni taqqoslash kabi ishlar takrorlash tamoyili asosida olib boriladi.

Xatolarni tuzatish tarzida olib borilishi, uning samarasiz mashqqa aylanib qolmasligiga amal qilinadi.

4. Ko'rgazmalilik tamoyili. Chiroyli yozuvga o'rgatishda ko'rgazmali vositalar ham katta ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmali vositalarga «To'g'ri o'tir!» plakati, bosma harf shakllari ifodalangan kartonlar, xattaxta, o'quvchilar qo'lidan ushlab yozdirish kabilar kiradi. Harfning yozma shaklini hosil qilishga o'rgatishda uning bosma shakli ko'rsatilib farqli jihatlari izohlanadi.

Yaxshi tanlangan va mohirlik bilan foydalanilgan ko'rgazmali qurollar dars sifati va samaradorligini oshiradi.

5. Bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili. O'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish uning bo'yini hisobga olgan holda oldingi partalarga o'tkazishdan boshlanadi. Parta o'quvchiga mos bo'lsa, u yozishda qiynalmaydi, tez charchab qolmaydi, chiroyli yozadi.

O'quvchining individual xususiyatini hisobga olganda. Ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lmagan o'quvchilarni yorug' tushadigan deraza tomonga, eshitish a'zolarida nuqsonlar bo'lgan bolani esa oldingi partalarga o'tkazish ham nazarda tutiladi.

Malumki, ruchkani barmoqlar orasida noto'g'ri ushlaydigan o'quvchilar ham uchraydi, shu sababli bolaning ruchka ushlashiga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Daftarga harflarni 65° gradus qiyalikda yozish asosiy rol o'ynaydi. Buning uchun daftar - parta ustida to'g'ri turishi lozim. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchining daftarlarini kuzatib borishi darkor. Bu qoidaga amal qilish ham yozuv sifatini oshiradi.

O'quvchilarning yozuv tezliklarini kuzatish, kamchiliklarini hisobga olish, yutuqlarini ko'pchilikka namuna qilib ko'rsatish ham bu tamoyilning asosiy shartlaridan sanaladi.

6. Yozuvga o'rgatishning o'qishga o'rgatish bilan bir paytda amalga oshirish tamoyili. Dastur talablari yozuvga o'rgatishni o'qishga o'rgatish bilan bir paytda amalga oshirishni nazarda tutadi. Savod o'rgatishning dastlabki bosqichida o'qish va yozuv bog'lab olib boriladi. Bu usul K.D.Ushinskiy tomondan qo'llangan bolib, hozirga davr foydalanib kelinmoqda. O'quvchi yaxshi o'qish sifatlari (tog'ri, ong'li, tez va ifodali o'qish)ni egallash bilan bir paytda yozuvga ham o'rgatilib boriladi. Negaki yozish va o'qish bolaning nutqiy rivojlanishi (lug'at boyligi, gap tuzish ko'nikmasi, nutqning mantiqiy bog'lanishi)ni ta'minlaydi. Yomon o'qigan bola yozuvni egallashi qiyin bo'ladi, chunki bo'g'inlab o'qish malakasidan so'ng, bo'g'inlab yozish malakasi shakllanadi.

7. Savodli yozuvning grafik bilimlar bilan bog'liqligi tamoyili. Chiroyli yozuv imlo bilan chambarchas bog'liq. O'quvchining imloviy savodxonligi haqida g'amxo'rlik qilish tilning aniqligi, fikrni to'g'ri ifodalash, kishilar bilan o'zaro xatosiz muomala uchun g'amxo'rlik demakdir. Shu sababli ham savod

o'rgatish davrida bolalarda grafik malakalarni shakllantirish bilan birga imloga oid malakalarning shakllanishiga zamin yaratiladi.

Malumki, savod o'rgatish davrida o'quvchi gapni bosh harf bilan yozish, so'zning satrga sig'may qolgan qismini keyingi qatorga ko'chirish, kishilar ismi, sharifi, hayvonlarga qo'yilgan nomlarda bosh harf ishlatilishini amaliy tarzda o'rganadi.

Chiroyli yozuv darslarida so'zlar, gaplar, matnlar yozish, ularning imlosini tekshirishi orfografik ziyraklikni asta-sekin shakllantira boradi, imlo qoidalarini puxta egallashlariga zamin yaratadi.

Insonning yozma nutqi harflar orqali shakllanadi. Husnixat darslarida savodli yozuv grafik malakalar bilan shakllantirilishi asosiy vazifa hisoblanadi. Har bir harfning aniq yozilishi yozuvning aniq va ravon bolishini ta'minlaydi. Buhing uchun harflarning shaklini to'g'ri yozish, ularni to'g'ri ulashning ahamiyati kattadir. Harflarni bosmasdan bir tekisda yozish, elementlarni ajratmasdan boglash, so'zlarni qatorda to'g'ri joylashtirish, yozuv vaqtining belgilab olinishi, tahlil ishlarining (bo'g'ln-tovush, tovush-harf, imloviy tahlil), ya'ni fonetik-grafik tahlilning amalga oshirilishi muhim sanaladi.

Yillar davomida o'quvchilarni chiroyli va bexato yozishga o'rgatish uchun qoyidagi metodlardan foydalanib kelinmoqda:

Namunaga qarab ko'chirish va yozish. Bu juda qadimiy usul bo'lib, eski maktablarda juda keng foydalanilgan. XX asrning boshlarida ham bu metod rus maktablarida keng qo'llanilgan. Bu metodda o'qituvchi o'quvchilarga harf va uning unsurlarini och rangda yozib bergan, o'quvchilar esa uning ustidan mexanik ravishda bo'yaganlar. O'quvchilarni bu usul bilan yozuvga o'rgatish o'qituvchidan juda ko'p vaqt talab etgan. Keyinchalik o'qituvchining ishini osonlashtirish maqsadida harf va uning unsurlari och rang bilan ko'rsatilgan alohida daftarlar ham chiqarilgan. O'quvchilar bu daftarlardan foydalanib, harf va uning unsurlarini yozishga o'rganganlar. Bunday metod bilan husnixatga o'rgatish o'quvchilarni faqat ko'chirishga odatlantirib, harflarning shaklini mustaqil yozishga imkon bermagan. Shuning uchun bu metod keyinchalik kam

qo'llanilgan. Faqat ayrim hollardagina yozuv malakasi bo'sh bo'lgan o'quvchilarga o'qituvchi harf va uning unsurlarini qalam bilan yozib bergan. O'quvchilar esa uning uctidan siyoh bilan yurgizib chiqqanlar, lekin bu metoddan muntazam ravishda foydalanishga ruxsat etilmagan.

Keyinchalik bu metod takomillashib turli guruhlariga bo'lindi.

Chiroyli yozuvga o'rgatishning eng asosiy usullaridan biri **harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozdirishdir**. Har bir harf namunasi doskada barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarda alohida – alohida ko'rsatib berilishi lozim. O'quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllari (harf, bo'g'in, so'zlar)ni o'z daftariga to'g'ri aks ettirishdir.

O'qituvchi harf va harf unsurlarini doskada shunday tarzda yozishi lozimki, u barcha talabalarga bir xilda ko'rinib tursin. Bundan tashqari harflarni yozayotganda ovoz chiqarib, bolalar diqqatini doskada jalb etib yozishi kerak. O'qituvchi har bir harf elementlarini qayerdan boshlab qayerga tugashini ham ovoz chiqarib va ham yozib ko'rsatishi lozim, toki keyinchalik o'quvchilardan so'ralganda ular aytib bilishlari va amalda ko'rsatib olishlari lozim. Shundagina bu usul samara beradi.

Namunaga qarab ko'chirib yozish usulida o'quvchilar, asosan, harflarning shaklini "Yozuv daftari"dagi namunaga qarab ko'chirib yozadilar.

Namunaga qarab ko'chirib yozish tayyor harflarning ustidan yozishga nisbatan ancha murakkab bo'lib, ularning har ikkalasini qaysi vaqtda qo'llashni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak.

Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo'lni yurgizib mashq qilish ixtiyorsiz jarayon bo'lib, o'quvchilar bu topshiriqni oson bajaradilar. Ikkinchidan, "Husnixat" daftariga berilgan namunaga qarab yozdirish o'qituvchining vaqtini ancha tejaydi.

Chiziqli metod. Chiziqli metod XIX asrning boshlarida qo'llanila boshlangan. Bu metodning qo'llanilishi bilan turli chiziqli daftarlar chiqarila boshlanadi, bu esa o'quvchilarga harflarni chiroyli hamda bir tomonga bir oz

moyil qilib yozish uchun ma'lum darajada qulaylik tug'dirdi. Bunday daftarlardagi chiziqlar, ya'ni harf turlari bir necha yotiq va qiya chiziqlardan iborat bo'lib, ular kichik va bosh harflarni yozish uchun mo'ljallanadi. Chiziqli daftarlar bir necha xil bo'lib, har bir turi ma'lum sinflarga mo'ljallab chiqariladi:

a) **ikki chiziqli daftar** – kichik harflar yoziladigan gorizontal chiziqlar orasidagi masofa 5 mm ga, bosh harflar yoziladigan gorizontal chiziqlar orasidagi masofa esa 11 mm ga, qiya chiziqlar orasidagi masofa esa 3,3 mm ga teng bo'lib, 1-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan edi. 1970-yildan boshlab bunday daftar maktablarda qo'llanmaydigan bo'ldi.

b) **ikki chiziqli daftar** – qiya chiziqlari orasidagi masofa 25 mm ga, kichik harflar yoziladigan gorizontal parallel chiziqlar orasidagi masofa 5 mm ga, bosh harflar yoziladigan parallel chiziqlar orasidagi masofa esa 10 mm ga teng bo'lib, 1970-yildan boshlab 1-sinf o'quvchilari uchun tavsiya etila boshlandi.

c) **bir chiziqli daftar** – parallel chiziqlari orasidagi masofa 8 mm ga teng bo'lib, 1970-yildan boshlab 2-sinf o'quvchilari uchun tavsiya etildi.

Genetik metod. Mazkur metod harflarni o'xshash unsurlarini hisobga olib guruhlarga bo'lib o'rgatishga tayanadi. Bu metodning asosiy xususiyati shundaki, bosh va kichik harflar guruhlarga bo'lib yozdiriladi. Genetik metoddan asosan boshlang'ich sinflarning 2- 4- sinflarida foydalanish tavsiya etiladi.

Genetik metodga asosan harflar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Kichik harflar guruhi:

1-guruh: i, m, n, r, u.

2-guruh: a, e, f, g, o, g', o'.

3-guruh: b, d, h, j, y.

4-guruh: k, l, q, p, t.

5-guruh: s, v, x, z.

Bosh harflar guruhi:

1-guruh: I, J, L, U.

2-guruh: A, M, N.

3-guruh: E, O, Q, X, O'.

4-guruh: G, H, K, Y, G'.

5-guruh: B, D, F, P, R, T.

6-guruh; S, V, Z.

Genetik usulda o'qituvchi, kichik va bosh harflarni guruhlarga ajratish bilan birga, ularning qanday unsurlardan tuzilganligini va ularning nomlarini yaxshi bilishi hamda yoza olishi lozim. Yuqorida ko'rsatilgan kichik va bosh harflar guruhlarini bir-biridan ajrata olgan va ularning shaklini to'g'ri o'zlashtirgan o'quvchilargina harflarni chiroyli yoza olishlari mumkin.

Mazkur usulni qo'llashda, o'qituvchi, harf va uning elementlarini sanoq bilan yozdirish usulidan (bu usul haqida pastda ma'lumot beramiz) foydalangani ma'qul. Bu usulni ko'proq 2-sinfda qo'llash mumkin.

Sanoq-ohang metodi. O'qituvchi mazkur usuldan foydalanishda harf va uning unsurlarini sanash orqali yozdirib tushuntiradi. Bu usulni ayniqsa savod o'rgatish davrida kenf qo'llash mumkin.

Sanoq-ohang metodining boshqa metodlarga nisbatan afzallik tomonlari ko'p. Birinchidan, u harflarni tekis yozilishini ta'minlaydi va harf unsurlarining tushib qolishiga yo'l qo'ymaydi; ikkinchidan, sekin yozadigan o'quvchilarni tez va sinfdagi barcha o'quvchilar bilan barobar yozishga undaydi; uchinchidan, o'quvchilarga harakatlarni aniq va dadil bajarishni o'rgatadi; to'rtinchidan, sinfdan darsni jonlantirishga yordam beradi.

Mazkur metoddan butun dars davomida foydalanish tavsiya qilinmaydi, chunki o'quvchilar charchab, yozuv sifatini pasaytirib yuborishlari mumkin.

Bu usuldan foydalanishda, asosan, harflarning asosiy unsuri **“bir”**, **“ikki”**, **“uch”** deb sanab boriladi, yordamchi ulash unsuri esa **“va”** deb bog'lanadi.

Sanoq-ohang usulini qo'llashda harf yoki unsurlar avval sanoqsiz yoziladi, so'ngra sanoq bilan yozdiriladi.

Shuningdek, bu usul bilan yozishda dastlab sekinroq, keyinchalik uni tezlashtirib yozib ko'rsatiladi. Bu usuldan bo'g'in, so'z va gaplarni yozishda ham foydalanish mumkin.

Tasavvur orqali yozish. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar bilan bir qatorda, tasavvur qilish orqali havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qildiriladi. O'qituvchi doskada yozib ko'rsatgan harf yoki bog'lanishlarni o'quvchilarga qanday qilib yozishni, ruchkaning havoda harakatini ko'rsatib, o'quvchilar tasavvur hosil qilganlaridan so'ng daftarga yozishga ruxsat etiladi. Bunday mashqlar o'quvchilarning qiziqishlarini o'stiradi hamda jismoniy mashqlarni ham bajarish imkonini beradi.

Tasavvur orqali yozish usuli. Yuqoridagi usullar bilan bir qatorda, bolalarga tasavvur orqali havoda harflar shaklini yozdirish ham qo'llaniladi.

O'qituvchi doskaga yozib ko'rsatgan harf yoki uning bog'lanishlarini o'quvchilarga ruchkani havoda harakatlantirib ko'rsatadi va bu orqali o'quvchida harf haqida tasavvur hosil qilinadi. So'ng o'quvchi daftarga yozishga kirishadi. Bunday mashq usuli o'quvchining qiziqishini oshiradi hamda jismoniy mashqlarni bajarishga ham imkon beradi.

Bu usulning salbiy jihati ham bor. Chunki, o'qituvchi bu usuldan foydalanganda, barcha o'quvchilarning qo'l harakatini to'g'ri yoki noto'g'riligini bir paytda tekshira olmaydi. Bunda bir necha o'quvchining qo'l harakatini kuzatib, tegishli ko'rsatma berish mumkin.

Nusxa ko'chirish, tasavvur orqali zish husnixatga o'rgatishda yordamchi usul sanaladi.

Harf va uning elementlarini tahlil qilish usuli. Harf va uning elementlarini tahlil qilish turlicha amalga oshiriladi. Harflarni elementlarga ajratib tahlil qilish, har bir harfning necha elementdan tuzilganligini, qanday shaklga ega ekanligini, bu elementlar boshqa harflar bilan bog'lanishida qanday ko'rinishga ega bo'lishini o'quvchilar tasavvur etadilar. Ammo soddalashtirilgan harflar alfaviti ko'p harflarni elementlarga ajratmay, bir butun yozishni talab qiladi. Masalan *b* harfi elementlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi.

Ayrim harflar bir necha elementdan tashkil topgan bo'lib, ular bir butun shaklda yoziladi, ammo o'qituvchi uning necha elementdan iboratligini faqat eslatib o'tadi. Masalan, kichik d harfining birinchi elementi to'liq oval, ikkinchi elementi pasti halqali tayoqchadan iborat.

Bu o'rinda harfning necha elementdan iborat ekanligi eslatib o'tiladi, yozishda esa bu harfni qo'l harakatini uzmasdan yozish talab cheklanadi.

Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish usuli. Husnixat qoidalarini yaxshi bilish, yozuv malakasining to'g'ri shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

Chiroyli yozuv qoidalarini qisqa va tushunarli qilib bayon etish lozim, shundagina o'quvchilar uni to'liq o'zlashtiradi va amalda qo'llaydi. Masalan, 1-sinfda dastavval to'g'ri joylashtirish talablari asosida, so'zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash, so'zlar harflar elementlari va harflar oralig'ining masofasini chamalab yozish qoidalarini kelib chiqadi.

Har bir qoidani asta-sekin, o'z o'rni bilan o'rgatib borish husnixat qoidalarini ongli o'zlashtirishga olib keladi. Masalan, avvalo yozuvning qiyaligini to'g'ri belgilash talab etilsa, keyinchalik har va so'zlarni yozdirishda bu qoidaga amal qilishga kirishiladi.

Yozuvning qiyaligi qoidasi singdirilgach, harflarni bir xil masofada tekish zish qoidasi o'rgatiladi. Harflar elementlarini qo'l harakatini uzmasdan yozish qoidalarini o'rgatilgach, so'zlarni qo'l harakatini uzmasdan yozish qoidalarini o'rgatiladi.

Keyinchalik tez, toza, chiroyli, aniq yozish qoidalarini o'rgatiladi.

Lekin bu qoidalarni bolani bezor qiladigan darajada takrorlash tavsiya etilmaydi. Negaki, bu qoidalarga ongli ravishda amal qilib borilishi lozim.

Qo'l harakatini mashq qildirish usuli. Qo'l harakatini mashq qildirish usuli bolalarning charchagan a'zolarini dam olishiga va yozuv sifatiga katta ta'sir etadi.

O'quvchilarga dars jarayonida bajariladigan mashqlar oddiy bo'lib, kam vaqt olishi, o'quvchining jismoniy jihatdan o'sishiga, qo'l va barmoq muskullarining chiniqishiga, qaddi-qomatining to'liq, erkin tutishlariga yordam

berishi lozim. Yozuv darslarida 8-10 daqiqa o'tgandan so'ng o'quvchilar betoqat bo'lib, charchash alomatlari ko'zga tashlanadi. Bolaning orqasiga yoki yonga yaslanib o'trishi, o'rnidan turib ketishi charchaganlikdan dalolat beradi.

Mana shunday holatda o'quvchilarning charchashlariga ahamiyat bermay, ko'p yozdirish natijasida o'quvchi toliqadi, harakatlari sustlashadi, xati xunuklashadi, ko'p xatoga yo'l qo'yadi.

Shu sababli charchashning oldini olish uchun vaqti-vaqti bilan jismoniy mashqlar o'tkazib borish katta ahamiyatga ega. Jismoniy mashqlarni dars davomida bir necha marta o'tkazish tavsiya etiladi. Mashqlar avvalo o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladi, so'ng o'quvchi tomonidan bajariladi.

Jismoniy mashq izchil o'tkazib borilsa, keyin esa yozishga kirishilsa, o'quvchilarning ish qobiliyati tiklanadi va darsga qiziqishi ortadi.

Xullas, ish faoliyati davrida qo'l harakatini mashq qildiruvchi jismoniy mashqlardan foydalanib turilsa, chiroyli yozuvga o'rgatishning asosiy shartlaridan biridir.

Yoddan chiqarmaslik lozimki, tasavvur orqali yozish chiroyli yozishga o'rgatishda yordamchi usul vazifasini bajaradi.

4.2. Husnixat darslarini rejalashtirishga qo'yiladigan talablar

Dars mavzusi: o'quvchilarni yozuv faoliyatida ishtirok etadigan tana qismlari bilan tanishtirish. Yozuv paytida ularni to'g'ri tuta bilishga; ruchka va daftarni to'g'ri ushlashga o'rgatish.

Dars rejasi: Kirish. Odamning alohida tana qismini ko'rsatish va nommlanishni aytish. Yozayotgan paytdagi normal holati, daftarning turishi, kaftni to'g'ri tutish va ruchkani to'g'ri ushlash.

Darsning borishi: darsning boshida o'qituvchi o'quvchilarga yozuv mashg'ulotlarida tez va chiroyli yozishni o'rgatishlarni tushuntirib o'tadi. Yozuvni o'rgatish har bir insonning hayotida muhim rol o'ynaydi. Yaxshi yoza olmaydigan odam o'zini noqulay his etadi, uning yozuvini o'qiydiganlar esa uning mazmunini umuman anglay olmaydilar. Keyin esa o'qituvchi

o'quvchilarga to'g'ri yozish uchun harflar va so'zlar nimalardan va qanday hosil bo'lishi haqida va to'g'ri o'tirish qoidalari, mchkanini tutish yo'llari haqida ma'lumotlar berib o'tadi. O'qituvchi yozuv jarayonida ishtirok etadigan tana qismlarini ko'rsatadi. Biron -bir o'quvchi sinf xonasining o'rtasiga chiqarib tartib bilan o'quvchining boshi, ko'zi, yelkasi va h.zolarni ko'rsatib, o'quvchilarni o'z s avollariga javob berishlarini talab qiladi.

Agar o'quvchilar ayrim tana qismlarini old yelka, barmoq bo'g'inlarini bilmasalar, o'qituvchi ularning nomini aytib, yozuvda u yoki bu tana qismining qanday ishtirok etishini tushuntirib o'tadi.

So'ng o'qituvchi yozuv jarayonida noto'g'ri o'tirish bir qancha jiddiy kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lishini va keyinchalik butun hayoti davomida qolishi haqida ma'lumot berib o'tadi. Bularga masalan: uzoqni ko'ra olmaslik, bukchayish, nafas olishning qiyinlashuvi va o'zidan keyin ko'krak qafasi kasalliklarining kelib chiqishiga va hokzolarga sabab bo'ladi.

Undan keyin o'qituvchi o'quvchilarga tushuntirib o'tganlarining hammasini takrorlab berishlarini taklif etadi va yozayotganda to'g'ri o'tirish tartibini ko'rsatib beradi.

Stolga o'tirayotganda o'quvchilarga yaxshi ko'rinadigan joyga (eng yaxshisi profil holda) o'tirib: 'Qaranglar, men hozir yozish jarayonida qanday o'tirish talab etilsa, shunday o'tiraman. Sizlar ham men qanday o'tirsam, shunday o'tirishga harakat qiling. Qarang-chi, men qanday o'tiribman, egilibmi, yo to'g'ri?'

O'quvchilar: To'g'ri.

O'qituvchi: qaranglar, mening qo'llarim qayerdatur bo'ladi va diqqat bilan qarang-chi, tirsaklarim qanday holda turibdi?

O'quvchilar: Qo'llaringiz stol ustida turibdi, tirsaklaringiz esa stol chetidan ozgina chiqib turibdi.

O'qituvchi: Qarang-ch, men tirsagimni gavgdamga engashtirib, ikki tomonga surib qo'ydimmi?

O‘quvchilar : Tirsaklaringiz hech qayerga engashmagan va ikki tomonga surilmagan.

O‘qituvchi : Aytinglar-chi, boshimni qanday tutib turibman?

O‘quvchilar : Boshingiz to‘g‘ri turibdi.

O‘qituvchi : oyoqlarim nimaga tiralib turibdi?

O‘quvchilar: Ular to‘g‘ri, polga tegib turibda.

O‘qituvchi : Qarang-chi, men qanday holda o‘tiribman. Mening gavdam va yelkalarim qanday ko‘rinishda?

O‘quvchilar: Gavdangiz to‘g‘ri tutilgan holda.

O‘qituvchi: Mening ko‘kragim va stolning cheti o‘rtasidagi ora liq masofa qanday?

O‘quvchilar : Sizning ko‘kragingiz va stolning orasidagi masofa unchalik katta emas.

O‘qituvchi : Hammangiz turing va yozayotganda lozim bo‘ladigan holda o‘tiring.

- yana bir bora turinglar. Qani, menga ayting-chi, yozayotganda qanday o‘tirsiz to‘g‘ri hisoblanadi?

O‘quvchilarning yozuv jarayonida to‘g‘ri o‘tirish tartibini o‘zlashtirib olganlarini ko‘rib, o‘qituvchi daftarning to‘g‘ri turish tartibini o‘rgatishga kirishadi.

O‘quvchilarga daftarlar tarqatiladi va sinf taxtasida daftarni to‘g‘ri qo‘yganda egilish chizig‘i to‘g‘ri burchak bilan partaning oldingi chetiga tushishini ko‘rgazmali holda ko‘rsatib o‘tadi.

Bundan keyin oqituvchi o‘quvchilarga ruchkani to‘g‘ri ushlab tartibini ko‘rsatib beradi. Ruchkani uchta barmoq bilan : bosh, o‘rta va ko‘rsatkich barmoqlar bilan ushlab lozim. Bu barmoqlar juda ham bukilgan va juda ham ochilgan bo‘lmasligi kerak. Barmoqlarni qattiq siqmaslik kerak, bosh barmoq ko‘rsatkich barmoqqa tegmasligi kerak. Qolgan ikki barmoqlarni shunday joylashtirish kerakki, bunda ular yozish jarayonida qo‘l kaftining qator yo‘nalishiga erkin holda yo‘naltirib boradi, bu esa tez va bog‘lanishli yozuvda

muhim o‘rin tutadi. Nomsiz barmoqni o‘rta barmoqqa yoki kaftga tomon engashtirish mumkin. Jimjiloq kaft uchun tayanch nuqtasi hisoblanadi, u yozish jarayonida qog‘oz yuzasiga tegib turish va unda yengil harakatlanishi kerak. Qo‘l kafti shunday holatda joylashishi kerakki, yozayotgan odam kaftning ichki tarafmi ko‘rmasligi lozim. Kaftning o‘ng tomoni qog‘ozga tayanishi mumkin emas, bunday holat o‘ng qo‘lning erkin harakatlanishiga xalaqit beradi.

O‘qituvchi o‘z yozuvini mukamallashtirish uchun olib boradigan muntazam-ishlari.

O‘qituvchi o‘z yozuvini yanada chiroyli va mukammal bo‘lishi uchun uzluksiz shug‘ullanib borishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi shart.

Shunday fikrlar bor, agar muntazam yozib borilsa, yozuv yaxshilanib boradi. Lekin buning aksi ham bo‘lishi mumkin: inson qannchalik ko‘p yozsa, uning yozuvi shunchalik tushunarsiz bo‘lib boraverar ekan.

O‘qituvchi to‘g‘ri husnixatda yozishni o‘rganib olishi lozim. O‘qituvchi faqat nazariy jihatdangina emas, balki har bir harf uchun yo‘lga qo‘yilgan amaliy proporsional bog‘liqlikni ham bilishi darkor.

Shu bilan bir vaqtda lozim bo‘lgan mashqlar orqali qo‘lning kaftini va barmoqlar harakatini yengillatish va rivojlantirish kerak bo‘ladi.

O‘qituvchi sinf taxtasida yozish usullarini o‘rgatishga alohida e‘tibor berishi lozim. Sinf taxtasida yozish jarayonida yo‘l qo‘yadigan xatolarga: harflarni noto‘g‘ri yozish bilan birgalikda uni uzoqdan qanda y ko‘rinishini hisobga olmasdan yozish va yozuvning noto‘g‘riligi shunda k o‘rinadiki, barcha asosiy va birlashtiruvchi shtrixlar bir xil qolipda yoziladi, unda asosiy shtrixlar qalinroq chiziqlar bilan yozilmasdan qolaveradi.

Faqatgina yaxshi yozuvga ega bo‘lgan holdagina o‘qituvchi bolalarga yozuvning to‘g‘ri yozilgan namunasini berishi va ulardan yaxshi natijalar olishi mumkin. O‘quvchilar harflarning tuzilishini, uni chizishdagi ketma ketligini yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun o‘qituvchi bularing hammasini sinf taxtasida ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatishi lozim.

Tajribalarning ko'rsatishicha, o'quvchi chiroyli va to'g'ri yozuvda sinf taxtasiga bo'rda aniq va chiroyli yozadigan o'qituv chining o'quvchilari chiroyli va to'g'ri yozadilar.

Sinf taxtasida yozish malakalariga quyidagilar kiradi: 1-navbatda qo'l harakatini rivojlantirish, simmetriyani xis qilish va taxtaning qaysi qismida yozilgan xarf, so'z va fraza yozilganini tezda topishni, bir qarashda topa bilishlikni o'rgatish lozim.

Bundan so'ng bo'r bilan yozishni u bilan ishlash texnikasini o'rganib olish lozim. Bo'r bilan yozishda ingichka va qalin shtrixlarni yozishni, shuningdek ingichka chiziqdan bosib yozishga o'tish va h.zo malakalarni egallash lozim. Yozuvda sinf taxtasi va bo'rning sifati katta ahamiyatga ega.

Bo'r yumshoq bo'lishi lozim. U 15x15 mm qalinlikda va 50 mm uzunligida uncha katta bo'lmagan shaklda tayyorlab qo'yilgan bo'lishi kerak. Bunday shakldagi bo'r parchasini barmoqlar bilan ushlash qulay va qo'lni yengil harakatlantirish bilan turli qalinlikdagi shtrixlarni aniq chizishga erishish mumkin.

Bo'r o'rta va bosh barmoqlarning o'rtasida yengil ushlanadi. Bosib yozish faqatgina ko'rsatkich barmoq orqali nazorat qilinadi. Ko'rsatgich barmoq bo'rning ustida, uning chekka qismida turishi lozim, bo'lmasa bosib yozish jarayonida bo'r sinib ketishi mumkin. Nomsiz va jimjiloq barmoqlar xiyla kaftga tomon bukilgan bo'lishi kerak.

O'qituvchi sinf taxtasiga yozayotgan paytida shunday turishi kerakki, go'llarining harakatini yopqib qo'ymasligi lozim.

Sinf taxtasi tekis g'adir - budursiz va yoriqlarsiz bo'lishi va bo'yash uchun maxsus tayyorlangan qora apsidal bo'yoq bilan bo'yalgan bo'lishi lozim.

Oddiy moyli qora bo'yoq yoziv taxtani bo'yash uchun yaroqsizdir, chunki yozuv taxtaning yaltiroq ustki qavatini yorug'likni ko'zga tushiradi, bo'r esa uning ustida sirpanadi va maydalanib ketadi.

Sinf taxtasini shunday holatda joylashtirish kerakki, oynadan tushayotgan yorug'lik unda aks etmasligi va o'quvchilar sinfnin g turli joyidan unga yozilgan yozuvni bema'lol o'qiy olishlari mumkin bo'lsin.

O'zida ishonch hosil qilgan holda yozuv taxtasiga harflarni bosib yozish uchun u mustahkam qilib joylashgan bo'lishi kerak. Agar yozuv taxtasi devorga osib qo'yilgan bo'lsa, nafaqat uning yuqori tomoni ilinib turishi kerak, balki yozuv taxtaning ikki cheti ham.

Husnixat bilan yozish mashg'ulotlari uchun yozuv taxta rangli chiziqlar bilan chizilgan bo'lishi kerak, ular daftarning chiziqlariga mos kelishi kerak. Agar yozuv taxtasi chizilmagan bo'lsa, o'qituvchi o'zi unga chiziqlar tortishi talab etiladi.

Harf va sonlarni yozish uchun gorizontal va yotiq chiziqlarning orasidagi masofa o'quvchilarning daftarlaridagi chiziqlarga nisbatan yirikroq olinishi kerak.

Gorizontal chiziqlarni yozuv taxtasiga bo'r bilan bo'yalgan arqonchani yozuv taxtasiga bosib chiqish orqali chizish mumkin.

Yozuv taxtasiga chiziqlarni tezda chizish uchun turli qalinlikdagi chiziqlardan foydalanish mumkin. Bunda bir vaqtning o'zida chizg'ichning ikkala tomonidan chiziqlar tortib ketish mumkin.

Harflarning yotiqligini aniqlovchi yotiq chiziqlarni sinf to'g'ri burchakli uchburchagi yordamida tezda chizib chiqish mumkin. Bunday uchburchakni o'qituvchinig o'zi foner yog'ochlar orqali yasab olishi mumkin.

Agarda sinf xonasi ikki smenada ikkita birinchi sinf yoki ikkita ikkinchi sinf o'quvchilari shug'ullanishsa, unda sinf taxtasini muntazam ravishda emal bo'yog'l bilannchizilgan chiziqli holda ishlatish lozim. Buning uchun eng yaxshisi to'q qizil rangdagi yoki jigarrangdagi bo'yoqdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Har qanday chiziqni ozoda (oldiniga chiziqlarni qalam bilan chizib olish, undan keyin bo'yoq bilan) chizish mumkin.

Shuningdek, maktabda ustiga qora bo'yoq bo'yalgan foner bo'lagidan ham ko'chma sinf yozuv taxtasini yasab olish mumkin. Bunday yozuv taxtalarga

gorizontal va yotiq chiziqlar yoki matematik mashg'ulotlar uchun gorizontal va vertical chiziqlar chizish uchun yozuv taxtasining qavatiga bigiz yoki mix yordamida chizib chiqiladi. Chiziqlar orasiga tushgan bo'r aniq oq chiziqning hosil bo'lishiga yordam beradi, bu esa o'qituvchining "qo'li" bilan bo'r bilan chizib chiqishda yengillik beradi va harflarni yozish jarayonini yengillashtiradi, chunki yozuv taxtasining ustki qavatida bo'yoqlardan qolgan g'adir - budurlar bo'lmaydi.

3. O'qituvchining darsga tayyorlanishi. O'qituvchi har bir yozuv darslariga va o'quv fanlariga qanday tayyorlanishi, mashg'ulotda ishlab chiqadigan materialni qanday tayyorlab olishi mumkin. Butun darsga yetadigan sinf ishi uchun materialni tayyorlash o'qituvchi uchun muhim ahamiyatga egadir. Ba'zida ayniqsa, endi dars o'ta boshlayotgan o'qituvchida materiallar yetarli bo'lmaydi: bir xildagi mashqlar mashg'ulotning sust va zerikarli o'tishida mashg'ulot so'ngida esa minimal natijalarga erishiladi.

Dars uchun material tanlab olinadi, so'ng o'qituvchi o'z faoliyatini o'quvchilarning qobiliyatiga va kuchiga qarab rejalashtirib olishi kerak. Agarda dars o'tish jarayonida yozuv taxtasidan foydalanish kerak bo'lsa, o'qituvchi oldindan kerakli materialni ishlab chiqishi lozim. Ko'pchilikka ma'lumki, hamma narsaga birdaniga erishib bo'lmaydi: sinf yozuv taxtasida namunalarni chiroyli qilib yozish - ko'proq mashqlarni bajarishga va katta mahorat talab etadi. Noto'g'ri yozilgan mashq esa o'quvchining o'qituvchiga bo'lan ishonchini yo'qolishiga turtki bo'ladi. Bo'r bilan yozish texnikasining murakkabligidan tashqari ma'lum bo'gan namunani yozuv taxtasiga joylashtirish ham amaliyotni talab etadi, shuning uchun darsga tayyorgarlik ko'rishda bu yo'nalishda ham mashq qilib borish lozim.

Bundan tashqari o'qituvchi tanlab olayotgan materialning sifati ustida ham bosh gotirishi kerak. Agarda darsga tayyorlangan material mazmunli bo'lsa, o'quvchilar zo'r qiziqish bilan ishlaydilar va mashg'ulotlar ular uchun qiziqarli tarzda o'tadi.

O'qituvchining asosiy diqqati sinfdagi barcha o'quvchilarni birgalikda, ahil va hamkorlikda ishlashga va ularni jalb etishga qaratilishi lozim. Shu maqsadda o'qituvchi oldindan qaysi o'quvchilarning bilimini dars jaroyonida sinab ko'rishi kerakligini belgilab oladi. Sinfdagilar hamkorlikda, ahil bo'lib bajaradigan ish qachonki o'qituvchining ta'lim berish shakli va ish ga bo'lgan munosabati yuqori darajada bo'lsagina ijobiy natijalar berishishi mumkin. o'quvchilar o'qituvchining ularga nisbatan qilayitotgan kayfiyatiga bevosita sherik bo'ladilar. O'qituvchining kayfiyati bo'shashib, parishon, ortiqcha hayojanlanish yoki haddan tashqari harakatchan bo'lsa bu holat o'quvchilarga o'tib ularning ish faoliyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qachonki o'qituvchi izchil, aniq o'ylab olgan va jonli ravishda dars o'tsa o'quvchilarning darsga munosabati ijobiy bo'ladi va dars mazmuli bo'ladi.

Shuningdek, o'quvchilarga uyga beriladigan topshiriqlarni ham oldindan rejalashtirib qo'yish kerak. Beriladigan topshiriq o'quvchilarni mustagil ravishda mashg'ul bajarishga va o'tilgan dastur materialini mustahkamlab borishga o'rgatib borishi lozim.

4.3.1-sinfda husnixat darslarini rejalashtirish

Alifbegacha bo'lgan davrda tayyorgarlik mashqlarini tashkil etish.

Boshlang'ich sinflarda harflarning shaklini to'g'ri yozishga o'rgatish o'qituvchidan ham, o'quvchilardan ham ko'p mehnat talab etadi. O'quvchi har bir harfning tuzilishini, yozilishini ko'rishi va tasavvur hosil qila olishi lozim. O'qituvchi esa o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlashi va uni tuzatish yo'llarini belgilashi kerak.

O'quvchilar tomonidan ham, o'qituvchi tomonidan ham har bir harf aniq yozilishiga erishish, buning uchun ko'p mashq qilish kerak bo'ladi. Dastlab yozish sur'ati sekin bo'ladi, keyinchalik o'quvchilar harflarning yozilish shaklini yaxshi o'zlashtirib olganlaridan so'ng yozuvning tezligi ortib boradi.

Harflarning shaklini tushuntirishda dastlab doskaga yozib ko'rsatish juda muhimdir. Buning uchun o'qituvchining o'zi yaxshi yoza oladigan bo'lishi kerak. Agar o'qituvchi bir harfni bir safar boshqa shaklda, ikkinchi safar yana bir shaklda yozib ko'rsatsa, o'quvchilar ikkilanib qoladilar va xatoga yo'l qo'yadilar.

O'quvchi to'g'ri yoki noto'g'ri yozilgan harflarni bir-biridan ajrata olishi, ulardagi asosiy kamchiliklar nimadan iborat ekanligini ko'rsata olishi lozim. Shuning uchun ham o'quvchilarda harfning shaklini analitik ko'rish malakasini o'stirish talab etiladi. Analitik ko'rish malakasi faqat to'g'ri va noto'g'ri yozilgan harflarni solishtirish orqali o'stirib boriladi.

O'qituvchi o'rgatmoqchi bo'lgan harfning shaklini va yozilish tartibini doskada ko'rsatib bergandan so'ng o'quvchilarga 2-3 qator mustaqil yozishga ruxsat etishi mumkin. Bu vaqt ichida o'qituvchi sinfni aylanib, o'quvchilarning yozuvini tekshirib chiqishi va xato yozayotgan o'quvchilarning yozuvlaridan bittasini namuna uchun tanlab olib, doskada o'quvchi qanday xato yozgan bo'lsa, o'qituvchi ham shunday shaklda yozib ko'rsatadi.

Agar o'quvchilar o'z o'rtoqlarining yo'l qo'ygan xatosini ko'rsalar, shu ondayoq qo'l ko'tarib, uni tuzatishga harakat qiladilar. Agar o'quvchi harfni juda ham noto'g'ri yozgan bo'lsa, o'quvchilar taajjublanadilar va unga tanqidiy nazar bilan qaraydilar. Shunday tanqidiy munosabatning o'zi ko'p xatolarning oldini olishga yordam beradi. Bunday noto'g'ri yozilgan harflarni doskada yozib ko'rsatish orqali tahlil qilish maqsadga muvofiqdir, chunki uni hamma o'quvchilar kuzatib turadilar. Masalan, qoidaga mos qilib yozilgan kichik «m» harfi bilan noto'g'ri yozilgan kichik «m» harfini doskada quyidagicha yonma-yon ko'rsatish mumkin.

Kichik «m» harfini yozishda yo'l qo'yilgan asosiy kamchilik nimadan iborat ekanligini o'qituvchi o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar javob beradilar. (Uchinchi osti ilmoqli tayoqcha shaklidagi elementi ikkinchi kichik tayoqcha shaklidagi elementdan kichik bo'lib qolgan). Aslida esa ular barobar bo'lishi kerak edi.

Shundan so'ng o'qituvchi yana shunga o'xshash ikkinchi bir xatoga yo'l qo'yib yozilgan kichik «m» harfini ko'rsatishi mumkin:

O'quvchilar darrov uning ham xatosini aytib beradilar. (Birinci boshlash elementi uzun bo'lib ketgan.) Harflardagi kamchiliklar tahlil qilib bo'lingandan so'ng doskadagi noto'g'ri yozilgan harflarni o'chirib tashlab, to'g'ri yozish qoidalarini eslatib o'tiladi va yuqoridagi kabi kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik uqtiriladi. Bunday to'g'ri va noto'g'ri yozilgan harflarni taqqoslash orqali o'quvchilar shunday xulosaga keladilar: to'g'ri yozilayotgan harflarning elementlari bir xil qiyalikda bo'lishi hamda ular orasidagi masofa bir xilda saqlanishini bilib oladilar.

Qoida bo'yicha o'quvchilar harflarni elementlarga ajratib yozmasalar ham, har bir harfning qanday elementlardan tuzilganini, yozayotganda peroni qaysi tomonga qarakat qildirishni, qaerda burilish bo'lishini, qaysi elementi qanday qiyalikda yozilishini yaxshi bilishlari kerak. Bu esa o'quvchilarga harflarning shaklini yana ham chuqurroq o'zlashtirib olishga katta yordam beradi.

I sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo'lib, bir necha xil vazifani o'z ichiga oladi: bolalar o'qituvchining so'zini tinglaydilar, doskaga yozgan harf va so'zlarni ko'rib boradilar, ayrim tekstlarni ko'chirib yozadilar, so'z va bo'g'inlarni tahlil qiladilar va hokazo.

Har bir yozuv mashg'ulotini boshlashdan oldin hamda butun dars jarayonida ham o'quvchilarga to'g'ri o'tirish qoidalarini eslatib turish maqsadga muvofiqdir. Bu masalani oson hal etishning yana bir yo'li sinfga to'g'ri o'tirish qoidalarini ko'rsatilgan plakatlarni osib qo'yishdir.

O'quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozishga qiziqish va muhabbat uyg'otish uchun birinchi navbatda o'qituvchining o'zi chiroyli yozishi lozim.

I sinfda o'qish darslarida o'quvchilar tovush hamda bosma harflar bilan tanishtirilsa, tovush va harflarni analiz va sintez qilish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Shu kabi yozuv darsining ham ayrim spetsifik xususiyati

bor. Masalan, agar o'quvchilar o'qish darsida «Alifbe» kitobidagi tayyor bosma harflardan foydalansalar, yozuv darsida bu narsa ko'rinmaydi. Har bir harf va uning elementini o'quvchining o'zi namunaga qarab yozadi.

Shuning uchun ham bu sinfda yozuvga o'rgatish o'z navbatida quyidagi kabi qator tushunchalarni bilishni talab etadi: **baland-past, bir xil, keng-tor, yaqin-uzoq, yuqoriga, pastga, o'rta (oraliq), uzunroq-kaltaroq, teng, teng bo'lmagan masofa, to'g'ri-qiya, chapga-o'ngga.**

O'qituvchi yozuv malakasiga o'rgatishga boshlashdan oldin o'quvchilar bilan yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan tushunchalar ustida ish olib borishi lozim. Bu o'quvchilarga harflarning shaklini uning harakatini yaxshi tushunishlariga katta yordam beradi.

I sinfda yozuv mashqlari uchun berilgan alifbegacha bo'lgan davrni birmuncha uzaytirish mumkin. («Alifbe» kitobida esa bu davr uchun 6-7 kun berilgan). Ammo bu davrda yozuv darsi bilan o'qish darsi o'rtasida birmuncha farq bo'lishi mumkin, bundan cho'chimaslik kerak, chunki bu vaqtda o'quvchilar so'z va harflarni o'tilgan materiallar asosida yozib o'rganadilar. Keyinchalik esa o'qish bilan yozuv darsi bir-biri bilan uzviy bog'langan holda davom etadi.

O'qishning birinchi haftalaridagi tayyorgarlik mashqlari asosan og'zaki nutqni o'stirishga qaratiladi. Ammo butun dars davomida og'zaki nutq bilan shug'ullanish bolalarni zeriktirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun bu darslarning ma'lum qismini og'zaki nutqini o'stirishga, ma'lum qismini esa yozuv mashqlari uchun sarflash kerak. Bu davrda husnixatga oid tayyorgarlik mashqlarini tashkil etishning ahamiyati katta.

I sinf o'quvchilari bilan tayyorgarlik mashqlarini to'g'ri olib borish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak.

1.Partada to'g'ri o'tirishga, avtoruchkani to'g'ri ushlashga va daftarni to'g'ri tutishga o'rgatish.

2.O'quvchilarning husnixatga qiziqishlarini o'stirish.

3. Bolalarning taqqoslash va chamalash qobiliyatlarini o‘stiruvchi mashqlarni bajaritish.

4. Qo‘l va barmoq muskullarining harakatini o‘stirish.

Tayyorgarlik mashqlarini bajarish uchun o‘quvchilarni qora va rangli qalamlar hamda yozuv daftari bilan ta’minlash lozim. O‘qituvchining bu davrda rangli bo‘rlardan foydalanishi yaxshi samaralar beradi.

Tayyorgarlik davrida o‘tkaziladigan mashqlarni ma’lum guruhlariga bo‘lib, avval sodda, keyin murakkabroq mashqlarni bajarish lozim. Mashqlarni quyidagi gruppalariga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruh mashqlar


Darsning maqsadi. O‘quvchilarni daftarning chiziqlari bilan tanishtirish va nuqtalarni ko‘z bilan chamalab qo‘yishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa. O‘quvchilarga barobar masofada nuqtalar qo‘yishni o‘rgatish.

Ikkinchi vazifa. O‘quvchilarga «barobar masofa», «yaqin», «uzoq» kabi tushunchalarni o‘rgatish.

Uchinchi vazifa. O‘quvchilarni daftarning qiya holati bilan tanishtirish. Bolalarga oldin daftarni tik, keyin esa qiya qilib qo‘yish topshiriladi. So‘ngra daftarning qiya va tik holatlari qiyos qilib ko‘rsatiladi hamda yozuvning qiyaligi daftarga taalluqli ekanligi bolalarga tushuntiriladi.

To‘rtinchi vazifa. O‘quvchilarning qalam ushlashlari tekshirib chiqiladi va qizil rangli qalam bilan bir qator nuqta qo‘yib chiqish topshiriladi.




I k k i n c h i g u r u h m a s h q l a r

Darsning maqsadi. Chiziqlarning qiya shaklda yozilishini ko'rsatish hamda chiziqlar orasidagi masofani to'g'ri topishga o'rgatish.

Birinchi vazifa. Kichik harflar yoziladigan chiziqlar orasiga qiya tayoqchalar chizishni mashq qildirish.

O'qituvchi bu mashqni doskada namuna tarzida ko'rsatib, beradi. O'quvchilar esa qizil rangli qalam bilan qiya tayoqchalarni chizadilar. O'quvchilar bir qator yozib bo'lganlaridan so'ng ular tekshirib chiqiladi va tahlil qilinadi. (Tayoqchalarning bo'yi va qiyaligi, ular orasidagi masofa bir xilmi?) Yozilgan tayoqchalarning bir xilligini tekshirish uchun ularning o'rtasiga ko'k rangdagi qalam bilan nuqtalar qo'ydiriladi.




Agar nuqtalar barobar masofada bo'lsa, o'quvchi vazifani to'g'ri bajargan, nuqtalar barobar masofada bo'lmasa, o'quvchi xatoga yo'l qo'ygan bo'ladi. Xatoga yo'l qo'ygan o'quvchilarga shu mashqni qayta bajartirish lozim.

U c h i n c h i g u r u h m a s h q l a r

Darsning maqsadi. O'quvchilarga «baland», «yuqori» va «past» tushunchalarni anglatish. Chiziqlar orasini to'g'ri topishga o'ragatish.

Birinchi vazifa. Har xil balandlikdagi qiya tayoqchalarni yozdirish. O'qituvchi doskada daftarning yuqori chizig'idan pastki chizig'igacha uzun tayoqchalar tushirishni, tayoqchalarning teng o'rtasini topib, nuqta qo'yishni aytadi; uzun tayoqchaning yarmidan, ya'ni nuqta qo'yilgan eridan uning yoniga kichik qiya tayoqcha chizishni topshiradi. Uzun tayoqchalarning o'rtasiga qo'yilgan kichik tayoqcha gorizontall chiziq bilan bog'lanadi.




Doskada tayoqchalarning baland va pastligi taqqoslab ko'rsatib beriladi. Shundan so'ng o'quvchilar vazifani bajarishga

T o' r t i n c h I g u r u h m a s h q l a r

Darsning maqsadi. Har xil shaklga va qiyaliklarga ega bo'lgan chiziqlarning unsurlarini yozishga o'rgatish.

Birinchi vazifa. Uzun tayoqcha unsurini bir necha bo'laklarga bo'lib, ularning orasidagi masofani bir xilda saqlashga o'rgatish. (Bu chiziqlar jigar rang qalam bilan chizdiriladi).

Ikkinchi vazifa. Tayoqchalarning baland-pastligi, oralaridagi masofaning tengligi tekshirilib chiqilgandan so'ng zangori rang qalam bilan har xil qiyalikka ega bo'lgan kichik chiziqchalar chiziladi. Natijada archa daraxti shakliga o'xshash chiziqlar hosil bo'ladi.




O'quvchilar bu mashqni bajarish orqali oraliq masofalarni chamalashga va qiyaliklarni to'g'ri saqlashga o'rganadilar.

B e s h i n c h i g u r u h m a s h q l a r

Darsning maqsadi. O'quvchilarga «keng» va «tor» tushunchasini anglatish; osti ilmoqli kichik tayoqcha shaklidagi elementni yozishga o'rgatish.

Birinchi vazifa. Osi ilmoqli kichik tayoqcha elementini har xil rangli qalamda bajarish. Masalan, 3 ta tayoqcha qizil rangda, 3 ta tayoqcha ko'k rangda bajarilsa, o'quvchilarning qiziqishlari ortadi.

Ikkinchi vazifa. O'tkir burchak hosil qilib yozilgan element bilan osi ilmoqli kichik tayoqcha elementlarini qiyos qilib ko'rsatish. (Osi ilmoqli tayoqcha elementining to'g'ri yozilishi ko'rsatib o'tiladi, chunki bu element kichik harflarning yozilishida ko'p uchraydi.) O'quvchilarga bu qoidalar tushuntirilgandan so'ng bir qator oralatib, bitta kichik to'g'ri tayoqcha va bitta osi ilmoqli kichik tayoqcha elementi yozdiriladi.




Oltinchi guruh mashqlar.

Darsning maqsadi. Cho'zinchoq doira shaklini yozishga o'rgatish.


Birinchi vazifa. Cho'zinchoq doira shakli bilan tanishtirish hamda uni aylana bilan qiyos qilib ko'rsatish.

O'qituvchi doskada aylana va uning yoniga cho'zinchoq doira shaklini yozib, ularni solishtirib ko'rsatadi;



Ularning bir-biridan farqini tushuntiradi: aylana - bu koptok yoki tarvuzga, cho'zinchoq doira esa olxo'ri yoki qovun shakliga o'xshaydi. So'ng o'qituvchi cho'zinchoq doirani tik va qiya holatda yozib ko'rsatadi. O'quvchilar uni solishtirib ko'radilar: biri tik holatda, ikkinchi esa bir tomonga qiya qilib yozilgan.

O'qituvchi cho'zinchoq doira shaklidagi bu elementni bir tomonga qiya qilib yozish shart ekanligini ta'kidlaydi. O'quvchilar uning yozilishini bir necha marta havoda bajaradilar, so'ngra yozishga ruxsat etiladi. O'qituvchi cho'zinchoq doiraning balandligini ham tayoqcha bilan barobar yozilishini eslatadi. O'quvchilar bir qatorga bitta kichik tayoqcha va bitta cho'zinchoq doira shaklini almashtirib yozadilar.




Cho'zinchoq doira shaklining orasiga qo'yilgan bu kichik tayoqchalar uning qiyaligini saqlab yozishga yordam beradi.


Ettinchi guruh mashqlar

Darsning maqsadi. Kichik harf elementlarining qo'shib yozilishini hamda ularning orasidagi masofani to'g'ri saqlashga o'rgatish.

Birinchi vazifa. Osti ilmoqli kichik tayoqcha elementini mashq qildirish hamda ularni bir-biriga qo'shib yozishga o'rgatish.



Bu vazifaning to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganini mashqni bajarib bo'lgandan so'ng ikkita element o'rtasidagi bo'shliqqa boshqa rangli qalam bilan nuqta qo'ydirish orqali ham bilish mumkin.




Agar o'quvchi vazifani to'g'ri bajargan bo'lsa, nuqta harf elementlari orasiga to'g'ri joylashadi, aksincha, noto'g'ri bajarilgan bo'lsa, nuqta uchun joy

topilmaydi. Bunday usul bilan vazifani tekshirish ularda uchraydigan xatoning oldini olishning birdan-bir to'g'ri yo'lidir.

S a k k i z i n c h i g u r u h m a s h q l a r

Darsning maqsadi. «Uzunchoq» va «kaltaroq» tushunchasini anglatish.

Birinchi vazifa. Ikki xil uzunlikdagi yotiq va tik tayoqcha elementlarini yozib ko'rsatish.



Bu vazifa ham rangli qalam bilan bajariladi. O'quvchilar bu tayoqchalarning qaysi biri uzun, qaysi biri qisqa ekanini solishtirib ko'radilar.

T o ' q q i z i n c h i g u r u h m a s h q l a r

Darsning maqsadi. Harf elementlarini bir qatorga to'g'ri joylashtirishga o'rgatish.

Birinchi vazifa. O'quvchilarga bir qator cho'zinchoq doira shaklini yozib mashq qildirish.

Ikkinchi vazifa. O'quvchilarga zangori qalam bilan cho'zinchoq doira ichiga bir xil masofada kichik tayoqcha chizib chiqish topshiriladi. Har bir tayoqcha bargning o'rta qismi, ya'ni uning tomirlari vazifasini bajaradi. Bargning ham kichik tayoqcha, bu esa bargning bandi hisoblanadi

Tayyorgarlik mashqlarini bunday tashkil etish o'quvchilarni avtoruchka bilan yozishga tayyorlashda katta rol o'ynaydi. Ammo tayyorgarlik davrida o'quvchilar yozuvga taalluqli bo'lgan hamma malakalarni to'liq hosil qildilar deb bo'lmaydi. Shuning uchun ayrim tayyorgarlik mashqlarini harflarini o'rgatish davrida ham olib borish mumkin, masalan, kichik **u** harfini

yozdirishga o'rgatishda uning ikkinchi osti tugunchakli elementining bog'lanishida qiynalishlari mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan tayyorgarlik mashqlari qat'iy bo'lmay o'qituvchi o'quvchilarning kuchiga qarab bir oz soddalashtirishi yoki, aksincha, murakkabroq qilib olishi mumkin.

Ayrim mashqlarda harf elementlari nuqtalar bilan qo'shib berilgan: bunday ishlar o'quvchilarning chamalash qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

Sinfda husnixat mashqlari o'qituvchi tomonidan doskada yozib ham ko'rsatiladi.

Alifbe davrida yozuv texnikasini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.

O'quvchilar tayyorgarlik davrida ayrim mashqlarni bajargan bo'lishlariga qaramay, o'qituvchi navbatdagi darsni e'lon qilish bilan birga yozuv asboblari qayta tekshirib chiqishi lozim. Shu bilan birga, quyidagi vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo'yishi lozim:

1. Barmoq va qo'l muskullari harakatini o'stiruvchi gimnastik mashqlar o'tkazish.

2. Doskaga mashqni yozib ko'rsatish va asosiy e'tiborni nimaga jalb etishni tushuntirish. (Ayrim o'quvchilar harfni qanday yozishni so'zlab berishlari ham mumkin.)

3. Daftardan foydalanishni, yozuvni qayerdan boshlashni tushuntirish.

4. Partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri tutish qoidalarini eslatib o'tish.

5. Har bir qatorga nechta harf yozishni tushuntirish, o'quvchilarning yozuvini muntazam kuzatib borish.

6. Ishning birinchi qismi tugallangandan so'ng (o'qituvchining savoliga qarab) bajargan yozuvlarini doskadagi namuna bilan solishtirib ko'rishga va yo'l qo'ygan xatolarini topishga o'rgatish.

7. Vazifani qayta tushuntirish orqali o'quvchilardagi kamchiliklarni yo'qotish.

8. Fizkultura minutlari o'tkazish. (Fizkultura minutlarini o'tkazish uchun mashqlar namunasi 1 bobda berilgan.)

9. Yangi mashqni tushuntirish, dasrlikning qaysi beti, qachon va necha qator yozish kerakligini belgilab qo'yish.

10. Ko'z bilan daftar orasidagi masofani to'g'ri saqlashga o'rgatish.

11. Har bir mashqni bajarishda uni tahlil qilish, zarur bo'lsa, qo'shimcha ko'rsatmalar berish.

12. O'quvchilarga bajariladigan vazifalarni aniq ko'rsatish.

Bu davrda o'quvchilarni asta-sekin «husnixat» daftaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatib borish zarur. O'qituvchining ko'rsatmasiga binoan o'quvchi daftardan zarur mashqni topishi va bajarishi lozim. Alifbegacha bo'lgan davrdan boshlab harf va uning elementlarini bir xil balandlikda, qiyalikda va qalinlikda yozishga qaratish talab etiladi.

Ko'chirib yozish mashqlari uchun esa ayrim harf elementlari emas, balki alohida guruhlar beriladi.

Alifbegacha bo'lgan davrda bu talablarning amalga oshirilishi alifbe davrida darsni yanad samaraliroq olib borish uchun imkoniyat yaratadi.

Alifbe davrida o'quvchilar nutq tovushlari bilan tanishadilar, so'z tuzishga, so'z va gaplarni o'qishga hamda ayrim elementlar, harflar, o'tilgan harflar ishtirokida so'z va gaplar yozish ham o'rgatiladi. Alifbe davrida bolalarni yozishga o'rgatish juda muhimdir. Bu davrda o'quvchilarga harf va uning elementlari «Alifbe» daftarida ko'rsatilgan tartibda o'rgatiladi. O'quvchilarga vaqt-vaqti bilan yozuv gigiyenasi qoidalarini eslatib turish lozim.

Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlar quyidagilardan iborat:

1. Kichik va bosh harflarni alifbe tartibida yozish.

2. Harflarni bo'g'in va so'zlarda qo'shib yozish.
3. Qo'l harakatini uzmay yozishga o'rgatish.
4. Harflarning qiyaligini va enini to'g'ri saqlashga o'rgatish.

O'quvchilar tomonidan harflarning shaklini yozishda ularning yozuvini ko'zdan kechirib chiqish, ayrim harflarning elementini noto'g'ri yozayotgan o'quvchilarga shu elementning to'g'ri yozilishini ko'rsatib berish lozim. O'quvchilarda bu davrda harflarni to'liq yozmaslik, harflarni almashtirib yozish kabi xatolar uchraydi. Alifbe davrida (va o'quv yilining 2 yarmida ham) o'quvilarining yozayotgan matnlarini uch xil yo'l bilan tahlil qilish mumkin:

- a) so'z tarkibini aniqlash;
- b) so'zning ma'nosini aniqlash;
- c) mashqlarning grafik tasviri ustida ishlash.

Shularning hammasini hisobga olgan holda «Husnixat» daftaridagi mashqlarni joylanishi «Alifbe» kitobi asosida berilgan.

Alifbe davrida o'quvchilarni bo'g'inlab yozishga, keyinroq esa so'zlarni bir butun qilib yozishga o'rgatish lozim.

Ayrim o'quvchilar so'zlarni harflarni alohida-alohida yozishga harakat qiladilar, bunga aslo yo'l qo'ymaslik lozim, chunki harflarni alohida-alohida yozish natijasida ayrim harflarni tushirib qoldiradilar va almashtirib yozadilar. Bu davrda o'quvchilarni yoddan yozishga ham o'rgatish lozim. Buning quyidagi kabi topshiriqlarni berib borish lozim: matnni o'qib, yozilishiga qara, doskaga qaramay yoz, o'qi, namuna bilan solishtirib ko'r.

Alifbe davrining oxirida ko'pchilik o'quvchilarda yozuv malakasi hosil bo'ladi, ammo bu bilan qanoatlanmasdan yozuvga o'rgatish malakasini takomillashtirib borish talab etiladi. Quyida kichik **r** harfining qanday o'rgatilishini ko'rsatib o'tamiz.

Dars mavzusi. Kichik «r» harfini to'g'ri va chiroyli yozishga o'rgatish.

Darsning borishi.

O'quvchilar, oldingi darsda «Alifbe» kitobidan qaysi tovushni o'tgan edik? Shu tovush so'zning o'rtasida, oxirida va boshida kelgan so'zlardan ayting (o'quvchilar so'z topadilar). Endi kesma alifbedan kichik r harfini toping. Mana bu - kichik r harfining bosma shakli. Endi sizlar bilan harfning yozilishini o'rganamiz. (O'qituvchi doskada ko'rsatadi.) Men qaysi tomondan boshlab yozyapman va qaysi tomonga qo'limni yo'naltiryapman: shunga qarab turing.

Kichik r harfi ikki elementdan tuzilgan bo'lib, birinchi elementi ikkita bir-biriga qo'shilgan to'lqinsimon unsurdan tashkil topgan bo'lib, ikkinchi elementi esa osti ilgakli kichik tayoqcha shaklida bo'ladi. Ammo yozayotganda har ikki elementini bir-biriga qo'shib yozamiz, bu harfni yozishda qo'l harakati uzilmaydi.

-Qarang, men birinchi elementini qanday yozaman, daftarning o'rta chizig'idan 1,5 mm pastdan boshlab yuqoriga qarab qiya va ilmoqli shaklda yozamiz, ikkinchi unurni yuqori chiziqdan pastga qarab to'g'ri chiziqli ilmoq shaklida yozamiz.

Bu harfni yozishda uning qiyaligiga alohida e'tibor bering. U daftarning qiya chizig'iga parallel bo'lsin.

Avtoruchkani chiziqning ustidan qayta yurgizishda uni yo'g'on qilib yubormang, chunki harfning yo'g'onligi bir xil qalinlikda bo'lishi kerak.

-Qani, o'quvchilar, bu harfni yozishga boshlashdan oldin, yozuv vaqtida partada qanday o'tirish lozim ekanligini aytib bering-chi? Oyog'imiz qayerda turishi kerak? Gavdani qanday tutamiz? (O'quvchilar javob beradilar.) Ruchkani qaysi barmoqlarimiz bilan ushlaymiz? Ko'rsatkich barmog'imiz qayerda turadi? Avtoruchkani qanday ushlayotganimizni tekshirib ko'ramiz. «Bir» deganda ko'rsatkich barmog'imizni ko'taramiz, «ikki» deganda tushiramiz. (O'quvchilar ruchkani ko'targan holda ko'rsatkich barmoqlarini ko'rsatadilar).

Endi daftarimizning to'g'ri turganligini tekshiramiz. Daftarning chetki qirralarini partaning ustidagi qiya chiziqqa to'g'rilab olamiz. Harfni yozishga

boshlaymiz. Siz ham harflarni men daftaringizda ko'rsatgandek qilib bir tekis yozing. Bir qatorga 10 tadan ortiq yozmang.

Shundan keyin o'qituvchi o'quvchilarning yozuvlarini tekshirib chiqib, zarur bo'lsa tegishli ko'rsatmalar beradi, o'quvchilar yana ikki qator yozib mashq qiladilar.

O'quvchilar kichik r harfini yozish malakasini egallab olganlaridan keyin «Husnixat» daftaridan so'zlar yozdiriladi: ari, arra, anor, shar.

O'quvchilarga so'zlarni yozdirishdan avval o'qituvchi doskada ularning bog'lanishini ko'rsatib beradi va kichik r harfi o'zidan oldingi va keyigi harflar bilan qo'l harakati uzilmasdan qo'shib yozilishini eslatib o'tadi.

Bir qator yozib bo'lingandan so'ng o'quvchilarning qo'llari toliqib qolmasligi uchun qisqa og'zaki ko'rsatmalar beriladi.

Darsni yakunlashda o'qituvchi o'quvchilarda uchragan ayrim tipik xatolarni va eng yaxshi yozgan o'quvchilarni eslatib o'tadi, uyga vazifa beradi: ikki qator kichik r harfini va shu harf ishtirok etgan so'zlarni yozib kelish.

I sinfda o'quv yilining ikkinchi yarmida ona tili darslarida yozuvning orfografik tomoniga e'tibor berib, uning grafik tomonini esdan chiqarib qo'ymaslik kerak. Ayrim harflarning yozilishini bir yoki ikki kun emas, balki bir necha kun mashq qildirish mumkin. Ammo mashqlarning turi har xil bo'lishi lozim. «Husnixat» kitobida II yarim yil uchun berilgan materiallar alifbe davridagiga o'xshab soatlarga yoki qismlarga ajratilgan emas. O'qituvchi o'z istagicha ona tilidan o'tayotgan temasiga moslab yozuv mashqlarini tanlab olishi mumkin.

Uyga vazifa qilib shu harf ishtirok etgan so'zlarni topib yozib kelish topshiriladi. Agar o'quvchilar shunda ham bu harfning yozilishini yaxshi o'zlashtirib ololmasalar, keyingi darslarda yana takrorlash mumkin. Ayrim vaqtlarda esa shu harfdan tashkil topgan so'zlarni esa «Husnixat» daftaridan ko'chirib yozishga berish mumkin.

Kichik harflarga o'xshash bosh harflar ham guruhlarga ajratib berilgan. Masalan, o'xshash elementli L va M harflarini bir darsda mashq

qildirish mumkin. Bosh harflarni mashq qildirishda o'quvchilarga tanish bo'lgan shahar va daryolarning nomini, kishilarning ismini yozdirish mumkin.

Quyida ona tili darsining tarkibiy qismida husnixat mashqlari qanday o'tkazilishini namuna tarzida ko'rsatib o'tamiz.

Dars mavzusi: d va t undoshlarining aytilishi va yozilishi.

Darsning borishi.

Darsning boshlanishida o'quvchilar bilan quyidagicha savol javob o'tkaziladi.

1. Gap nimadan tuziladi?
2. So'z nimalardan tuziladi?
3. Tovushni nima qilamiz?
4. Yozuvda tovushlar nima bilan ifodalanadi?

Shundan so'ng yangi temani bayon qilishga o'tiladi.

Yangi tema d va t undoshlarining aytilishi va yozilishini o'quvchilarga tushuntirishdan oldin chiroyli yozuv qoidalariga asoslanib «Husnixat» daftariidagi d va t harflarini ikki qatordan yozib mashq qildiriladi. Harflarni yozdirishga boshlashdan oldin ularning qanday yozilishi, qanday unsurlardan tuzilganligi, boshqa harflar bilan bog'lanishi haqida yana qayta tushuncha berib, eslatib o'tiladi: kichik t harfi ikki unsuridan tuzilgan bo'lib, ular qo'lni uzgan holda yoziladi. Boshqa harflar bilan, so'zning qayerida kelishidan qat'i nazar, qo'shilib yoziladi. Kichik d harfi ham shu tartibda tushuntiriladi. Keyin «Ona tili» darsligidan shu mavzuga oid material tushuntriladi va mashqlar bajariladi. Mashqni 3-4 o'quvchiga o'qitib, d va t undoshlari qatnashgan so'zlar izohlab yozdiriladi. Shundan so'ng yangi temaga mos maqol va topishmoqlarni yozdirish mumkin.

Husnixat mashqlarini ona tili darsi bilan bunday bog'lab o'tish to'g'ri va chiroyli yozish malakalarini hosil qilish va ona tili predmetini ham puxta o'zlashtirishga asos bo'ladi.

4.4. 2-sinfda husnixat darslarini rejalashtirish

Vatanimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlaboq jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonining eng muhim bo'g'ini, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, Respublikani jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta'lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Xalq ta'limi vazirligining buyrug'iga asosan DTS, o'quv dasturlari ekspertizadan o'tkazildi va shu xulosa asosida umumiy o'rta ta'limning yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti, modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari tayyorlandi va tajriba – sinovdan o'tkazilib, ayni damda amalga tatbiq etilmoqda.

«O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risida»gi Nizomda ta'kidlaganidek: «Boshlang'ich ta'lim, o'qish yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlashi, o'zini o'zini nazorat qilish o'quvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarining egalab olishlarini ta'minlashga da'vat etilgan».

Boshlang'ich ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi. Ta'lim standarti asosida davlat boshlang'ich sinf o'quvchilaridan standartga belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlarga erishishni talab qiladi va o'z navbatida, bu ko'rsatkichlarga erishish uchun zarur bo'lgan ta'limiy xizmatlar va vositalar bilan ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'lim standarti ta'lim sohalariga qo'yilgan standart ko'rsatkichlarni mujassamlashtiradi. Standartning mezon va parametrlarini ta'lim sohalariga belgilab qo'yilgan ta'lim standartining ko'rsatkichlari tashkil etadi. Ta'lim sohalarini bo'yicha ta'lim natijasining sifati xuddi mana shu ko'rsatkichlarga asoslangan holda aniqlanadi. Bu o'rinda belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlar umumlashtiriladi hamda aniq o'lchov birliklarida ifodalanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchining ona tili ta'limi sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametrli standart mezon orqali aks etiriladi: o'qish texnikasi, og'zaki fikrni va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi.

2-sinf o'quvchilarining o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar quyidagilar:

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Miqdoriy ko'rsatkich: 35-40 so'zdan iborali diktant yoza olish.

Talablar:

- a) imlo xatolarga yo'l qo'ymaslik;
- b) ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi;

Diktant turlari: lug'at diktant, yoddan yozuv diktanti, nazorat diktanti.

Miqdoriy ko'rsatkich: 3-4 gapdan iborat kichik va sodda matn (fikr ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida) yaratish.

Talablar:

- a) matndagi gaplarning mazmunidan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashish;
- b) harflar va tinish belgilarini to'g'ri yozish;
- d) so'z va gaplarni to'g'ri yozib, tinish belgilarini o'z o'rniga qo'ya olish.

Matnning xarakteri: rasm, manzara, voqea-hodisalar tasviri, o'quvchiga tanish bo'lgan narsa, buyum tasviri.

«Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi»da husnixat mashg'ulotlari birinchi sinf «Tayyorgarlik davrida yozuv darslari» hamda Alifbe davrining «Yozuvga o'rgatish» bo'limlarida amalga oshirilishi ta'kidlangan bo'lsa, ikkinchi sinfda «Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish» bo'limining «Husnixat» faslida o'rgatilishi yozilgan.

Quyida «Husnixat» faslida berilgan dasturni aynan iqtibos keltiramiz:

«Bir chiziqli daftarda tez takrorlanadigan» unsurli harflarni yozishga va ikki harfni bir-biriga tutashtirishga oid tayyorgarlik mashqlari: o'xshash unsurli kichik harflar guruhlaridagi kichik harflarni, shu harflardan tuzilgan bo'g'inlar va so'zlarni yozishni, shuningdek, bosh harflarni o'zidan keyingi kelgan kichik harfga tutashtirishning qiyinlashib borishini hisobga olgan holda, yozuv qoidalariga rioya qilib, chiroyli yozishga o'rgatish.

Ayrim yozuv qoidalari:

1. To'g'ri, aniq va chiroyli yozuvni o'rgatish.
2. Daftarlarning past tomonidagi burchagini ko'krak o'rtasining qarshisiga to'g'ri qo'yish.
3. Daftarni chap qo'l bilan ushlab turib yozish.
4. Boshini salgina pastga egib, to'g'ri o'tirish.
5. Oyoqni bo'sh tutib, erga qo'yib o'tirish.
6. Qo'lni to'g'ri tutish. Ruchkani erkin ushlash.
7. Har bir harfni to'g'ri tutashtirishga rioya qilgan holda bo'g'in va so'zlarni aniq yozishga harakat qilish.
8. Shoshmasdan, chaplashtirmasdan yozish.
9. Har bir mashqni uch-to'rt marta takrorlash.

Tez takrorlanadigan unsurli harflarni yozishga va ikki harfni bir-biriga tutashtirishga oid tayyorgarlik mashqlari.

O'quv yili davomida imlosi qiyin bo'lgan quyidagi so'zlarning talaffuzi va yozilishini bilib olish: avgust, baland, baho, bahor, behi, Buxoro, dars, daftar, do'st, farzand, fasl, havo, hikoya, jahon, juft, karam, kaft, konki, lavlagi, loviya, lug'at, mashina, minnatdor, moslama, navbatchi, no'xat, oktyabr, payvand, palto, paxta, qo'ng'iroq, quyosh, sabzi, Samarqand, sentyabr, sinf, singil, soat, Toshkent, tarktor, vazifa, vatan, xalq, xursand, yomg'ir, yostiq, o'qituvchi, o'quvchi, shahar kabi.

2-sinfda husnixat darslarini tashkil etish usuliyoti. Dastur talablaridan ayonlashadiki, 2-sinfda ham husnixatga o'rganishning birinchi kunidan


boshlab o'qituvchining oldida qator bir-birini to'ldirib va takomillashtirib borishni taqozo etadigan murakkab vazifalar turadi: partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlab malakasini o'stirish, harflarning qiyaligini va balandligini to'g'ri saqlash, yozuv texnikasini takomillashtirish va boshqalar.

2-sinfda ham sharikli ruchkada yozish malakasi rivojlantiriladi.


1-sinf o'quvchilariga qiya chiziqlari siyrak bo'lgan ikki chiziqli daftarga yozish o'rganilgan bo'lsa, 2-sinfdan boshlab bir chiziqli daftarga toza, aniq va tez yozish malakasi singdirib boriladi.

2-sinf o'quvchilariga bir chiziqli daftarga kichik harflarning balandligini 4 mm, bosh harflarning balandligini esa 8 mm yozishga o'rgatiladi. Husnixatga o'rgatishning birinchi kunidan boshlab yozish vaqtida o'qituvchi o'quvchilarning ruchkani qanday ushlayotganliklarini kuzatib borishi va siyoh to'ldirish qoidalarini eslatib o'tishi lozim. Bu sinfda ko'proq harflarni bir xil balandlikda chamalab yozishga o'rgatish talab etiladi. O'quvchilar bilan ular bir chiziqli daftarga yozishga o'tishlaridan oldin harflarni bir xil balandlikda yozish mashqlari o'tkaziladi (mashqlar namunasi 2-sinf uchun chiqarilgan «Husnixat» daftari beriladi). Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning chamalash qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi. Birinchi navbatda o'qituvchi o'z shogirdlarini «Husnixat» daftari bilan to'liq ta'minlashga erishishi lozim. Shundagina uning zahmatlari kerakli natijani berishi mumkin. Agar hamma talabalarda «Husnixat» daftari bo'lmasa ularning o'zlashtirishlari ham har xil bo'ladi. Tayyorgarlik mashqlari asta-sekin quyidagicha murakkablashtirib boriladi:


1-mashq




2-mashq




3- mashq



4- mashq



5- mashq



Ammo o'tkazilgan mashqlar ayrim o'quvchilarga ta'sir ko'rsatmasligi, ular bir harfni katta, ikkinchisini kichik, birini baland, ikkinchisini past qilib yozib qo'yishlari mumkin. O'qituvchi bir o'quvchilarning daftarlarini tekshirayotganda noto'g'ri yozilgan harflarni tuzatib yozib qo'yish va keyingi darsda ularning qanday xatoga yo'l qo'yganligini aytib o'tish lozim.

Masalan, bir o'quvchi «*sa*» bo'g'inini yozishda «*s*»ni katta (to'g'ri) yozadi, «*a*»ni esa nimadan kichikroq (noto'g'ri) qilib yozadi. Shunda o'qituvchi «*a*» harfini ham shu balandlikda yoz, deb o'quvchiga ko'rsatma berishi kerak. Agar o'quvchi to'g'ri chamalay olmasa, unda o'qituvchi uning qo'lidan ushlab turib yozdirishi kerak.

O'quvchilarga gaplarni yozdirib mashq qildirishdan oldin o'qituvchi doskada ayrim gaplarni namuna tarzida yozib ko'rsatishi lozim. Bunda o'qituvchi doskadagi gapning faqat birinchi harfi katta yozganligini, qolgan harflar esa yozilishi talabi va shakliga ko'ra bir xil balandlikda yozilganligini aytib o'tadi.

Yuqoridagi gapdagi harflarning baland pastligi tahlil qilingach, o'qituvchi gapdagi birinchi so'z qanday harf bilan boshlanganligini so'raydi. SHundan keyin o'quvchilar gaplarni yoza boshlaydilar.

Shunday qilib o'quvchilar birinchi so'zni yozib bo'lgach, o'qituvchi gapdagi ikkinchi so'zning qanday harflar bilan yozilishini so'raydi. Ko'rib turganingizdek «*keldi*» so'zi tarkibidagi 4 ta harfda uchta «*k*», «*l*» va «*d*» kichik qatordan yuqorida ham chiqib ketadi, ya'ni uning shakli kichik bo'lsa ham balandligi katta harflar bilan barovar yoziladi. «*E*» va «*i*» harflari esa kichik parallel qatorlar ichida yoziladi.

Bunday mashqlar o'quvchilarni bosh harflar bilan kichik harf o'ratsidagi farqni ajrata olishga va bir tekis yozishga o'rgatadi. O'quvchilar harflarning balandligiga rioya qilib yozishni bilib olganlaridan so'ng ularning oldiga yozuvning qiyaligini to'g'ri saqlash harflarni qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yozish vazifalari qo'yiladi.

Harflarni qiyaligini to'g'ri saqlash parta ustida daftarning holatiga bog'liq. Agar daftarning holati to'g'ri qo'yilsa, xat ham to'g'ri yoziladi. Daftarning holatini tez-tez o'zgarishi natijasida xatning sifati buziladi. Shuning uchun birinchi navbatda o'qituvchining o'zi parta ustida daftarning to'g'ri turishiga e'tibor berishi lozim.

Harflarning qiyaligi 65° ga teng bo'lishi kerak.

Yozuvning bir tomonga qiya bo'lishi tik yozuvga nisbatan oson bo'lib, xat tekis chiqadi va yozuv tezligi oshadi.


Daftarni to'g'ri tutishi malakasini o'quv yilining boshidan hosil qilish va bu malakani butun o'quv yili davomida mustahkamlab borish zarur.

O'quvchilarda daftarni to'g'ri tutish, yozuv vaqtida to'g'ri o'tirish avtoruchkani to'g'ri ushlash kabi malakalarni mustahkamlash uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: «bir» deganda gavnani to'g'ri tutish, «ikki» deganda daftarni to'g'ri qo'yish, «uch» deganda ruchkani ushlash.

Bir chiziqli daftarda qiya chiziqlarning yo'qligi daftarni parta ustida to'g'ri tutishga alohida e'tibor berishni taqozo qiladi. Buni amalga oshirish o'qituvchidan ko'p mehnat talab etadi, chunki o'qituvchi har bir o'quvchining daftarini butun dars davomida kuzatib borishi lozim bo'ladi. Bu ishni osonlashtirish uchun quyidagi usuldan foydalanish mumkin.

Parta ustiga ikki o'quvchining har biri uchun ingichka kontrol (nazorat) chiziq chizish kerak. Bu chiziqning ostki uchi o'quvchilarning chap ko'kragi o'ratsiga to'g'ri bo'lib, parta qirg'og'iga nisbatan 65° bo'lishi zarur. Natijada hamma o'quvchilarning oldida (partada) nazorat chiziqlar hosil bo'ladi. Shundan keyin daftarni shu nazorat chiziqqa tekis qilib qo'yishni talab qilish oson bo'lib qoladi. Qatorlar to'lib borgan sari daftar ham shu chiziq bo'ylab yuqoriga ko'tarila boradi.

Shu tartibda daftarni to'g'ri tutish malakasi hosil qilingandan so'ng o'qituvchi doskaga bir nechta qiya holatdan kichik tayoqcha va yoniga yana shunday bir nechta tik tayoqcha chizib, o'quvchilardan qaysi tayoqchalar tik va qaysi tayoqchalar qiya ekanligini ko'rsatishni tilab qiladi.



O'quvchilar ular orasidagi farqni ko'rsatib beradilar. Shundan keyin o'qituvchi yozuv o'ng tomonga 65° qiya bo'lishligini yana ta'kidlaydi.

Bunday mashqlar o'quvchilar kuzatuvchanligini oshiradi, o'quvchilarga xatning qiya yozilishi shart ekanligini anglatadi. Ba'zi o'quvchilar harflarning uchun tayoqcha unsurini yozishda qiynaladilar. Bunday kamchilikning oldini olish uchun shunday unsurlardan tashkil topgan harflarni mashq qildirish kerak (Bu mashqni o'tkazishda unsurlarning qiyaligini to'g'ri saqlashga yordam beruvchi qo'shimcha qiya chiziqchalar ham beriladi).

Bunda o'quvchilar harflar yonidagi tayoqcha unsuriga qarab harflarning qiyaligini to'g'rilab, o'zlarining yozuvlarini tekshirib boradilar.

2-sinf o'quvchilari uchun beriladigan mashqlar tekshiruv xarakterida bo'lishi ham mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarga harflarning to'g'ri yozilishini ko'rsatish bilan birga har bir harfning shaklini (qayerdn boshlanib, qayerdan tugatishni) ham o'rgatishi lozim.

O'quvchilarni to'g'ri va noto'g'ri yozilgan harflarni farq qila olishga, ularning asosiy kamchiligi nimadan iborat ekanligini aniqlay olishga o'rgatish kerak.

O'qituvchi o'rgatilayotgan harfning shaklini va yozilish tarkibini doskada ko'rsatib bo'lganidan so'ng, o'qituvchilarning 4-5 marta yozishlarini talab etadi. Bu vaqtda o'qituvchi sinfni aylanib chiqib, xato yozayotgan o'quvchilarning daftariga to'g'risini yozib berib, shunga qarab yozishni buyuradi.

Noto'g'ri yozilgan harflarning shaklini tahlil qilish orqali ularning kamchiligini topishni o'qituvchi doskada ham mashq qilib ko'rsatishi mumkin. Masalan, to'g'ri yozilgan kichik *t* harfi bilan xato yozilgan *t* harfini yonma-yon yozadi.

Noto'g'ri yozilgan bu harfning asosiy kamchiligi nimadan iborat ekanligini o'qituvchi o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar javob beradilar.

(Ikkinchi usti ilmoqli kichik tayoqcha unsuri birinchi unsuridan kichik, uchinchi unsuri esa ikkinchisidan ham kichik).

O'quvchilar bu harfdagi xatoni aytib beradilar (Birinchi unsuri bilan ikkinchi unsuri orasidagi masofa yaqin, ikkinchi unsuri orasidagi masofa yaqin, ikkinchi unsuri bilan uchinchi unsuri orasidagi masofa esa olis).

Shundan keyin o'qituvchi doskadagi noto'g'ri yozmagan harflarni o'chirib tashlab, uning to'g'ri yozilishini qayta ko'rsatib beradi, o'quvchilar ko'chirib yozadilar.

Shunday qilib, yozuvning qiyaligini to'g'ri saqlash uchun, birinchi navbatda, daftarning parta ustida to'g'ri turishini ta'min etish, o'z-o'zini tekshirish uchun esa qo'shimcha mashqlar berish lozim. Xatolar ustida ishlash esa o'quvchilar yozuvini mukammallashtiruvchi muhim omillardan biridir.

Bu sinfda yozuv grafikasini o'stirish uchun berilgan mashqlarning xarakteri 1-sinfga o'xshash bo'lsa-da, maqsad harflarning kengligini, balandligin va qiyaligini to'g'ri saqlashdan iborat bo'lib, bir chiziqli daftarga yozish malakasi ona tili materiallari bilan bog'liq holda olib boriladi.

O'quvchilar harflarni unsurlarga bo'lib yozmasalar ham, har bir harfning qanday unsurlardan tuzilishini, yozayotganda peroni qaysi tomonga harakat qildirishni, qayerda burilish bo'lishini, qaysi unsur qanday qiyalikda yozilishini va boshqa qoidalarni yaxshi bilishlari kerak.

Ta'kidlangnidek, 1-sinfda o'quvchilarga harflarni qiya chiziqlari siyrak bo'lgan ikki chiziqli daftarga yozishga o'rgatilgan bo'lsa, 2-sinfdan boshlab bir chiziqli daftarga yozish o'rgatiladi. Undan tashqari, harflarni guruhlariga ajratish ham 1-sinfdan farq qiladi.

Husnixatga o'rgatish metodlari ichida genetik metodi ham bor. Bu metoddan foydalanishda harflar ma'lum o'xshash guruhlariga ajratilishi va ularning qanday unsurlardan iborat ekanligini ko'rsatish lozim. Hozirgi kunda ham bu metoddan qisman foydalanilmoqda. Genetik metodning asosiy

xususiyati kichik va bosh harflarni guruhlariga bo'lib yozdirishdir. Masalan, harflarni quyidagi guruhlariga bo'lib yozish tavsiya etiladi.

I. O'xshash unsurli kichik harflar guruhlari:

1-guruh: i, u, n, m, t, e, y.

2-guruh: h, j, k, f.

3-guruh: o, o', q, a, g, g', p.

4-guruh: e, b, x.

4-guruh: r, v, s, sh, ch.

II. O'xshash unsurli bosh harflar guruhlari:

1-guruh: U, L, Z, I.

2-guruh: M, R, K, N, A.

3-guruh: O, O', Q, Ch, Ch.


4-guruh: E, S, SH, Z.

5-guruh: V, G, Q, U.

6-guruh: T, F, R, B, R.

1-guruh o'xshash unsurli kichik harflar. Kichik **i** harfining yozilishi o'quvchilarga unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Ular bu harfni yozishni tez o'rganib oladlar. O'qituvchi faqat harfning nuqtasi va ilgaksimon unsurini to'g'ri qo'yilishi va yozilishiga e'tibor qaratadi. Bu harf ikki urinishda yoziladi. Avval nuqtadan pastki qism, so'ngra nuqta qo'yiladi. Kichik **i** harfini yozishda o'quvchilar quyidagi xatolarga yo'l qo'yadilar.

1. Harf nuqtasini balandroqda yoxud pastki asosiy unsurga yopishtirib yozadilar:



2. Asosiy unsure ilmog'ini noto'g'ri – burchakli yoxud xat barobarida yozadilar:



Bunday kamchiliklarni oldini olish uchun o'quvchilar ko'proq mashq qilishlari lozim va namunaga qarab yozishni o'zlashtirishlari kerak/

Kichik **u** harfining yozilishi o'quvchilarga tanish bo'lsa ham uning yozilish shaklini qayta ko'rsatish zarur: Ikki chiziqning o'rtasini belgilab olib, pastga qarab kichik tayoqcha tushuramiz va uni pastki chiziqqa etkazmay turib o'ngga buramiz va yuqoriga qarab davom ettiramiz. qo'lni daftardan olmasdan turib, ikkinchi unsurini tushiramiz:




Kichik **u** harfini yozishda o'quvchilar quyidagi xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin:

1. Harf unsurlari orasidagi masofaralni juda keng yoki tor va burilish joyini qirrali qilib yozadilar:




2. Harfni juda yirik (8 mm balandlikda) yoki juda mayda (2 mm balandlikda) qilib yozadlar:




Bunday kamchiliklarning oldini olish uchun daftarni to'g'ri tutish malakasi mustahkamlanadi, harf unsurlarini bog'lab yozishga o'rgatiladi.

Kichik **n** harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, ular qo'shib yoziladi:




Bu harfni yozishda o'quvchilar quyidagi kabi xatolarga yo'l qo'yishi mumkin:

1. Birinchi va ikkinchi unsurlarini yozishda qiyalikni har xil qilib qo'yadilar:




2. Harf unsurlari orasidagi masofani keng yoki tor qilib yozadilar:




Kichik **m** harfi uch unsurdan iborat bo'lib, ular qo'l harakati uzilmay bir-biriga bog'lab yoziladi.

Bu harfni yozishda uchraydigan asosiy kamchilik-unsurlar orasidagi masofani to'g'ri saqlay olmaslik:




Bunday kamchilikning oldini olish uchun to'g'ri va noto'g'ri yozilgan harflarni taqqoslab ko'rsatish lozim.

Kichik **y** harfini yozishda ham qo'l harakati uzilmaydi. Uning birinchi unsuri kichik **u** harfining unsuriga o'xshash yoziladi, ikkinchi unsuri esa satr chizig'idan pastga tushirilib, katta tuguncha hosil qilib, boshqa harflar bilan bog'lanadi.




Bu harfni yozishda uchraydigan asosiy kamchilik tugunchakli unsurini juda qisqa yoki juda uchun yozilishidir:




2-guruh o‘xshash unsurli kichik harflar.

Kichik **o** harfi cho‘zinchoq doira shaklida bo‘lib, uni ikki ko‘rinishda yozish mumkin:



O harfini yozishda o‘quvchilar ko‘pincha quyidagi xatoga yo‘l qo‘yadilar:

1. **O** harfini oziga cho‘zinchoq emas, balki lo‘nda va to‘g‘ri yozadilar:




2. Harfni kichkina va ingichka yozadilar.



O‘quvchilar **o** harfini yozish jarayonida ham aynan shunday xatolarga yo‘l qo‘yadilar.

Kichik **a** harfining unsurlari qo'shib yoziladi. U o'zidan keyin yoziladigan harflar bilan ham oson bog'lanadi. Kichik **a** harfini yozish uchun birinchi navbatd cho'zinchoq doira o'tkaziladi va qo'lni daftardan olmasdan turib ikkinchi elementi tushiriladi:




Bu harfning yozilish shaklini o'quvchilar juda yaxshi o'zlashtirib olishlari zarur. Agar uning yozilish tarzini yaxshi o'zlashtirib ololmasalar qo'lni uzib yozishga o'rganib qoladilar. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga ba harfning yozilishini qayerdan boshlashni va qayerda tugatishni doim eslatib turishi lozim.

O'quvchilarning yozuvida quyidagicha noto'g'ri yozilgan **a** harflarini uchratish mumkin:


1. Ikkinchi (osti ilmoqli tayoqcha) unsuri birinchi cho'zinchoq doira unsuridan yuqorga chiqib ketadi:



2. Cho'zinchoq doira shaklidagi unsurini ochiq qoldirib, unsurlarni to'g'ri bog'lay olmaydilar:




3. Unsurlarning qo'shilish joyida burchak (joy) qoldirmaydilar:



a - a a


O'qituvchi bunday xatolarni tuzatish uchun doskada yana qayta (katta o'lchamda) to'g'ri yozilishini ko'rsatib berishi lozim.

Kichik **g** harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, o'zidan keyingi harflar bilan oson bog'lanadi:



gol gul

Bu harf yozilish shakli jihatidan sodda bo'lishiga qaramay o'quvchilar quyidagi xatolarga yo'l qo'yadilar:




g - g g g

Bu xatolarni tuzatish uchun harflar bilan bir qatorda, osti ilmoqli, uzun tayoqcha shaklidagi unsurini yozdirish va ularni qiyos qilib ko'rsatish lozim. O'quvchilar **g** harfini yozish jarayonida ham asosan shunday xatolarga yo'l qo'yadilar.


Kichik **p** harfi unsurlarga ajratilmay bir butun shaklda yozdiriladi. Bu harfni yozishda qatorlar orasining o'rtasidan pastki qatorlar orasining o'rtasigacha uzun tayoqcha tushiramiz, keyin esa qo'l harakatini uzmay tayoqcha bo'ylab yuqoriga ko'taramiz va satrlar orasini to'ldirib tayoqchaga ulangan **o** yozamiz.

Bu harfni yozishda o'quvchilarning xatida quyidagi kamchiliklarni uchratish mumkin:


1. Qo'l harakatini uzib, unsurlarini alohida-alohida yozish:




2. Uzun tayoqcha shaklidagi chiziqning ustidan qo'lni qayta aniq yurgiza olmaydilar, burilish chizig'ini daftar chizig'ining ostidan boshlaydilar:



3. Harf unsurlarining qiyaligini to'g'ri saqlay olamydilar:



Bunday kamchiliklarning oldini olish uchun o'quvchilarning diqqatini harf unsurlarining to'g'ri yozilishiga tortib, quyidagicha mashqlar o'tkazish lozim:




Kichik **q** harfi kichik **o** harfiga osti tugunchakli unsurini qo'shib yozish orqali hosil bo'ladi:




Ushbu harfni yozishda quyidagi xatolarga yo'l qo'yadilar:

1. Birinchi va ikkinchi unsuri noto'g'ri bog'lanadi:



2. Ikkinchi unurning keyingi harfga bog'lanadigan ilmoqi qator o'rtasidan emas, balki pastroqdan qo'yiladi:




3-guruh o'xshash unsurli kichik harflar.


Kichik **e** harfini yozishda o'quvchilar deyarli xatoga yo'l qo'ymaydilar, chunki **e** unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Kichik **e** harfi boshqa harflar bilan oson bog'lanadi:




Ammo ayrim o'quvchilar bu harfni quyidagicha xato yozadilar:




Kichik **b** harfi ikki xil shaklda yoziladi:



Agar kichik **b** harfi soʻzning oxirida kelsa, yopiq holda yoziladi, soʻzning boshida yoki oʻrtasida kelsa, ulash unsuri bilan qoʻshib yoziladi:




Oʻquvchilar bu harfning yuqoridagi chiquvchi unsurini bir tomonga qiyshaytirib yozsalar uni quyidagicha mashqlar oʻtkazish orqali tuzatish mumkin:



Kichik **x** harfi oʻng va chap yarim choʻzinchoq doira shaklidan iborat boʻlsa ham, ular bir-biriga bogʻlab yoziladi.

Bu harfni yozishda oʻquvchilar quyidagi kamchiliklarga yoʻl qoʻyadilar:

1. Harf unsurlarining ustidan qoʻlni qayta aniq yurgiza olmaydilar:



x - x x

Bunday xato ayniqsa uning elementlarini qo'shib yozishda ko'proq uchraydi.

Harf unsurlarini bog'lashda qo'l harakatini uzib yozadilar:




x - x x

Bunday xatolarning bo'lmasligi uchun x harfni qo'l harakatini uzmasdan yozishni qayta mashq qildirish lozim.


Endi o'xshash unsuri bosh harflar guruhlaridan ayrim harflarning yozilishi borasida to'xtalib o'tamiz.

Birinchi guruhdan: Katta **U** harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsuri ham usti, ham tagi ilmoqli, uzun tayoqcha shaklidan, ikkinchi unsuri esa tagi ilmoqli uzun tayoqcha shaklidan iborat:



U U

Bu harfni yozishda o'quvchilar ham osti, ham usti ilmoqli birinchi unsurini haddan tashqari yotiq qilib, burib yozadilar:



U - U U

Ikkinchi guruhdan: Katta **H** harfi unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Uning pastki va ustki tugunchaklari bir xil bo'lishi lozim:



Katta **H** harfining yozilish texnikasi murakkab bo'lmasa-da, o'quvchilarning yozuvlarida quyidagicha o'xshash ayrim kamchiliklarni uchratish mumkin:


1. Harf unsurlarining burilish joyini juda katta yoki kichik qilib yozadilar:



Katta **K** harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, ikkinchi unsuri ham usti, ham tagi ilmoqli tayoqchadan iborat bo'lib, keyingi kichik harflar bilan oson bog'lanadi:




O'quvchilar bu harfni yozishda ruchkani chiziqning ustidan qayta aniq yurgiza olmaydilar yoki qo'l harakatini uzib, unsurlarga ajratib yozadilar:



Ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun o'qituvchi qo'lning aniq harakat qilishni va qo'lni uzmasdan yozishni muntazam ta'kidlab turishi lozim.

Beshinchi guruhdan: Katta **Y** harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsuri tagi va usti ilmoqli tayoqcha shaklidan, ikkinchi unsuri esa tagi tugunchakli uchun tayoqcha shaklidan iborat. Ammo uning unsurlari bir butun shaklda yoziladi:



4.5. 3-4-sinfda husnixat darslarini rejalashtirish

Uchinchi sinf dasturida o'quvchilar husnixatini takomillashtirish uchun quyidagi talab va tavsiyalar berilgan:

- Yozuvga oid malakalarni mustahkamlash;
- Bolalarni bir chiziqli daftarda yozishni mashq qildirish (harflarni balandlik va kenglik o'lchamini o'zlashtirish):
- O'quvchi uchun qiyin bo'lgan ayrim bosh va kichik harflarni, harflar birikmasini yozishga, shuningdek, harflarni to'g'ri ulanishiga rioya qilish.

Shu tavsiyalarga tayangan holda uchinchi sinfda husnixat darslari tashkil etiladi. Bu sinfda o'quvchilarning yozuv malakalarini mustahkamlash uchun ularga ko'proq ko'chirib yozish mashqlarini berish va yozuv tezligini hisobga olib boorish lozim. Tez yozish malakasini hosil qilish uchun qo'l va barmoq muskullari harakatini o'stiruvchi mashqlarni bajarish; ayrim kichik va bosh harflarning yozilish metodlarini ko'rsatish kerak bo'ladi.

Bunday mashqlar o'quvchilarning chamalash qobiliyatlarini o'stirishga, harflarni bir-biriga tez bog'lab yozishga o'rgatishga katta yordam beradi.

Oquvchilar tayyorgarlik mashqlarini bajarib bo'lganlaridan so'ng asta-sekin yozuv tezligi oshib, tez yozish malakasi hosil bo'la boradi. Bu davrda yozuvga o'rgatish uchun qo'yidagi malakalar hosil qilinishi zarur:

1. Harflarni qo'l harakatini uzmasdan tez bir-biriga bog'lab yozish.
2. Bosh va kichik harflarni bir-biriga bog'lab yozish.

3. Matnga qarab ko‘chirib yozish.


To‘rtinchi sinfda ham chiroyli yozuvga o‘rgatishni ona tili darsi bilan bog‘liq holda olib boriladi. Bu sinfda bir chiziqli daftarga kichik harflarni 3 mm balandlikda, bosh harflarni esa 7 mm balandlikda yozish malakasi hosil qilinadi. Bu sinfda o‘qituvchi, harflarni yozilishini va o‘lchamlarini tushuntirish bilan bir qatorda, quyidagi talablarni eslatib turishi lozim:

1. Partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani to‘g‘ri ushlash, daftarni to‘g‘ri tutish.
2. O‘quvchilarni mayda harfar bilan yanada tezroq yozishga o‘rgatish.
3. Kichik harflarni bir xil balandlikda, bosh harflarni bir xil balandlikda bir tekis qilib yozishga o‘rgatish.


4. Tez yozishga o‘rgatuvchi mashqlarni muntazam o‘tkazish.
5. Ayrim kichik va bosh harflarni tez yozish uchun moslashtirish.

Tez yozish ko‘nikmasi 1-2 sinflarda ham ma‘lum darajada hosil qilingan. 3-4 sinflarda bu ko‘nikma alohida mashqlar berish orqali mustahkamlanadi. Yozuv tezligi esa asta-sekin ortib boradi. Bu mashqlarni bajarishda chamalash qobiliyatini o‘tirishga alohida e‘tibor berish zarur.

3-4 sinfda ham ayrim murakkab harflarni alohida yozdirib mashq qildirish mumkin. Bunda har bir qatorda 12-14 ta bosh harf yozish kerak. Agar bundan ko‘p yozilsa, harflar orasidagi masofa va harflarning eni tor bo‘ladi, bundan kam yozilsa, aksincha, keng bo‘lib qoladi:



To‘g‘ri



Noto‘g‘ri

Xudi shuningdek, so‘zlarni yozishda ham harflarni juda zich yoki ularni orasini keng qilib yubormay bir me‘yorda yozishga odatlanish lozim.

Soʻzlarning orasidagi masofa esa bir xil saqlanishi (5-6 mm dan oshmasligi, bundan oz ham boʻlmasligi) kerak. Xatning chiroyli chiqishda harflar va soʻzlar orasidagi masofaning bir xilda boʻlishi katta rol oʻynaydi. Shuning uchun 3 sinfda bu masalaga alohida eʼtibor berish lozim.

Soʻzlarni qatorlarga toʻgʻri joylashtirish malakasi koʻproq koʻchirib yozuv mashqlari orqali hosil qilinadi.

3-4 sinflarda bosh harflarning yozilishini koʻproq mashq qildirish lozim. Bosh harflarni mashq qildirish orqali ayrim ish qogʻozlarini xat, adres va hokazolarni yozish qoidalari ham tushuntiriladi. Bunday ish qogʻozlarini aniq, ozoda va toʻgʻri bajarish shu sinflardan boshlab talab etiladi.

Tinish belgilarini yozishga oʻrgatish. Tinish belgilari, asosan qoʻshma gap tarkibidagi ayrim sodda gaplarni, gapning ajratilgan ikkinchi darajali boʻlaklari va uyushiq boʻlaklarni, kirish soʻz va gaplarni ajratish uchun ishlatiladi. Bu gaplar esa ayrim gap va gap boʻlaklarini grammatik ifodalanishiga, mazmunga va ohanglariga koʻra bir-biridan ajratiladi.

Hozirgi oʻzbek yozuvida oʻn xil tinish belgi ishlatiladi:

1. . (nuqta). 2. ? (soʻroq belgisi). 3. ! (undov belgisi). 4. ... (koʻp nuqta). 5. , (vergul). 6. ; (nuqtali vergul). 7. : (ikki nuqta). 8. – (tire). 9. () (qavs). 10. “ ”, « » (qoʻshtirnoq).

Tinish belgilari qoidalari tizimini tilshunoslikning punktuatsiya boʻlimi oʻrgatadi.

Quyida qoʻl yozma ishlarda tinish belgilarining qanday qoʻyilishini koʻrsatib oʻtamiz.

Nuqta yozma va bosma tekstlarda daftar chizigʻining ustiga dumaloq shaklda qoʻyiladi.

Soʻroq belgisi nuqtadan boshlanib, yarim doira va egri chiziqdan iborat boʻladi, egri chiziqning oxirgi qismi ingichkalashib boradi. Egri chiziqchanning ostidagi nuqta daftar chizigʻining ustiga qoʻyiladi.

Undov belgisi yuqori qismi bilan yoziladigan to‘g‘ri tayoqcha va nuqtadan iborat bo‘lib, to‘g‘ri tayoqchanning oxirgi qismi ingichkalashib boradi, to‘g‘ri tayoqcha ostidagi nuqta daftar chizig‘ining ustiga qo‘yiladi.

Ko‘p nuqta (odatda ketma-ket qo‘yiladigan uchta nuqta) daftar chizig‘ining ustiga qo‘yiladi. Agar ko‘p nuqta so‘roq va undov belgisidan keyin qo‘yilishi kerak bo‘lsa, so‘roq yoki undov belgisidan keyin faqat ikkita nuqta qo‘yiladi.

Vergul nuqta bilan boshlanib, uning nuqtasi daftar chizig‘ining ustida, oxirgi qismi esa ingichkalashib, chiziqdan pastga tushadi.

Nuqtali vergulning nuqtasi vergulning ustiga qo‘yiladi.

Ikki nuqtaning ostidagi nuqta daftar chizig‘ining ustiga qo‘yiladi.

Tirening uzun-qisqaligi matematikadagi minus (ayiruv) bilan teng bo‘lib, daftar chizig‘idan bir oz yuqoriga qo‘yiladi.

Ayrim o‘quvchilar **tire** bilan orfografik belgi hisoblanadigan **chiziqchani (defisni)** farq qilmaydilar, ya‘ni bularning har ikkisini bir xil kattalikda qo‘ya beradilar. Bu kamchilikning oldini olish zarur, chiziqcha (defis) tirening uchdan bir qismi bo‘lishi kerak.

Qavs uch xildir: kichik qavs, o‘rta qavs, katta qavs. Bularning hammasi matematikada qo‘llaniladi. Xatda esa tinish belgi sifatida asosan kichik qavs ishlatiladi.

Ochiladigan va yopiladigan qavslarning o‘rta qismi yarim doira shaklida yoziladi. Kichik qavsning uchdan bir qismi daftar chizig‘ining ostiga tushib turadi.

Qo‘shtirnoq odatda ikki xil (yozma va bosma shakli) qo‘yiladi. Yozma qo‘shtirnoq qo‘shaloq vergulga o‘xshab ochiladi, yopilishida esa teskari qo‘shaloq vergul tarzida qo‘yiladi.

Qo‘shtirnoqning bosma shakli matematikadagi kichik va katta belgilarning qo‘shaloq shakliga o‘xshaydi, u bosma tekstlarda qo‘llanadi.

Bolalarning yozma ishlarida qo‘shtirnoqning yozma shakli ishlatilishiga erishish lozim, buning uchun maxsus mashq o‘tkazib, qo‘shtirnoqning yozma va bosma shakllarini eslatib turish kerak.

Har bir tinish belgisi aniq va chiroyli qilib qo'yilib, harflarning moyilligiga muvofiq, o'ng tomonga qiya bo'lib turishi zarur; bo'yi, katta-kichikligi esa harflarga monand bo'ladi.

Shunday qilib, husnixat qoidalariga faqat harflarni yozishdagina emas, balki tinish belgilarini qo'yishda ham rioya qilish zarur.

***Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda
topshiriqlar:***

1. *Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish yo'llari borasida gapirib bering.*
2. *Alifbegacha bo'lgan davrda qanday tayyorgarlik mashqlari tashkil etiladi? Ularni qanday gurunlarga bo'lish mumkin?*
3. *Alifbe davrida yozuv darslari qanday tashkil etiladi? Bunday darslarning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?*
4. *Ikkinchi sinfda partada to'g'ri o'tirish malakasi qanday usullar bilan mustahkamlanadi?*
5. *2- sinfda yozuv qurollarini to'g'ri ushlash malakasi qanday o'stiriladi?*
6. *O'xshash unsurli kichik va bosh harflarni yozish usullari borasida nimalarni bilasiz?*
7. *Uchinchi sinflarda husnixat darslari qanday tashkil etiladi?*
8. *To'rtinchi sinflarda husnixat darslari qanday tashkil etiladi?*
9. *Nega biz raqamlarni aniq va chiroyli yozishga o'rgatishimiz lozim?*
10. *Tinish belgilarini yozish metodikasi borasida gapirib bering.*

4-MODUL. SINFDA O'QISH METODIKASI

**5-MAVZU: SINFDA O'QISH DARSLARINING TA'LIMIY-
TARBIYAVIY AHAMIYATI VA VAZIFALARI**

Tayanch so'zlar: *ongli o'qish, o'qish malakalari, , anglab o'qish, to'g'ri o'qish, ovozli o'qish, sintetik bosqich, Intonastiya, ovozli o'qish, ichda o'qish, shivirlab o'qish, tarbiyaviy ahamiyat, ongli o'qish, milliy qadriyatlar, vatanimiz tarixi, ijtimoiy tarixiy mavzular.*

5.1. O‘qish darslarining tarbiyalovchi imkoniyatlari

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta‘lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta‘limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta‘limini o‘qish ta‘limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. O‘qish darslari orqali o‘quvchilarning Davlat ta‘lim standartlari (DTS) talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo‘l ochiladi. Aynan o‘qish ta‘limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda «O‘qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma‘naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta‘limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O‘qish darslari savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarni bo‘g‘in, so‘z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o‘qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o‘qish texnikasi egallangandan so‘ng o‘qish muayyan mavzular bo‘yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, o‘qish darslarining etakchi xususiyati o‘quvchilarning savodxonligini ta‘minlash bilan birga o‘quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og‘zaki ijodi,

mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabi mavzular o'qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo'lib, 2-sinf "O'qish kitobi"dagi *«Ona yurtim-oltin beshigim»* bo'limiga kiritilgan *«O'zbekistonim»* (H. Imonberdiev), *«Istiqlol»* (J. Jabborov), *«O'lka»* (E. Vohidov), *«Yur tog'larga»* (U. Nosir), 3-sinfda *«Ona bitta, Vatan yagona»* bo'limidagi *«Vatan haqida she'r»* (A. Avloniy), *«O'zbekim»* (E. Vohidov), *«Vatan mo'tabardir»* (X. Davron), *«Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi»* (Tohir Malik), 4-sinfda *«O'zbekiston – Vatanim manim»* bo'limidagi *«Serquyosh o'lka»* (Z. Diyor), *«Iqboli buyuksan»* (A. Oripov), *«Toshkentnoma»* (M. Shayxzoda), *«Xarita»* (N. Norqobil) kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar, jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada ayniqsa milliy istiqlol bilan bog'liq H. Imonberdievning *«O'zbekistonim»*, J. Jabborovning *«Istiqlol»* (2-sinf), A. Rustamovning *«Bayroq nima?»*, A. Obidjonning *«O'ktam avlod»* (3-

sinf), S. Barnoevning «*Mangulikka tatigulik kun*», E. Malikovning «*Assalom, Neksiya!*» (4-sinf) mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Umuman, «O'qish kitobi» darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.

Amaldagi «O'qish kitobi» darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o'rgatiladigan «*Ajdodlarimiz-faxrimiz*», «*Ilm-aql chirog'i*», «*Zumrad bahor*», «*Kumush qish*» kabi mavzular 2-4-sinflarda ham davom ettirilgan. Bu esa o'quvchilarning oldingi bilimlari to'ldiradi va boyitadi.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning **didaktik maqsadi** hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib etishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va «Ona tili» o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan **didaktik vazifalar** quyidagilardan iborat:

1. *O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.*

2. *O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.*

3. *O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.*

4. *O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan etuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.*

5. *O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.*

6. *O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.*

7. *Elementar adabiy tasavvurlarni shakllantirish.*

Shuni unutmash kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

O'qish darslarida qo'llaniladigan metod va usullar. Ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug'iladi: *Izohli o'qish nima?*

Izohli o'qishga XX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o'qishda o'quvchilarni «ongli, tushunib, o'ylab o'qishga» o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni «Izohli o'qish» deb nomlaydi.

Izohli o'qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o'qish o'quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o'quvchilarga o'qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog'liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Professor Asqar Zunnunov o'qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o'quvchilarning oldin bilimlarni o'zlashtirishiga, so'ng yod olishlariga e'tibor berilishi ta'lim jarayonida izohli o'qish deb nomlanganini ta'kidlaydi.

Demak, **izohli o'qish** deb o'ylashga, his qilishga, asarni to'liq idrok qilishga, o'qilganning mazmunini o'zlashtirishga olib keladigan o'qishga aytiladi. Izohli o'qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g'oyani anglashni ta'minlaydi.

Izohli o‘qish qo‘yidagi tamoyillarga to‘liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo‘ladi:

1. *O‘qishni hayot bilan bog‘liq holda tashkil etish.*
2. *O‘qishning ongli va ta’sirchan bo‘lishi uchun o‘quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.*
3. *O‘qishni ko‘rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o‘simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o‘quvchining ifodali o‘qishi tarzida olib borish.*

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida asosan she’rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o‘qib o‘rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o‘ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o‘ziga xos usulda o‘qib o‘rganish taqozo qilinadi.

Badiiy asarni izohli o‘qishga yaqin bo‘lgan metodlardan biri **ijodiy o‘qish**dir. Atoqli metodist olim N. I. Kudryashov ijodiy o‘qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi:

a) o‘qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o‘qishi hamda o‘quvchilarning asarni to‘g‘ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emostional idrok etishlarini ta’minlash maqsadini ko‘zda tutuvchi so‘zi;

b) o‘qilgan asardan o‘quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo‘lgan va ularning diqqatini matnning muhim g‘oyaviy va badiiy hususiyatlari sari yo‘naltiradigan suhbat uyushtirish yoki o‘qilgan asardan kelib chiqadigan badiiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo‘yilishi;

v) o'qituvchining asar o'qilganidan keyin o'quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida to'yingan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi⁵.

Ko'rinadiki, ijodiy o'qish izohli o'qishdan farqli o'laroq, to'g'ridan - to'g'ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Masalan, 4-sinfda A. Oripovning «*Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi*» asarini ijodiy o'qish metodi asosida o'rganish jarayonida matn mazmuni va shoir g'oyaviy niyatidan kelib chiqib Vatanimiz hududlaridagi aholining yashash tarzi bilan bog'liq milliy xususiyatlar haqida ham atroflicha tushuncha beriladi. 2-sinfda «*O'tinchi yigit*», 3-sinfda O'tkir Hoshimovning «*Xazonchinak*», 4-sinfda S. Anorboevning «*Qo'rqoq*» asarlarini ham ijodiy o'qish metodi asosida o'qitish ijobiy samaralar beradi.

Ifodali o'qish. Boshlang'ich ta'lim tizimida **mantiqiy o'qish** (matnni to'g'ri, tushunib, tez (me'yorida) o'qish) va **adabiy o'qish** mukammal o'zlashtirilganidan so'ng ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning muvaffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishi bilan bog'liq.

Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir.

Nasriy asarlarni ifodali o'qishdan oldin unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, 4-sinfda X. To'xtaboevning «*Xatosini tushungan bola*» hikoyasini ifodali o'qishdan oldin o'quvchilarga xatosini tushungan bola kim ekanligi, uning xatosi nimalardan iborat bo'lganligi, maqtanchoqlikning illat ekanligi to'g'risida tushuncha beriladi.

⁵ Кудряшов Н.И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы. - Москва: Просвещение, 1981.- Стр. 60.

Ifodali o'qish oldiga qo'yilgan bu talab *M. Abdurashidxonovning «Har kim ekanin o'rar», Sh. Sa'dullaning «Laqma it», A. Oripovning «Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi»* kabi she'riy hikoyalarini o'qishga ham xosdir.

Badiiy o'qish. Badiiy o'qish ifodali o'qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda so'z san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o'quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san'atkorona o'qishni talab etadi. Badiiy o'qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to'la anglab etilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o'qishga tayyorgarlik ko'rishda aktyorlarning audio-video tasmlarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Sinfda o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan biri **tanlab o'qish**dir. Masalan, 3-sinfda *X. To'xtaboevning «Hassa»* hikoyasi bilan tanishish jarayonida Qobil boboning savollariga Shavkatning javoblari yoki *S. Anorboevning «Bahs»* hikoyasidagi bolalarning bahslashish epizodi yuzasidan o'qituvchi topshirig'iga ko'ra mazkur o'rinlarni tanlab qayta o'qilishi natijasida ushbu asarlarning badiiy-estetik qimmatini chuqurroq o'zlashtirishga erishiladi.

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o'quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo'llaniladigan usuldir.

O'qish darslarida **reproduktiv metod** keng qo'llaniladi. Masalan, o'qituvchi dastlabki darslarda o'zi asar matnini qismlarga bo'ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo'lgan muhim fikriga o'quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko'rsatadi, o'quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma'noni ochib, o'quvchilarga ko'maklashadi. Bularning bari o'quvchilar uchun bir ko'rsatma vazifasini o'taydi. Shundan so'ng o'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmalari yordamida yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni o'zlari mustaqil ravishda bajaradilar.

Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang'ich sinf o'qish darslarida ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan **«Aqliy hujum»**,

«*Tarmoqlar*», «*Guruhlar bilan ishlash*», «*Blist texnologiyasi*» kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo'llash o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

5.2. O'qish malakasi haqida tushuncha

Dastur talablarini to'liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda o'qish ko'nikmalarini to'g'ri va puxta egallash va takomillashtirib borish zarur.

O'qish ko'nikmalari savod o'rgatishg jarayonida shakllanadi, o'qitishning keyingi bosqichlarida takomillashadi.

O'qish malakalarining sifatlariga badiiy asar matnini to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish kiradi. O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi. O'qish malakasining sifatleri o'zaro bog'liq bo'lib, ularning asosiysi ongli o'qish hisoblanadi: o'quvchi matnni tez va to'g'ri o'qisa-yu, anglab o'kimasa yoki uning tez o'qishi natijasida boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to'g'ri o'qisa-yu, o'ta sekin o'qisa, nutq birliklari orasida pauzalarga e'tibor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushunilmaydi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi; to'g'ri, tez va ongli o'qish esa ifodali o'qishning asosi hisoblanadi.

O'qish malakalarini egallash maktabda o'qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O'qish faoliyatning asosiy turi bo'lib, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o'qish malakalarini o'stirish va takomillashtirish ustida sistematik va maqsadga muvofiq ishlashni talab qiladi.

O'qish malakasini egallash ancha murakkab bo'lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. Psixolog T. G. Yegorov o'zining «Ocherki psixologii obucheniya detey chteniyu» nomli asarida o'qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: *analitik bosqich*, *sintetik bosqich* va

avtomatlashgan bosqich. Analitik bosqich savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi, bunda so'zni bo'g'in-harf tomonidan tahlil qilish va bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi. Sintetik bosqich uchun so'zni sidiq'a o'qish xarakterlidir; bunda so'zni ko'rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so'z ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. O'qish so'z ma'nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O'quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o'tadilar. Bundan keyingi yillarda o'qish avtomatlasha boradi.

O'qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lsin.

To'g'ri o'qish deganda xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qish tushuniladi, ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik formalarni buzmasdan, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmay, oshiqchasini qo'shmay, harflar o'rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so'zga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish hisoblanadi. M. Odilova va T. Ashrapovalar *«Adabiy talaffuz normalariga qo'yilgan barcha talablar to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir»*, - deb ta'kidlaydilar. Rus metodisti Yakovleva to'g'ri o'qishga quyidagicha ta'rif bergan: *«To'g'ri o'qish - bu materialni tovush tomondan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir»*. Demak, to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan adabiy-orfoepik me'yorlar asosida o'qishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushunish o'rtasida puxta sintez yo'q bo'lgani uchun ular o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Bu esa matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi.

To'g'ri o'qish so'zning uzun-qisqaligiga, o'quvchining so'z boyligiga, ya'ni so'zning leksik ma'nosini qanchalik bilishiga hamda so'zning bo'g'in va morfemik tarkibiga bog'liq. O'quvchilar ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra xatoga yo'l qo'yadilar:

1. Soʻzni talaffuz qilish bilan uning maʼnosini tushunish oʻrtasida puxta sintez boʻlmagani uchun, yaʼni bola soʻzning oldin tovush tomonini koʻradi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. Soʻzning maʼnosini esa eʼtibordan chetda qoldiradi.

2. Soʻzning boʻgʻin tuzilishi murakkabligi tufayli soʻz koʻp boʻgʻinli boʻlsa, bola uni oldin eshitmagan boʻlsa xatoga yoʻl qoʻyadi.

3. Soʻzning maʼnosini bitlaslik tufayli xatoga yoʻl qoʻyadi.

4. Tez oʻqiyman deb xatoga yoʻl qoʻyadi.

5. Toʻgʻri oʻqish yorugʻlikning tushishiga ham bogʻliq.

6. Undosh tovush soʻzning oʻrtasida va oxirida kelgan yopiq boʻgʻinli soʻzlarni oʻqishda qiynaladilar.

Xato oʻqishning oldini olish uchun quyidagilar eʼtiborga olinadi:

1. Matnni oʻqitishdan oldin undagi oʻqilishi qiyin soʻz, birikma va gaplarni aniqlash va ular ustida ishlash usullarini belgilab olish. Tuzilishi murakkab soʻzlarni boʻgʻinlab oʻqilishini mashq qildirish.

2. Matnni oʻqishdan oldin uning mazmunini tushunishni qiyinlashtiradigan soʻzlarning lugʻaviy maʼnosini tushuntirish. Soʻz maʼnosini izohlash usullarini aniqlash.

3. Vazifalarni aniq va tushunarli qilib berish

4. Matnni diqqat-eʼtibor bilan oʻqishlari uchun sharoit yaratish.

5. Oldin ichda oʻqitish, soʻng ovoz chiqarib oʻqitish.

6. Oʻqitishda oʻquvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, yaʼni matnni oson, oʻrtacha qiyinlikda va qiyin oʻqiladigan oʻrinlarini belgilab olib unga kuchi etadigan oʻquvchilarga oldindan taqsimlab olish.

7. Oʻquvchilarning oʻqishini muntazam tekshirib turish.

8. Xatoning xarakteriga qarab, uni metodik tomondan toʻgʻri tuzatish yoʻlini aniqlash.

9. Oʻquvchilarni xato qilish mumkin boʻlgan oʻrindan ogohlantirib turish.

10. Xat choʻpdan foydalanish.

11. Xato oʻqish oʻquvchining shaxsiy koʻruv sezgisiga ham bogʻliq boʻladi.

O'qituvchi tuzilishi murakkab so'zlarni oldindan doskaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozib qo'yib, o'quvchilarga xor bo'lib o'qitilishi yaxshi natija beradi.

O'quvchilar yo'l qo'ygan xato ikki xil yo'l bilan tuzatiladi: 1) O'quvchi so'z oxiridagi qo'shimchani noto'g'ri o'qisa, o'quvchini o'qishdan to'xtatmasdan xatoni to'g'rilash mumkin; 2) xato o'qish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta o'qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchiga o'qigan matni yuzasidan savol berilsa, o'quvchi e'tiborli bo'lib qayta o'qiydi.

5.3.O'qish malakalarining sifatlari: tez, ongli, ifodali o'qish

Tez o'qish. Tez o'qish normal tezlikda o'lib, o'qish sur'ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O'qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'suvi kerak. O'qilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish tez o'qish deyiladi.

O'qish sifatlarini yaxshi o'zlashtirgan holda o'quvchilarning o'qish sur'ati bir-biridan farq qiladi. Bu dastur talablarini bajarmadi, degan gap emas. Og'zaki nutq tempiga to'g'ri keladigan o'qish sur'ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki o'ta tez ham, o'ta sekin o'qish ham matn mazmunini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O'qish tezligi bir daqiqada o'qiladigan so'zlar soni bilan belgilanadi. 2005- yilda e'lon qilingan o'qish dasturida 1- sinfning 2- yarim yilligida o'qish sur'ati 20-25 so'z (notanish matnni o'qish tezligi ham 20-25 so'z); o'quv yili oxirida 25-30 so'z; 2- sinfning 1- yarim yilligida matnni o'qish tezligi 30-35 so'z; 2-yarim yilligida 40-50 so'z; 3- sinfning 1- yarim yilligida 60-70 so'z; 2-yarim yilligida 70-80 so'z; 4- sinfning 1- yarim yilligida ichda ovozsiz 110-130 so'z, ovoqli o'qishda 90-100 so'z.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir daqiqada bola 250 so'zli matnni o'qisa, undagi 200 ta so'zni eslab qolar ekan. Agar harflab, bo'g'inlab o'qisa, uning diqqat markazida so'z emas, bo'g'in bo'ladi. natijada u so'zlarni eslab qola

olmaydi. (J.G'.Yo'ldoshev.1992 yil «O'qituvchilar uyidagi ijodkor o'qituvchilarning 1- anjumanidagi nutqidan).

Bu 4- sinf o'quvchilarining o'qish tezligiga tatbiq etilsa, 125 so'zdan 100 so'zni eslab qoladi. Bu esa yuqori ko'rsatkichlarga erishish imkonini beradi.4-sinfda hatto bir daqiqada 170-180 ta so'z o'qiydigan o'quvchilar ham bor.

O'qish tezligi to'rt yil davomida to'g'ri va ongli o'qish bilan bog'liq holda asta ortib boradi. O'qish tezligini tekshirganda o'qituvchi o'qiladigan materialning xarakterini , ya'ni g'oyaviy mavzuviy murakkabligini , so'z va gaplarning tuzilishini , ularning bolalar nutqida qaydarajada ishlatilishini, o'qishning to'g'ri va ongli bo'lishini hisobga oladi. O'quvchilarning o'qish tezligi har xil bo'ladi, albatta. O'qituvchining vazifasi barcha o'quvchilarning o'qish tezligini, iloji boricha bir xillikka keltirishdan iborat. Bunga asosan matnni ovoz chiqarib o'qishni mashq qilish bilan erishiladi.

Ongli o'qish.Ongli o'qish yaxshi o'qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o'qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o'qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o'z munosabatini ifodalay olishdir.Ongli o'qish o'z navbatida, o'quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so'zning leksik ma'nosini,gapda so'zlarning bog'lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog'liq. Hozirda ongli o'qish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida ikki ma'noda: birinchidan, o'qish jarayonini egallashga nisbatan o'qish texnikasi ma'nosida,ikkinchidan, keng ma'nodagi o'qishga nisbatan o'qish sifatlaridan biri ma'nosida qo'llanadi.

Matnni ongli o'qish uchun o'quvchilar o'qish sifatlaridan to'g'ri, me'yorida o'qishni egallagan bo'lishlari va o'qish jarayonida qiynalmasligi talab etiladi. O'quvchilar matnni ongli o'qishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari jihatidan tahlil qilinadi.

Ongli o'qishning muhim sharti asar qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi.O'qituvchi ongli o'qishni matnni ifodali o'qishga (agar ovoz chiqarib o'qilsa) va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning

to'g'riligiga qarab baholaydi. Ongli o'qish va ifodali o'qish bir-birini taqozo qiladi, ammo bir-biriga aynan o'xshamaydi.

Ifodali o'qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. "Ifodali o'qish adabiyotni konkret va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy formasidir", deb ta'kidlaydi metodist olim M.A.Ribnikova. Demak, "Ifodali o'qishning asarning mazmunini va emostionalligini intonatsiya orqali o'quvchilarga ko'rgazmali qilib ko'rsatishdir. Ifodali o'qishning asosiy tamoyili o'qiladigan asar g'oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushuntirishdir.

Ohang og'zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg'u, nutq temp va ritmi, pauza , ovozning past-balandligining yig'indisidir. Bu elementlar bir-biriga ta'sir etadi va hammasi birgalikda asarning mazmunini, g'oyasini, qahramonlarning turli kayfiyatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

O'quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonidan nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.

2. Har bir tovushning to'g'ri artikulyastiyasi va aniq dikstiya(burro gapirish) malakasini egallash.

3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallash.

Bu shartlar faqat ifodali o'qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya'ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. O'quvchining har qanday og'zaki hikoyasi ifodali bo'lishi zarur.

Ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. SHuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o'qish(gapirish)ga, nutqda tez, o'rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror

tuyg'uni ifodalashga o'rganadilar. Ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchilar pauza va logik urg'u bilan ham tanishtiriladi.

Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish , unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g'oyasini belgilash, ya'ni asarning g'oyaviy mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.

2. Matnning qayerida pauza qilishni, mantiqiy urg'uning o'rnini, o'qish tempini belgilab olish.

3. O'qishni mashq qilish. Aftor fikrini, uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan bera olish uchun matnni qayta o'qish.

Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilish ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishga o'rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o'z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish uchun asarni o'qituvchining ifodali o'qishi muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limda o'qishning uch turidan foydalaniladi:

1. Ovozli o'qish.

2. Ichda o'qish.

3. SHivirlab o'qish

Ovozli o'qish ovozga asoslangan o'qish bo'lab, undan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi.

Ovozli o'qishning yakka, jo'r va rollarga bo'lib o'qish usullari mavjud. Yod aytish ham ovozli o'qishning bir shaklidir.

Ichda o'qish ham tovushga asoslangan , lekin unda ovozsiz o'qiladi.

SHivirlab o'qish yarim ovoz bilan o'qishdir. Malakali kitobxon o'qishning har uch turini bilishi zarur.

Ovozli o'qishning ham, ovozsiz ichda o'qishning ham, shivirlab o'qishning ham o'z qo'llanish o'rnini va afzalliklari hamda kamchiliklari bor. Masalan, 2- sinf o'quvchilari ichda o'qiganda kam so'z o'qiydi, so'zning ma'nolarini tushunmay qoladi, o'qiganlarining mazmunini to'liq o'zlashtira olmaydilar. Psixologik izlanishlar o'qishni endi o'rganayotgan o'quvchilar o'qilayotgan matnni tushunib borishlari uchun eshitish sezgisiga ham sezganliklarini ko'rsatganlar. Ikkinchidan, ikkinchi sinf o'quvchilarida o'qish ko'nikmalari yaxshi shakllanmagani uchun ichda o'qish jarayonida ayrim so'zlarni noto'g'ri o'qish natijasida uning ma'nosini tushunmaganlar. SHularni nazarda tutgan holda 1- 2- sinflar ovozli va shivirlab o'qishdan foydalaniladi.

3-4- sinflarda ovozli o'qish bilan birga ichda o'qishdan ham foydalaniladi. 3-4- sinflar ichda o'qish ancha samarali bo'ladi. Lekin bu sinflarda ichda o'qish mexanik o'qishga aylanmasligi kerak. Ichda o'qish biror maqsadga yo'naltirilishi kerak, ya'ni turli topshiriqlar asosida ichda o'qitilishi lozim. Masalan, «SHe'rni ichingizda o'qib, ifodali o'qishga tayyorlaning», «Hikoyani ichingizda o'qing , ma'nosi tushunarsiz so'zlarni lug'at daftaringizga yozing», «Lug'atdan foydalanib, ularning ma'nosini izohlashga harakat qiling».

-Hikoyani ichingizda o'qib, uni qismlarga bo'ling.

-Ichingizda o'qib, ovoz chiqarib to'g'ri o'qishga tayyorlaning.

-Ichingizda o'qing. Tabiatning ko'rinishi tasvirlangan o'rinni toping.

Bu topshiriqlar sinfdan sinfga o'tgan sari murakkablashib boradi. Bunda o'quvchilarning asarni qanchalik idrok etganliklari tekshirilib borilishi zarur. Ichda o'qish quyidagi afzalliklarga ega:

1. Bir vaqtning o'zida butun sinf o'quvchilari o'qiydi.

2. O'quvchilarda asar matni ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari takomillashadi.

3. O'qituvchi har bir o'quvchining mustaqil ishlash jarayonida o'zlashtirish darajasini aniqlaydi.

4. Ichda o'qishda ongli o'qishga talab , e'tibor kuchayadi.

Ichda o‘qishda o‘qituvchi o‘quvchilar o‘qishidagi kamchiliklarni aniqlay olmaydi. Bu undan foydalanishdagi kamchilikdir.

Ovozli o‘qishning afzalliklari quyidagilar:

1. O‘qituvchi o‘quvchilarning xato va kamchiliklarini , o‘qish ko‘nikmalarini aniqlay oladi.
2. Kichik yoshdagi o‘quvchilar ovoz chiqarib o‘qisalar, matn mazmunini tez tushunib oladilar.
3. Ovozli o‘qishdan kitobxon estetik zavq oladi.
4. Ovozli o‘qishda ifodalilikka katta e’tibor beriladi.
5. Ovozli o‘qish o‘quvchilar lug‘atini boyitish va nutqini o‘stirishda kata ahamiyatga ega.

Maktabda o‘qishning bu uch turi navbatma - navbat almashtirib turiladi. 1-2- sinflarda ovozli va pichirlab o‘qishdan ichga o‘qishga o‘tilsa, 3-4- sinflarda ichdan o‘qishdan ovozli o‘qishga o‘tiladi. 3-4- sinflarda o‘qishning turlaridan foydalanishda chegara qo‘yilmaydi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qishning hamma turiga bir xil talab qo‘yiladi, ya’ni o‘qish to‘g‘ri bo‘lishi, tez, ongli va ifodali bo‘lishi zarur.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda

topshiriqlar:

1. *Sinfda o‘qish darslarida o‘quvchilarga qanday bilimlar beriladi?*
2. *O‘qish darslarining tarbiyaviy ahamiyatini ayting.*
3. *O‘qish darslarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?*
4. *Yaxshi o‘qish malakasining sifatlari deganda nimani tushunasiz? Ular o‘zaro qanday aloqada?*
5. *To‘g‘ri o‘qish nima? Xato o‘qishni keltirib chiqaradigan sabablarni ayting.*
6. *To‘g‘ri o‘qishni ta’minlovchi shartlarni sanang.*
7. *Tez o‘qish nima? Unga erishishning metodik usulini ayting.*
8. *O‘quvchilarning o‘qish sur’atiga qo‘yiladigan dastur talablarini ayting.*
9. *Ongli o‘qish haqida gapirib bering.*

10. Ifodali o'qish, uning ahamiyatini ayting.

6-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH

Tayanch atamalar: o'qish mavzulari, o'qish sur'ati, nutq madaniyati, bo'g'inlab o'qish, sidirg'a o'qish, avtomatlashgan o'qish, analitik bosqich, sintetik boskich, avtomatlashgan bosqich, ifodali o'qish, to'g'ri o'qish, ongli o'qish

6.1.Badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng boshlang'ich sinflar uchun yangi dastur va darsliklar yaratildi. O'qish dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga ko'proq ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriq turlaridan, texnika vositalaridan foydalanishga ko'proq e'tibor berildi.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1.Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.

2.Asarning g'oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, syujet chizig'i, qurilishi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning Shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog'lanishli nutqning o'sishini ta'minlaydi.

3.O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4.Sinfda o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishda uning hissiy ta'sirini ham hisobga olish zarur. O'quvchi matnni o'qibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan hayajonlansin. Matnni tahlil qilishda o'quvchilarda fikr uyg'onsin, ularda estetik didni tarbiyalasin.

Boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi" da turli janrdagi badiiy va ilmiy-ommabop maqolalar berilgan. Sizga ma'lumki, badiiy asarda hayot obrazlar orqali aks ettiriladi. Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga

munosabati turadi. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyektiv mazmun va subyektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, badiiy asar ustida ishlashni muallifning asarida tasvirlangan voqealarga munosabati o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlarini asta tushuna boshlaydilar. Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy voqealar tasvirlanadi. Asardagi voqealarga tarixiy yondashilgandagina asarga haqqoniy baho berish mumkin. Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarni asarning g'oyaviy yo'nalishini tushunishga o'rgatish muhimdir. Psixolog olimlarning ko'rsatishicha, badiiy asarni idrok etish uchun uni tushunishning o'zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo'lib, asarga, unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o'z ichiga oladi. Kichik yoshdagi o'quvchilar adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo'ladi.

1. Adabiy qahramonga emotsional munosabat,

2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi Shaxslarga baxo berishda o'quvchilar o'z Shaxsiy tushunchalaridan foydalanadilar. Qahramonning boshqa fazilatlarini bog'lash uchun ularda so'z boyligi, tajriba etishmaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar payqay olmagan sifatlarni ko'rsatish va o'quvchilar nutqiga kiritishdir. Yana shu narsaga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

1. O'quvchilar asar qahramoniga munosabatlarini ifodalashda u xarakat qilgan sharoitni hisobga olmaydilar.

2. Qahramonning nima uchun shunday qilishi kerakligini tushunolmaydilar. uning uchun maqsadga muvofiq ish olib borilishi zarur.

Adabiy ta'lim oldida turgan vazifalardan biri badiiy asarni guruh bilan tahlil qilishni talab etadi. Maktab o'quvchilarida kitobga muhabbat o'qilgan kitobning sir-asrorini bilgandan keyingina shakllanadi. O'quvchi badiiy asardan

lazzat tuysa, o'zining zavqini keltirgan tasviriy unsurlarni payqay bilsa, chinakam badiiyat namunasini soxta asarlardan ajrata olish malakasini egallagan bo'lsagina kitobxonga aylanadi. Chunki biror asarni o'qish jarayonida, uni tahlil qilish mobaynida tuyilgan lazzat o'quvchini boshqa asarlarni o'qishga, ulardan zavqlanishga undaydi. Amaliyotda badiiy tahlil qanday maqsadga yo'naltirilganligiga qarab ikki turga: filologik va didaktik tahlilga bo'linadi. Filologik (ilmiy) tahlil badiiy asardan chiqarilgan xulosalarning adabiyotshunoslik ilmi erishgan darajaga muvofiq kelishini talab qiladi. Tahlil jarayonidagi har bir fikr mantiqiy tushunchalar, estetik qonuniyatlar bilan asoslangan bo'ladi. Filologik tahlil adabiy asarning badiiy mantiqi va estetik o'ziga xosligini anglashga yo'naltirilgan ilmiy talqin bo'lib, kuchli hissiy-intellektual faoliyatdir. Ilmiy tahlilda badiiy asardan chiqarilgan xulosalarning adabiyotshunoslik ilmi erishgan darajalarga muvofiq kelishi talab etiladi. Tahlil jarayonida bildirilayotgan har bir fikr ham mantiqiy tushunchalar, ham estetik qonuniyatlar bilan asoslangan bo'lishi lozimdir. Shuningdek, ilmiy tahlilda o'rganilayotgan asarning umummilliy adabiyotdagi o'rni va milliy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri darajasi ko'rsatilishi ko'zda tutilishi kerak. Filologik tahlil ommaboplikdan yuqoriroq turishi va har qanday adabiy hodisa mutaxassis nazari bilan tahlil etilishini taqozo qiladi. Lekin filologik tahlildagi asosiy narsa badiiy asarning badiiyligini, ta'sirchanligini ta'minlagan jihatlari qaysilar, badiiy joziba, so'z sehri, san'atning sirli tomoni nimada ekanligini ko'rsata bilishdir. Muallif tasvirlagan badiiy manzara bilan o'quvchi tomoni idrok etilgan badiiy manzara hamisha ham adib istaganiday bo'lavermay ba'zan o'quvchi adib mutlaqo ko'zda tutmagan, xayolga keltirmagan, muallifning qarashlariga zid, ammo hayot haqiqati oldida to'g'ri bo'lgan badiiy xulosaga kelishi mumkin. Chunki hayotiy vaziyatning o'zgarishi, ijtimoiy voqelikdagi yangicha holat ba'zan ijodkorning oddiy intim izhori dilidan chuqur ijtimoiy ma'no topishga olib keladi. Badiiy tahlil adabiy asarning hayotiy va badiiy mantiqi hamda estetik jozibasini anglashga yo'naltirilgan ilmiy faoliyatdir. Adabiy tahlilga shu tariqa ta'rif berilganda hodisaga xos deyarli barcha asosiy xususiyatlar qamrab

olnadi, deyish mumkin. Didaktik (o'quv) tahlili – ilmiy tahlil singari faqat ilmiy-estetik faoliyat bo'lib qolmay, balki pedagogik-psixologik jarayon hamdir. Chunki pedagogik maqsadga yo'naltirilganlik har qanday didaktik tahlilning asosiy belgisidir. Dars jarayonida to'g'ri amalga oshirilgan didaktik tahlil o'quvchining badiiy madaniyatini yuksaltiradi, estetik hodisalarni ko'rish, undan mantiqiy-hissiy ta'sirlanish va ular ta'sirida umumlashma xulosalarga kelish qobiliyatini shakllantiradi. Chunki badiiy asar tahlil qilinayotganda tarbiyalanuvchining tafakkuri va hissiyoti faol ishlashga majbur bo'ladi. O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda maktabda o'rganilishi ko'zda tutilgan asarlarni ilmiy va estetik jihatdan to'g'ri tahlil etish hal qiluvchi o'rin tutar ekan, o'quv tahlili va unga xos bo'lgan xususiyatlarni tadqiq etish adabiy ta'lim amaliyotida muhim ahamiyatga molik ekanligi tabiiydir. Har qanday didaktik tahlil ilmiy tahlil darajasiga ko'tarilishga intiladi va filologik tahlil darajasiga yetganda o'quv tahlilidan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishilgan bo'ladi. Ayni vaqtda badiiy asarni didaktik tahlil qilish filologik tahlil etishdan jiddiy farq ham qiladi. O'quv tahlili ilmiy tahlil singari faqat ilmiy-estetik faoliyat bo'lib qolmay, balki pedagogik-psixologik jarayon hamdir. Chunki pedagogik maqsadga yo'naltirilganlik har qanday didaktik tahlilning asosiy belgisidir. Agar filologik tahlil yolg'iz olimning aqliy faoliyati natijasi bo'lsa, o'quv tahlili odamlar bilan bevosita muloqot mobaynida amalga oshiriladigan jarayondir. O'quv tahlilini amalga oshirishdan maqsad badiiy asarni to'g'ri qabul etish orqali o'quvchilarda shaxslik sifatlarini shakllantirish bo'lsa, filologik tahlildan maqsad asarning hayotiy va badiiy mantiqi hamda estetik o'ziga xosligini imkon qadar to'liq ochib berishdan iboratdir. Didaktik tahlilning vazifasi badiiy asarning jozibasini, sirini, o'ziga xosligini, ta'sir ko'rsata olish sabablarini aniqlash orqali talabalarda ta'sirchan qalb, sog'lom estetik did, ravon va ifodali nutq shakllantirish bo'lsa, ilmiy tahlilning vazifasi tekshirilayotgan asarning jamiyat ijtimoiy tafakkuriga ta'siri va milliy badiiyat xazinasida tutgan o'rnini aniqlashdan iboratdir. Didaktik tahlil ilmiy tahlildan farq qilib, mantiqiy sillogizm (xulosa, qonuniyat)larning o'zigagina tayana olmaydi. Negaki o'quv

tahlilida hamisha ma'lum yoshdagi, muayyan sinfdagi, o'ziga yarasha hayotiy tajribaga va o'z yoshi hamda taraqqiyoti darajasiga mos bilimga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi. Ilmiy o'quv tahlili vaqt jihatidan ham cheklangan bo'ladi va tahlil doimo bir dars mobaynida amalga oshirilishi lozim bo'lgan estetik-mantiqiy harakatlardan iborat bo'ladi. Shu ma'noda o'quv tahlili maktab umumpedagogik jarayonining uzviy bir bo'lagi hisoblanadi. Filologik tahlilda tadqiqotchi vaqt jihatdan o'zini cheklamagan holda ish ko'radi. Tahlillovchi uchun badiiy asarning butun sirini to'liq namoyon etishdan bo'lak maqsad yo'q. Badiiy asarning cheklanmagan, adog'i yo'q go'zalligi bilan ish ko'rayotgan adabiyot o'qituvchisi esa o'quvchilar aqliy va hissiy imkoniyatlarining cheklanganligi, muayyan asarni o'rganishga ajratilgan vaqtning chegaralanganligi bilan hamisha hisoblashishga majbur bo'ladi. Didaktik tahlil har bir adabiyot o'qituvchisi uchun doim ikki bosqichli jarayon hisoblanadi. Birinchi bosqichda o'qituvchi darsga tayyogaranish jarayonida ertaga sinfda o'qitiladigan asarni tahlil etadi, bu o'qituvchining yakka tartibidagi tahlili. Ikkinchi bosqichda o'qituvchi bilan sinfdagi o'quvchilar hamkorligida darsda muayyan asar tahlil etiladi. Buni jamoa yordamidagi tahlil deymiz. Didaktik tahlil jarayonida o'quvchilarning ishtirok etishiga ko'ra tahlilni alohida, guruhli, yoppasiga tahlil turlariga ajratish mumkin. O'quvchilar tomonidan berilgan har qanday javob qabul qilinishi kerak. Fikrni aytgan o'quvchi uni asoslaydi, sababini tushuntiradi. Asosiysi, o'quvchilar mavzuga kirishib ketadilar. Ajratilgan vaqt tugagach, o'quvchilar birma – bir timsollarni tanishtirib o'tadilar. O'qituvchi fikrlarni xulosalaydi qaysi guruh qanday bajarganligi izohlaydi. O'qituvchi guruhlarga savol tashlaydi. Har guruhdan o'quvchilar personajlar xususiyatlarini sanaydilar. O'quvchilarni faolligini susaytirmaslik uchun o'qituvchi ularning fikrini noto'g'ri deb aytmasligi lozim. Aksincha, asar bo'yicha savollar berib javoblarni asoslab oladi. Fikrlarni o'qituvchi xulosalaydi, keyingi bosqichga o'tiladi. Bu bosqichda o'quvchilar asar qahramonlarining ijobiy, salbiy va o'xshash tomonlarini topadilar. O'quvchilar timsollarining o'xshash va farqli jihatlarini aytgach, fikrlar

xulosalanadi. O'quvchilardan kutilmagan qiziqarli javoblar chiqishi mumkin. Muhimi, ular mustaqil fikrlaydilar. Yakuniy qismda o'qituvchi darsdan olgan xulosalarini aytib, asarni tahlilini pedagogik-psixologik va ma'naviy-estetik jihatdan maqbulini asoslab berishi lozim. Badiiy asarni mazkur tarzda sinf bilan tahlil qilish, o'quvchi ma'naviyatini shakllantirishga va badiiy adabiyotni o'qishga qiziqishini oshirishda katta ahamiyatga ega.

6.2.Kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok etishidagi psixologik xususiyatlari

Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlar hisobga olinadi. Ruhshunos olimlarning tekshirishlaridan ma'lum bo'lishicha, asarni idrok qilishga, bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga, uni emotsional-estetik his etish ham kiradi. Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o'zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo'lib, asarga unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o'z ichiga oladi. Psixologik tekshirishlar natijasida kichik yoshdagi o'quvchilarning adabiy qahramonlarni idrok etishi va baholashidagi psixologik xususiyatlari o'rganilgan va ular adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo'lishlari aniqlangan:

1. Adabiy qahramonga emotsional munosabat.
2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'quvchilar o'z shaxsiy va axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Bunday axloqiy tushunchalar kichik yoshdagi o'quvchilarda chegaralangan bo'ladi, albatta. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, yaxshilik tushunchalarini ko'p ishlatadilar. Qahramonlarning boshqa sifatlarini tasvirlash uchun ularning so'z boyliklari etishmaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar bilan asarni tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emotsional sifatlarini tasvirlovchi

soʻzlarni kirita borishdan iborat. Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biri hisoblanadi.

Asardagi qahramonlarning xakteri ularning axloqiy sifatlarini anglash asosida tushuniladi. Bunda qahramonning nima qilishi emas, nima uchun shunday qilishi kerakligini bilish muhimdir. Ushbu jarayonda asar qahramonlarining axloqiy sifatleri ustida koʻproq ishlash lozim.

4-sinfda *«Qodir bilan Sobir»* hikoyasidagi Qodir va uning xislatlarini ochishda tanlab oʻqish asosida tarmoqlash usulidan foydalanilishi mumkin. Oʻqituvchi oʻquvchilarga bergan savollariga javobni xattaxtada tarmoqlash usulida yoritib boradi. Masalan, *«Qodir qanday bola?»*, *«Qodirning maqtanchoqligi tasvirlangan oʻrinni topib oʻqing»*, *«Qodirning qoʻrqoqligi ifodalangan oʻrinni topib oʻqing»*, *«Qodirning yolgʻon gapini Sobir qanday toʻgʻriladi? Shu oʻrinni topib oʻqing»*, *«Qodirning zoʻravonligi ifodalangan oʻrinni topib oʻqing. Oʻqigan qismlaringiz asosida Qodirning xususiyatlarini isbotlab bering»* kabi savollar asosida quyidagicha jadval hosil boʻladi.

Zamonaviy maktab oldiga qoʻyilgan vazifalar, kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar umumiy rivojlanishining oʻsganligi, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar sinfda oʻqish mazmuni va oʻqitish metodlariga oʻzgartirish kiritishni talab etmoqda. Shularga bogʻliq holda badiiy asarni tahlil qilish metodikasi takomillashtira borildi: takroriy bayon qilish mashqlari kamaytirildi, ijodiy va oʻqilgan matn yuzasidan oʻz fikrini bayon qilish koʻnikmasini oʻstiradigan mashqlar koʻpaytirildi, asar qismlari ustida emas, balki yaxlit asar ustida ishlanadigan boʻldi, asar gʻoyasi va obrazlarini tushuntirishda oʻquvchilarning mustaqilligi ortdi, matn ustida ishlashda xilma-xil topshiriq turlaridan, taʼlimda texnika vositalaridan va ilgʻor pedagogik texnologiya usullaridan koʻproq foydalanila boshlandi va h. k.

XX asrning 60-yillarida yaratilgan maktab dasturida kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda shakllantiriladigan matn ustida ishlash koʻnikmalari belgilab berildi, shuningdek, 1-4-sinflarda oʻqish malakasiga qoʻyilgan talablar

ancha aniq ajratildi. XX asrning 70-yillari boshlarida mazmuni va metodik apparati jihatidan hayotga yaqinlashtirilgan o'qish kitoblari yaratildi.

Mustaqillik tufayli ta'lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirildi. 1999 yil boshlang'ich ta'limning ham "Davlat ta'lim standarti" yaratildi, o'quv dasturlari yangilandi. 2005 yil tajriba-sinov natijalari hisobga olinib, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi, "O'qish kitobi" darsliklari ham yangilandi.

O'zbek maktablarida taniqli rus metodist-olimlari T. G. Ramzaeva, M. S. Vasileva, V. G. Gorestkiy, K. T. Golenkina, L. A. Gorbushina, M. I. Omorokova, E. A. Nikitina, N. S. Rojdestvenskiylar, o'zbek olimlaridan A.Zunnunov, K.Qosimova, Q.Abdullaeva, S.Matchonov, M.Yusupov, M. Umarova, X.G'ulomovalar ishlab chiqqan takomillashgan sinfda o'qish metodikasidan ijodiy foydalanilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i ham hisoblanadi).

2. Asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, syujet chizig'i, kompozistiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqining o'sishi (lug'atining boyishi va faollashishi)ni ta'minlaydi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lgan muhim omillardan biri uning o'quvchilarga **hissiy ta'siridir**. O'quvchilar muallifning asosiy fikrini

tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Matnni tahlil qilish o'quvchida fikr qo'zg'atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan dalillarga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmati, badiiy go'zalligi ham alohida qayd qilib o'tiladi.

O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qiladi. O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar.

O'quvchilarning nutqini o'stirishda, yuqoridagilar bilan birga, adabiy tushunchalarni shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar.

Boshlang'ich sinflarda asar tahlilida badiiy til vositalari – sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a va adabiy janr turlari – ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq kabilar bilan amaliy ravishda tanishtiriladi.

Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkir syujetlilik va xalq tiliga yaqinligidir. Ertak o'qib bo'lingach, uning badiiy tili ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur.

2-sinf «O'qish kitobi»da keltirilgan *«Karnaychi shoh»* ertagida *«yov qora bulutday yopirilib kelayotgan ekan»*, *«Kuychi terak»* ertagida *«Terakning shoxlari xuddi surnay chalgandek ovoz chiqarib, yaproqlari esa shildirab raqsga tushar ekan»*, *«To'rg'aylar qo'shiq aytib, ularga jo'r bo'lar ekanlar»*, *«Oh, deb nola qilibdi terak»*, *«Ustun ularning nag'malariga jo'r bo'lib, sho'x-sho'x kuy chalibdi»* kabi badiiy vositalar yordamida tasvirlangan manzaralar

juda ko‘p. Ular ustida ishlash o‘quvchi nutqini o‘stirish bilan birga ularni fikr yuritishga, mulohaza qilishga ham o‘rgatadi.

Ertaklarda o‘xshatishlar, jonlantirish va mubolag‘alardan foydalanilgan. O‘quvchilarga ularni izohlab berish, keyinchalik matndan toptirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o‘rgatish zarur.

Asar o‘qib bo‘lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi. Chunki ularning ma‘nosi matndan, asar mazmunidan anglashiladi. Ayniqsa, masallarda allegoriyani ochishda ko‘chma ma‘noli so‘zlardan ko‘p foydalaniladi. Ular bolalarga masal mazmunini tushunishga xalal bergani uchun ayrim ko‘chma ma‘noda ishlatilgan so‘zlar asarni o‘qishdan oldin tushuntiriladi.

3-sinf «O‘qish kitobi»dan o‘rin olgan *«Ayamajiz»* (Qudrat Hikmat) she‘rida *«Bo‘ralar qor kapalak»*, *«Bog‘lar sokin mizg‘ishar, Misoli oq kapalak»*, *«Muz oynalar sovuq eb»* misralarida o‘xshatish, jonlantirish; *«Saxiy ona tabiat»*, *«quchog‘ida havo sof»* misralarida metafora; *«Ayamajiz izg‘iydi, Ko‘chalarda tutoqib, Shox-shabbani tortqilar, Yalmog‘izdek yutoqib»* kabi misralarda jonlantirish va o‘xshatishlar qo‘llangan. Bular ustida ishlaganda quyidagicha savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. *Shoir qorni nimaga o‘xshatadi?* (oq kapalakka).
2. *Ayamajizni nimaga o‘xshatadi?* (Yalmog‘izga).
3. *«Muz oynalar sovuq eb» misrasini qanday tushunasiz? Oyna sovuq qotadimi?*

Ushbu darslikning *«Kumush qish»* bo‘limida *«Qish»* matni berilgan. Ushbu matnda ham ko‘plab jonlantirishlar qo‘llangan. Masalan, *«hamma yoqda sovuq izg‘irin kezadi»*, *«Ingrar og‘riq kabi qari tol, oynalarni bezar qish - gulkor»*, *«Daraxt kurtaklari rohatlanib uxlamoqda»*, *«hozir urug‘lar tinch uyquda»* kabi. Matn tahlilida *«Matnning birinchi qismini o‘qing. Unda qaysi so‘z o‘z ma‘nosidan boshqa ma‘noda qo‘llangan?»* yoki *«Matnning ikkinchi qismida jonsiz narsalar jonlidek tasvirlangan o‘rinlarni topib o‘qing. Boshqa ma‘noda qo‘llangan so‘zlarni o‘z ma‘nosida qo‘llab gap tuzing. Bu so‘zlar*

qanday ma'noda qo'llanganda ta'sirchan bo'ladi?» kabi savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Maqol janrida ham ko'chma ma'noli so'zlar ko'p qo'llanadi. Misol uchun «Yurt boshiga ish tushsa, Er yigit hozir» maqolida *boshiga* so'zi metafora yo'li bilan ma'nosi ko'chgan, o'quvchilarga uning ma'nosi qanday usul bilan ko'chganligi aytilmaydi, faqat boshqa ma'noda qo'llanganligi o'z ma'nosi bilan taqqoslangan holda o'quvchilarga o'rgatiladi.

Tarixiy asarlarda ham ta'sirchan, tasviriy-bo'yoqdor so'zlar ko'p uchraydi. Jumladan, «**Bobur va kabutar**» asarida *hazrat, a'yonlar, oliy hazrat* so'zlari qo'llangan. Asar matnida qadimiy davr bilan bog'liq qo'shimchalarning qo'llanilishi ham asarga joziba bag'ishlaydi. Masalan: «*Kabutar ne deydur?*» kabi. Mazkur asarda ikkinchi shaxs qo'shimchasi o'rnida hurmat ma'nosidagi uchinchi shaxs qo'shimchasi qo'llangan: «*Xatda: Oliy hazrat, qovun ayni pishdi. Kelib qo'l urib bersalar*». Shu o'rindagi «*qo'l urib bersalar*» birikmasi ibora hisoblanadi. Iboralar doim ko'chma ma'no ifodalab, nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Matndan iboralar aniqlangach, ma'nosini izohlashdan tashqari, ularga ma'nodosh yoki qarama-qarshi ma'noli iboralarni topshirish ham yaxshi samara beradi.

Topishmoqlarda ham jonlantirish va o'xshatishlar juda ko'p. Masalan, «*Ayoz bobo novvot sotdi, Olgan edim, qo'lim qotdi*» topishmog'ida o'xshatish, «*Chiq-chiq*» ishlab tolmaydi, tunda uxlab qolmaydi» topishmog'ida jonlantirish qo'llangan.

«**Chumoli va Tipratikan**», «**O'jar toshbaqa**» masallarida ham badiiy til vositalari mavjud. Xususan, ularda «*O'g'irlik mol aylar jonsarak*», «*Bola ko'nglin ko'tarar*», «*Kosang joningga huzur*», «*Senga qalqon usti-bosh*», «*Parcha go'sht bo'lib yurar*», «*Jish Toshbaqa*» kabi ibora, birikma va gaplar uchraydiki, ular ustida ishlashda «*Bunday majorolar qachon va kimlar orasida bo'lib o'tishi mumkin?*», «*Ularga hayotdan misollar keltiring*» kabi topshiriqlar berish, ulardagi ma'noni boshqacha yo'sinda bayon ettirish, o'zaro taqqoslash, ta'sirchanligidagi farqni aniqlatish katta ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Masalan:

«Bola ko'nglin ko'tarar» - Bolasiga yaxshi gaplar gapirar, «Kosang joningga huzur» - Kosang joningni, sog'lig'ingni asraydi» kabi.

Boshlang'ich sinflarda adabiy tushunchalar va badiiy vositalar ustida ishlash o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishga, ularda jonlantirish, o'xshatish, mubolag'a kabi adabiy tushunchalar yuzasidan dastlabki tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

O'qish metodikasi adabiyotshunoslik, psixologiya, pedagogika ishlab bergan nazariy qoidalarga asoslanadi. Sinfda o'qishni to'g'ri uyushtirish uchun o'qituvchi badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlarini, ta'limning turli bosqichlarida o'qish jarayonining psixologik asoslarini, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning matnni idrok etish va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki, matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Asar tahlili jarayonida o'qituvchi savollariga o'quvchilarning o'z so'zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqea-hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo'lmasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o'quvchilarning o'qilgan matn mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi, chunki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, o'quvchilarning o'zlarini ham savol tuzishga o'rgatish lozim. K. D. Ushinskiy qayd etganidek, to'g'ri qo'yilgan masalaning o'zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o'quvchining dars mavzusi bilan bog'liq jihatlariga e'tibor berishi asarda tasvirlangan voqea-hodisalar o'rtasidagi

sababiy bog'lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo'l ochadi. Shuning uchun ham matn yuzasidan savol tuzish o'quvchini ongli va tushunib o'qishga yo'llaydi.

6.3.Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash jarayoni

Badiiy asar ustida ishlash murakkab jarayon bo'lib, o'qituvchi o'qish darslarining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari, badiiy asarining o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarligini hisobga olishni taqozo qiladi.

Badiiy asarda barcha komponentlar o'zaro bog'langan bo'ladi. Asarda obrazlar rivojlanib boradi. Voqealar rivojlanib borgan sari qahramonlarning yangi~yangi tomonlari ochila boradi. Bu xususiyatlari asar ustida ishlashda uni yaxlit o'qishni, idrok etishni, ya'ni sintezni talab qiladi. Asar boshidan oxirigacha o'qilgandan so'ng analiz qilinadi, sung yana yukori sifatli sintezga o'tiladi. Asarni o'qishga kirishishdan oldin o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga tayyorlash lozim bo'ladi. Demak, tayyorgarlik davri — sintez-analiz-sintez jarayoni yuz beradi.

O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi.

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari:

1.O'quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan faktlarni o'quvchilar o'z hayotida kuzatganlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish.

2.Yozuvchining hayoti bilan tanishtirish, yozuvchiga, uning hayotiga ijodiga qiziqish uygotish.

3.O'quvchilarni asarni emotsional idrok etishga tayyorlash.

4.Agar mazmunini tushunishga halal beradigan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini tushuntirishdan iborat.

Tayyorgarlik ishlariniig shakllari xilma—xil bo'lib.O'qituvchi asar mazmunini va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davri uchun 2-5 daqiqa ajratiladi.

Ekskursiya. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag'ishlangan yoki ishlab chiqarish, qurilish, shahar, qishlok hayotiga doir mavzular o'rganilganda foydalanish mumkin. Chunonchi, 2-sinfda "Metropoliten", 1-sinfda "Issiqxonada" kabi materiallarni o'rganishdan oldin ekskursiya qilish maqsadga muvofiq. Ekskursiya uchun reja beriladi va matn o'rganilishidan kamida bir hafta oldin o'quvchilarga e'lon qilinadi.

Film namoyish qilish. Inqilobdan oldingi hayot voqealari tasvirlangan matnlardan oldin film namoyish qilinsa, o'quvchilarning asarni idrok qilishlari faollashadi. Albatta, hozir o'quv filmlari yetarli emas. Ammo videofilmlardan foydalanish mumkin.

O'qituvchi hikoyasi. Asar muallifi haqida ma'lumot berishda eng samarali metod hisoblanadi. Chunonchi 4—sinfda I.Muxammadiyning she'ri o'rganilayotganda shoirning bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilib, ular haqida qisqacha ma'lumot so'zlab berilsa, o'quvchilarning asarni o'qishga qiziqishlari ortadi. Tayyorgarlik davridan so'ng 1~bosqich amalga oshiriladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish jarayonida asarning aniq mazmuni bilan, uning syujet chizig'i bilan tanishtirish, asarning emotsional ta'sirini aniqlashdir.

Matn ifodali o'qib beriladi. (2-sinfda o'rganiladigan "Mehribon qiz" matni magnitafon orqali o'qib eshittiriladi). O'qituvchi o'quvchilarga umumiy taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi.

1.Hikoyani qaysi o'rni sizga yoqdi?

2.Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?

3.Hikoya o'qilganda siz qaysi o'rinda juda xursand bo'ldingiz? kabi savollar beriladi.

Tekshirish uchun savol va topshiriqlar.

1. Boshlang'ich sinflar ona tili dasturi («O'qish» bo'limi) va o'qish kitoblaridan foydalanib, 1-3 sinflarda o'qish tematikasini belgilang.

2. Badiiy asar ustida ishlashning sxematik rejasini tuzing va uni asoslang, badiiy asar ustida ishlashning har bir bosqichi vazifalarini ayting.

3. Matn ustida ishlash yuzasidan o'quvchilar ko'nikmasiga qo'yilgan dastur talablarini tahlil qiling.

4.1-3 sinflar «O'qish kitobi»da berilgan topshiriqlarni guruhlang; o'quvchilarda matn ustida ishlash, xususan, reja tuzish va qayta hikoyalash ko'nikmasini shakllantirish qay darajada amalga oshirilganini aniqlang.

5. «O'qish darslarida bolalarni g'oyaviy-siyosiy tomondan tarbiyalash» yoki «O'qish darslarida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash» mavzusida qisqacha og'zaki axborotga tayyorlaning.

Tayanch so'zlar: analiz bosqichi, sintez bosqichi, sifatli sintez bosqichi, tanlab o'qish, reja tuzish, matnni tasvirlash, ichda o'qish, ovoz chiqarib o'qish.

Badiiy asar matni ustida ishlash. Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi tahlil qilishdir. Bu bosqichning vazifasi: syujet rivojining sabab natija bog'lanishini belgilash, ishtirok etish shaxslarning xulq-atvorini va asosiy xususiyatlarini aniqlash, asar kompozitsiyasini ochishdir.

Tahlil jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Tanlab o'qish. Bunda o'quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o'qiydi. Vazifa asarning faktik mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog'lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin. 4-sinfda "Tabiatdagi o'zgarishlar berilgan qismlarni topib o'qing (Oltin kuz)", "Taqachining nasihatini o'qing (Baq va taqa va hokazo)».

Tanlab o'qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. U o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini o'stirish bilan ularning ijodiy tasavvurini, nutqi va zihnini o'stirishga yordam beradi.

Berilgan savolga o'z so'zi bilan javob berish. Mashqning bu turi o'quvchilarda o'qilganlar yuzasidan muxokama yuritish ko'nikmasini

o‘stirishga, qatnashuvchi shaxslarni baholashga muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g‘oyasi markaziysidagi bog‘lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan va muayyan izchillikda bo‘lishi kerak. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashga o‘rgatilishi lozim. Boshlanrich sinf darsliklarida savollar! a javob berish ish turiga katta o‘rin berilgan. O‘qituvchining vazifasi ana shu savollardan unumli foydalanish va ijodiy xarakterdagi savollarni ko‘proq berishi talab etiladi. 4-sinfda "Qodir bilan Sobir" matni yuzasidan o‘quvchilarn o‘z fikrini aytishga undovchi Sobir o‘qishdan kechikish sababini ochiq aytib to‘g‘ri qildimi? Uning o‘rnida siz bo‘lganingizda nima qilardingiz? Kabi savollar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, og‘zaki nutqlarini o‘stiradi va matnni yaxshi o‘zlashtirishlariga olib keladi.

O‘quvchilarni savol berishga o‘rgatish.

Metodistlarning fikricha to‘g‘ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo‘ladi. O‘quvchilar matnni ongli o‘zlashtira olsalargina u yuzasidan savol bera oladilar. O‘quvchilarni savol berishni o‘rgatishni 2-sinf dan boshlash maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar albatta savolni matn mazmuni bilan bogliq holda tuzishdan o‘rganadilar. Keyinchalik muhokama va ijodiy savollar berishni ham o‘zlashtirib oladilar.

Matnni tasvirlash. Matnni 2 xil tasvirlash mumkin:1) so‘z bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash.

So‘z bilan tasvirlash o‘ziga xos murakkab ish turi bo‘lib, unda manzarani so‘z yordamida aniq qayta hikoyalash talab etiladi. Bunda so‘zlarni aniq tanlashga e‘tibor qaratiladi. Turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning ko‘rinishini, voqea sodir bo‘lgan joylarni tasvirlash topshiriq qilib berilishi mumkin.

Matnni tasvirlashga o‘rgatishni darslikda berilgan rasml matndagi shu rasmga mos qismini taqqoslab tasvirlashdan boshlash kerak.

Grafik tasvirlash ko‘proq uyda bajariladi. Buning uchun o‘quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diktant bilan o‘qib chiqadilar, mazmunini o‘zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar.

Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishga, asosiy fikrni ajratishda, voqealarnyng izchilligini belgilashda, matn qismlarining o‘zaro bog‘lanishini tushunishda o‘quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo‘lishga va har bir qismning asosini topishga o‘rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo‘yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o‘rgatishda o‘qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta’kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining 2- turi o‘qituvchi rahbarligida tanlab o‘qish hisoblanadi, bolalar matndan o‘qituvchi bergan savolga javob bo‘ladigan o‘rinni topib o‘qiydilar.

Reja tuzish osondan qiyinga tamoyili asosida asta murakkablashtirilib muayyan izchillikda o‘tqazib boriladi. 1~ sinf o‘quvchilari o‘qilgan kichik matnga o‘qituvchi rahbarligada so‘roq gap tarzida sarlavha tanlash, 2~ sinfda kichik maqolaning rejasini o‘qituvchi rahbarligida so‘roq yoki darak gap tarzida tuzish, 3-sinfda o‘qilgan matn rejasini jamoa bo‘lib tuzish, 4~ sinfda mustaqil reja tuza olishlari kerak.

Rejaning eng oddiy formasi rasmlı reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o‘rgatiladi; keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o‘zlari so‘z bilan tasvirlaydilar; hikoya o‘qiladi va qismlari bo‘yicha tahlil qilinadi, so‘ng o‘quvchilar matnning 1-qismini o‘qiydilar, o‘qituvchi ulardan qanday rasm chizishni so‘raydi, ish mana shu tarzda davom etadi.

O'quvchilar rasmiy reja tuzishdan logik reja tuzishga o'tadilar, logik reja tuzish quyidagi izchillikda o'rgatiladi:

1.O'qituvchi qismlarga bo'lingan matn tanlab reja tuzadi va matn rejasini o'rni almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo'yadi. O'quvchilar matnning 1— qismini o'qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani topadilar, uni o'qituvchi xattaxtaning o'ng tomoniga yozadi, shunday qilib, xattaxtada o'qilgan matnning rejasi hosil bo'ladi.

2.Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy qismni aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o'qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi .

Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasi tartibida xattaxtaga yoziladi. O'quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib, matnni qismlarga bo'lish topshiriladi. Ular matnni o'qiydilar, 1-sarlavhaga tegishli qismni ajratadilar, keyingi qismni ham shunday belgilanadi. Qismlarga bo'linmagan matn tanalanadi, sarlavhalar aralash tarzda xattaxtaga yoziladi. O'quvchilarga yuqori qismlarga bo'lish topshiriladi. O'quvchilar matnni o'qib nisbiy tugallangan qismni ajratadilar va unga mos sarlavhani xattaxtadan tanlaydilar. Ish shu tarzda davom ettirilib matn rejasi tuziladi.

Reja tuzish uchun so'roq va darak gaplardan va ayrim hollarda atov gaplardan foydalanish mumkin, faqat har bir rejada bir turdagi gaplar ishlatilishi zarur.

Shunday qilib o'quvchilarda matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirishda ular diqqati ishning mazmuni va bajarish yo'llariga qaratiladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1.Boshlang'ich sinflar ona tili dasturi (o'qish bo'limi) va o'qish kitoblaridan foydalanib, 1-3 sinflarda o'qish mavzusini belgilang.

2.Badiiy asar ustida ishlashning sxematik rejasini tuzing va uni asoslang, badiiy asar ustida ishlashning har bir bosqichi vazifalarini ayting.

3. Matn ustida ishlash yuzasidan o'quvchilar ko'nikmasiga qo'yilgan dastur talablarini tahlil qiling.

4.1-3 sinflar «O'qish kitobi»da berilgan topshiriqlarni guruhlang; o'quvchilarda matn ustida ishlash, xususan, reja tuzish va qayta hikoyalash ko'nikmasini shakllantirish qay darajada amalga oshirilganini aniqlang.

5. O'qish darslarida bolalarni g'oyaviy-siyosiy tomondan tarbiyalash yoki o'qish darslarida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash mavzusida qisqacha og'zaki axborotga tayyorlaning.

7-MAVZU. O'QUVCHILARNI PIRLS TOPSHIRIQLARI ASOSIDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISHGA O'RGATISH

Tayanch so'zlar: o'qish, matn, badiiy asar, axborot, PIRLS, o'qish texnikai.,

7.1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish

“O'qish savodxonligi” atamasi o'qish tezligini tekshirishni emas, balki “savodli o'qish”ni anglatadi. Unga ko'ra, o'quvchi mantlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o'z fikrini bayon eta olishi zarur. O'quvchilarga turli matnlar taqdim etiladi: badiiy asarlardan parchalar, biografiyalar, shaxsiy xatlar, hujjatlar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, yo'riqnomalar, reklama e'lonlari, geografik kartalar va b. Ularda axborot turli ko'rinishlarda aks etadi: diagramma, rasm, xarita, jadval, chizma va h.k.

PIRLS - bu turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlarda kitobxonlik sifati monitoringini tadqiq qilishdir. Turli davlatlardagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish sifati va matnni tushunish darajasini, shuningdek, har xil davlatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni taqqoslash va namoyon qilish imkonini beruvchi tadqiqot metodlaridir.

PIRLS tadqiqotlari 2001 yildan boshlab besh yil oralig'ida boshlang'ich ta'lim miqyosida o'tkazib kelinmoqda. U xalqaro tadqiqotlar orasida yuqori o'ringa ega. Bu dasturga kiruvchi davlatlarning soni yildan yilga ortib bormoqda. 2001 yildan boshlab 4 marta o'tkazildi. Oxirgi **PIRLS** tadqiqotlari 2016 yilda o'tkazildi. SHu davrgacha 35 dan 50 gacha bo'lgan davlatlar ishtirok etishdi.

PIRLS tadqiqotlari doirasida turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlarning 4-sinf bituvchilarining o'qish sifati va o'qilgan matnni tushunish darajasi o'rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi.

Tadqiqot jarayonida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

Badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qishda o'qish ko'nikmalarining quyidagi to'rt guruhi baholanadi:

1. Aniq ko'rinishda berilgan ma'lumotni topa olish.
2. Xulosalarni shakllantirish.
3. Ma'lumotlarni umumlashtira olish.
4. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholay olish.

O'quvchilar matnni o'qishlari va savollarga javob berishlari lozim. Bunda ba'zi topshiriqlar tavsiya etilgan variantlardan birini tanlashni nazarda tutsa, boshqalari esa mustaqil javob berishni talab etadi.

Tadqiqotda boshlang'ich sinf bitiruvchilari ishtirok etadi. Aynan shu davrda o'quvchilarning o'qish va matn ustida ishlash malakalari shu darajada

rivojlanadiki, bu yuqori sinflardagi ta'limning samarali bo'lishiga zamin yaratadi.

Turli mamalatlarning maktab dasturlari bir-biridan tubdan farq qilishi hammaga ayon. SHuning uchun turli davlatlardan olingan natijalar o'zaro taqqoslana oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bunday tadqiqot o'tkazuvchi tashkilotchilarning muhim vazifalaridan biridir. Masalan, ko'pchilik davlatlarda bolalar 6 yoshdan maktabda o'qishni boshlashadi. Ammo Angliya va Yangi Zelandiyada ta'lim 5 yoshdan boshlanadi. SHuning uchun, loyihada 4-sinfdan emas 5-sinfdan o'quvchilar ishtirok etishadi. O'qish va matnni tushunish sifati tekshiriladigan o'quvchilarning yoshi 10,5 yoshni tashkil etadi. SHarq mamlakatlarida bolalar 7 yoshdan o'qishni boshlagani uchun ulardan 10,7-10,9 yoshdagi o'quvchilar tadqiqotda ishtirok etishadi.

PIRLS-2001 o'tkazilgan birinchi tadqiqotda Rossiya davlati 35 mamlakatlar ichida 16-o'rinni egallagan. 2017 yilning oxirida **PIRLS- 2016** yilning oxirgi tadqiqotlar natijasi e'lon qilindi. Unda Rossiya davlati birinchi o'rinni egalladi.

7.2 Matnni o'qish va uni tushunish darajasini aniqlash bo'yicha Xalqaro tadqiqot metodlari (PIRLS)

**Matnni o'qish va uni tushunish darajasini aniqlash bo'yicha
topshiriqlardan namunalar**

4-sinf

1-topshiriq. O'qish texnikasini tekshirish.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir qizcha yashar ekan. Qizcha bir kuni o'rmonga maymunjon olib kelish uchun boribdi. U yerda bir kampirni uchratib qolibdi va unga salom beribdi.

– Vaalaykum assalom, – debdi kampir qizchaga. – Menga maymunjonningdan bersang-chi!

– Marhamat, – debdi qizcha. Kampir maymunjonni yeb bo'lib:

– Sen menga maymunjon berding, men senga biron narsa sovg'a qilaman.

Mana senga xurmacha, sen faqat shuni aytishing kerak: Bir, ikki, uch, xurmachada shavla pish. SHunda u shirin, mazali shavla pishira boshlaydi. SHundan so'ng aytasanki: Bir, ikki, uch, pishirishdan kech. SHundan so'ng xurmacha shavla pishirishdan to'xtaydi.

– Rahmat, buvi, – debdi qizcha va xurmachani olib, uyiga – onasining oldiga ketibdi.

Onasi bu xurmachani ko'rib juda suyunibdi. Bir kuni qiz uydan qayoqqadir ketibdi. Onasi bo'lsa xurmachani oldiga qo'yib: Bir, ikki, uch, xurmachada shavla pish, – debdi. Xurmacha shavla pishira boshlabdi. Ko'p shavla pishiribdi. Onasi to'yib-to'yib, ebd. Ammo u xurmachani shavla pishirishdan to'xtatadigan sehrli so'zni unutib qo'yibdi. Xurmacha esa shavlani hadeb pishiraveribdi. Uy ham shavlaga to'libdi, uyning tomi, hovli, hatto ko'chalar ham shavlaga to'lib ketibdi, u hamon to'xtamay shavla pishiraveribdi. Onasi juda ham qo'rqib ketib, qizchasi huzuriga yugurib ketibdi. Lekin yo'lda issiq shavla daryo bo'lib oqqani uchun o'tish juda qiyin ekan. Yaxshiyam qizchasi uzoqda emas ekan. Qizcha ko'chadagi voqeadan xabardor bo'lib, darrov uyga yugurubdi. Juda qiyinchilik bilan kelib, eshikni ochibdi va : Bir, ikki, uch, Pishirishdan kech, – deb qichqiribdi.

1- topshiriq. 1-vazifa. Ertak matnini sekin, yarim ovozda o'qib chiqing. O'qituvchining ishorasi bilan o'qiyotgan joyingizni belgilab qo'ying.

2- topshiriq. 1-vazifa. Matnning bu qismida sehrli xalq ertagining qanday xususiyatlarini uchratish mumkin:

a) sehergarlik ishlari

*b) sehrli buyumning mavjudligi v) sehergarining harakatlari

2- vazifa. Matndan sizning oldingi javoblaringizni tasdiqlovchi gaplarni belgilab chiqing. (*– Sen menga maymunjon berding, men senga biron narsa sovg'a qilaman. Mana senga xurmacha, sen faqat shuni aytishing kerak: Bir, ikki, uch, xurmachada shavla pish.*)

3- vazifa. Boshqa ertaklarda ham qahramoni sehrli buyumga ega bo'lgan shunga o'xshash voqealar uchraydimi? Qaysi ertaklarda? Javobingizni

yozing. («*Ur to 'qmoq!*», «*Uch og'ayni botirlar*» ertaklari)

1- **vazifa.** SHe'rni past ovozda o'qing. SHe'rni qanday ohangda o'qigan ma'qul deb o'ylaysiz?.

a) sekin, o'ychan;

b) g'amgin va qayg'uli;

v) quvnoq, tantanali ohangda;

*g) xotirjam, mayin;

2- **vazifa.** SHe'rdagi qaysi misralarda suvning kayfiyati ifodalangan? To'lqinli chiziqlar bilan belgilang.

3- **vazifa.** SHe'rda shoir suvni nimalarga o'xshatgan? Mana shu misralarni aniqlang. (– *Hoy, sen, jiyron toychamdek*;, *SHamol kabi elishim.*)

4- **vazifa.** Qofiyadosh qatorlarni qalam bilan birlashtiring. (*Toychamdek-bayramdek, shoshasan-toshasan, kelishim-elishim, tog'lardan- bog'lardan.*).

4-topshiriq. Badiiy matnning alohida xususiyatlarini bilish, tilning tasviriy vositalarini anglash.

Yozning issiq kunlari, quyosh tikka ko'tarilgan. Bepoyon, ko'm-ko'k dala ko'ksida yonayotgan quyosh shu'lasini laxcha cho'g' bo'lib, g'o'zalar ustida tovlanib ko'rinadi. Murod bilan ikkimiz mayda-chuydani ko'tarib, katta yo'lning shimol tomonidagi yolg'izoyoq yo'ldan jo'nadik.

Ertalabki shirchoyni bobom bilan birga ichdik. O'rtog'imni hovli orqasidagi boqqa olib chiqdim. Bir tarafi gulzor, ikkinchi tomoni turli meva daraxtlari bilan to'lgan so'lim bog'dan sira chiqib ketgimiz kelmas edi. Oq olma, ko'ksulton rosa pishgan ekan, yeb turgan edik, birdan allaqanday hayvonning qichqirgani eshitildi. Murod taajjublanib atrofiga qaradi. SHu chog' bobomning bo'rsig'i esimga tushdi:

– Nimaning ovozi? – dedi o'rtog'im.

– Bobomning bo'rsig'i-ku!

– Rostdanmi? Qaerda – dedi hayron bo'lib Murod.

– Yur, ko'rsataman, – dedim-da, do'stimni boshlab, bog' etagidagi qafasda turgan bo'rsiq oldiga olib bordim. Qafasda turgan bo'rsiqni har tarafga sakratib,

o'ynatib maza qildik. SHu chog' tog'am chaqirib qoldi. (*G'ayratii*)

1- vazifa. Asardan parchani sekin, yarim ovozda o'qib chiqing. Hikoyada qahramonni hayratga solgan qanday hodisa yuz berdi?

a) g'aroyib qush uchib keldi;

*b) allaqanday hayvonning qichqirgani eshitildi; v) qish keldi va tabiat o'zgacha tusga kirdi;

2- vazifa. Matndan tabiat tasvirini yorqin tasavvur etishga yordam beruvchi sifatlarni aniqlang? (*Bepoyon, ko'm-ko'k, so'lim*)

3- vazifa. Matndan o'xshatish va jonlantirishlar qo'llangan gaplarni toping. (*Bepoyon, ko'm-ko'k dala ko'ksida yonayotgan quyosh shu'lasi laxcha cho'g' bo'lib, g'o'zalar ustida tovlanib ko'rinadi.*)

4- vazifa. Mazkur matnning turini aniqlang. a) mualliflik ertagi

*b) hikoya

v) ilmiy-ommabop maqola

3 Topshiriqlarni bajarish darajalari

1-topshiriq. O'qish tezligi (1 daqiqada 90 so'z hisobida)

1-daraja - 1 daqiqada 70 so'zdan kam. 2-daraja - 1 daqiqada 70-80 so'z

3- Daraja - 1 daqiqada 80-90 so'z

4- daraja - 1 daqiqada me'yordan ko'p

2- topshiriq. Sehrli xalq ertaklarining xususiyatlarini farqlay olish ko'nikmasi.

1-daraja – topshiriq bajarilmagan yoki noto'g'ri bajarilgan. 2-daraja – topshiriqning yarmi bajarilgan.

3-daraja – umuman to'liq bajarilgan, alohida kamchiliklari bor. 4-daraja – barcha savollarga to'g'ri javob berilgan.

3- topshiriq. SHE'r tahlili: o'qilganni tushunish, tasviriy vositalarni anglash, ohang tanlay olish, qofiyani aniqlash ko'nikmasi.

1-daraja – topshiriq bajarilmagan yoki noto'g'ri bajarilgan. 2-daraja – topshiriqning yarmi bajarilgan.

3- daraja – umuman to'liq bajarilgan, alohida kamchiliklari bor.

4- Daraja – barcha savollarga to‘g‘ri javob berilgan, qofiyalar aniqlangan.

5- Badiiy matnning alohida xususiyatlarini bilish, tilning tasviriy vositalarini anglash ko‘nikmasi.

1-daraja – topshiriq bajarilmagan yoki noto‘g‘ri bajarilgan. 2-daraja – topshiriqning yarmi bajarilgan.

3- daraja – umuman to‘liq bajarilgan, alohida kamchiliklari bor.

4- daraja– barcha savol-topshiriqlarga to‘liq va to‘g‘ri javob berilgan.

5- topshiriq. “Masal” haqida savol.

- Doston- bu__.
- Doston muallifi _____
- Doston qanday aytiladi _____
- Dostonni kim aytgan _____
- Dostonda nima hikoya qilinadi? _____

6- topshiriq. Qanday asarlar lirik asar deyiladi?

a) turli o‘y va his-tuyg‘ularni ifodalovchi; b) sahnalashtirish uchun tavsiya qilingan; v) to‘qima asosiga qurilgan.

7- topshiriq. Qaysi masaldan olingan:

“... Men buni sizlarga o‘xshab o‘g‘irlab olib ketayotganim yo‘q. Kuchim etganicha sekin tortib ketyapman. O‘zlaringdan so‘rab, halollik bilan oldim. Halollik shunaqa, kuchga kuch qo‘shadi, — debdi”

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *PIRLS tadqiqoti nima?*
2. *PIRLS tadqiqot bo‘yicha badiiy asarni tahlil qilish bosqichlari.*
3. *Matnni o‘qish, sifati, tushunish bo‘yicha matnni tahlil qilishda PIRLSning talabi*
4. *PIRLS tadqiqotlarining taraqqiyoti*

5. *O‘qish va matnni tushunish sifatini tekshirish bo‘yicha o‘quvchilarning minimal yoshi*
6. *Badiiy matn nima?*
7. *Axborotli matn nima?*
8. *Kitobxonlik malakalari bo‘yicha o‘quv darajalari. PIRLS talabi bo‘yicha nechta darajaga ajratiladi?*

8-MAVZU: HAR XIL JANRDAGI ASARLARNI O‘QITISH METODIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tayanch so‘zlar: hikoya, janr, timsol, portret, syujet, jonlantirish, qayta hikoyalash, izoxli o‘qish, reja, ertak, maishiy, sehrli, xayvonlar haqidagi ertaklar, tasviriy vosita, g‘oyani eshit, she‘r, lirik she‘r, maqola, ilmiy maqola, ilmiy ommabop maqola, vatanparvarlik mavzudagi ilmiy-ommabop maqolalar, milliy urf-odatlar, qadriyatlar mavzudagi ilmiy-ommabop maqolalar, odob-axloq mavzudagi ilmiy-ommabop maqolalar, ilm-fan, ishlab chiqarish mavzudagi ilmiy-ommabop maqolalar, tarixiy mavzudagi ilmiy-ommabop maqolalar, yil fasllari, geografik mavzudagi ilmiy-ommabop maqolalar.

8.1.Ertak o‘qish metodikasi

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarida o‘quvchilarning nutqini oshirish vositalaridan biri to‘g‘ri uyushtirilgan hikoyalardir. Maktab tajribasida to‘liq qisqartirib tanlab va qayta ijodiy hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ertak matnini qayta hikoyalash ancha oson, boshqa janrdagi asarlarni hikoyalash esa nisbatan qiyinroqdir.

Xalq og‘zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligi, o‘tkirligi, ma’nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko‘pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo‘shilib ketadi.

Ertakning o‘tkir, maroqli sujeti, voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezgulik kuchining yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertakda qabul

qilingan hikoya qilish shakli bir xil soʻz va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar koʻpincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi boʻlgan yovuz, baxil, ochkoʻz kishilar timsoli boiadi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, oʻquvchilar unda toʻgʻrilik, halollik gʻalaba qilganidan, kambagʻal kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik roʻyobga chiqqanidan va yomonlik, vovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday boʻlishini istaydilar. Masalan, „Halollik“ ertagida (3-sinf) asosiy fikr kambagʻallarga yordam koʻrsatish, oʻz mehnati bilan hayot kechirish boʻlib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi gʻoyasi ilgari surilgan boʻlsa, „Hiylagarning jazosi“ ertagida esa

(4-sinf) soddadilning toʻgʻriligi hiylagarning makri ustidan gʻolib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi gʻoyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham toʻgʻrisoʻzlilikning gʻalabasi bilan yakunlanadi. Bunday gʻalaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan.

Ertak bolalarda qahramonlarning hatti-harakatini muhokama qilib, baholash koʻnikmasini oʻstirishi bilan birga yaxshilikning doimo gʻalaba qozonishiga ishonch uygʻotadi. Oʻquvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida „Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)“, „Nima uchun?“, „... nima uchun jazolandi? (yoki ragʻbatlantirildi?)“, „Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz oʻgiradi?)“ kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar.

Boshlangʻich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar koʻproq oʻqitiladi. „Boʻrining tabib boʻlgani haqida ertak“ (Anvar Obidjon), „Koʻzacha bilan tulki“ kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida oʻqitiladi va tahlil qilinadi.

Ertak matni ustida ishlashda tanlab oʻqish, savollarga javob berish, oʻquvchilarning oʻzlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni

grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o'quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o'qib tahlil qilganda, barcha ishlar matnning mazmunini yaxshi idrok etishga, sujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning hatti-harakati, o'zaro munosabatlarini to'g'ri tasavvur etishga yo'naltiriladi. Bunda tanlab o'qish va qayta hikoyalashning ahamiyati katta. Masalan, „Odobli bo'lish osonmi?“

(A. Obidjon) ertagining mazmunini o'zlashtirish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:.

1. Sichqonchaning onasi bilan qilgan suhbatini o'qing. Sichqonchaning „Odobli bo'lish uchun nimalar qilish kerak?“ degan savoliga onasi qanday javob qaytarganligini so'zlab bering.

2. Sichqonchaning mushuk bilan uchrashgan holati aks ettirilgan o'rinni topib o'qing. Nima uchun „Shum Baroq“ ko'zidagi yovuzlik birdaniga so'nadi?

3. Echki nima uchun Sichqonchani „Kam bo'lma“ deb duo qiladi? Shu o'rinni topib o'qing.

Ertakni tahlil qilishning oxirgi bosqichida „Ertakning sizga juda yoqqan joyini topib o'qing“, „Nima uchun aynan shu joyi yoqqanini ayting“, „Hayotingizda ertakdagi voqealarga o'xshash voqealar bo'lganmi?“ kabi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, „Davlat“, „Ilm afzal“, „Hiylagarning jazosi“, „Hunarsiz kishi o'limga yaqin“ kabi maishiy ertaklarni ham o'qiydilar. Bunday ertaklarda xalq o'z hayotini hikoya qiladi, shu sababli o'quvchilar ertakni o'qigach, o'tmishdagi xalq hayotini, o'y-fikrlari va orzu-istaklarini bilib oladilar.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq-atvori, ayrim hatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar.

„*Davlat*“ ertagi (4-sinf) oddiy turmushga tegishli hodisalarni tasvirlovchi ertakdir. Ertakni o'qishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofimizdagi tabiatni, borliqni qanday tasavur etishlari haqida suhbat o'tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi badiiy obrazlarni, ularning o'zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, xarakterlarini to'g'ri tushunishga yordam beradi. „*Davlat*“ ertagi matni ustida ishlash jarayonida o'quvchilar „*Dehqonning xonadoni qanday hayot kechirar ekan?*“, „*Nima uchun Davlat dehqonning xonadonidan ketishni istamaydi?*“ kabi savollarga javob topish orqali ertak qahramonlarini baholaydilar, ahil va inoq bo'lib, halol mehnat qilish lozim degan xulosaga keladilar.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina etnas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

O'quvchilarni 1-sinfdan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o'qituvchi aytib berishi mumkin.

O'quvchi ertak mazmunini o'zlashtirib olgandan so'ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o'quvchilarning o'z nutqida til vositalaridan o'rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertak tilida shunday so'z va iboralar borki, ular bolaga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, „Yo'lbars, Tulki va Bo'ri“ ertagida „Tog' echkisi siz **ulug'imizniki** bo'lsin“, „Quyon siz **podshohimizning** ertalabki **nonushtangiz** bo'lsin“, „Kiyik kechqurungi **taomingiz**, qo'y kunduzgi **xo'ragingiz** bo'lsin“ kabi gaplar tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga o'quvchilar diqqati

qaratilib, ertakni soʻzlab berayotganda ulardan nutqda foydalanishlariga erishish zarur.

Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan gʻoyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yoʻli bilan bogʻlanishli nutqni oʻstirish, nutqning taʼsirchanligini oshirish lozim. Masalan, „*Rostgoʻy bola*“ (1-sinf) ertagida bola oʻz rostgoʻyligi bilan podshoga maʼqul boʻlganligi hikoya qilingan. Bu ertakning yangi pedagogik texnologiya asosida oʻtish namunasini quyida keltiramiz:

Mavzu: Oʻzbek xalq ertagi «Rostgoʻy bola»

Maqsad: Toʻgʻri, tez va ifodali oʻqish malakalarini takomillashtirish.

Matn ustida ishlash, tahlil qilish koʻnikmasini mustahkamlash, oʻquvchilarning lugʻat boyligini oshirish.

Oʻquvchilar shaxsida toʻgʻrisoʻzlik, rostgoʻylik kabi ijobiy sifatlarni tarbiyalash.

Darsning shiori:

Biz nimaiki qilmaylik,
Barchasi zarur, kerak.
Bilim egallash uchun
Tinimsiz oʻqish kerak.

Darsning borishi:

1 - modul.

Uyga vazifani tekshirish.

"Maymun va duradgor" haqidagi ertak. Xattaxta oldiga Ikki oʻquvchi chaqiriladi va ular galma galdan ertakni oʻqib, mazmunini soʻzlaydilar. Duradgor kim? U nima ish qiladi? degan savol beriladi va oʻquvchilarning javoblari toʻldiriladi.

2 - modul. Quvnoq daqiqa.

Oʻqituvchi: Yaxshi oʻqish uchun, yaxshi nafas olish kerak.

1) Nafas olishga oid mashqlar:

«Choyni sovit» «Gulni hidla» «Sharni shishir» «Changni hayda».

2) Ovoz mashqi; tovush mashqi: a, o, u, e, i, o'.

-Quyidagi she'rni eshitib bugun qanday mavzu bilan tanishishimizni bilib olarsiz. Yaxshilab e'tibor qiling: To'g'ri so'z bola.
H.H.Niyoziy. (Qisqartirilgani)

Kelmog'ida maktabidan bir o'g'il,
To'xta debon ikki kishi to'sdi yo'l.
Dedi biri:" Tanga berurman sanga
So'zla bir og'izgina yolg'on manga"
Berdi o'g'il fikr ila shirin javob:
"so'zlang ako, qomatingizga qarab.

Bu so'zingiz aslida yolg'on erur
Tangaga yolg'onni kim olg'on erur".

Quyidagi skanerga qarab bugungi o'rganadigan mavzumiz nomini va unga doir so'zlarni toping.

b	r	O	s	t	G	o'	y	b	r
o	o	B	o	l	A	ya	o'	o	o
l	s	Yo	l	g'	O	n	r	l	s
a	t	A	n	g	A	k	k	a	t
r	g	K	i	sh	I	a	k	o	g
o	o'	M	a	k	T	a	b	yu	o'
s	y	S	o'	z	I	ng	i	z	y
t	o	g'	i	z	G	i	n	a	a
g	l	A	r	o	S	t	g	o'	y
o'	y	S	a	n	G	a	k	i	m

Bu jadvalda rostgo'y (5 ta), bola (3 ta), yolg'on, tanga, kishi, ako, maktab, so'zingiz, og'izgina, sanga, kim so'zlari borligini o'quvchilar topadilar.

3 - modul.

Skanerdagi soʻzlarni qatnashtirib gaplar tuzing: Bir ogʻizgina yolgʻon, rostgoʻy bola, yolgʻonchi kishi sanga tanga berurman, dedi va b. Kimlar shu soʻzlar vositasida ertak tuzib beradi. Bolalar oʻzlaricha tuzgan ertaklarini soʻzlab beradilar.

Bugungi oʻtadigan ertagimiz nomini topdingizmi? Bolalar aytadilar (Boʻlmasa oʻqituvchi ertak nomini aytadi: "Rostgoʻy bola"). Kelinglar endi ertakni eshitib koʻramiz. Unda baʼzi notanish soʻzlarga duch kelasizlar. Ularning mazmunini sizlarga tushuntiraman: (xattaxtaga oldindan yozib qoʻyilgan boʻlishi ham mumkin)

Podshoh - yurtni boshqaruvchi kishi.

Vazir - podshohning yordamchisi. Tadbir - oʻylab qilingan ish. Xomush - xafa.

4-modul.

Ertakni oʻqituvchi tomonidan oʻqish, maʼlum bir qismini oʻquvchilar davom ettirishi mumkin.

- Siz yolgʻon gapirgan bolalarni hayotda uchratganmisiz? (Oʻquvchilar javoblari eshitiladi). Rost gapirishning ahamiyatini bilasizmi? Oʻqituvchi rost gapirishning ahamiyati haqida oʻquvchilarning yoshiga mos tushuncha beradi va xalq maqollaridan aytadi (Masalan, "Boshingga qilich kelsa-da, rost gapir"... qolganini oʻquvchilar davom ettiradilar).

5 -modul. Mustaqil oʻqish.

Usul: oʻqituvchi oʻquvchilar bilan birga ovoz chiqarib oʻqiy boshlaydi (oʻquvchilar faqat koʻz bilan oʻqiydilar), oʻqituvchi jim boʻlib, oʻqishni ichida davom ettiradi, oʻquvchilar esa ovoz chiqarib oʻqiydilar, keyin yana oʻqituvchi ovoz chiqarib oʻqiydi, oʻquvchilar koʻz bilan oʻqiydilar va shunday oʻqish ertak oxirigacha davom etadi

Oʻqish oldidan topshiriq: xattaxtada yozilgan soʻzlarni ertakda berilganday izchillikda, soʻzlar qoʻshib yozing:

- Qadimda.
- podshoh boʻlgan.

- Xomush bo‘lib yurgan.
- Vazirning maslahati.
- gul urug‘i,
- farzand qilib olmoqchi.
- vaqt o‘tibdi.
- shahar aylanibdi.
- gullarni ko‘rib o‘taveribdi.
- ko‘zi tushibdi.
- gullar qani?
- qaynattirgan.

6 - modul.

Matnni tahlil qilish uchun savollar.

- Ertak qahramonlari kimlar?
- Quyidagi so‘zlar kim haqida yozilgan: xomush. farzandi yo‘q, gul urug‘i tarqattiribdi. (podshoh).
- Yaxshi farzand topish yo‘lini ertak qahramonlaridan kim maslahat beribdi? (vazir)
- Qanday yo‘l bilan rostgo‘y, aqlli bola tanlandi?
- Keyin nima bo‘ldi?
- podshoh gul urug‘ini nima qilgan ekan?
- Quyidagi hikmatli so‘zlardan qaysi biri ertak mazmunini to‘ldiradi?
- 1.Boshingga qilich kelsada rost gapir.
- 2.Yolg‘onning umri qisqa.
- 3.Boshingga nima kelsa tilingdan kelur.
- 4.To‘g‘rilik baxt keltirar.
- (To‘g‘ri gapirgani uchun bola podshohga farzand bo‘ldi.).
- Markazlarda ishlash.

Sinf jamoasi 5-7 kishidan tahlilchilar, o'quvchilar, tilshunoslar, tadqiqotchilar (boshqalar ham bo'lishi mumkin) kabi guruhlariga bo'linib markazlarda ishlaydilar.

O'qish markazi: «kitoblar olami». I guruh - o'quvchilar.

Topshiriq: Ertakdagi ko'rsatilgan qismni o'qib, uni tiklash (Ertak kserokopiya qilinib, 7 qismga bo'linadi. Har bir qismi kamalakning bir rangiga mos keladigan rangdagi qog'ozlarga yopishtiriladi. O'quvchilar bo'lingan matnni tiklab, to'liq javobni va kamalak rangini hosil qiladilar).

2 guruh - tahlilchilar.

Topshiriq: ijodiy daftarda ishlash (matnga savollar qo'yish)

Yozuv markazi: «ijodiy ish».

Har bir o'quvchining daftarida qahramonlar xislatlariga tegishli so'zlar yozilgan: farzandi yo'q, xomush, ko'p bolalarni ko'rdi, gulsiz tuvak ushlab o'tirgan bolakay.

Topshiriq: Qahramonlarga taalluqli xislatlarni o'qib, kimga tegishlilikini ayting. Ertak qahramonlaridan kimga tegishli gap yo'qligini aniqlang (vazirga tegishli gap yo'q). O'zingiz tanlang.

Ilmiy-tadqiqot markazi.

Topshiriq: Ertakdagi qahramonlarga doir sifatlarni yozish va ularga taalluqli sifatlarni qahramon nomi bilan birga yozing.

Natijada quyidagi jadval hosil bo'ladi: Xomush podshoh. Aqlli vazir. Rostgo'y bola. Yolg'onchi bolalar. Gulsiz tuvak. Prezidentatsiya:

Har bir markazdan bir bola chiqib, o'z ishlarining yakuni haqida so'zlaydilar.

O'qituvchi:

Qarang xattaxtamizda

Hosil bo'ldi kamalak.

Quvonchimiz cheksizdir

Chunki baxtlimiz beshak!

Uyga vazifa.

Har bir guruhga tegishli vazifalar alohida-alohida aytiladi.(bular ijodiy daftarda ishlash, diafilmlar tuzish, matndan bosh g'oyalarni ajratib yozish, ertakdan olgan taassurotlari asosida rasm chizish va h.)

Darsni xulosalash.

- Bu darsdan qanday yangilik o'rgandingiz?
- Sizga nima yoqdi?
- Nima sizga yoqmadi, siz qanday bo'lishini xohlar edingiz?

Demak dars yakunida ertak g'oyasiga mos shunday xulosaga kelinadi: „Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir". O'quvchilar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o'zlari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin.

So'z ma'nolari ustida ishlashda boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos bo'lgan usullardan yana biri rasmdan foydalanishdir. Masalan, 2-sinfda „*Ko'ngilchan o'tinchi*" ertagida *qayin, eman, shumtol, zarang, zirk, tog'terak, qarag'ay, qayrag'och, chinor* kabi daraxt nomlari keltirilgan. Ularni bola ko'z oldiga keltira olmaydi. Ertakni o'qishdan oldin shu daraxt rasmlarini ko'rsatib, uning o'ziga xos xususiyatlarini izohlash va nomlarini aytish lozim. Shundan so'ng didaktik o'yin o'tkaziladi. Bunda daraxt rasmlari bolalarga bo'lib beriladi. Har bir o'quvchi o'ziga berilgan rasmdagi daraxtning nomini aytishi va ertakdagi shu daraxtning so'zini o'z so'zlari bilan aytib berishi kerak bo'ladi.

Shu ertakni o'qib, mazmuni bilan tanishtirilgach, o'quvchilardan *shaylanib, ro'parasida, sharbat, xayrli ish, xivchin, muhayyo* so'zlarining ma'nosi so'raladi. Javoblar to'ldiriladi, umumlashtiriladi.

Ertak matni bilan ishlash jarayonida unda qo'llangan badiiy vositalar. jonlantirish, metafora, mubolag'alar ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Ertak bilan tanishtirish:
- O'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;

- O'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi va hokazo.
- Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;
- Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriyy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);
- Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);
- Ertakni so'zlab berish;
- Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g'oyasini ochish);
- Ma'lum topshiriq asosida ertakni qayta o'qish (ijodiy va mustaqil ishlar);
- Vazifani tekshirish va yakunlash;
- Uyda ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

8.2. Hikoya janridagi asarni o'qitish metodikasi

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

«Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmunini ertakdagidan ortiqroq hayotiydir».

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalari haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. SHuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni

taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad, hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. SHundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin, hikoya janri ham hayotiyligi bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. o'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf «O'qish kitobi»da «Dadam qurgan dengiz» (Hakim Nazir), «Olma» (Malik Murodov), «Ilmli ming yashar» (Nurmat Maqsudiy), «Xazonchinak» (O'. Hoshimov), «Qo'shtarak» (A. Irisov), «Va'da berdi» (K. Ersarin), «Mehnatkash qiz» (Oybek) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarining xarakter - xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Hikoya biror bir davr bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi hikoyalar bilan

tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Masalan, 3-sinfda «Jaloliddin Manguberdi» hikoyasida CHingizxon va uning qo'shinlariga nisbatan nafrat uyg'otilsa, Jaloliddin Manguberdining xatti-harakati orqali ona-Vatanga mehr-muhabbat uyg'otiladi, uning taqdiri orqali o'z ajdodlaridan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda hikoya syujeti, kompozistiyasi, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

«Jaloliddin Manguberdi» hikoyasi qahramonlarini, ularning xatti-harakatlarini o'rganish va tahlil qilishni matnga tayangan holda quyidagi reja asosida amalga oshirish mumkin:

1. CHingizxonning hiyla ishlatgan o'rnini matndan toping. U sizda qanday taassurot qoldirdi?

2. Jaloliddin Manguberdining Eron va Afg'onistonda mo'g'ullarga qarshi kurashib, erishgan g'alabasi tasvirlangan o'rinni topib o'qing.

3. Lashkarboshilarning o'lja taqsimlashi oqibatida nima yuz beradi? Bu o'rinni matndan toping.

4. Jaloliddin Manguberdining jasorati yana qaysi o'rinda ko'rinadi?

5. CHingizxon Jaloliddin Manguberdiga nima uchun tan beradi?

SHundan so'ng o'quvchilar Jaloliddin Manguberdi haqida ongli fikr yuritadilar. CHingizxon bilan Jaloliddin Manguberdining xatti-harakatlarini taqqoslab, farqlaydilar.

Hikoya mazmunini o'zlashtirish bo'yicha matn asosida quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish;
2. Hikoya matniga berilgan savol-topshiriqlarni bajarish;
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarning savollar tuzishi;
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish;
5. Hikoya matnini qismlarga bo'lish;
6. Har bir qismga sarlavha topish;
7. Hikoyaga reja tuzish;
8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash)
9. Reja asosida bayon yozish.

Tahlilda o'qilayotgan hikoya matnining tushunarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarlik deganda yozuvchi yaratgan badiiy olamning o'ziga xosligi, obrazli tasvirning o'quvchi hayotiy tajribasi, bilim darajasiga muvofiqligi nazarda tutiladi.

Hikoyani o'rganishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani izohli o'qish darsini quyidagicha reja asosida olib borish mumkin:

1. Hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyadagi kabi odamlar hayoti va davrga xarakteristika berish va boshqa.);
2. Hikoyani o'qish (bunda to'liq va ma'no jihatdan tugal qismni o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchi ifodali o'qishi mumkin);
3. Lug'at ustida ishlash;
4. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchilarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suhbat);

5. Hikoyani qayta o‘qish (qismlarga bo‘lib, rollarga bo‘lib o‘quvchilarga o‘qitish)

6. Hikoyaning har bir bo‘limi (qismi) yuzasidan suhbat uyushtirish, xikoya rejasini tuzish;

7. Reja asosida qayta hikoyalash;

8. Hikoya asosida ijodiy va mustaqil ishlar;

8.3. She‘r janridagi asarni o‘qitish metodikasi

She‘r - ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq. She‘riy nutqni ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil va bir me‘yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so‘zlar) hisoblanadi⁶.

She‘rni o‘qiganda kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda she‘r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya‘ni she‘riy asarlar va lirik she‘rlar o‘qitiladi.

She‘riy hikoyada syujet, ya‘ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she‘r “biror hayotiy voqea-hodisa ta‘sirida insonda tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali turmushni aks ettiradi”. Lirik she‘rning xususiyati “kishining his-tuyg‘uga to‘la hayajonli nutqini ta‘sirliroq ifodalashda qo‘l keladi”.

She‘rni o‘qish darslarida asosiy ish turi ifodali o‘qish hisoblanadi. O‘quvchi she‘rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o‘qiy oladi. She‘riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo‘llangan ish turlaridan foydalanish mumkin.

Lirik she‘rni o‘qish va tahlil qilish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko‘p hollarda she‘rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she‘riy san‘at hissiyot bilan bog‘liq ekanligi unutiladi, she‘r

⁶ Хомидий . ва бошқ. «Адабиётшунослик терминлари луғати» - Т.: ўқитувчи, 1967, 92 - бет.

ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni o'qish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

She'riy ohangni his qilmaslik, matn so'zlarini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Ma'nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi. Buni deyarli barcha sinflarda o'rganiladigan "*O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi*" misolida ko'rish mumkin. Ma'lumki, madhiya kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallab maxsus yaratilmaydi. Binobarin, uning matnidagi "hur o'lka", "to abad", "ilmu fan", "shuhrating", "ajdodlar", "mardona ruhi senga yor", "o'chmas iymoni", "istiqlol mash'ali", "tinchlik posboni", "haqsevar ona yurt", "mangu bo'l obod", "jo'sh urgan" kabi ko'pdan-ko'p so'zlar, iboralar o'quvchilarga izohlab tushuntirilmasa, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

4-sinfda Q. Hikmatning "*Qish to'zg'itar momiq par*" she'rini o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Ma'lumki, qish fasli go'zal ko'rinishi bilan odamda yoqimli tuyg'ular uyg'otadi. Qishda bolalar chana uchish, qorbobo yasash, qorbo'ron o'ynashdan olam-olam zavq oladilar. Qishdagi sof va toza havogina emas, oppoq qorga burkalib turgan daraxtlar, dala-bog'lar kishida ajib bir kayfiyat uyg'otadi.

"*Qish to'zg'itar momiq par*" (Qudrat Hikmat) she'rini o'rganish jarayonida agar qor yog'magan bo'lsa, ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Qish fasli haqida gapirilar ekan, albatta, "kumush" sifati qo'shib aytiladi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, qorning oppoq bo'lib tovlanishiga, ko'zlarni qamashtirishiga ishoradir. Ushbu she'rni o'rganish darsi dastlab o'quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini

aniqlashdan boshlanadi. Qishning o'ziga xos belgilari, qishda o'ynaladigan o'yinlar, qish manzarasi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. O'quvchilarning qish faslida sovuq bo'lishi tufayli ayrim qushlarning o'lkamizni tark etib janubga uchib ketishlari, qishda sovuqqa mos issiq kiyimlarning kiyilishi haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to'ldiriladi. SHundan so'ng o'qituvchi she'rni ifodali o'qiydi.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqil o'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari kerak, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

O'quvchilar she'r matnini mustaqil o'qiyotganlarida doskaga ma'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi. Masalan, "*Qish to'zg'itar momiq par*" she'ri o'rganilganda "*to'zg'itar*", "*momiq par*", "*oq namat*", "*nazdimda*", "*zarra*" so'zlari izohlanadi. SHundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qittiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Unda quyidagicha savollar berilishi mumkin: "*SHe'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan?*", "*SHoir qor yoqqan joylarni nimaga o'xshatadi?*", "*SHe'rda qor yog'ishi nimaga qiyoslangan?*", "*SHoir qorga qanday murojaat qiladi?*". O'qituvchi berilgan javoblarni to'ldirib, o'quvchilarning qish fasliga doir tushunchalarini boyitadi.

"*Qish*" (Tursunboy Adashbohev) she'rining hajmi unchalik katta emas. Lekin u qishda hayvonlar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarni bilib olishga yaqindan yordam beradi. Bu she'rni o'qishdan oldin ham o'quvchilar bilan

savol-javoblar o'tkaziladi. O'quvchilar diqqati hayvonlarning qishdagi hayotiga qaratiladi. Masalan, qishda yovvoyi quyonlarning rangi o'zgarib, qorda o'zini dushmandan himoya qiladigan oq rangga kirishi, ayiqning o'siq yunglari sovuqda yashashga qo'l kelishi to'g'risida tushuncha beriladi. She'r matni bilan tanishishdan oldin doskaga *“ayoz”, “quyruq”, “so'qmoq”, “piyma”, “po'stin”* *“pahmoq”* so'zlari yozilib, ma'nosi izohlanadi. She'rni navbat bilan o'quvchilarga to'rt-besh marta o'qitilganidan keyin uning mazmuni yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. She'rning to'la mazmuni uch-to'rt o'quvchilarga gapirtiriladi, ularning fikr-mulohazalari to'ldiriladi. Mazkur mavzuni o'rganish jarayonida maktab atrofiga sayohat uyushtirish ham mumkin. Qishda qor bosgan dalalarni, tomlarni, daraxtlarni, odamlarning va qushlarning qishdagi hayotini kuzatish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutqining ifodali, sermazmun bo'lishi uchun boy material beradi.

O'quvchilar barglari to'kilib, sovuqda qor bosib turgan daraxtlarni ko'rar ekan, shu holatni ifodalagan *“qor ko'rpasiga o'rangan yalang'och daraxt”* yoki *“sovuqda mudrayotgan daraxt”* kabi iboralarni topishga harakat qiladi, bu esa o'quvchilarning lug'at boyligining oshishiga xizmat qiladi.

She'r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. SHuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o'zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she'rlar mazmunini to'liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she'rlarni o'qishga maxsus tayyorlaniladi: she'r mazmuniga asos bo'lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so'zlab beriladi yoki suhbat o'tkaziladi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ko'pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

She'riy nutq yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg'u uyg'otadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga she'ni qanday yodlash kerakligi o'rgatiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan she'ni teng satrli bir necha qismga bo'ladi. O'quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to'xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo'lishi shart emasligi, ritmik to'xtamda ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo'lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

Epik (voqeiy) she'rlar yoki she'riy usuldagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan biror voqeani umumlashtirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o'xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so'zlarning qo'llanishi bilan she'riy nutq sanaladi. SHu sababli bunday asarlarni o'rganishda she'r va hikoya ustida ishlash metodikasidan foydalaniladi.

Epik she'rlarni o'qishga o'quvchilar alohida tayyorlanadi, ularda ifoda etilgan voqealar yuz bergan davr haqida tasavvur hosil qilinadi. Bunday she'rlarning mazmuni qay darajada o'zlashtirilganligiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bunda ta'limiy vositalar, rasmlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Asar matni ustida ishlashda uni qismlarga bo'lish, har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlash, reja tuzish va qayta hikoyalash, qahramonlarga tavsif berish va tarbiyaviy xulosalar chiqarish kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

Epik she'rlarning nasriy asarlar kabi tuguni, kulminastion nuqtasi, yechimi mavjud bo'ladi. Shu sababli asar mazmuni savol-topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Savol-topshiriqlar o'quvchilar tomonida ham tuzilishi mumkin.

Bunday she'rlarni tahlil qilish asar voqealari jarayonida qahramon holatlarini o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalandirish imkonini beradi. Bunda ayrim epizodlarga rasmlar ham chizdirish mumkin.

Epik she'rlarning badiiy til vositalari ma'nolarini ochish, ohangdosh so'zlarni aniqlash, band va misralar, bo'g'inlar sonini belgilash, ifodali o'qish, ayrim epizodlarni yod oldirish kabi ish turlari qo'llansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

4-sinf «O'qish kitobi» da «*Mardlik va aql yorug'ligi*» (M. A'zam), «*Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi*», «*SHarq hikoyasi*» (A. Oripov), «*Har kim ekanin o'rar*» (M. Abdurashidxonov), «*Sodda qishloqi va uning eshagi qissasi*» (A. Jomiy), «*Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak*» (A.S. Pushkin), «*Bo'ruining tabib bo'lgani haqida ertak*» kabi epik she'rlar berilgan. Bu asarlar ustida ishlashda ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan ish turlaridan foydalanish kerak.

She'rni izohli o'qish darsining tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) *she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);*
- 2) *she'rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);*
- 3) *she'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);*
- 4) *she'rni yod aytib berishga tayyorlanish.*
- 5) *epik (voqeiy) she'rlar ustida ishlash.*

8.4. Masal janridagi asarlarni o'qitish metodikasi

Masal — axloqiy, satirik va kesatq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar-hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo'lishidan tashqari, kulgili savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan pirovardida qissadan hissa-ibratli xulosa chiqariladi.

Adabiyot nazariyasida masalga liro-epik janrlardan biri sifatida she'riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa sujetli asar deb ta'rif beriladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi.

Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo'lgan kichik piesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa, mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bola oladi.

„Antik adabiyotda Ezop masallari juda mashhur bo'lgan. O'z ma'nosidan ko'chirilgan (majoziy) so'z va kinoyaviy iboralar orqali qilinadigan „yashirincha" tanqidning tili va uslubi Ezopga nisbatan berilib, „Ezop tili" deyilgan va shu ta'bir joriy qilingan".

Mashhur masalnavis Gulxaniyning „Toshbaqa bilan Chayon", „Maymun bilan Najjor" masallari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos keladi. Ularda do'stlik, rostgo'ylik, qo'lidan kelmaydigan ishga urinmaslik kabi g'oyalar ilgari suriladi.

Ma'lumki, tarbiya ko'proq ta'lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg'usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo'ladi va bu orqali o'quvchilar ma'naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayru ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo'ladi.

Jumladan, masal janridagi asarlar ham boladagi qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi. Lekin amaldagi boshlang'ich sinf „O'qish kitobi" darsliklarida masal janriga kam o'rin berilgan. Vaholanki, bola tarbiyasida masalning o'рни beqiyosdir. Masaldagi qissadan hissa o'quvchi matndagi e'tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o'qib o'tib ketgan, yaxshi anglashga harakat qilmagan o'rinni, bo'shliqni to'ldiradi.

3-sinf „O'qish kitobi"dan o'rin olgan „Qaysar buzoqcha" (O.Qo'ch-qorbekov) masali oilasi, o'rtoqlari, do'stlaridan ajralib, yomon yo'llarga kirib

qolgan, oqibatda ko'ngilsiz holatlarga tushib qolgan bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Yaylovda bir buzoqcha
Arazlabdi to'dadan
Ketib qolib uzoqqa,
Adashibdi podadan.

Yakka o'zi o'tlarkan,
Borib yaylov to'riga.
Buzoq shunda to'satdan,
Duch kelibdi bo'riga.

Ma'rasa ham qancha u,
Bilishmabdi do'stlari.
Maza qilib och bo'ri,
O'yib yebdi ko'zlarin.

Bobolar bu haqda der:
"Bo'linganni bo'ri yer".

Ushbu masaldagi asosiy xulosa masal oxirida berilgan qissadan hissada, ya'ni ota-bobolarimiz yaratib, bizga nasihat sifatida qoldirgan „Bo'linganni bo'ri yer" hikmatida o'z ifodasini topgan. Bu hozirgi kunda maqol tusini olgan. Shoir esa bundan juda ustalik bilan foydalangan.

„*Chumoli va Tipratikan*“ masali esa nasriy turga mansub bo'lib, unda Chumoli timsoli orqali bolalar halollikka o'rgatiladi, har bir narsani, u katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar, so'rab olishga, egasining ruxsati bilan foydalanishga da'vat etiladi. Masalni o'qishda bolalar Tipratikan timsoliga tanqidiy nazar bilan yondashadilar, agar o'zining hayotida biron-bir shunday holat-voqea yuz bersa, uni boshqa takrorlamaslikka o'rganadilar.

Masalning, avvalo, ixchamliligi, tilining qisqa va lo'ndaligi, soddaligi, o'tkirligi va xalqchilligi bola hissiyotiga qattiq ta'sir qiladi. Bular o'quvchilar nutqini o'stirishda ham muhim material hisoblanadi. Masal qahramonlarining

xatti-harakatlari, fe'l-atvorlari, nutqiy o'ziga xosliklari o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qiladi. O'quvchi masalni o'rganish orqali quyidagi xulosaga keladi:

Halol boylik qilar sheryurak,

O'g'irlik mol qilar jonsarak.

Masalni o'rganish jarayonida o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Masal nima haqida boradi?

2. Badnafs so'zini qanday tushundingiz? Uning o'rnida yana qanday so'z ishlatish mumkin?

3. Masaldagi maqolning ma'nosini ayting?

O'quvchilar bu savollarga javob berish orqali matn mazmunini to'liq o'zlashtiradilar, xulosa chiqarishga o'rganadilar.

“O'jar Toshbaqa” masalida Toshbaqaning injiqliklari gapga kirmasligi, onasini ranjitishlari ifoda etilgan. Masalni o'qishda quyidagi savollar bilan o'quvchilarga murojaat qilish mumkin:

Masalda nima haqida gap boradi?

Yosh toshbaqa nima deb janjal qildi?

Nima uchun yosh toshbaqa onasidan uzr so'radi?

Masal mazmuniga mos qanday maqol va topishmoqlar bilasiz?

Shuningdek, matndan ona nasihati berilgan o'rinlarni topib o'qittirish ham o'quvchilarning matn mazmunini yaxshi o'zlashtirishlariga va masaldan to'g'ri xulosa chiqarishlarida yaxshi samara beradi. Uyga vazifa masal mazmuniga mos rasm chizish topshiriladi.

Bu masallarning qahramonlarining barchasi hayvonlar: buzoqcha, chumoli, tipratikan, toshbaqa, chayon. Majoziy qahramonlarni tanlashda ham yozuvchi har bir hayvonning xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, buzoqchalar arqondan bo'shatib yuborilsa, shataloq otib, uzoq-uzoqlarga ketib qoladi. Qaysar buzoqcha ham to'dasidan ajralib, bo'riga duch keladi, ya'ni ko'ngilsiz voqea yuz beradi. Buzoqcha orqali onasidan uzoqlashib ketgan bolalar, vatanidan yiroqda turli kulfatlarga duch kelayotgan kishilar nazarda tutilgan.

„Chumoli va Tipratikan" masalidagi majoziy qahramonlar ham aslida jamiyatimiz a'zolaridir. Chumoli hayotdagi halol, pok, to'g'riso'z insonlar bo'lsa, tipratikan o'g'ri, qallob birovning ustidan kuladigan kishilar timsolidir.

„O'jar Toshbaqa" masalidagi Toshbaqa hayotdagi o'jar, qaysar, o'z bilganidan qolmaydigan, ko'ngli tusaganini qiladiganlar timsolidir.

2-sinf „O'qish kitobi"da berilgan „O'roq va Kombayn" masalida o'roq va kombayn asar qahramonlari qilib olingan. Ularning munozarasi orqali texnikaning afzalligi: kam vaqt sarflab, samarali natijaga erishish mumkinligi hamda ularning ahil bo'lib, birgalikda mehnatga bel bog'lashlari kabi g'oyalar ilgari suriladi. Oddiy predmetlar tilga kiradi. Insonlar tomonidan aytiladigan texnika va ish qurollari haqidagi gap-so'zlar bevosita predmetlar tilidan beriladi. Masalan, Kombayn o'roqqa yaqinlashib:

-Ha, O'roq buva, nima bo'ldi sizga?-dedi.

-Hech narsa, shunchaki o'zim, seni ko'rib, avvalgi vaqtlar esimga tushdi. Mana shu yerdagi bug'doyni necha kunlar davomida zo'rg'a o'rardim. O'raverib-o'raverib qaddim yoydek bukilib ketgan,-deydi

Ko'rinadiki, o'quvchi oddiy ish quroli o'rnini texnika egallaganini his qiladi va shunday xulosaga keladi:

Ahillik bor joyda qut-baraka bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda masalni o'rganayotganda bolalarni masalni ifodali o'qishga va uning mazmunini qisqa, ba'zan bir necha so'z bilan aytib berishga, ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aniqlab, o'zaro qiyoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Masalning allegorik mazmuniga to'xtalmasdan, bosh qahramon qiyofasini tahlil qilishga kirishiladi. 1-sinfda bolalar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o'xshash kulguli asar kabi qabul qilsalar, 2-sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlari ba'zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko'proq she'riy tarzda bo'lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib ola boshlaydilar.

Masallarda yashiringan o'tkir kinoya, voqealarning tez-tez o'rin almashinib turishi uni bir maromda o'qishga xalaqit beradi. Shuning uchun ifodali o'qishga yetarli malaka hosil qilmagan o'quvchi avval matn bilan yaxshilab tanishib chiqishi lozim.

Masalan tahlil qilinayotganda, voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o'quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so'z bilan tasvirlash, ba'zilariga o'qituvchi yordamida tavsif berish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo'lib o'qish kabilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Qahramonlarga tavsif berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o'ziga xos xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Masalni ifodali o'qishga tayyorlanishda uning sujetini bilish bilan birga, muallif tilini yaxshi tushunish zarur.

4-sinf „O'qish kitobi"da berilgan Sh. Sa'dullaning „Laqma it" masalida it markaziy timsol sanaladi. Mushuk, sigir, xo'roz, tovuq va kurkalar timsolini it birlashtirib turadi. Shuning o'ziyoq it xarakterini ochish uchun uning atrofidagi timsollarning xarakter xususiyatini bilishni talab etadi.

Mushukning it haqidagi so'zlarini matndan toptirib o'qitish itning xususiyatini ochib beradi:

Ajab bo'ldi uy qurmading.

O'z va'dangda sen turmading.

Yozi bilan laqillading.

Meni ko'rsang akillading.

Sigirning it haqidagi quyidagi so'zlarini ham matndan topib o'qitish orqali itning boshqa xususiyati ochiladi:

— Menga bundoq hiyla qilma

Sigirlarni axmoq bilma....

Uyda yotding oyoq cho'zib

Sog'in sutni hadeb buzib.

So'ng o'quvchilarga itga xos xususiyatlarni ochuvchi so'z va iboralarni toptirib aytiriladi. Shu tariqa o'quvchilar o'qituvchi yordamida itga tavsif

beradilar. So‘ng boshqa timsollar ustida ishlanadi. Bunda taqqoslash usulidan foydalaniladi. Mushukning yaxshi xislatlari sanaladi. Bu kabi tavsiflar sigir, xo‘roz, tovuq, kurkalarga ham beriladi. Qahramonlarga tavsif berish matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. Yozuvchi foydalangan til vositasida o‘quvchilar qahramonlarga tavsif berishga o‘rganadilar, ularning tili ham yangi so‘zlar bilan boyiydi. O‘quvchilarni tavsif berishga o‘rgatish uchun o‘qituvchining o‘zi qahramonni xarakterlovchi so‘z, iboralarni tavsiya qiladi. Ular ichiga masaldagi timsollarga xos bo‘lmagan xususiyatlarni ifodalovchi so‘z, iboralar kiritib qo‘yiladi. O‘quvchi ular ichidan mosini tanlab olish jarayonida mantiqan fikrlaydi. Bu so‘z va iboralar esa bolalar nutqiga ko‘chadi.

4-sinf „O‘qish kitobi“da berilgan „Baqa bilan Taqa“ (Aziz Abdurazzoq) masalida baqa timsoli orqali yozuvchi o‘ziga mos bo‘lmagan, o‘ziga to‘g‘ri kelmaydigan narsalarni orzu qilish va bu orzuni amalga oshirishda boshqalarning maslahati, nasihatiga quloq solmay, o‘z aytganidan qaytmaydigan, o‘jar kishilarni tanqid ostiga oladi. Baqa otlar kabi taqa bilan tovush chiqarib yurishni, yurganda yerni jaranglatib, odamlarga bu dunyoda o‘zining borligini bildirib yashashni istaydi. U taqachining „Taqani o‘ylama, uni otga chiqargan, senga taqa qoqsam, sakrashdan mahrum bo‘lasan... Sen taqa bilan yo‘rg‘alay olmaysan. Yo‘rg‘alashni ham otga chiqargan“, „Sen borligingni bildirib yurmoq-chi bo‘lsang, sayrab yuraver“ deyishlariga quloq solmaydi. Bu o‘jarlik uning boshiga kulfat keltiradi: suv tagiga cho‘kib ketadi. Yonidagi baqalar bo‘lmaganda halok bo‘lishi ham tayin edi. Kech bo‘lsa ham baqa xatosini anglab yetadi, taqachi oldida xijolat chekadi. Bu holatlar o‘quvchini o‘z hayotiga, xatti-harakatiga bir nazar tashlashga undaydi. Ular o‘z tengqurlari kabi yashash kerakligini anglaydilar.

Shunday qilib, masal ustida ishlash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

—*masal mazmunini aniq idrok etish;*

—*kompozitsiyasi, qatnashuvchilarning xarakteriga mos xususiyatlarini, xatti-harakatlarining sabablarini ochish;*

—*allegoriyani aniqlash;*

—*masal xulosasini tahlil qilish.*

Mana shu izchillik hisobga olinsa, masal o'qish darsining qurilishi quyidagicha ba'ladi:

1. Tayyorgarlik ishlari:

a) masal muallifi haqida o'qituvchi hikoyasi;

b) o'qilgan masal mazmuni bilan bog'liq suhbat;

d) o'qilgan masalda qatnashuvchi timsollarga xos xususiyatlar haqida suhbat.

2. Masalni o'qituvchi o'qishi (magnitafon yozuvini eshitish yoki film ko'rsatish ham mumkin).

3. Masal matni ustida ishlash:

a) masalning tuzilishi va kompozitsiyasini aniqlash (o'qish, reja tuzish va hokazo);

b) qatnashuvchilarning xatti-harakati, fe'l-atvori, xarakteriga xos xususiyatlarini tushuntirish (tanlab o'qish, so'z bilan va grafik tasvirlash, savollarga javob berish);

d) masalning aniq mazmunidan kelib chiqib, undagi asosiy fikrni belgilash;

e) krossvordlar, ta'limiy o'yinlar, topishmoqlardan foydalanib, masal mazmuni va g'oyasini o'zlashtirish.

4. Allegoriyani ochish.

5. Axloqiy xulosa aks ettirilgan qismni tahlil qilish.

6. Hayotda uchragan shunga o'xshash hodisalarga taqqoslash

8.5. Ilmiy-ommabop asarlarni o'qitish metodikasi

Boshlang'ich sinflarda ilmiy - ommabop asarlarni o'qitishdan asosiy maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti haqida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undan aniq bilim olishga o'rgatishdan iborat.

Tabiatshunoslikka oid va tarixiy mavzudagi maqolalarni o'qish bilan bog'liq holda tabiat hodisalarini kuzatish (*masalan, daraxt kurtaklarining bo'rtishi*), o'quvchilarni dehqonlar mehnati bilan tanishtirish, mamlakatimizda yuz bergan o'zgarishlarning guvohi va ishtirokchilari bo'lgan insonlar bilan uchrashuvlar uyushtirish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida bilim beradi. O'qish darsliklaridan o'rin olgan *Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur* va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi matnlar o'quvchilarni nafaqat o'tmishimiz bilan tanishtiradi, balki ularning Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatni teran anglashga ham yordam beradi. O'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan ilmiy - ommabop asarlar bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar. Jamiyat taraqqiyoti haqida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada, ayniqsa, milliy istiqloq bilan bog'liq mavzudagi asarlar tahliliga alohida e'tibor berish zarur.

1-sinf dasturida o'qish bilan bog'liq holda kuzatish, sayohat darslari mo'ljallanadi. Masalan, yil fasllarida mavsumiy tabiat hodisalari (*ob-havoning o'zgarishi, o'simlik va hayvonlarning hayoti*)ni, shuningdek, dala mehnatini kuzatish uchun tabiatga (dala, bog', xiyobonlarga) sayohat uyushtirish ko'zda tutiladi. Sayohatda tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar va kishilarning mehnati yuzasidan bolalarning nisbatan uzoq kuzatishlari uyushtiriladi.

Bunday darslarda ko'rgazma sifatida o'quv kinofilmlaridan ham foydalanish mumkin.

Tarixiy mavzudagi maqolalarni unga mos rasmlar bilan bog'lab o'qitish kishilarning baxtli hayot uchun intilishlari, ota-bobolarimizning dushmanlardan Vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib etishga yordam

beradi; o'quvchilar mehnat hayotning asosi ekanligini, insonlar turmushi mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar.

Dasturga ko'ra 2-sinf o'quvchilari «*Toshkent*», «*Toshkent metrosi*» mavzusidagi maqolalarni, 4-sinfda esa «*Asrga tatigulik kun*» (*Chingiz Aytmatov*) asarini o'qish orqali o'tmish ajdodlarimiz, ularning xizmati, vatanimizning hozirgi taraqqiyoti haqida bilib oladilar. Bu maqolalar xalqimizning hayoti, mehnati va kurashi haqida yangi bilim berish bilan birga, bolalarni Vatanga, xalqqa, ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o'qish darsini uyushtirishda quyidagicha reja asos qilib olinishi mumkin:

1. *O'qiladigan matn yuzasidan bolalar tajribasi va bilimni aniqlash, ularni matn mazmunini tushunishga tayyorlash maqsadida taxminiy suhbat o'tkazish;*

2. *Maqolani yoki uning ma'lum bir qismini o'qish, o'quvchiga notanish bo'lgan so'zlar ma'nosi ustida ishlash;*

3. *Maqola rejasini tuzish;*

4. *O'qilgan maqola yuzasidan suhbat uyushtirish;*

5. *Matnning asosiy mazmunini aniqlash va reja qismlarini yoritish;*

6. *Reja asosida maqolani qayta o'qish;*

7. *Maqolani yaxlit o'qish. Bunda bolalarni qayta hikoyalashga tayyorlash va maqola mazmunini yaxshi o'zlashtirishlariga erishish maqsadi ko'zda tutiladi;*

8. *Reja asosida qayta hikoyalash;*

9. *Xulosalash va umumlashtirish.*

Ilmiy-ommabop maqolalarni uzviy birlikda o'rganish o'quvchilarning har bir mavzuda bayon etilgan tarixiy - adabiy hodisalarni, ular o'rtasidagi umumiylikni, har bir davrga ega xususiyatlarni anglab olishlarini ta'minlaydi. Ular bolalarni kelgusida gazeta va jurnallarni o'qishga tayyorlaydi, ijtimoiy - siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o'zlashtirishga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutqini o'stiradi.

8.6. Doston topishmoq, tez aytish, maqol janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi

O‘zbek xalqi og‘zaki ijodi juda uzoq tarixga ega. Og‘zaki ijodning qadimdan shakllangan janri dostonidir. U eng murakkab, yirik va keng tarqalgan shakllardan hisoblanadi. «Doston» so‘zi «qissa», «hikoya», «ta’rif», «maqto‘v», «shon-shuhrat», «sarguzasht» ma’nolarida ishlatiladi. Adabiy atama sifatida yirik hajmli, liro-epik asarlarni anglatadi. Dastlab xalq og‘zaki ijodida shakllangan bu janr keyinchalik yozma adabiyotda ham salmoqli o‘rin tutgan.

Xalq dostonlari maxsus ijrochilar tomonidan kuylangan. Ular hozir ham *baxshi*, *oqin*, *shoir* nomlari bilan ataladi. Xalq dostonlarining matni nazmiy va nasriy parchalardan iborat bo‘lib, mavzusiga ko‘ra xilma-xildir. Xalq dostonlari quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. *Qahramonlik dostonlari*;
2. *Jangnoma dostonlar*;
3. *Ishqiy-romantik dostonlar*;
4. *Tarixiy dostonlar*;
5. *Kitobiy dostonlar*.

Xalqning qahramonona kurashlari qahramonlik dostonlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. «*Alpomish*», «*Yodgor*» kabi xalq qahramonlik dostonlarida fantaziya va romantik tasvirning kuchli bo‘lishiga qaramay, ularning asosini xalq hayoti va kurashi, uning orzu-armonlari tashkil etadi. Xalqqa xos insonparvarlik, vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik, mehnatsevarlik, do‘stlik va sadoqat kabi oliyjanob fazilatlar xalq dostonlaridagi qahramonlar obrazida mujassamlashgan.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darsliklarida doston janriga kam o‘rin berilgan. 3-sinf «O‘qish kitobi» da «*Alpomish*», «*Rustamxon*» dostonlaridan parchalar berilgan bo‘lsa, 4-sinfda M. SHayxzodaning «*Toshkentnoma*» dostoni keltirilgan.

3-sinfda o'quvchilarga doston haqida beriladigan ma'lumot *«Rustamxon»* dostoniga bog'liq holda bayon etiladi. Darsda o'qituvchi doston haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi:

«Doston ham xalq og'zaki ijodining bir turidir. Dostonda xalq hayoti, kurashi va orzu-umidlari aks etadi. O'zbek xalq dostonlarida voqea-hodisalar she'riy va nasriy yo'l bilan ifoda qilinadi, qahramonlarning xususiyatlari, xulq-atvori, ichki kechinmalari va harakati ba'zan baxshi nutqida, ba'zan dostonda qatnashuvchilar nutqida aks etadi. Dostonlarda voqealar ma'lum tartibda beriladi: avval qahramonlarning yoshlik chog'lari, xulq-atvori, keyin voqealar hikoya qilinadi».

Boshlang'ich sinflarda dostonlardan berilgan parchalarda, asosan, qahramonlarning bolalik davri aks etgan epizodlar keltiriladi. Bunda bolalarni qahramonlikka, Vatanga sadoqatli bo'lishga chorlovchi voqealar tasvirlanadi. 3-sinf darsligidan o'rin olgan *«Rustamxon»*, *«Alpomish»* dostonlari xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lganligi uchun muallif haqida ma'lumot berilmaydi. Faqat bu dostonlar o'rganiladigan darslarda dostonni qo'shiq qilib aytadigan baxshilar haqida ma'lumot berish mumkin.

Qahramonlik dostonlari tahlilida voqealar rivojiga, qahramonlar hayotiga alohida e'tibor qaratiladi. Dostondagi mubolag'a, favqulodda yuz beradigan vaziyatlar aniqlanadi, doston qahramonlariga tavsif berish va tarbiyaviy xulosa chiqarishda o'quvchilarning mustaqil mulohaza yuritishlari uchun sharoit yaratiladi.

4-sinfda yozuvchi Maqsud SHayxzoda tomonidan yaratilgan *«Toshkentnoma»* nomli dostoni o'rganiladi. Bu dostonni quyidagi tartibda o'rganish mumkin:

1. 3-sinfda doston haqida olingan bilimlar esga olinadi va to'ldiriladi.
2. Dostonni o'qishdan oldin uning muallifi - Maqsud SHayxzoda haqida ma'lumot beriladi.
3. O'qituvchi dostonni ifodali o'qib beradi.

4. Doston yuzasidan dastlabki suhbat o'tkaziladi. Suhbatda o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi: «Doston qaysi shahar haqida ekan?», «Dostonni o'qish orqali Toshkent shahri haqida yana nimalarni bilib oldingiz?» va hok.

5. Doston qismlarga bo'linib, o'quvchilarga o'qitiladi.

6. Doston mazmuni to'liq qayta hikoya qildiriladi. Bunda bir o'quvchi mazmunni gapirib berishi yoki bir necha o'quvchi ketma-ket davom ettirishi mumkin.

7. Doston matni ustida ishlashda dostondagi badiiy vositalarga e'tibor qaratiladi, asar mazmuni yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish, dostonning ba'zi epizodlariga rasmlar chizdirish, dostonga reja tuzish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

8. Umumlashtiruvchi suhbat o'tkaziladi. Bunda «Toshkentda uch fasl yoz», «Osiyoning qo'ynida yashil shahar bor» kabi gaplarni o'quvchilar qanday tushunganliklari so'raladi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, dostonni o'rganish darsining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Tayyorgarlik ishlari (bunda doston xususiyatlari va qaysi sinfda o'qitilishiga mos ravishda ish turlari tanlanadi);

2. Dostonni o'quvchi ifodali o'qishi yoki baxshi aytganini eshittirish;

3. Dostonni qismlarga bo'lib o'qish;

4. Doston mazmunini tahlil qilish;

5. Dostonda o'quvchilar tushunishi qiyin bo'lgan so'z va so'z birikmalarining ma'nosi ustida ishlash;

6. Dostondagi badiiy san'atlar ustida ishlash;

7. Dostonni qismlarga bo'lish va reja tuzish;

8. Dostonni to'liq qayta hikoyalash;

9. Umumlashtiruvchi suhbat.

Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash

asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi.

Topishmoqda yashirilgan narsalar uning javobi hisoblanadi. Topishmoqning javobini topish uchun topishmoq matnini e'tibor bilan o'qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash, topishmoqning asosiy xususiyat va belgilari aynan nimaga qaratilganligini taxmin qilish bilan ham topishga harakat qilish kerak.

Topishmoq o'quvchilarni topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Shu sababli xalq og'zaki ijodining bu janridan darsliklarda ham keng qo'llanilgan. 1—2-sinf „O'qish kitobi" da topishmoqlar ko'proq, har bir matn ostida keltirilgan. Bundan ko'zlangan maqsad matn mazmunini topishmoqlar asosida ham o'zlashtirilishiga erishishdir. Masalan, 1-sinf „O'qish kitobi" da „Kitobga mehr" matni ostida „Qat-qat qatlama, Aqling bo'lsa tashlama" topishmog'i keltirilgan va mavzuga juda mos tanlangan. Topishmoqlar bunday shaklda berilganda ularning javobi oson topiladi. 1-4-sinf o'qish darsliklarida „Topishmoqlar" mavzusi ostida har xil topishmoqlar ham berilgan bo'lib, ular o'quvchilarning topqirligini yanada oshiradi, tafakkurini o'stiradi. 2-sinf „O'qish" darsligida topishmoq javoblari ularning ostiga yozib qo'yilgan yoki rasmlar orqali berilgan.

- Osti tosh, usti tosh
O'rtasida jonli bosh. **(Toshbaqa)**
- Zuv-zuv borar, zuv-zuv kelar,
Doston o'qir, g'alvir to'qir. **(O'rgimchak)**
- To'rttir uning oyog'i,
Temir mixli tuyog'i.
Manzilga yetishtirar,
Toshdan qattiq tuyog'i. **(ot)**
- Yorug'i bor, dovrug'i bor,

O‘zi yo‘q, ovozi bor. **(Momaqalldiroq)**

3-4-sinflarga o‘tgach esa javoblar qayd etilmagan. Buning sababi shuki, bu davrga kelib o‘quvchilar topishmoqlar ustida ishlash ko‘nikmalarini hosil qilgan bo‘ladi.

Topishmoqlar bolalar shoirlari tomonidan ham yaratilib kelinmoqda. Bunday topishmoqlar sho‘x, qiziqarli bo‘ladi. Masalan, 4-sinf “O‘qish kitobi” da “Buni toping, qizlarim” (G'. G'ulom) topishmoqlari keltirilgan.

O‘tda yonmaydi,

Suvda botmaydi.

Ayoz bobo novvot sotdi,

Olgan edim qo‘lim qotdi.

Osmondan par tushadi,

Par emas zar tushadi.

Eritadi muzni

Qamashtirar ko‘zni.

“Chiq-chiq” ishlab tolmaydi,

Tunda uxlab qolmaydi.

Pichoq kessa qon chiqar,

Po‘choq ketsa don chiqar.

Bolalarni nutqini o‘rgatishda topishmoqlar alohida o‘rin tutadi. Ma’lumki, topishmoqlar narsa yoki hodisalarning qisqacha ta’rifi bo‘lib hisoblanadi. "Topishmoq, — deb yozadi adabiyotshunos M. Abdurahmonov, — narsa yoki voqelik tushunchasini ongli ravishda yashirishga, sir tutishga asoslangan kichik poetik asardir".

Topishmoqlarda insonning turmushi bilan bog‘liq bo‘lgan, uning tevarakatdagi narsa va hodisalar, buyumlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi kabilar ta’riflanadi. Ko‘pincha topishmoqlarda narsa va hodisalarning hajmi, shakli, rangi, tovushi, mazasi, harakati kabi belgilari beriladi.

Topishmoq bolalarni obrazli va aniq so‘zlashga o‘rgatishni osonlashtiradi. Topqirlik, aqliy faollik kabi holatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Maktab yoshidagi bolalar uchun tanlangan topishmoqlar sodda, qisqa va tushunarli bo'lishi kerak. Shu bois topishmoqlarni tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, ayniqsa, o'zga tilni o'zlashtirish imkonini hisobga olishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tanlangan topishmoqlarda narsa va hodisalarning eng muhim belgilari ifodalanishidan unumli foydalanish zarur. Masalan, hayvonlar haqidagi topishmoqlarda bunday belgi ularning ovozi hisoblanadi:

Vov-vov deydi, baqiradi,
Tug'ishganin chaqiradi. (It)

Topishmoqlarni tanlashda, albatta, bolaning tarbiyasi va yoshi hisobga olinishi kerak. Chunki umrida eshitmagan yoki ko'rmagan narsasi haqida aytilgan topishmoqni bola hech qachon topa olmaydi. Shuning uchun ham topishmoqlar asosan, nomi o'zlashtirib olingan narsa va hodisalar haqida boradi. Topishmoqlar orqali bolalarning mavjud bilimlari mustahkamlanadi.

—Topishmoqlar o'qish darsi mashg'ulotida o'tilayotgan mavzuga ham muvofiq bo'lishi kerak. Aks holda bolaning diqqati chalg'iydi va ko'zlangan maqsadga erishish qiyin kechadi. Topishmoqlar ustida quyidagi tarzda ish olib borgan ma'qul: topishmoqda ko'rsatilgan narsa va hodisa belgilarini tushunib olish, ya'ni tahlil qilish;

—bu belgilarni bir-biriga taqqoslash va umumlashtirish;

- aniqlangan belgilar asosida xulosa chiqarish, ya'ni topishmoqning javobini topish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari topishmoq matni ustida ishlashda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

1. Ko'pincha bolalar javob berishga shoshilib, topishmoqni oxirigacha eshitmaydi, uni har tomonlama batafsil tushunib yetmaydi. Ularning diqqati matndagi birorta belgiga bog'lanib qoladi. Xulosani ular faqat shu yagona belgi asosida, qolganlarini e'tiborga olmagan holda chiqaradilar. Topishmoqni topish

uchun muhim bo'lgan belgi esa e'tiborga olinmaydi. Bunday vaqtda topishmoqni topish qiyinlashadi.

2. Topishmoq yechishda uning ma'nosini bolalarning yaxshi tushunib olishiga, izchillik va tartib bilan fikr yuritishiga harakat qilish kerak. Bunda fikr yuritish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- umumiy ko'rinishda nimani qidirishni aniqlash;
- qolgan hamma belgilarni aniqlash;
- taxmin qilinayotgan yechimni keltirish;
- aniqlangan belgilarni birlashtirish;
- xulosa chiqarish.

O'qituvchi topishmoqlarni ifodali tarzda bayon etadi, bolalar aytilayotgan narsa-buyumning hamma belgilarini eslab qolishlari uchun matnni qaytaradi. Savollar yordamida bolalarning e'tiborini belgilarga va ular orasidagi aloqaga qaratish kerak.

Bir narsa haqida turli topishmoqlar aytilishi bolalar lug'atini boyitish imkonini beradi.

Topishmoq topishni yengillashtirish uchun o'qituvchi bolalarga topishmoq yuzasidan quyidagicha savollar berishi mumkin:

"Topinglar-chi, bu mevami yoki sabzavotmi?"

U qaerda o'sadi?

Bu qanday faslda bo'ladi?

Bu qaysi hayvon ekan?" kabi. So'ng topishmoqni ifodali o'qib, rasmga qarab uning javobini topishni taklif qiladi. Masalan, "Stolni bezatish" o'yinida stol tasvirlangan rasm tanlab olinadi, idishlar hamda oziq-ovqat rasmlari va ular haqida topishmoqlar tayyorlanadi. Topishmoqqa javob bo'lgan rasmni bolalarning o'zlari tanlaydilar. Topishmoqni rasmga qarab topish uni topishda yordamchi savollar berish yaxshi samara beradish Ba'zan fasllarga bog'liq she'rlar, tez aytishlar, topishmoqlarni ham o'rgatib borish kerak. Yuqorida aytilganidek, bolalarni qiyin tovushlarni to'g'ri talafruz qilishga, topishmoqlar orqali ularning fikrlash qobiliyatini o'stirishga erishiladi. O'quvchilarga:

Qishin-yozin bir xil kiyimda (Archa);

U tushganda dala-qir,

Kuladi qiqir-qiqir (Yomg'ir) —

kabi kichik va qiziq topishmoqlarni o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Tez aytishlar ma'lum so'zni, so'z birikmasini yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatadigan, xotirani mustahkamlaydigan va nutqni o'stiradigan, o'qish sur'atini oshiradigan janr hisoblanadi. Shu sababli 1-sinfda ko'pgina tez aytishlar keltirilgan. Masalan, "Botir botmas botqoqqa", „Qobil qozonda qovurdoq qovurdi", „Bahodir bayroqni Botirga berdimi, Botir Bahodirga bayroqni berdimi?", "Olim oldidagi oltita olmani oldi" va boshq. 2-sinfda esa quyidagi tez aytishlar keltirilgan:

Qobil qahraton qishda qishloqda qishladi.

Qahraton qishda Qobil qishladi.

Bu tez aytishni o'rgangandan keyin **qish, qor, sovuq, muz, yax, yaxmalak, sumalak, ayoq** so'zlari ishtirokida hikoya tuzish o'quvchilarga topshiriladi. O'quvchilar quyidagicha hikoya tuzishlari mumkin.

Qish keldi. Kunlar sovidi. Qor yog'a boshladi. Suvlar muzladi tarnovlarda sumalaklar paydo bo'ldi. Biz bolalar yaxda yaxmalak ucha boshladik. Ayoq bobo oynalarga gul solib ketdi.

Bunday hikoyalarni tuzish orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyati shakllanadi, dunyoqarashi kengayadi, og'zaki nutqi oshadi.

Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uloqcham uzun quloq.

Qo'ng'iroq qo'g'irchoqnikimi, qo'zichoqnikimi?

Shuningdek 3-sinfda ham tez aytishlar keltirilgan:

Qishda qatiq qattiq qotib qolibdi.

Tolib tandir tagidan tanga topdi.

San'at saroyi – saroylarning sarasi.

Salimning sadadagi sap-sariq sa'vasi sahar sayraydi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinf darsliklariga o'quvchilar yoshiga mos, mavzular bo'yicha tanlab olingan,

Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ongli ravishda ta'lim metodikasiga asoslanadigan "tilni sezish" shakllanadi. Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, ikki nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Tilni o'rganish jarayonida bolalarni turli xil rollarni bajarishga, bir-birlari bilan gaplashishi, o'yinchoqlari bilan muloqotda bo'lishga, o'z ismini va ota-onalarining ismini aytishga, boshqa bolaning ismini so'rashga o'rgatib borish zarur. Bu jarayonda bolalarning o'yin mashqlarini bajarishi orqali lug'at boyligi o'sib borishi bilan birga, so'zlarni bir-biriga moslashtirish, ularni o'z o'rnida qo'llay bilish malakasi o'sadi.

Bolalar lug'atini boyitish, nutqining ravon, silliq va ta'sirchanligini ta'minlashda bolalar adabiyoti ustida ishlash, shubhasiz, yaxshi natija beradi. Boshlang'ich sinflarda ayrim bolalar nutq madaniyati boshqa bolalarga qaraganda birmuncha yaxshi bo'ladi. Ular so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladilar, savollarga qiynalmay, erkin javob beradilar. Lekin ko'pchilik bolalar nutqida ba'zi nuqsonlar uchrab turadi. Masalan, s, z, sh, k, ch, b, p, g, j, r kabi undoshlar talaffuzida bu ko'proq seziladi. O'qituvchi bolalar bilan ishlashda shunday nuqsonlarni bartaraf etishga e'tibor berishi lozim. Buning uchun turli usul va vositalardan foydalanish mumkin. So'zlarning talaffuzi ustida maxsus qo'shimcha ish olib borilishi lozim. Buning uchun mashg'ulotning o'zi yetarli emas. Mashg'ulotdan tashqari sayr paytida, didaktik o'yinlar o'tkazilayotgan vaqtda bolalar bilan yakka tartibda ishlashga ham to'g'ri keladi. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishda quyidagi mashqlarni qo'llash yaxshi samara beradi:

1. So'zlarni bo'g'in va tovush tomondan tahlil qilish.
2. Bo'g'inlardagi harflarning tovush tomondan to'g'ri talaffuz qilinishiga e'tibor berish, ya'ni fonematik eshitishni rivojlantirish.

Bu bolalar talaffuzida qiynalayotgan tovushlarning paydo bo'lish o'rnini og'iz bo'shlig'ida hosil bo'lishiga (artikulyatsiyaga) diqqat qaratishni taqozo etadi. Masalan, r undoshi tilning orqa tanglayga tegib, tovush paychalarining

titrab chiqishi natijasida hosil bo'lishi, b undoshi ikki labning mahkam jipslashuvi natijasida o'pkadan chiqayotgan havoning portlashidan hosil bo'lishini amaliy ko'rsatish zarur. Talaffuzi qiyin tovushlarni biror hayvon yoki parrandalarning ovozigacha taqlid qilish va uni takror-takror mashq qilish ham yaxshi natija beradi.

— Bolalar, qurbaqa qanday sayraydi?

— Qurbaqa "qur-r, qur-r" deb sayraydi.

— Kechqurunlari chigirtkalarining ovozi eshitganmisiz?

— Qishda kunlar isib qolgan vaqtda qarg'alar qanday ovoz beradi?

— Traktor yurganda qanday ovoz chiqaradi?

"Sh" tovushining to'g'ri talaffuzini o'rgatish uchun:

— Hon sudralganda qanday ovoz chiqaradi?

— Vish-vish-vish.

Ba'zan buyumlarning nomini takror-takror aytiriladi: shar, arra, choynak, cho'mich, chaqich kabi. Shuningdek, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishda tez aytishlardan ham foydalanish mumkin. Masalan, s, sh, g undoshlarining to'g'ri talaffuzi uchun, avvalo, quyidagicha mashqlarni o'tkazish lozim:

So-so-so-so Sodiq, sochiq, somon.

Sa-sa-sa-sa sa'va, sariq, sayr.

Sha-sha-sha-sha sharshara, Shahlo, shaqildoq.

Sho-sho-sho-sho sholi, oqshom, sholg'om.

Ra-ra-ra-ra rasm, randa, raketa.

Ro-ro-ro-ro rom, rohat, rost.

Bu mashqlarni bolalar o'qituvchi bilan birgalikda shoshilmay, bo'g'iniarni ifodali qilib aytadilar. Keyinchalik mazkur bo'g'inlar qatnashgan so'zlarning to'g'ri talaffuzini mashq qiladilar. So'ngra tez aytish mashqiga o'tish mumkin:

Sodiq sochini sochiqqa artdimi,

Sodiq sochiqqa sochini artdimi?

Saodat soatni soatsozga sozlatdi

Shahlo shaqildoqni shoshib shaqillatdi.

Tohirning traktori tog' orqasida tirilladi.

Tez aytishni dastlab asta-asta aytib, keyin bir nafasda necha marta ayta olishga e'tibor qaratiladi. Tez aytish jarayonida o'qituvchi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishi, tovushlarni bir-biridan farqlashlariga e'tibor berishi, bolalar nutqini doim kuzatib borishi va xatolarni tuzatib borishi lozim. Boshqa millat bolalarining ham davlat tili bo'lgan o'zbek tilini egallashlariga harakat qilishi, tilimizga muhabbat uyg'otishi zarur.

Bola zerikmasligi, toliqmasligi uchun o'qituvchi albatta belgilangan vaqtda jismoniy tarbiya mashqlarini o'tkazishi kerak. Bu bolalarni charchashdan saqlaydi, ongini rivojlantiradi, nutqini faollashtiradi.

Tez aytishlar

O'zim uzum uzib yedim. -z-m.

Olma shoxida olmaxon, Olmaxonni olma Olimxon. -m-1.

To'lqin turpni tunda to'pladi. -r-t.

Bo'ri boqqa, Soqi toqqa bordi. -q-t.

Jo'ja cho'chib go'ja cho'qir. -ch-j.

Bir tup tut, tut tagida turp, Tut turpni turtib turibdi, turp tutni turtib turibdi. -t-r.

Sora allalaydi, Rashid arralaydi. -r-1.

Hashar — hashardan shahar yashar. -sh-r.

Bolalar bilan tez aytishlar mashq qilinganda shoir va yozuvchilarning asarlaridan, xalq ertaklari va maqollardan ham foydalanish mumkin. Masalan, "Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda, to'q ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, yo'lbars o'kirar ekan, xo'roz qichqirar ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan. Ana shunday zamonda qora tovuqdek qaqillagan bir kampir bo'lgan ekan".

Shuningdek, quyidagicha badiiy asarlar matnidan foydalanib ham mashqlar o'tkazish mumkin:

"Bir boy bor ekan,

uning oti Jomboy ekan,

o‘zi juda boy ekan,
bir choynakda aynab qolgan choy ekan,
yomg‘ir yoqqanda bulutlar orasidan mo‘ralab turgan oy ekan,
suv o‘tmagan soy ekan,
birov minmagan toy ekan,
kigiz ko‘rpasi yo‘q,
birov yotmagan joy ekan,
hech kim ichmagan choy ekan,
ana shunday dong‘i ketgan boy ekan".

Bolalar adabiyoti bilan ishlashda, o‘qilgan asardagi talaffuzi quyin bo‘lgan so‘zlarni o‘rgatish bilan ham, kundalik turmushda qo‘llanadigan so‘zlarga diqqatlarini qaratish bilan ham ularning lug‘at boyliklarini kengaytirib borish mumkin. Asar till ustida ishlashda muallif tomonidan qo‘llangan ko‘p ma’noli, ma’nolari bir-biriga yaqin hamda qarama-qarshi ma’noli so‘zlar, ayrim so‘z birikmalari bilan ishlash nutq o‘stirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bunday so‘zlar ustida ishlash bilan bolalar yangi bilim va tasavvurlarga ega bo‘ladilar. Ba‘zan fasllarga bog‘liq she‘rlar, tez aytishlar, topishmoqlarni ham o‘rgatib borish kerak. Yuqorida aytilganidek, bolalarni qiyin tovushlarni to‘g‘ri talafuz qilishga, tez-aytishlar orqali ularning fikrlash qobiliyatini o‘stirishga erishiladi.

Maqol turmush tajribalari zaminida tug‘ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko‘pincha she‘riy shakldagi hikmatli so‘zlar, chuqur ma’noli iboralardir. Maqollar xilma-xil mavzularda bo‘lib, hayotning turli masalalarini qamrab oladi. Ko‘pincha maqol o‘git, nasihat xarakterida bo‘ladi: “Yer haydasang - kuz hayda, Kuz haydamasang yuz hayda”, „Hunari yo‘q kishining, mazasi yo‘q ishining" kabi.

Maqol xalq og‘zaki ijodining juda qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, unda xilma-xil badiiy ifoda vositalari-ohangdosh tovuslilar takrori bo‘ladi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo‘lgan ajoyib so‘z ustalarining o‘lmas satr va hikmatli so‘zlari ham ko‘pincha xalq maqollariga o‘xshab ketadi. Masalan,

A.Navoiyning „Mahbub ul-qulub” asarida aytgan bir qancha hikmatli soʻzlari shular jumlasidandir: „Oz-oz oʻrganib dono boʻlur, qatra-qatra yigʻilib daryo boʻlur”, „Tilga ixtiyorsiz-elga eʼtiborsiz” va boshq.

Maʼlumki, badiiy asar matni ustida ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Maqollarni oʻrganishda ham bu bosqichlarga eʼtibor qaratish kerak. 1-2-sinflar maqollarni oʻrganishning birinchi bosqichi boʻlsa, savod oʻrgatish davri maqollarni oʻqish va oʻrganishning tayyorlov bosqichidir.

Savod oʻrgatish davridayoq oʻquvchilar maqollarni oʻqiydilar. Alifbe davrida berilgan maqollar matn mazmuni bilan bogʻliq boʻlib, ular matn gʻoyasini oʻquvchilarga loʻnda, aniq yetkazish uchun ham xizmat qiladi. Bu vaqtda oʻquvchilarga maqollar oʻqitiladi, maʼnosini bilganlaricha izohlab berishlari soʻraladi. Oʻquvchilar javobini oʻqituvchi toʻldirib, misollar bilan dalillab

2-KEYS: Sinfda oʻqish darslarini tashkil etish

Kirish. Oʻquv materiallari bolalarga taʼlim berish, ularni tarbiyalashda muhim boʻlgan borliq haqidagi bilimlarni oʻz ichiga olgan holda badiiy va ilmiy ommabop adabiyotlar uchun xos boʻlgan mavzular bilan tanishtiradi. Bu materiallar kichik yoshdagi oʻquvchilarni oʻrta maktabda adabiyotni muntazam oʻrganishga tayyorlaydi.

Sinfda oʻqish darslarida taʼlim – tarbiyaviy vazifalar umumiy ravishda hal qilinadi. Bolalarning atrofni oʻrab olgan muhit haqida, Vatanimizning, xalqimizning mustaqillikdan oldingi va hozirgi hayoti haqida bilimlar kengayadi: milliy dunyoqarashlari, ijobiy axloqiy sifatleri shakllanadi, ular aqliy va maʼnaviy jihatdan kamol topadilar, mustaqil ravishda bilim olish asoslarini egallaydilar.

“Oʻqish kitobi”ni tahlil qilish fikrimizni tasdiqlaydi. Bu darsliklarning mazmuni va metodik materiallari (matn tahlil qilish uchun topshiriq va savollar, mustaqil ishlar tizimi va hakoza) oʻzaro bogʻliq holda beriladi. Taʼlim-tarbiyaviy vazifalarni birgalikda amalga oshirish uchun oʻqish darslarida matnni oʻqishgina emas, balki matn ustida qanday ishlash kerakligi muhimdir. Oʻqish

darslarida ta'lim tarbiya vazifalarini o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarning ma'lum yig'indisini egallashni ularda milliylik uchun zarur bo'lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish bilan bog'lab amalga oshiriladi.

Aynan ana shu masalalarni chuqur o'rganish "Keys stadi"ga asoslangan o'qitish texnologiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu texnologiya amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o'rganilgan o'quv mavzusi bo'yicha bilimlarni mustahkamlashga, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartibda yoki guruhlarda qabul qilish ko'nikmalarini egallashga, ijodiy va o'rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o'z-o'zini nazorat qilishga yordam beradi.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavzu bo'yicha haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarur.

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhviy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- o'quv axborotlarini o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida qanday masalalarni hal etish nazarda tutiladi

1-vaziyat

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali, o'quv malakalarini shakllantirish.

2. Bolalarda kitobga muhabbatni uyg'otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga o'rgatish, ya'ni kitobni sevuvchi, kitob bilan ishlashni biladigan chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni yetishtirish.

3. O‘quvchilardan atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish.

4. O‘quvchilarda ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy, nafosat jihatdan va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O‘quvchilar nutqi (asosan, og‘zaki nutqi) ni va tafakkurini o‘stirish.

Adabiy tasavvur bilimlarni shakllantirish. Har bir vazifani bajarishning aniq yo‘li mavjud, ammo bir vazifa boshqalar bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘qish darslari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida hal qilinadi.

**Amaliy vaziyatni bosqichma – bosqich tahlil qilish va hal etish
bo‘yicha talabalarga uslubiy ko‘rsatmalar**

Talabalarga yo‘riqnoma

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar
1. Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishish.	Avvalo keys bilan tanishing. Mavzu haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo‘lgan butun axborotni diqqat bilan o‘qib chiqish lozim. O‘qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma’lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o‘qib chiqing. Siz uchun muhim bo‘lgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o‘tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o‘qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo‘ying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalb qiling.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammova kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: Sinfdan o‘qish metodikasi Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling.

	Ta'limiy xarakterdagi harfiy, bo'g'in, so'z, gap diktanlari qanday o'tkaziladi? 1. Yaxshi o'qish malakasining sifatlarini ayting. 2. Tez o'qishni ongli o'qishga aylantirishda nimalarga e'tibor beriladi? 3. Analitik, sintetik, avtomatlashtirish bosqichini qanday tushunasiz? To'g'ri o'qishda nimalarga e'tiborni qaratish kerak? 5. Xato o'qishning oldini olish uchun qanday usullar qo'llanadi? Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – ob'ektning holatini aniqlang, asosiy qirralariga e'tibor qarating, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling.
5. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash.	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan “Muammoli vaziyat T-jadval” Muammoni yechish uchun barchavaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova eting

“Muammoli vaziyat » **jadvali**

Jadvalni to'ldirish. Talabalar taqqoslanuvchi jihatlarni ta'riflashadi va ma'lumotni taqsimlab chiqadilar.

FONETIK birliklar			
SO'Z	GAP	HIKOYA	ERTAK

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Badiiy asarlarning janriy xususiyatiga ko'ra nechta turini bilib oldingiz?
1. Hikoya o'qishda qaysi ish turlaridan foydalaniladi? Hikoya o'qish darsiga misol tariqasida bironta mavzuga oid dars ishlanmasini tayyorlang.
2. Ertakni o'rganishda qanday usullardan foydalaniladi? Boshlang'ich sinflarning „O'qish kitobi“ga kiritilgan ertaklarni sinflar bo'yicha guruhlab, ko'proq qaysi mavzudagi ertaklar berilganini izohiang.
3. Masal matni ustida qanday ishlar amalga oshiriladi? Masalni o'qish darsi namunasini tayyorlang.
4. „O'qish kitobi“da berilgan she'riy asarlarni guruhlang. Ularni o'rganish usullarini yoritng.
6. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'rganiladigan birorta doston bo'yicha dars ishlanmasini tayyorlang.
7. O'qish darslarida qanday mustaqil ish turlaridan foydalaniladi? Ularni misollar bilan tushuntiring.

5-MODUL. SINFDAN TASHQARI O'QISH METODIKASI

9-MAVZU. SINFDAN TASHQARI O'QISH METODIKASINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Tayanch so'zlar: o'qish, sinfdan tashqari o'qish, sinfdan tashqari o'qish tamoyillari, sinfdan tashqari o'qish bosqichlari.

9.1. To'g'ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish tizimiga tavsifnoma

Maktab o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o'qish (STO') tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga havasni orttiradi.

STO'ning maqsadi o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir.

Maktablarda 1959 yildan boshlab maxsus STO' darslari tashkil etilgan. STO' darslari 1—2sinfdan haftada 1 marta, 3—4sinfdan 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17—20 daqiqasi ajratiladi.

Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. o'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, Shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zaair. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ish ularni kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Bunda o'qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi.

Badiiy va ilmiyomtabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan mualliflarning kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundariyasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlashga o'rgatish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qilgan kitoblari yuzasidan kundalik yurita

olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi.

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiyestetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi.

STO' darslarining **muhim vazifalaridan biri mustaqil o'qish malakalarini tarbiyalash** hisoblanadi. Buning uchun mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish, qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to'plangan ma'lumotlarni o'qitish, „**Tez aytish**“, „**Topishmoqlar topish**“, „**Ifodali o'qish**“, „**Maqollar aytish musobaqasi**“, „**Ertak to'qish**“, „**Bilimdonlar anjumani**“ kabi ko'rik tanlovlar tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirish, o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O'qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish, „**Kitob haftaligi**“ tashkil etish, asarlar asosida kichik insholar yozishni mashq qilish yaxshi samara beradi.

STO' sinfda o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o'qish STO' uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'quvchilarning o'qigan asarini tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi. STO' qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish — hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan „Kitobim — oftobim“ (1—3sinflar uchun) nomli qo'llanmalar ham chop etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarorining mazmun-mohiyati bugungi kunda o'z natijasini bermoqda va qarorlari doirasida tashkil etilgan “Infolib – 2017 ” VI Milliy axborot-kutubxona haftaligida “Ochiq eshiklar”, “Mutaxassis”,

“Ijod va tanlovlar”, “Bilimlar va xorijiy tillar” kabi tadbirlar, uchrashuvlar, anjumanlar o‘tkazilmoqda. O‘quvchilarda o‘qish madaniyatini tarbiyalash masalasi jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita, chambarchas bog‘lanib ketadigan ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, jamiyatda yuz beradigan har qanday voqea-hodisa ham muayyan bir qonuniyatlar asosida yuzaga keladi, biri ikkinchisi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlarning o‘rta maktab dasturlarida kutubxonalar to‘g‘risida ma'lumot berib boriladi, ya'ni asosiy fanlar qatorida o‘quvchilar uchun kutubxonachilik darslari ham o‘tkaziladi. To‘g‘ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish tizimiga tavsifnoma. Boshlang‘ich maktabda kitobxon o‘quvchilarni shakllantirish bosqichlari. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda kitobxonlik mustaqilligini shakllantiradigan mashg‘ulot va darslar qurilishini asosiy turlari kutubxona bo‘ylab ekskursiya o‘tkazish bo‘yicha kutubxonachilar boy tajribaga egadirlar. O‘quvchilarni avvalo kutubxona qanday dargoh? Unda qanday kitoblar saqlanadi? Kutubxonachi kim? Uning vazifasi nimadan iborat? - degan savollarga javob berib o‘tiladi. O‘quvchilarni kutubxonaning kitob saqlash bo‘limlari bilan tanishtirish, unda saqlanayotgan kitoblarni ko‘rsatish lozim. Kitoblarning javonlarda joylashish tartibi tushuntirib o‘tiladi. Elektron resurslar haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, kutubxonaning ish tartibi, kitob berish bo‘limi va qiroatxonaning tartib-qoidalari bilan tanishtirish kerak. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun kutubxonada o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlar (adabiy kechalar, o‘yinlar, viktorinalar) haqida hikoya qilinadi. Kutubxonada o‘tkazilishi rejalashtirilgan biron-bir tadbirga o‘quvchilar taklif qilinadi. Ekskursiya oxirida kutubxonadan foydalanish qoidalari, kitobga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, kitoblarni belgilangan muddatda kutubxonaga topshirish, ochiq javonlardagi kitoblardan foydalanilganda o‘rni almashtirib yubormaslik tartibi tushuntirilib, ular kutubxonaga a'zo qilinadi. KITOBNING TUZILISHI Fevral–mart oylarida butun sinf kutubxonaga taklif qilinib, bolalar bilan kitobning tuzilishi, uning elementlari haqida suhbat o‘tkaziladi. Maqsad – ikkinchi sinf o‘quvchilarida kitobning tuzilishi haqidagi bilimlarni

chuqurlashtirish, mustahkamlashdir. Kitobning muallifi, sarlavhasi, so‘zboshi va mundarijaning ahamiyati, kitobdagi rasm va bezaklar, muallifning fikrini kitobxonga etkazishda rasmlarning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi. «Bugun biz rassomlarmiz» deb nomlangan, o‘yin tarzidagi tanlov tashkil qilish mumkin. Buning uchun biror bir ertak yoki hikoya o‘qib eshittiriladi. Bolalardan esa o‘zlariga yoqqan lavhani chizishni so‘raydilar. Bolalar tomonidan chizilgan eng yaxshi suratlardan esa ko‘rgazma tashkil etiladi. Kutubxonada kitob qanday tanlanadi. Bu mashg‘ulotning maqsadi - o‘quvchilarda kutubxonaning ochiq kitob fondidan erkin foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat. Kitoblarni javonlarga joylashtirish tartibi, tokcha ajratgichlarning, katalog va kartochkalarning vazifasi yoritiladi. Kitob ko‘rgazmalariga o‘quvchilarning e’tibori qaratilib, ularning turlari va ahamiyati tushuntiriladi. Bolalarga atalgan gazeta va jurnallar. Bu mashg‘ulotda bolalarga atalgan gazeta va jurnallar haqida ma'lumot berib, ularning muntazam o‘qish malakalari shakllantiriladi. O‘qituvchi yordamida o‘quvchilarning oilalarida obuna bo‘lingan yoki ko‘p o‘qiladigan gazeta va jurnallardan bir nusxadan olib kelish so‘raladi. Sinfda mavjud bolalarga atalgan jurnallar haqida o‘quvchilarning o‘zidan ularning mohiyati, vazifalari to‘g‘risida so‘raladi. Mashg‘ulot davomida har bir partada bolalarga atalgan «Tong yulduzi», «g‘uncha» kabi gazeta va jurnallar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bugungi kunda bolalarga atab nashr qilinayotgan yangi «Bekinmachoq» ma'rifiy-tarbiyaviy bolalar jurnali, «Kinderpress» bolalar ma'rifiy va hajviy komikslar jurnallari bilan tanishtirish foydalidir. Suhbat davomida bolalarning uylaridan olib kelingan gazeta va jurnallarga to‘xtab o‘tiladi.

Gazeta va jurnallar kimlarga mo‘ljallanganligiga qarab, mazmuniga qarab bezatilishi, ularning nomlanishi, chop etilish nusxalari haqida ma'lumotlar beriladi.

9.2.Boshlang'ich maktabda kitobxon o'quvchilarni shakllantirish bosqichlari

STO‘ darslari o‘quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o‘qish malakalarini shakllantiradi. Mustaqil o‘qish malakasini shakllantirish 3-bosqichga bo‘linadi:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1sinfnining savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Unga darsning bir qismi — 17—20 daqiqasi ajratilgani uchun „STO‘ mashg‘uloti“ deb yuritiladi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, o‘qituvchi asarni o‘zi tanlaydi, asarning kichik hajmda bo‘lishiga va boshqa kitob tanlash tamoyillariga e‘tibor beradi. Asarni o‘qituvchining o‘zi o‘qib beradi. O‘quvchilar asarni eshitishga, eshitganlarini idrok etishga, ularga soddagina baho berishga, asar mazmimi bilan sarlavhasining mosligini aniqlashga, asar mazmunini hikoya qilib berishga o‘rgatiladi. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘qish gigiyenasi va kitobga qanday munosabatda bo‘lish bilan tanishadilar.

2. Boshlang‘ich bosqich. Bu 1sinfnining 2yarim yilligiga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi. Asarni o‘qishdan oldin o‘quvchilar asar, nomi va uning muallifi bilan tanishadilar, rasmlarini tomosha qiladilar, daftarlariga u haqda soddagina qilib asar muallifi va nomini yozadilar. Asar elementar tarzda tahlil qilinadi. Tanlangan asar (kitob) yaxshi o‘qiydigan o‘quvchiga maxsus tayyorgarlikdan so‘ng o‘qitiladi. Asarning oson o‘qiladigan o‘rinlarini bo‘sh o‘qiydigan o‘quvchilarga o‘qitish ham mumkin. Bu ularda o‘qishga qiziqish uyg‘otadi. Bu bosqichda o‘quvchilar har xil tezlikda bo‘g‘inlab o‘qiydilar. Shuning uchun o‘qituvchi bu jarayonda har bir o‘quvchiga individual yondashishi, kichik kitobxonni kitobni mustaqil o‘qishga o‘rgata borishi lozim.

3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2—4sinflarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilarning o‘qish malakalari mustahkamlanadi. Bunda o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qiganlari baholanadi. Baholashda dastur talablariga asoslaniladi: o‘qigan kitoblarining sifat o‘zlashtirishiga, miqdoriga, o‘qigan kitobiga munosabat bildirgan olishiga e‘tibor beriladi. Bunda o‘quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha asarlarni o‘qib keladilar, ularning ayrim o‘rinlarini ifodali o‘qib beradilar, o‘qigan asarlarini o‘zaro taqqoslaydilar.

STO'ning bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o'qituvchi o'qib bersa, o'qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o'tkazilsa, boshlang'ich bosqichda butun sinf o'quvchilari bir xil kitob bilan ta'minlanadi, barcha o'quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o'qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, kinofilm va diafilmlardan parchalar ko'rsatilishi, musiqiy daqiqalar o'tkazilishi hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni yamash, o'rash o'rgatiladi, „**Ertaklar bayrami**“, „**Ifodali o'qish tanlovi**“ o'tkaziladi.

Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o'quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo'lgan yaxshi o'qish ko'nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o'qishni yaxshi ko'rishlariga erishish juda muhimdir.

Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlash tamoyillari. Metodikaning vazifalaridan biri STO' uchun kitoblar tanlash, o'qiladigan adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qilish, yillik o'quv rejasi va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqishdir.

Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi. Bunda o'quvchilarga vatanimiz o'tmishi, mustaqillik uchun kurash, xalq qahramonlari, xalq turmushi haqidagi, oilada, maktabda va jamoat joylarida o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan axloqiy muammolar haqidagi, tabiat va uni asrab-avaylash haqidagi kitoblar tavsiya etiladi.

2. Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilmaxilligi e'tiborga olinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Kitobning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi.

1sinfda kichik hikoya va ertaklarni o'qish tavsiya etilsa, 2—4sinflarda mavzular doirasi kengaytirilib, kundalik turmushda ro'y berayotgan turli voqealar tasvirlangan asarlar, gazeta va jurnallardagi kichik hajmli xabarlarni o'qish ham tavsiya etilishi mumkin.

4. Kitob tanlashda o'quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi. Bunda o'quvchilar o'ziga qiziqarli bo'lgan o'zbek va xorijiy bolalar adabiyoti yozuvchilarining asarlarini o'zi tanlashi muhim ahamiyatga ega.

5. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.

Umuman olganda, kitobni to'g'ri tanlash sinfdan tashqari o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim shartidir.

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlik shakllari. STO'ga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o'qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. STO' darslarida o'quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonga xos ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo'ladi. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.

Shularga qaramay, STO' darslari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun ma'lum talablarga bo'ysunadi. Ular quyidagilardir:

1. Har bir darsda o'quvchilar o'qigan kitoblar (asarlar) hisobga olinadi. Ular o'qigan va o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'zlari o'qigan kitob haqida gapirib beradi, darsda o'zaro fikr almashish holati yaratiladi (bu holat darsdan tashqari vaqtda ham davom etishi mumkin).

2. Har bir darsda o'qish uchun yangi kitob (asar)lartavsiya qilinadi. Tavsiya qilish shakllari turlicha bo'lib, ular fikr almashuv, kitobni ko'rsatish, sinfda

ko'rgazma tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o'qib berish, rasmlarni ko'rsatish yoki film namoyish etishdan iborat bo'lishi mumkin.

3. Har bir darsda o'quvchilarga asarni yaxlit holda o'qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo'lsa, bu ish ikki uch dars davomida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar o'zlari o'qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o'qib berishlari mumkin. Bu jarayonda ichda o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.

4. Har bir darsda o'qilgan asar yuzasidan suhbat metodi orqali tahlil ishlari amalga oshiriladi. Bunda erkin hikoya qilish uchun, "Senga asardagi nimalar yoqdi?", "Kitob haqida sen nimalar ayta olasan?" kabi savollar beriladi va o'quvchilarning ijodiy hamda mustaqil qayta hikoyalash malakalari shakllantiriladi.

5. Har bir darsda ma'lum bir yangi kitobxonlik ko'nikmasi hosil qilinadi: muallif haqida ma'lumotlar to'plash, kitob nomiga qarab u nima haqida ekanligini aytish, o'qilgan asarlar yuzasidan ko'rgazmalar tayyorlash, asarga taqriz yozish, albomlar tayyorlash, kitobxonlik kundaligini yuritish kabi ishlar amalga oshiriladi.

6. Har bir dars kirish suhbat bilan boshlanadi va sinfda o'qish darslarida qo'llanadigan barcha usullardan ijodiy foydalaniladi.

7. Har bir darsda tahlil qilingan asarlar yuzasidan umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbat uyushtiriladi. Umumlashtirishga ko'rgazma ham, albom tuzish ham, rasmlarni tatbiq etish ham yordam beradi.

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning **yordamchi shakllari** ham mavjud bo'lib, ular barcha ishlarni izchil uyushtirishni ta'minlaydi,

STO' darslari uchun sharoit yaratadi. Bunday shakllarga quyidagilar kiradi:

1. Kitobni targ'ib qilish. STO'ga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. o'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o'qilgan kitoblar hisobga olinadi. Shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalari bilan tanishiladi, ot-aonalar bilan suhbat o'tkaziladi.

3. STO' yuzasidan ommaviy ishlar. Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko'riladi.

4. Kutubxonaga yozilish. 1sinf o'quvchilari o'qituvchining tavsiyasi bilan kutubxonaga a'zo bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchi va kutubxonachi hamkorlikda ish olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. O'quvchilarning o'qiganlarini hisobga olish. Bunda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalaniladi. 1sinf o'quvchilari 2-yarim yillikdan boshlab kitobxonlik kundaligiga yozuvchining ismi, familiyasi va kitob nomini, 2-sinfda esa unga nashr etilgan joyi va yilini qo'shib yozadilar. 3-4sinflarda o'qigan kitobining qisqacha mazmunini yozib, unga taqriz va o'z mulohazalarini ham qo'shishlari mumkin.

O'quvchilarning o'qigan kitoblari og'zaki tarzda ham hisobga olinadi: ular o'qiganlari yuzasidan sinfdan tashqari o'qish va sinfdan o'qish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda gapirib beradilar.

9.3.Sinfdan tashqari o'qish darslarining turlari

Sinfdan tashqari o'qish darslarining xususiyatlari, birinchidan, STO' tizimining bosqichlari bilan, ikkinchidan, o'quv vazifalari va dastur bilan, uchinehidan, oldinga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalar bilan, to'rtinchidan, o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

1-sinfda tayyorlov bosqichida yangi matn o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi, boshlang'ich bosqichdagi darslarda yangi kichik hajmli matnni o'quvchilar o'qiydilar.

Keyingi bosqichlarda asar tahliliga doir ishlar kengaytiriladi, o'quvchilar o'qiganlarini taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalashga, qahramonlarni

elementar tavsiflashga o'rgatiladi. Bu jarayonda rollarga bo'lib o'qishdan foydalaniladi. Asosiy bosqichda STO' darslari 2-sinfda haftada 1 marta, 3-4sinflarda 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. o'quvchilar mustaqil o'qishga o'rgatiladi, ular „G'uncha“, „Gulxan“, „Bilimdon" jurnallari, „Tong yulduzi" gazetasi bilan, ya'ni bolalar matbuoti bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda o'zbek, qardosh va chet el adabiyoti yozuvchilarining turli janrdagi va mavzudagi asarlaridan foydalaniladi. Bir darsga o'quvchilar bir nechta asarlar o'qib kelib, ular haqida o'z fikrlarini aytib beradilar, qahramonlarni tasvirlab, rasm chizadilar. Bu jarayonda yozuvchilar hayoti va ijodiga doir kechalar uyiishtiriladi. Shu tarzda adabiyotni sevadigan, mustaqil fikr yirita oladigan kitobxon shaxsi shakllantiriladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qilgan kitobni muhokama qilish, ijodiy qayta hikoyalash, insenirovka qilish, rasmlar chizish, ifodali o'qish, kitoblar tavsiya qilish usullaridan keng foydalaniladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarini rejalashtirish. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar badiiy va ilmiy-ommabop kitoblarni mustaqil o'qiy va tanlay oladigan, ularning mazmun mohiyatini tushunadigan bo'lishlariga erishish lozim. Bu jarayonda o'quvchilarning faqat kitoblarninggina emas, balki gazeta va jurnallar mutolaasiga ham qiziquvchan faol kitobxon bo'lishlariga e'tibor qaratiladi.

Mavjud dasturlarda sinfdan tashqari o'qish davomida o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bolalar yozuvchilarining asarlarini tanlay bilish, mustaqil o'qigan kitoblarini, ulardagi qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, asar sujetidagi muhim o'rinlarni ajrata olish, sinfdan tashqari o'qish kundaligi yuritish kabi ko'nikmalarni egallash beigilab berilgan.

Sinfdan tashqari o'qish, o'z navbatida, qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, o'quvchilarning bilimi va dunyoqarashini kengaytiradi, kundalik hayotga faol munosabat uyg'otadi. Shuning uchun ham bu xildagi darslarning qurilishi ham xilmaxil bo'ladi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilar o‘qigan kitoblari hisobga olinadi, yangi kitoblar tavsiya etiladi. Mustaqil mutolaa qilingan asarlar yuzasidan o‘tkaziladigan suhbatlarda asar mavzusi, janri, kompozitsion tuzilishi, sujet qurilishi, qahramonlar timsoliga oid tahlil elementlari o‘qituvchi savollari asosida o‘quvchilar ongiga singdirila boriladi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida ham kirish va yakuniy suhbatlar o‘tkaziladi. Darslar rejasi butun o‘quv yili uchun oldindan tuzilishi lozim.

Sinfdan tashqari o‘qishning asosiy vazifasi bolalarni mustaqil amaliy faoliyatga o‘rgatish, bilimini boyitish va o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirishdir. O‘quvchilarga sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘qishlari zarur bo‘lgan kitoblar, ular bilan tanishish tartibi yuzasidan ko‘rsatmalar beriladi. Maktab kutubxonasi bilan birgalikda kitob ko‘rgazmalari tashkil etiladi. Bu jarayonda kitob muqovasi, tituli, betlarini farqlay olish, asar muallifi, nomlarini, rassomlarni tanib bilib olish, rasm asosida asarlarning nima haqida ekanini, mazmunini aniqlashga erishish muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarda muayyan mavzularda tavsiya etilgan asarlar ichidan kitob tanlash va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni o‘qigan asari mazmunini qisqacha so‘zlab berishga o‘rgatish lozim.

O‘qish mavzusi sinfda o‘qiladigan asarlar mavzusi bilan uyg‘unligiga, ta’lim-tarbiya birligiga, mavsumiy, bosqichli va bolalar qiziqishiga rioya qilgan holda belgilanadi hamda asarlar tanlanadi.

Sinfdan tashqari o‘qish uchun tanlanadigan mavzular, asosan, quyidagicha rejalashtirilishi mumkin:

1. Gullayashna hur O‘zbekiston!
2. Mustaqillik — oliy ne'mat.
3. O‘zbekistonning qahramon o‘g‘lonlari.
4. Tabiat — bizning uyimiz.
5. Odob — oltindan qimmat.
6. Ona tilim — jonu dilim.
7. Bilim ol, hunar tanla! va boshq.

Boshlang'ich sinflarda STO' darslarini rejalashtirishda quyidagilarga asoslaniladi:

1. Mavsumiy tamoyilga va milliy an'analarimiz bilan bog'liq bo'lishiga.
2. STO' darslarini sinfdan sinfga o'tgan sari bosqichli izchillik tamoyili asosida kengaytirib borishga.
3. Sinfdan o'qish darslarida o'rganiladigan mavzular bilan bog'liq bo'lishiga.
4. Bolalar yozuvchilarining tavallud kunlari bilan bog'liq holda ularning ijodini o'rganishga.
5. Bolalarning qiziqishlarini hisobga olishga.
6. Adabiy jarayon bilan hamnafas bo'lishiga.
7. STO' uchun beriladigan topshiriqlarning ijodiy xarakterda bo'lishiga.
8. O'quvchilarda mustaqil o'qish ko'nikmalarining shakllanishiga e'tiborni kuchaytirish va rahbarlik shakllarining xilma-xil bo'lishiga.

1-2 sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishda integratsion yondashuv. Ma'lumki, o'qitish va tarbiya jarayoni bir —biri bilan uzviy bog'liq, lekin inson shaxsining shakllanishida tarbiya ustivor ahamiyat kasb etadi. Chunki, tarbiya ta'lim jarayonining barcha majmuini o'z ichiga oladi. Zamonaviy intellektual insonni tarbiyalashda integrativ ta'limning barcha jihatlar(aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigienik, huquqiy, jismoniy tarbiya)ni qamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Integrativ ta'lim jarayonida o'quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Tabiat go'zalligini his qila olish, undan zavqlanish, e'zozlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ta'limning globallasuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta'lim muassasalari o'quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim. Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o'quv predmetlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini to'liq o'zlashtirilishini ta'minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta'minlaydi, natijada turli tizimlar

ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi. O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib:

- ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi;

- fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi.

- fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi.

Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat. Ta'lim mazmunida inson va uning dunyoga bo'lgan munosabati: —inson va tabiat, —inson va jamiyat, —inson va inson, —inson va texnika, —tabiat-inson-texnika-atrof-muhit muammosi tobora markaziy o'rin egallamoqda. Tabiatni o'rganuvchi fanlarni bir sinfda bir marta o'rganib bo'lmaydi. Uni bog'cha, maktab, tizimida uzluksiz va uzviylik asosida o'rganmoq zarur. Tabiiy fanlar ta'limi mazmuni inson va tabiat aloqadorligi atrofidagi muammolarni o'rganuvchi turli o'quv fanlariga oid bilimlar uzviyligi va integratsiyasini aks ettirmog'i lozim, bu esa tabiiy fanlarga oid bilimlarni sifat jihatdan yangi o'zgarishlarga olib keladi. Bu bilimlar o'ziga xos sintez, tabiiy fanlarga oid bilimlar va insonparvar yo'nalishlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Ularning tafakkurning tizimli va ehtimolli uslubi sifatida tavsiflanishi tabiiy bilimlarning ajralib turadigan xususiyatlari sirasiga kiradi. Aynan uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya biosferani ilmiy bilish, inson faoliyatini o'rganish, tinchlik uchun kurash bo'yicha global masalalarning yechimini topishda tabiiy fanlarning o'rnini samarali tarzda belgilab berish mumkin. Pirovard natijada, bu barcha maktab o'quv fanlaridagi maxsus bilimlar bilan umumiy-madaniy bilimlar o'rtasidagi o'zaro nisbatning uzviylik asosida o'zgarishiga

(keyingilarining foydasiga) olib keladi. Shu tariqa, uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya tabiiy fanlar ta'limi mazmunini insonparvarlashtirishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarini atrofimizdagi olam, ya'ni tabiatshunoslik fani bilan uzviylikda o'tish, kichik yoshdagi o'quvchilar ongida o'qiyotgan asar matnini real tasvirlash va ongli tushunib yetish imkonini beradi.

Yangi didaktik tizimni ishlab chiqishda dunyoni yaxlit idrok etish, tizimli tafakkur va «tabiat – inson» tizimini aksiologik jihatdan baholash dastlabki ko'zda tutilgan maqsad bo'lib hisoblanadi. Bunday yondashuvda o'qitishdagi ilmiylik tamoyili butunlay yangicha sifat kasb etadi. Ilmiylik mezonlarida zamonaviy ilmiy uslubda fikrlashning bilimlar oldidagi shubhasiz ustunligi hisobga olinadi.

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan va innovatsion darslarga qo'yilgan talablar. Ta'limda moddiy baza, standart, o'quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi turmog'ini taqozo etadi. Har qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish, xohish istagiga, ehtiyojiga qaratilmog'i kerak. Ya'ni ta'limni individuallashtirishga qaratmog'ini talab etadi. ta'lim jarayonini individuallashtirish shunday o'qitish usuliki, bunda har bir o'quvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'quv-biluv jarayoniga shaxsiy hissa qo'shishi hisobga olinadi; ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi; o'quv-metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda o'quvchi shaxsi o'quv-biluv markazida bo'ladi. Individuallashtirish ta'lim printsiplari. individuallashtirish – o'quv jarayonining bosh strategiyasidir. O'quv jarayonini individuallashtirish orqali – shaxsni rivojlantirish ta'minlanadi.

Har bir o'quv predmetini o'qitishni individuallashtirish orqali amalga oshirish kutilgan natijani kafolatlaydi. O'qitish shakillarini individuallashtirish bilan integratsiyalash sharoiti yaratiladi. Individuallashtirish ta'lim-o'quv jarayoni sifat va samardorligini ta'minlaydi. Individuallashtirish ta'limida ko'nikma, malaka, bilim olish o'quvchining qiziqishi asosida kechadi.

Mustaqil ishlay olish o'quvchining umumo'quv ko'nikmasini rivojlantiradi, taraqqiy ettiradi. Demak individuallashtirish ta'lim, ta'limning sifat va samardorligini belgilaydi. O'quv mazmunini o'zlashtirishda, o'quvchining mustaqil mutolaa bilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog'liq. Bu esa ta'limda interfaol metodlarning qo'llanishiga bog'liq.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini integratsiyalashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- har bir darsda nazariy ma'lumotlarni berishga qaratilgan har qanday usul, albatta, ta'limiy maqsadni ro'yob chiqarishga qaratilgan bo'lishi kerak;
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart;
- sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin;
- dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insoniylik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak;
- dars mavzusining mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar, o'quv respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak;

Umuman olganda, fanlarni integratsiyalashda mavzulardagi mazmun bir-biriga mos kelishi va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Ulug' didaktik olim Yan Amos Komenskiyning ta'kidlashicha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak".

Mashhur pedagog D. Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi

lozim”. I.V.Pestalossi o‘zining didaktik maqolasida o‘quv darsliklaridagi bog‘liqlik masalasiga keng to‘xtalib o‘tar ekan: “Bir-biri bilan bog‘liq fanlarni ko‘z oldiga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog‘liqlik holatida ekanini angla”, - deydi. Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta’kidlaydi.

Fanlararo bog‘liqlik nazariyasining ishlab chiqishda K.D.Ushenskiy juda katta ta’sir ko‘rsatdi. O‘tmish pedagogikasida didaktik ta’sirining ruhiy-pedagogik xususiyati hamda psixologik-pedagogik bog‘liqlik to‘g‘risida K.D.Ushenskiy shunday deydi: “Har qanday fan tomonidan xabar qilinayotgan bilim va g‘oya dunyo va hayotga keng nigoh bilan qaray olish holatida berilishi lozim”.

Boshlang‘ich sinflar ta’limi jarayonida fanlarni integratsiyalash nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamon nuqtayi nazardan juda muhim bo‘lib, yangi ijtimoiy talablar asosida yanada dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda fanlar rivoji va respublikamizdagi ta’lim sohasidagi islohotlar, ishlab chiqarishdagi ulkan o‘zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta’limi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Hozirgi zamon ta’lim-tarbiya berish tizimi yuqori darajada fan asoslarini o‘rnatishga, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur qilishga, jamiyatimizda bo‘layotgan voqealarni to‘g‘ri anglashga, ularning mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

Maktab umumta’lim fanlarini tarqoq holda o‘rgatish, ularni bir-biriga uzviy bog‘lab o‘tmaslik o‘quvchilar bilimini mukammal bo‘lishi va butun borliqni bir butun holda tushunib yetishiga to‘sqinlik qilib, o‘quvchilarda fan mavzularini anglashga qiyinlik qiladi.

Olimlarimizning fikricha, integrasiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Bunday tushuncha ta’lim tizimida fanlararo uzviylik va bog‘liqlik masalasini yana bir bor ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ta’lim tizimiga integrasiyani kiritish maktab va jamoatchilik o‘rtasida turgan ta’lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo‘lishi mumkin.

1-2 sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishda innovatsion yondashuv. Ta'lim to'g'risidagi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, —Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini ta'lim jarayoniga tadbiq etish bilan ta'limda sifat va samaradorlikka erishish va shu orqali modernizatsiya qilingan ta'lim standartlari to'liq bajarilishi ta'min etish davri boshlandi. Davlatimiz tomonidan yangi maktablar qurilishi, minglab maktablarni yangitdan rekonstruktsiya qilish, joriy ta'mirlash ishlari jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Maktablarni yangi jihoz, asbob-uskunalar, takomillashtirilgan dasturlar, modernizatsiya qilingan, tajriba-sinovdan o'tgan standartlar, darsliklarning yangi avlodi bilan (ijara tariqasida) ta'minlash, kompyuterlashtirish davlat umummilliy dasturi asosida izchil amalga oshirilmoqda. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi. Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o'rniga darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdonlik, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda.

Ta'limda moddiy baza, standart, o'quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi turmog'ini taqozo etadi.

Oliy ta'lim (shuningdek o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi) mutaxassis kadrlar tayyorlashda bo'lajak o'qituvchilarning metodik mahoratiga, ularni o'qitishning yangi usullarini o'zlashtirishlariga yetarli e'tibor berilmayotganligi ta'lim sifati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Pedagogik texnologiya atamasi o'qituvchilarimiz orasida ikki xil ma'noda qo'llanilmoqda:

1. Zamonaviy texnika, elektron hisoblash mashinasi, kompyuter, audial, vizual asboblarni ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llab samaradorlikni oshirish;

2. Ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o'rganish, qayd etish yo'llari bilan o'qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta'minlash.

Ta'limning kafolotlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko'rinadiki natija maqsadga qancha yaqin bo'lsa, o'quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta'limning zamonaviy texnik vositalari va ilg'or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo'lib, ikkinchi talqin, ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o'rganish, qayd etish yo'llari bilan o'qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta'minlash.

Demoqchi bo'lgan fikrimiz shundan iboratki, o'qituvchi faoliyatining asosini dars tashkil etadi. Ta'lim jarayonining samaradorligini belgilash hamda maqsadga erishishning eng maqbul yo'li va usuli metodni tanlash bilan belgilanadi.

O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o'quvchini tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchii malaka oshirish uchun mqljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o'qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo'ladi. Ba'zi mamlakatlarning ta'lim sohasida to'plangan ilg'or tajribalari tahlilidan ayon bo'ldiki, shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishida u mansub bo'lgan muhit, unda qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning ahamiyati katta ekan. Zero, ushbu jamiyatda uning tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishi uchun zarur bo'lgan obyektiv va subyektiv omillar mavjud.

Boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarida pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etish malakasini shakllantirishga quyidagi tamoyillarga amal qilish asosida erishiladi:

1. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi yagona maqsadning qaror topganligi.

2. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi harakatning izchil, maqsadga muvofiq, tizimli va uzluksiz amalga oshirilishi.

3. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etishda mavjud shart-sharoit hamda subyektiv yondashuvlarni inobatga olish.

4. Pedagogik mahorat va iqtidorlarni erkin namoyish etish.

5. Yangi tajribalarni ommalashtirish.

6. Nazariy va amaliy faoliyat birligi.

7. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etishda xorijiy mamlakatlarning donor tashkilotlari bilan hamkorlik va hokazolar.

Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish jarayonidagi imkoniyatlar va tajribalarga tayanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Xususan, o'quv fanlari bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlarning loyihasini ishlab chiqish, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining faoliyatlarini nazorat qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash hamda darslarining samaradorligini aniqlashga imkon beruvchi dasturlarni tuzishda tabiiy fanlar o'qituvchilarining o'rni beqiyosdir.

Boshlang'ich sinfda darslarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. Innovatsion pedagogika hozirgi davrda norasmiy fan sifatida ma'lum bo'lgan, biroq kun-sayin butun jahon soha mutaxassislarining e'tiboriga tushib jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta'limiy ahamiyatini tan olgan pedagoglar jamoasi olimlar shu boisdan ham mavjud an'anaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar. Hozirgi kunlarda shakllanib rivojlanib borayotgan mazkur yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilyapti uning asosiy vazifasi hukumron bo'lib turgan butun o'quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o'zlashtirishdir.

Innovatsion pedagogika – hukumron nazariya nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innavorlar fikricha asosan

adabiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas.

Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyasi pedagogik jarayonni komponentlarini, ya'ni ma'no, maqsad, ta'lim mazmuni, shakli, metodi, texnologiyasi, ta'lim vositalari, uni boshqaruvlarini o'zgartirishdan iborat. Innovatsion jarayonning o'ziga xosligi shundaki, quyidagi yetarli strukturada, yangilikni kirishi, vujudga kelishi, opponentlar bilan kurashda tezkorligi, yetilishi, o'zlashtirilishi, tarqalishi, yoki krizis, yoki finalga borishidan iborat. Innovatsion faoliyat shunday vositalar yordamida kechadigan holatki, bunda pedagogik yangilanish g'oyasi paydo bo'ladi. U sotsial holatga undan ta'limdagi yangilikni tug'ilishi, paydo bo'lishiga olib keladi. Innovatsion jarayonning ba'zi yangiliklari lokal tadqiqotlar o'tkazish va tajriba – sinovlar orqali tatbiq qilishdan farqlash kerak. Masalan, maktabda qo'shimcha kursni innovatsion deb bo'lmaydi. Shunday qilib biror g'oyani yangilik darajasida yaratib, faoliyatga olib kirib, u jarayonni boshqarib borish mumkin bo'lsa, innovatsion faoliyat hisoblanadi.

Innovatsion o'qitish – 1) yangicha o'qitish tizimi, 2) o'quvchi va talabalarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o'qitish jarayoni (algoritmash, loyihali, modulli va b.).

Tajribalar shuni ko'rsatadiki har bir yaratilgan yangilik oldiniga albatta ilgariidan ham yomon ishlaydi, chunki o'rganish moslashish sustkashlikni yengish kerak. Pedagogik tizimini takomillashtirishning asosiy yo'llari ikkita intensive va ekstensiv. Intensive rivojlanish pedagogik sistemani ichki imkoniyatlar hisobiga ekstensiv yo'l esa qo'shimcha kuchlar jalb etish ya'ni vositalar asbob texnologiyalar hisobiga takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Shulardan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari o'qish darslarini innovatsion usullar bilan o'tish degani bu darslarni bugungi kun zamon talabidan kelib chiqib, ta'lim tizimzdagi yangiliklarni qo'llagan holda o'tish tushuniladi. Ammo e'tibor berish kerakki, qo'llanilayotgan har qanday usul dars

jarayonining ma'lum maqsadini ochib berishga yordamlashishi va ma'lum maqsadni amalga oshirishda dars jarayoniga ko'maklashishi lozim.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda

topshiriqlar:

1. *Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda qanday tamoyillarga asoslaniladi?*

2. *Sinfdan tashqari o'qish tizimida sinfdan tashqari o'qish darslarining o'rni va rolini ayting.*

3. *Sinfdan tashqari o'qish darsini o'qish darsiga qiyoslang, ularning xususiyatlarini ayting.*

4. *Sinfdan tashqari o'qish darsiga qo'yilgan asosiy talablarni aytib bering.*

5. *Tayyorgarlik, boshlang'ich va asosiy bosqichlardagi sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilarning mustaqil faoliyati qanday shakllanishini izohlang.*

6. *Sinfdan tashqari o'qish darslari rejasini ishlab chiqing. Bunda mavzu, bosqich va dars turini o'zingiz mustaqil tanlang.*

Test savollari

1. Ona tili o'qitish metodikasi qanday fanlar qatoriga kiradi?

Tabiiy fan

Ilmiy nazariy fan

Pedagogik fan

Ilmiy –tabiiy fan

2. Ona tili o'qitish metodikasining predmeti ko'rsatilgan javobni toping.

Ona tilining tovush tuzilishi va grafikasini egallash

Ta'lim berish jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash

Ona tilining imlo qoidalarini, og'zaki nutqni egallash

Ta'lim berish jarayonida ona tilini egallash

3. Nimani o'qitish kerak? savoliga javob bo'lgan qatorni aniqlang.

Ta'lim mazmunini ishlab chiqadi.

Dastur, darslik va qo'llanmalar yaratib beradi, ularning samaradorligini tekshirib beradi.

Eng foydali metodlarni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish, tanlangan

metodlarni asoslash, tavsiyalarni eksperimentdan o'tkazish

Ta'lim metodlarini, usullari, ish turlarini, yozma ishlar, mashqlar sistemasini ishlab chiqadi.

Interfaol usullarni qo'llagan holda o'qitish metodini ishlab chiqadi.

4. Ona tili ta'lim tizimining qaysi bosqichlarida o'rgatiladi?

Boshlang'ich ta'lim, o'rta maktab, pedbilim yurti va oliy o'quv yurtlarida

Boshlang'ich ta'lim va o'rta maktabda

Maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta maktab, kollej va oliy o'quv yurtlarida

Boshlang'ich ta'lim, o'rta maktab va oliy o'quv yurtlarida.

5. Ona tili o'qitish metodikasining asosiy bo'limlari izchil berilgan javobni toping.

Savod o'rgatish metodikasi, sinfda o'qish metodikasi, sinfdan tashqari o'qish metodikasi, fonetika, so'z

yasalishi, grammatika va imlo metodikasi, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish metodikasi

Savod o'rgatish metodikasi, husnixat o'qitish metodikasi, o'qish metodikasi, grammatika va imlo metodikasi, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish metodikasi

Savod o'rgatish metodikasi va nutq o'stirish, o'qish metodikasi va nutq o'stirish, grammatika va imlo, nutq o'stirish metodikasi.

Savod o'rgatish metodikasi, o'qish metodikasi, grammatika va imlo metodikasi, bog'lanishli nutqini o'stirish metodikasi, husnixat metodikasi

6. Ona tili o'qitish metodikasi bog'liq bo'lgan fanlar:

Pedagogika-psixologiya, umumiy pedagogika, psixolingvistika, didaktik, adabiyotshunoslik

Pedagogika, didaktika, psixologiya, falsafa, tilshunoslik.

Adabiyotshunoslik, arxeologiya.

San'atshunoslik, etnografiya.

7. Ona tili o'qitish metodikasiga ilmiy asos bo'ladigan fanlar:

Fonetika, grafika, orfoepiya, leksikologiya, grammatika, dialektologiya, uslubiyat

Fonetika, leksika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, grafika, orfografiya.

Fonetika, leksika, leksikografiya, grammatika, orfografiya.

Fonetika va fonologiya, leksika, frazeologiya, so'z yasalishi va etimologiya, morfologiya va sintaksis, uslubiyat, orfoepiya, orfografiya, grafika, adabiyotshunoslik.

8. Nazariy tekshirish metodi nimalarga tadbiiq etiladi?

Yangi dastur va darsliklarning muvofiqligini tekshirishga, uning qay darajada foydaliligini aniqlash uchun

Izlanishning asosiy yo'nalishini belgilash, masala tarixini o'rganish, o'zaro bog'lik fanlarning tekshirish metodlarini o'rganish, amaliy yo'l bilan olingan materiallarni analiz qilish va umumlashtirish uchun

Tajriba jarayonida to'plangan metodlarni ilmiy o'rganish uchun

O'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish va ommalashtirish uchun

9. Eksperiment o'z vazifasiga ko'ra:

Ko'rgazma va tavsiyalarning samaradorligini aniqlaydi

Metodlarning muvofiqligi, foydaliligi, samaradorligini aniqlaydi
Yangi metod, yangi darslik va qo'llanmalarning muvofiqligini, qay darajada foydaliligini va samaradorligini aniqlaydi

Darslik, dastur, qo'llanmalarning muvofiqligi, foydaliligi, samaradorligini tekshiradi.

10. Empirik metod nimalarni aniqlash uchun tatbiq etiladi?

Ilg'or o'qituvchilar tajribasini o'rganish va baholash, ommalashtirish, o'quvchilarni o'qitish jarayonini kuzatish, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini aniqlash uchun tatbiq etiladi

Masalaning metodik asosini aniqlash maqsadida

Hozirgi fanlarga oid masalani aniqlash maqsadida

Masala tarixini aniqlash maqsadida

11. Husnixatga o'rgatishda yozuv daftariga qo'yiladigan talablar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

1-2-sinfda yozuv yo'li 4 mm, bosh harflar 8 mm bo'lgan qiya chiziqlari siyrak 2 chiziqli daftar, 3-4-sinfda bir chiziqli daftar

1-sinfda yozuv yo'li 4 mm, bosh harflar uchun 8 mm bo'lgan qiya chiziqlari siyrak 2 chiziqli daftar, 2-4-sinfda bir chiziqli daftar

1-4-sinfda 2 chiziqli daftarda husnixatga mashq qilinadi

1-sinf 1-yarim yilligida kichik harflar uchun 4 mm, bosh harflar uchun 8 mm li 2 chiziqli daftar, 1-sinfning 2-yarim yilligida, 2-,3-,4-sinflarda 1-chiziqli daftar tutiladi.

12.Bir chiziqli daftarda harflar bo'yi necha mm bo'ladi?

Kichik harf 3 mm, bosh harf 7 mm.

Kichik harf 4 mm, bosh harf 8 mm.

Kichik harf 3 mm, bosh harf 6 mm.

Kichik harf 5 mm, bosh harf 8 mm.

13.Yozuv jarayonida daftar qiyaligi va daftar bilan ko'z oralig'i qancha bo'ladi?

Daftar qiyaligi 250, daftar va ko'z oralig'i 25 sm.

Daftar qiyaligi 450, daftar va ko'z oralig'i 30 sm.

Daftar qiyaligi 650, daftar va ko‘z oralig‘i 30 sm.

Daftar qiyaligi 300, daftar va ko‘z oralig‘i 30 sm.

14.Yozuv jarayonida ruchkaning uchi bilan barmoq oralig‘i necha sm bo‘ladi?

1,5 sm.

2 sm.

1 sm

1,5-2 sm.

15.O‘zbek tiliga asoslangan lotin yozuvida harflardan tashqari qanday belgilar ishlatiladi?

Ayirish belgis

Ko‘chish belgisi

Tutuq belgisi

Tutuq, chiziqcha belgisi.

16.O‘zbek xalqi va uning ajdodlari qaysi yozuvlardan foydalangan?

A. Fors va chig‘atoy yozuvlaridan

So‘g‘d, Xorazmiy, mixat yozuvlaridan

Arab, lotin, kirill, runik yozuvlaridan

Misr, Xorazm, run yozuvlaridan

17.Ruchkani nechta barmoq bilan ushlamoq lozim?

2ta (bo‘sh va o‘rta barmoqlar bilan)

3ta(bosh, o‘rta va ko‘rsatkich barmoqlar bilan)

4 ta (bosh, o‘rta, ko‘rsatkich va jimjimaloq barmoqlar bilan

2ta (o‘rta va ko‘rsatkich barmoqlar bilan)

18.Bo‘r yumshoq bo‘lishi lozim. U ... mm qalinlikda va ... mm uzunligida uncha katta bo‘lmagan shaklda tayyorlab qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

15x15 mm, 50mm

10x10 mm, 20mm

20x20 mm, 30 mm

12x12mm, 15mm

19.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari foydalanadigan xattaxta necha qismdan bo‘lmog‘i shart?

2 qismdan

1 qismdan

3 qismdan

4 qismdan

20.Xattaxta qaysi rangda bo‘lmog‘i lozim?

Qora rang

Ko‘k rang

Jigar rang va to‘q yashil

Binafsha rang

21. Husnixatga o‘rgatishda qaysi tamoyillarga asoslaniladi?

Umumdidaktik tamoyiliga.

Genetik tamoyiliga

Bosqichli izchillik tamoyiliga.

Onglilik, genetik, takrorlash, bosqichli izchillik tamoyiliga.

22. Ritmik usul to'g'ri izohlangan qatorni toping.

O'qituvchining sanog'i ostida yozish.

Harf shtrixlari ustidan yozish.

Havoda yozish.

Yozuvni muntazam mashq qilish

23. Genetik tamoyil nima?

O'quvchining individual xususiyatini hisobga olib yozishni mashq qilish.

Harflarni o'xshash elementiga ko'ra guruhlab yozish.

Harflarni ulanishiga ko'ra guruhlab yozish.

Shakli oson harflardan so'ng shakli murakkab harflarni guruhlab yozish.

24. Qaysi metod harf shaklini to'g'ri tasavvur qila olmaydigan, yozayotganda daftar chiziqlaridan pastga yoki yuqoriga chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llaniladi?

Tushuntirish;

Qo'l harakatini mashq qildirish;

Nusxa ko'chirish;

Induktiv;

25. O'qituvchi doskaga yozib ko'rsatgan harf yoki uning bog'lanishlarini o'quvchilarga ruchkani havoda harakatlantirib ko'rsatadi. Bu qaysi usulga kiradi?

induktiv

hikoya

tasavvur orqali

ritmik

26. ... usul o'qituvchi sanog'i ostida harf va uning elementlarini yozish demakdir.

ritmik

deduktiv

munozara

qo'l harakatini mashq qildirish

27. O'quvchiga harfning yozilishini to'g'ri o'rgatish uchun uning qatordagi o'rnini to'g'ri joylashtirish va qatorni qog'oz varag'ida joylashish o'rnini bilish uchun qog'ozda gorizonta, yotiq chiziqlar chiziladi, shunda daftarning betida o'ziga xos setka paydo bo'ladi. Bu qaysi usulga kiradi?

tushuntirish

chiziqli

tasavvur orqali

qisman izlanish

28. O‘quvchilarning yozuv tezliklarini kuzatish, kamchiliklarini hisobga olish, yutuqlarini ko‘pchilikka namuna qilib ko‘rsatish. Ushbu shartlar qaysi tamoyilga kiradi?

Bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili

Savodli yozuvning grafik bilimlar bilan bog‘liqligi tamoyili

Genetik tamoyil

Onglilik tamoyili

29. Yozuvdagi qanday kamchiliklar grafik xatolarga kiradi?

Harfning qiyaligi ulanishi, eni, buyi, chiziqlar orasidagi xolati

Bosh harflarni yuqoridagi yordamchi chiziqlarga tekkizib yozish.

Bosh harfni 6 mm yozish.

Harfning qiyaligi, ulanishi, kichik harflarning asosiy yozuv chizig‘iga tegmay yoki undan chiqib ketishi. Bosh harflarni yuqoridagi yordamchi chiziqlarga tekkizib yozish.

30. Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda nimalar o‘rgatib boriladi?

Harflarning shaklini to‘g‘ri tasavvur etishga bir xil qiyalikda yozishga.

Harflarning shaklini to‘g‘ri tasavvur etishga bir xil qiyalikda yozishga, so‘zlarda harflarni to‘g‘ri bo‘g‘lashga, so‘zlarni qatorlarga to‘g‘ri joylashtirishga

So‘zlarda harflarni to‘g‘ri bo‘g‘lashga.

So‘zlarni qatorlarga to‘g‘ri joylashtirishga.

31. To‘g‘ri o‘qishga berilgan qaysi ta’rifni mukammal deb bilasiz?

Materialning tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko‘chirish to‘g‘ri o‘qish deyiladi.

So‘zdagi tovushni, bo‘g‘inni tushirib qoldirmay yoki ortiqcha tovush qo‘shmay o‘qish to‘g‘ri o‘qish deyiladi.

Xato qilmasdan, yanglishmasdan o‘qish to‘g‘ri o‘qish deyiladi.

Adabiy talaffuz normalariga rioya qilgan holda o‘qish to‘g‘ri o‘qish deyiladi.

32. 4-sinf o'quvchilarining o'qish malakasi qaysi bosqichga to'g'ri keladi.

Bo'g'inlab o'qish bosqichiga

B. Sidirg'a o'qish bosqichiga

Bo'g'inlab sidirg'a o'qish bosqichiga

Harflarni qo'shgan holda bo'g'inlab o'qish bosqichiga

33. To'g'ri o'qishni ta'minlovchi shartlar qaysi javobda to'g'ri berilgan?

Ko'p bo'g'inli, murakkab so'zlarni doskaga yoki kartonga bo'g'inlab yozib, oldin bo'g'inlab, so'ng sidirg'a o'qitiladi.

So'z ma'nolarini tushuntirish.

Matnni o'qishdan oldin o'qilishi va bo'g'in tuzilishi murakkab so'zlarni, birikma va gaplarni va ular ustida ishlash usullarini belgilab olish lozim.

Ichda o'qish va shivirlab o'qishdan foydalanish.

34. To'g'ri o'qishga o'rgatishda qo'llaniladigan usul berilgan javobni belgilang.

Matnni to'g'ri o'qish uchun sharoit yaratish.

Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni aniqlash.

Xatolarning to'g'rilashning to'g'ri sistemasini ishlab chiqish.

So'z ma'nolarini tushuntirish.

35. Xato o'qishning kelib chiqish sabablari qaysi javobda berilgan?

Tez o'qiyman deb va so'z ma'nosini tushunmaslik sababli xato o'qiydilar.

Ovoz chiqarib o'qish tufayli

Ichda o'qish tufayli

Yomon o'qiydigan o'quvchilar xato o'qiydilar.

36. Ongli o'qishni ta'minlovchi metodik shartlarni aniqlang.

Ongli o'qish o'quvchining hayotiy tajribasiga, so'zning leksik ma'nosini, gapda so'zlarning bog'lanishini tushunishga bog'lik.

Ongli o'qish asarning badiiy vositalariga bog'lik.

Ongli o'qish ifodali o'qiy olishga bog'lik.

Ongli o'qish asarning mazmuniga, g'oyaviy yo'nalishiga bog'liq.

37. Yangi asarni o'rganishda tayyorgarlik ishlarining vazifalari berilgan javobni belgilang.

Kirish suhbat: asar mazmunidan tushunishni qiyinlashtiradigan soʻzlar ustida ishlash: asarni oʻqish, asar tahlili, yakunlovchi suhbat.

Asarning oʻqishga tayyorgarlik asar tahlili lugʻat ustida ishlash, asarni oʻqish, umumlashtiruvchi suhbat.

Asarni oʻqish, kirish suhbat, asar tahlili, lugʻat ustida ishlash, yakunlovchi suhbat.

Asarni oʻqishga tayyorgarlik: asarda tasvirlangan voqealari haqida tasavvur qilishlari uchun uni hayot bilan bogʻlash, yozuvchi haqida maʼlumot berish asarni emostional idrok etishga tayyorlash, lugʻat ustida ishlash: asarni oʻqib berish: oʻquvchilarning dastlabki tasavvurlarini aniqlovchi suhbat.

38. Ichda oʻqishning afzalligi nimada?

Matnni tez tushunadilar, bir vaqtning oʻzida butun sinf oʻquvchilari oʻqiydi.

Bola estetik zavq oladi, ongli oʻqiydi.

Matn (asar) ustida mustaqil ishlash koʻnikmalari takomillashadi, oʻqituvchi har bir oʻquvchining

mustaqil ishlash jarayonidagi oʻzlashtirish darajalarini aniqlaydi.

Oʻqituvchi oʻquvchilarning oʻqish koʻnikmalarini aniqlaydi.

39. Ifodali oʻqishning metodik shartlari qaysi javobda ifoda etilgan?

Asarning jozibasini saqlab emostional oʻqish, yozuvchining niyatiga mos ravishda oʻqish.

Nafasni toʻgʻri olish va toʻgʻri sarflash, tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish va burro gapirish, adabiy talaffuz normalariga rioya qilish.

Asar mazmuni va kahramonlarining xatti-harakatini tahlil qilish: pauzaning oʻrnini, urgʻuning tempini belgilash.

Oʻqishni mashq qilish, ichda oʻqish.

40. 1-sinf oʻquvchilarining oʻqish malakasi qaysi bosqichga toʻgʻri keladi?

Boʻgʻinlab oʻqish bosqichiga.

Harflarni qoʻshgan holda boʻgʻinlab oʻqish bosqichiga.

Boʻgʻinlab sidirgʻa oʻqish bosqichiga.

Sidirgʻa oʻqish bosqichiga.

41. 3-sinf o'quvchilarining o'qish malakasi qaysi bosqichga to'g'ri keladi?

Sidirg'a o'qish bosqichiga

Harflarni qo'shgan holda bo'g'inlab o'qish bosqichiga.

Bo'g'inlab o'qish bosqichiga.

Bo'g'inlab sidirg'a o'qish bosqichiga.

42. 2-sinf o'quvchilarining o'qish malakasi qaysi bosqichga to'g'ri keladi?

Harflarni qo'shgan holda bo'g'inlab o'qish bosqichiga.

Bo'g'inlab sidirg'a o'qish bosqichiga.

Bo'g'inlab o'qish bosqichiga.

Sidirg'a o'qish bosqichiga

43. To'g'ri o'qishga berilgan qaysi ta'rifni noto'g'ri deb bilasiz?

Materialning tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirish to'g'ri o'qish deyiladi.

So'zdagi tovushni, bo'g'inni tushirib qoldirmay yoki ortiqcha tovush qo'shmay o'qish to'g'ri o'qish deyiladi.

Adabiy talaffuz normalariga rioya qilgan holda o'qish to'g'ri o'qish deyiladi.

Xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qish to'g'ri o'qish deyiladi.

44. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida qaysi o'qish turlaridan foydalaniladi?

Ichda o'qish va shivirlab o'qishdan

Shivirlab o'qish va ovoz chiqarib o'qishdan

Ichda o'qishdan

Ichda o'qish, shivirlab o'qish va ovoz chiqarib o'qishdan

45. Izohli o'qish darslarining yangi asarni o'rganishda mashg'ulotlarning tipik turlari izchil berilgan javobni belgilang.

Kirish suhbat: asar mazmunidan tushunishni qiyinlashtiradigan so'zlar ustida ishlash: asarni o'qish, asar tahlili, yakunlovchi suhbat.

Asarni o'qishga tayyorgarlik asar tahlili, lug'at ustida ishlash, asarni o'qish, umumlashtiruvchi suhbat.

Asarni o'qish, kirish suhbat, asar tahlili, lug'at ustida ishlash, yakunlovchi suhbat.

Asarni o'qishga tayyorgarlik: asarda tasvirlangan voqealari haqida tasavvur qilishlari uchun uni hayot bilan bog'lash, yozuvchi haqida malumot berish asarni emostional

idrok etishga tayyorlash, lugʻat ustida ishlash: asarni oʻqib berish: oʻquvchilarning dastlabki tasavvurlarini aniqlovchi suhbat.

46. Uzlaksiz taʼlimning boshqa bosqichlaridan farqli oʻlaroq, boshlangʻich sinflarning oʻqish darslarida taʼlimning didaktik maqsadini nima tashkil qiladi?

asar matni ustida ishlash

oʻquvchilarning oʻqish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash

darslikda berilgan savollarga javob topish

mustaqil topshiriqlarni bajarish

47. Boshlangʻich sinf oʻqish darslarida qoʻllaniladigan metodlar qaysi javoblarda qayd etilgan?

izlanish metodi, reproduktiv metod

B. hisoblash metodi, sidirgʻa oʻqish

izohli oʻqish, ifodali oʻqish, badiiy oʻqish, izlanish metodi, reproduktiv metod

matematik metod, sintaktik metod

48. Ertakni oʻrganish darslarining qurilishiga oid hususiyat qaysi javobda notoʻgʻri izohlangan?

maʼlum vazifa bilan ertakni qayta oʻqish (ijodiy va mustaqil ishlar)

ertakni oʻquvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat oʻtkazish ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda oʻqish)

allegoriyani ochish

49. Boshlangʻich sinflarda oʻrganiladigan koʻpgina sheʼrlarni tahlil qilib, ifodali oʻqish mashq qilingach, oʻquvchilarga qanday vazifa topshiriladi?

Sheʼrni ifodali yod aytib berish

Sheʼr qahramonlari haqida badiiy mulohaza yuritish

Sheʼrning mazmunini badiiy ravishda soʻzlab berish

Maʼnosi notanish soʻzlar ustida ishlash

50. Ovozli oʻqishning afzalliklari koʻrsatilgan qatorni toping.

oʻquvchilar matn mazmunini tez anglaydilar, estetik zavqlanadi, ifodalilikka katta eʼtibor beriladi

oʻqituvchi oʻquvchilarni oʻqish koʻnikmalarini aniqlaydi, oʻquvchilar matn mazmunini tez anglaydilar, estetik zavqlanadi, ifodalilikka katta eʼtibor beriladi

estetik zavqlanadi, ifodalilikka katta e'tibor beriladi

o'quvchilar matn mazmunini tez anglaydilar, asar matni ustida mustaqil ishlash ko'nikmasi takomillashadi

51. Boshlang'ich ta'limda o'qishning necha turidan foydalaniladi?

2

4

3

1

52. Intonatsiyaga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping.

nutqning ohangdorligi

nutq jarayonida nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay olish

har bir tovushni to'g'ri talaffuz qilish va burro gapirish malakasi

og'zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg'u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovozning past-balandligi yig'indisi

53. Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda necha bosqichga bo'linadi?

2

4

5

3

54. O'qish malakalarini shakllantirish jarayoni bosqichlar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

ikki: analitik va sintetik

ikki: analitik va avtomatlashgan

uch: analitik, sintetik, avtomatlashgan

bu jarayon bosqichlarga bo'linmaydi

55. "O'qilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish". Ushbu ta'rif o'qish sifatlarining qaysinisiga taalluqli?

ongli o'qish

ifodali o'qish

to'g'ri o'qish

tez o'qish

56. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ertak janrining qaysi turlariga oidlari berilgan?

maishiy, majoziy va sehrli ertaklar

maishiy va sehrli ertaklar

majoziy va sehrli ertaklar

sehrli ertaklar

57. O'qish turlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

Ifodali, ongli o'qish

Ovozli, ichda, shivirlab o'qish

Tez, to'g'ri o'qish

Avtomat o'qish

58. “Ohang jihatdan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq.” Ushbu ta'rif qaysi janr uchun berilgan?

masal

ertak

she'r

maqol

59. Kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

masal

ertak

doston

hikoya

60. Ma'lum so'zni, so'z birikmasini yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatadigan, xotirani mustahkamlaydigan va nutqni o'stiradigan, o'qish sur'atini oshiradigan janr?

tez aytish

topishmoq

maqol

matal

61.STO'ning tayyorlov bosqichi boshlang'ich sinfning qaysi davriga to'g'ri keladi?

1-sinfning 1-yarim yilligiga

1-sinfning 2-yarim yilligiga

2- sinfning 1-yarim yilligiga

2-sinfning 2-yarim yilligiga

62.STO'ning boshlang'ich bosqichi boshlang'ich sinfning qaysi davriga to'g'ri keladi?

2- sinfning 1-yarim yilligiga.

1-sinfning 2-yarim yilligiga

2-sinfning 2-yarim yilligiga

1-sinfning 1-yarim yilligiga

63.STO'ning asosiy bosqichi boshlang'ich sinfning qaysi davriga to'g'ri keladi?

2-4-sinflarga

2-sinfga

3-sinfga

4-sinfga

64.STO'ning tayyorlov bosqichidagi mashg'ulotning vaqti to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

Har hafta, 45 daqiqalik dars

2 haftada bir marta, 45 daqiqalik dars

3 haftada bir marta, 45 daqiqalik dars

haftada bir marta , darsning 17-20 daqiqasi ajratiladi

65.STO‘ning boshlang‘ich bosqichi uchun ajratilgan vaqt to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping?

haftada bir marta , darsning 17-20 daqiqa

3 haftada bir marta, 45 daqiqa

haftada bir marta 45 daqiqa

2 haftada bir marta, 45daqiqa

66.STO‘ning asosiy bosqichi uchun ajratilgan vaqt to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping?

2 haftada bir marta, 45 daqiqa

haftada bir marta 45 daqiqalik dars

3 haftada bir marta, 45daqiqa

haftada bir marta , darsning 17-20 daqiqa

67. . Kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma‘lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

masal

ertak

doston

hikoya

68. O‘qish malakalarini shakllantirish jarayoni bosqichlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.

ikki: analitik va sintetik

ikki: analitik va avtomatlashgan

uch: analitik, sintetik,

avtomatlashgan

bu jarayon bosqichlarga bo‘linmaydi

69. Ifodali o‘qishga tayyorlanish shartli ravishda necha bosqichga bo‘linadi?

2

4

5

3

70. Boshlang‘ich ta’limda o‘qishning necha turidan foydalaniladi?

2

4

3

1

GLOSSARIY

Adabiy til - Milliy tilning ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli.

Affikslar orfoepiyasi - Qo'shimchalar talaffuzi.

Akkomodatsiya - unli va undosh tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida o'zaro moslashuvidir.

Arab raqamlari - Avval Hindistonda yaratilib, keyinchalik buyuk vatandoshimiz Muhammad Xorazmiy xizmatlari tufayli Arabiston, Ispaniya va butun Yevropaga tarqalgan raqamlar.

Assimilyatsiya - So'z tarkibidagi bir xil toifadagi fonemalardan biri ikkinchisini o'ziga aynan yoki qisman o'xshatib olishi.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui

Bilim olish – borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Bilish- ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni.

Baho – ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Boshlang'ich ta'lim - o'quvchilarga murakkab bo'lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o'qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.

Didaktik o'yin – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik tashhis maqsadi – o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktika tamoyillari (lotin tilidan «principium» - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) –ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktika (ta'lim nazariyasi) – (yunoncha «didaktikos» “o'rgatuvchi”, «didasko» – “o'rganuvchi”) - ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

Differensiatsiya tamoyili - Shakli yoki talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar yozuvda turli shartli belgilar vositasida (yoki ba'zan ma'noga ko'ra) farqlanadigan tamoyil.

Dissimilyatsiya - Ikkita aynan yoki qisman bir xil fonemadan biri o'zgarib, noo'xshash fonemaga aylanishi.

Dunyoqarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.

Dars - bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli

Darslik – muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba

Eliziya - Unli tovush bilan tugagan so'zga unli bilan boshlanadigan so'zning qo'shilishi natijasida birinchi so'z oxiridagi unlining tishishi.

Empirik metod - Empirik metod o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, yangiliklarini tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining darajasini aniqlash

Etimologik (yoki grafik) tamoyil - Boshqa tillardan (masalan, arab, rus yoki rus tili orqali boshqa tillardan) kirgan so'zlar o'zi mansub bo'lgan tildagi shaklini o'zbek imlosida ham saqlagan holda yoziladigan tamoyil.

Fonetik tamoyil - So'zlar va so'z tarkibidagi affikslar qanday talaffuz qilinsa, xuddi o'shanday yoziladigan tamoyil.

Fonetik o'zgarish - Nutq zanjiridagi fonemalarning turlicha o'zgarishlari

Fonografik yozuv - Tilning fonetik tomonlarini ham aks ettirishga imkon yaratdigan yozuv.

Grafika - fonetik-fonologik, leksik va morfologik birliklarni ifodalash uchun qo'llanadigan optik-grafik (*ingl. optic – qaraydigan, ko'radigan degani*⁷) belgilar haqidagi bo'lim.

Grammatika va imlo metodikasi - Grammatika va imlo metodikasi elementar to'g'ri yozuvga va husnixatga o'rgatishni, grammatik tushunchalarni, boshlang'ich imlo malakasini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ideografik yozuv - Rasmlar orqali bevosita narsa, hayvon yoki boshqalarning o'zi emas, balki shu rasmlar ta'sirida inson ongida aks etgan tushuncha ifodalanadigan yozuv.

Iyeroglifik yozuv - Ideografik yozuvda qo'llangan rasmlar shartli belgilarga – iyerogliflarga aylantirilgan yozuv.

⁷ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр.528.

Kombinator o'zgarishlar - So'z tarkibidagi fonemalarning o'zaro'ta'siriga ko'ra o'zgarishi.

Mavzu doirasi - Ma'lumbirbelgilangantema

Maxsus belgilar - Alifboda berilmagan maxsus belgilar.

Metateza - So'z tarkibidagi tovushlar o'rin almashishi.

Metodika tamoyillari - Metodika tamoyillari o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Morfologik tamoyil - So'zlar va ularning tarkibiy qismlari talaffuz qilinishiga qarab emas, asliga muvofiq yoziladigan tamoyil.

Nutq - Tilning ma'lum paytda va ma'lum o'rinda namoyon bo'lishidir.

O'qish fanining vazifasi - O'qish fanining vazifasi birinchi navbatda bolalarni tez (me'yorida), to'g'ri, ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

O'rgatish-tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

O'zlashtirish -ta'lim jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

Ona tili o'qitish metodikasi fani - Ona tili o'qitish metodikasi fani ta'lim berish sharoitida ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, fonetika, grammatika bilib olish jarayoni hisoblanadi.

Ona tili o'qitish metodikasi tamoyillari - Ona tili o'qitish metodikasi tamoyillari o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Orfoepiya - adabiy til talaffuz me'yorlarini o'rganuvchi tilshunoslikning sohasidir.

Orfografiya - so'zlar va ularning shakllarini yozish haqidagi qoidalar tizimidir.

Piktografik yozuv - Rasmlarga asoslangan yozuv turi.

Pozitsion o'zgarishlar - So'z tarkibidagi tovushlarning o'rniga ko'ra o'zgarishi.

Progressiv assimilyatsiya - Assimilyatsiyada oldingi fonema o'zidan keyin fonemani o'ziga o'xshatadi:

Regressiv assimilyatsiya - Keyingi fonema o'zidan oldingi fonemani o'ziga o'xshatishi.

Savod o'rgatish metodikasi - Savod o'rgatish metodikasi elementar o'qish va yozishga o'rgatadi.

Talaffuz me'yorlari - Adabiy til uchun joriy qilingan me'yorlar.

Tamoyil - Qoidalar jamlanmasi.

Tarixiy-an'anaviy tamoyil - boshqa tillardan (masalan, arab, rus yoki rus tili orqali boshqa tillardan) o'zlashgan so'zlar hozir ham o'tmishdagi shakliga muvofiq yoziladigan tamoyil.

Tarixiy-an'anaviy tamoyil - Boshqa tillardan (masalan, arab, rus yoki rus tili orqali boshqa tillardan) o'zlashgan so'zlar hozir ham o'tmishdagi shakliga muvofiq yoziladigan tamoyil.

Til - Ma'lum xalq tomonidan ishlatiladigan, uzoq tarixga ega bo'lgan hodisa.

Transkripsiya - Og'zaki nutqda fonemalarning turlicha o'zgarishlarini, har xil variantlarda talaffuz etilishini aniq aks ettiradigan yozuv

Transkripsiya - Og'zaki nutqda fonemalarning turlicha o'zgarishlarini, har xil variantlarda talaffuz etilishini aniq aks ettiradigan yozuv.

Ta'lim – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi etakchi g'oya.

Ta'lim metodlari – ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.

Ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, komp'yuter va boshqalar) va sub'ektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Umumiy tahlil - Badiiy asarlarning g'oyasi va mazmuni talqin etiladi.

Undoshlar orfoepiyasi - Undosh tovushlar talaffuzi

Unlilar orfoepiyasi - Unli tovushlar talaffuzi.

Usul - muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Vatanparvarlik (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) - shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Yozuv - Insonga oz fikrini uzoq masofaga va uzoq davrga yetkazishda yordam beradigan vosita.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.56 B.
2. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.
3. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.
4. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –“O'zbekiston” -2017.104 B.
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: Ўзбекистон, 2017. -46 б.
6. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi –T.: Yangiyo'l poligraf service, 2017. – 1-160. b.
7. Abdullayeva Q. va boshq. O'qish kitobi (2-sinf uchun darslik). –T.: O'qituvchi, 2018. – 177 b.
8. Abdullayeva Q., Yusupov M. Diktantlar to'plami. – T.: “O'qituvchi”, 1992.
9. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T.: 2003.
10. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // “Boshlang'ich ta'lim” jurnali. – T.: 2005. – 5-son.
11. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili 3-sinf uchun darslik. T.: 2008.
12. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish kitobi (1-sinf uchun darslik). – T.: Sharq, 2019. – 128 b.
13. G'ulomov A. “Ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv faolligini faollashtirish” T.: 1987.
14. G'ulomov A.K. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasi. Avtoreferat.Pedagogika fanlari doktori diss. – T.: 1991.

15. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.
16. G'afforova S, Shodmonov E, G'ulomova X. Ona tili 1 –sinflar uchun. T.: 2009.
17. G'ulomova H., Yuldasheva SH. 4-sinfda ona tili darslari. Metodik qo'llanma. T.: 2003.
18. Hamroyev A. 1-sinfda o'qish darslari. Buxoro, 2002. -48 b.
19. Hamroyev A. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Buxoro. 216 b.
20. Hamroyev M. Ona tilidan ma'ruzalar majmuasi. – T.: 2007.
21. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'eldasheva SH., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinflar uchun). T.: “O'qituvchi”, 2009 .
22. Matchonov S. va boshq. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). –T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2017. – 216 b
23. Mirzaqulov T. Grammatika o'qitishning lingvistik asoslari. T.: “O'qituvchisi” , 1994 .
24. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. -M.: “Russkiy yazik”, 1981.
25. Qo'ldoshev B. Yozma ishlarni o'tkazish va baholash metodikasi. – Andijon, 2006.
26. Qosimova K, Fuzailov F, Ne'matova A. Ona tili darsligi. 2 –sinf. T.: 2008.
27. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
28. Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
29. Safarova R.,Inoyatova M., Shokirova M., Shermamatova L. Alifbe kitobi (1-sinf uchun darslik). –T.: O'qituvchi, 2019. – 80 b.
30. Umarova M., Sh.Hakimova. O'qish kitobi (3-sinf uchun darslik). – T.: Cho'lpon, 2019. – 283 b.
31. Xudoyberganova M va boshqalar. 3-sinfda ona tili darslari. Toshkent. 2004.

32. Yunusov Q. Ona tili o'qitish metodikasi. Ma'ruza matnlari. – Andijon, 2004.
33. Y.Y.Azimov, R.A.Qo'ldoshev. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (metodik qo'llanma). Buxoro, 2020. - 130 bet.
34. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. T.: "Aloqachi", 2006.
35. Матчанов С., Ғуломова Х., ҲУлдашева Ш., А. Нисанбаева. Ана тілін оқыту әдістемесі. –Т.: ТДПУ, 2013. – 277 б.
36. Рахматуллаева Л.И. Методика преподавания родного языка родного языка. –Т.: Учебное пособие. Молия Иктисод, 2007.
- 37.www.ziyonet.uz
- 38.www.edu.uz
- 39.www.kitobxon.uz

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1-MODUL. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI.....	5
1-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.....	5
1.1. Ona tili o'qitish metodikasining predmeti va vazifalari.....	5
1.2. Ona tili o'qitish tamoyillari, ona tili o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.....	10
2-MODUL. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISHNING XUSUSIY MASALALARI.....	18
2-MAVZI: SAVOD O'RGATISH METODIKASI.....	18
2.1. Savod o'rgatish metodikasining maqsad va vazifalari.....	19
2.2. Savod o'rgatishda hozirgi zamon analiz-sintez tovush metodi.....	30
2.3. Savod o'rgatish jarayoni bosqichlari.....	34
2.4. Savod o'rgatishning mashq turlari.....	43
2.5. Savod o'rgatish davrida boshlang'ich yozuvga o'rgatish	49
3-MODUL. HUSNIXATGA O'RGATISH METODIKASI.....	65
3-MAVZU: HUSNIXATGA O'RGATISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI, AHAMIYATI	65
3.1. Husnixatga o'rgatish tarixidan ma'lumot.....	70
3.2. Yozuvning gigienik va metodik shartlari haqida umumiy ma'lumot.....	93
3.3. Yozuv qurollari va ulardan foydalanish.....	101
3.4. Xattaxtaga qo'yiladigan talablar.....	115
4-MAVZU: HUSNIXATGA O'RGATISH TAMOYILLARI VA USULLARI.....	134
4.1.1-4-sinflarda husnixat darslari.....	134
4.2. Husnixat darslarini rejalashtirishga qo'yiladigan talablar	145
4.3.1-sinfda husnixat darslarini rejalashtirish.....	152
4.4. 2-sinfda husnixat darslarini rejalashtirish.....	168
4.5. 3-4-sinfda husnixat darslarini rejalashtirish.....	188
4-MODUL. SINFDADA O'QISH METODIKASI.....	192
5-MAVZU: SINFDADA O'QISH DARSLARINING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI VA VAZIFALARI.....	192
5.1. O'qish darslarining tarbiyalovchi imkoniyatlari.....	193
5.2. O'qish malakasi haqida tushuncha.....	201
5.3. O'qish malakalarining sifatleri: tez, ongli, ifodali o'qish.....	204
6-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISH	210
6.1. Badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari	210
6.2. Kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok etishidagi psixologik xususiyatlari.....	215
6.3. Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash jarayoni.....	222
7-MAVZU. O'QUVCHILARNI PIRLS TOPSHIRIQLARI ASOSIDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISHGA O'RGATISH.....	228
7.1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS tizimi asosida	

baholashga o'rgatish.....	228
7.2 Matnni o'qish va uni tushunish darajasini aniqlash bo'yicha Xalqaro tadqiqot metodlari (PIRLS).....	230
8-MAVZU: HAR XIL JANRDAGI ASARLARNI O'QITISH METODIKASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	235
8.1.Ertak o'qish metodikasi.....	235
8.2. Hikoya janridagi asarni o'qitish metodikasi.....	245
8.3. She'r janridagi asarni o'qitish metodikasi	249
8.4. Masal janridagi asarlarni o'qitish metodikasi.....	254
8.5. Ilmiy-ommabop asarlarni o'qitish metodikasi.....	261
8.6. Doston topishmoq, tez aytish, maqol janridagi asarlarni o'qitish metodikasi.....	264
5-MODUL. SINFDAN TASHQARI O'QISH METODIKASI.....	280
9-MAVZU. SINFDAN TASHQARI O'QISH METODIKASINING MAQSAD VA VAZIFALARI.....	280
9.1. To'g'ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish tizimiga tavsifnoma.....	280
9.2.Boshlang'ich maktabda kitobxon o'quvchilarni shakllantirish bosqichlari...	284
9.3.Sinfdan tashqari o'qish darslarining turlari.....	289
Test savollari	302
GLOSSARIY	315
ADABIYOTLAR RO'YXATI	321

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	4
МОДУЛЬ №1 ОБЩИЕ ВОПРОСЫ ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.....	5
ТЕМА №1: ПРЕДМЕТ И ЗАДАЧИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.....	5
1.1.Предмет и задачи методики преподавания родного языка в начальной школе.....	5
1.2.Принципы обучения родному языку, межпредметная связь методики преподавания родного языка с другими предметами...	10
МОДУЛЬ №2 СПЕЦИФИКА РЕШЕНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.....	18
ТЕМА №2 МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ.....	18
2.1. Цели и задачи методики обучения грамоте.....	19
2.2.Современный аналитико-синтезированный метод в обучении грамоте.....	30
2.3. Этапы процесса обучения грамоте.....	34
2.4. Виды упражнений при обучении грамоте.....	43
2.5. Формирование графического навыка при обучении грамоте.....	49
МОДУЛЬ №3 МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ КАЛЛИГРАФИИ.....	65
ТЕМА №3 ЗНАЧЕНИЕ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ ПИСЬМУ..	65
3.1. Сведения из истории письменности.....	70
3.2.Гигиенические условия при обучении грамоте.....	93
3.3. Средства и учебные принадлежности письма.....	101
3.4. Требования использования доски для письма.....	115
ТЕМА №4 ПРИНЦИПЫ И ПРИЁМЫ ОБУЧЕНИЯ КАЛЛИГРАФИИ	134
4.1.Уроки каллиграфии с 1- 4 классы.....	134
4.2. Требования в планировании уроков каллиграфии.....	145
4.3. Планирование уроков каллиграфии в 1 -ом классе.....	152
4.4. Планирование уроков каллиграфии во 2 классе.....	168
4.5. Планирование уроков каллиграфии в 3- 4 классах.....	188
МОДУЛЬ №4 МЕТОДИКА КЛАССНОГО ЧТЕНИЯ.....	192
ТЕМА №5 УЧЕБНО- ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ И ЗАДАЧИ КЛАССНОГО ЧТЕНИЯ.....	192
5.1. Воспитательные возможности классного чтения.....	193
5.2. Понятие о навыке чтения.....	201
5.3. Качество навыков чтения: беглое, осознанное, выразительное.....	204
ТЕМА №6 АНАЛИЗ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.....	210
6.1.Литературные основы анализа художественного произведения.....	210
6.2. Психологические особенности восприятия художественного	

произведения младшими школьниками.....	215
6.3. Процесс работы над художественным произведением в начальной школе.....	222
ТЕМА №7 ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ АНАЛИЗУ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ ПО ЗАДАНИЯМ (PIRLS).	228
7.1. Обучение учителей начальных классов оцениванию на основе системы PIRLS.....	228
7.2. Международные исследовательские методы (PIRLS) в чтении текста и степени его осознанности.....	230
ТЕМА №8 СВОЕОБРАЗНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МЕТОДИКИ ЧТЕНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ РАЗЛИЧНЫХ ЖАНРОВ.....	235
8.1. Методика чтения сказок.....	235
8.2. Методика изучения литературного произведения повествовательного жанра.....	245
8.3. Методика изучения произведений лирического жанра.....	249
8.4. Методика изучения басен.....	254
8.5. Методика обучения научно-познавательных произведений	261
8.6. Методика изучения жанров былин, загадок, поговорок, пословиц.	264
МОДУЛЬ №5 МЕТОДИКА ВНЕКЛАССНОГО ЧТЕНИЯ.....	280
ТЕМА №9 ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ МЕТОДИКИ ВНЕКЛАССНОГО ЧТЕНИЯ.....	280
9.1. Характеристика системы формирования навыков самостоятельного детского чтения.....	280
9.2. Этапы формирования навыков самостоятельного детского чтения в начальной школе.	284
9.3. Виды уроков внеклассного чтения.....	289
Тестовые вопросы.....	302
ГЛОССАРИЙ.....	315
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ	321